

# O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarлари

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi*

**Bosh muharrir –**

**Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari –**

**Jumayev Sobirjon Saidovich**  
professor

**Tahrir hay'ati**

**Rushanin Vladimir Yakovlevich –**

Chelyabinsk davlat madaniyat instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor

**Tulyaxodjayeva Muhabbat Turobovna –** san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Qodirova Sarvinoz Muhsinovna –** san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Ibrohimov Oqilxon Akbarovich –** san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Umarov Absalom Adilovich –** sotsiologiya fanlari doktori, professor

**Mavrulov Abduxalil Abduxayevich –** tarix fanlari doktori, professor

**Yo'ldoshev Ma'rufjon Muxammadjonovich –** filologiya fanlari doktori, professor

**Xalikulova Go'zal Erkinovna –** san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**Ismoilov Hamdam –** filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Kosheleva Antonina Fedorovna –** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rashidov Temur Maxmudovich –** san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**Shermanov Eldor Uralovich –** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

**Tursunov Farrux G'ulomovich –** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

**Abdujabbarova Musallam Lafasovna –** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Turg'unova Nasiba Mamatovna –** san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

**Jamoatchilik kengashi**

**Sayfullayev Baxtiyor Sayfullayevich –** Senatning yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Nazarbekov Ozodbek Ahmadovich –** O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

**Hakimov Akbar Abdullayevich –** O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

**Akilova Kamola Baltabayevna –** san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Mahmudov Jasur Xusanovich –** filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

**Karimova Nigora G'aniyevna –** san'atshunoslik fanlari doktori

**Qosimov Nozim Kozimovich –** filologiya fanlari nomzodi, professor

**Ismoilov Abdurahim Isroilovich –** O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor

**Muxtarov Ildar Asxadovich –** san'atshunoslik fanlari doktori, professor

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan  
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya  
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi  
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha  
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop  
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

# MUNDARIJA

1. E.Shermanov. Tadbir samaradorligini oshirishda yoshlarni loqaydlikdan daxldorlikka undash metodologiyasi.....	3
--	---

## **I. TEATR VA KINO**

1. Sh.Pirmatov. O'zbek teleseriallaridagi zamonaviy tendensiyalar.....	7
2. A.Sharipov. Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrida yosh qahramonlar obrazini yaratish masalalari.....	10
3. B.Magdiyev. Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida repertuar yaratish masalasi.....	14
4. M.Isokova. Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama teatrining shakllanishida dramaturg va rejissorning o'rni.....	17
5. F.Abduvohidov. Viloyat teatrlarida rejissura masalasi.....	21
6. M.Isroilova. Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasida yoshlar ma'naviyati mavzusining badiiy talqini.....	26

## **II. MUSIQA SAN'ATI**

1. K.Mirzayev. Maqomshunos Is'hoq Rajabovning ilmiy tadqiqot ishlariga bir nazar.....	29
2. N. Sharipov. Uchinchi Renessans davrida o'zbek cholg'u ijrochiligi.....	33
3. N.Xudoyqulova. Fortepiano mashg'ulotlarida musiqiy asarlarni yod olish bosqichlari.....	35

## **III. SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS**

1. M.Yo'ldoshev. O'zbek qo'shiqchilik san'atidagi fenomen san'atkorlar yoki qo'shiq aytuvchi shoirlar.....	38
2. K.Isayev. Folklor – xalqning ma'naviy ozig'i.....	42
3. Z.Isokov. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida san'at va madaniyat masalalari.....	44
4. Q.Nishonboyeva. Sahnada tarix yaratgan ayollar siymosi.....	48
5. A.Адиллов. Film muvaffaqiyatida ijodiy guruh hamfikrligining ahamiyati.....	51
6. T.Mamatqulova. “Boburnoma” asarida qo'shiqchilik san'atiga doir atamalarning qo'llanilishi.....	54

## **IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA**

1. D.Jumayeva. “Bolalar adabiyoti” fanida Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish.....	56
2. S.Mahmudova. Fantastika adabiyoti va uning yosh avlod tafakkuriga ta'siri.....	59
3. A.Kurbanova. Talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogning innovatsion faoliyati.....	63
4. У.Абдуллаева. Воспитание и развитие творческих навыков учащихся на уроке фортепиано.....	65
5. Н.Абдусаломходжаев. Мастера старой школы.....	68

## **V. KUTUBXONASHUNOSLIK**

1. M.Ishoqov. Yangi O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalarining dolzarb vazifalari.....	71
2. N.Shamuratova, F.Umaraliyeva. Axborot madaniyatini shakllantirishdagi innovatsion metodlar.....	74

## **VI. YOSH TADQIQOTCHI**

1. G.Shavkatova. Sharl Perro asarlari – yosh tomoshabinlar teatri talqinida.....	77
2. M.Isoqova. Zamonaviy o'zbek badiiy filmlarida aktyorlik izlanishlari.....	80
3. K.Умаров. Этапы развития и вопросы интеграции узбекского театрального искусства нового времени.....	83
4. P.Xolmaxmatov. Jamiyat taraqqiyotida shaxsning o'rni.....	86
5. X.Niyazova. Zulfiqor Musoqov filmlarida zamondoshlar obrazining o'ziga xosligi.....	90

## **VII. E'TIROF**

1. G.Xodjametova. Qoraqalpog'iston musiqa madaniyatining rivojlanishida kompozitor Najimmaddin Muxammaddinovning qo'shgan hissasi va ijodiy faoliyatining muhim jihatlari.....	94
2. M.Pirmatov. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nozim To'laxo'jayev ijodiga chizgilar.....	97
3. A.Ismoilov. Aktyor ijrosida komedik obrazlarning sahna va ekrandagi in'ikosi.....	100

## **VIII. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**

1. S.Xudayberdiyev. Mahalla kutubxonalarini avtomatlashtirishda MS excel dasturidan foydalanish.....	105
2. G.Samigova. Multimedia texnologiyasining zamonaviy ta'limdagi o'rni.....	109

## TADBIR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNI LOQAYDLIKDAN DAXLDORLIKKA UNDASH METODOLOGIYASI

**Annotatsiya.** Maqolada yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda islohotlarga daxldorlik fazilatini rivojlantirish masalalari, yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklar, ma'naviyatning qashshoqlashuvi, fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida daxldorlik tarbiyasiga e'tibor masalalari.

**Kalit so'zlar:** daxldorlik, loqaydlik, ijtimoiy faollik, islohotlarga daxldorlik, terrorizm, missonerlik, diniy ekstremizm, "ommaviy madaniyat", gedonizm, eskapizm, daunshifting, befarqlik.

## МЕТОДОЛОГИЯ ПОМОГАЮЩАЯ МОЛОДЫМ ЛЮДЯМ ПЕРЕЙТИ ОТ ЛЕНИ К ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В статье подключение подрастающего поколения к новостям, информирующим об их проблемах, недостатках молодежи, повышении духовности, формировании гражданского общества.

**Ключевые слова:** связь, лень, общественная жизнь, терроризм, миссионерство, «культуранации эскапизма», гедонизм, эскапизм, даунишфтинг, глупость.

## A METHODOLOGY FOR LEADING YOUNG PEOPLE FROM LAZINESS TO SENSITIVITY

**Annotatsiya.** In the article connecting the younger generations to the news in forming their problems, disadvantages of youth, improverishment of spirituality formation of civil society

**Key words:** connection, lazy, society life, terrorism, missionary, hedonism, "culture of nation escapism", daunshifting, stupidity.



Ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarining quroli ham, vositasi ham, usuli ham – **targ'ibot** (yoshlarni milliy g'oyamiz ro'yobiga daxldor bo'lishga rag'batlantirish), tashviqot (milliy g'oyamiz ro'yobi natijalaridan shavqlantirish). Demak, bugun targ'ibot – yoshlarni yagona shior ostida ma'naviy rag'batlantirishi va tashviqot shavqini aks ettirishi kerak. Ushbu maqsadlarga erishish uchun targ'ibotga ham, tashviqotga ham o'ziga xos talablar qo'yiladi. Muayyan mezonlar belgilanadi, shartlar qo'yiladi. Masalan, har yili mustaqillik bayrami tantanalarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazishga bag'ishlab qabul qilinadigan qarorda targ'ibot-tashviqotchilar oldiga aniq talablar hamda vazifalar belgilab beriladi. Ya'ni tadbirlarni:

- rasmiyatchilik va balandparvoqlik holatlariga yo'l qo'ymasdan;
- keng jamoatchilik vakillarini jalb etgan holda;
- odamlarning qalbi va ongiga yetib boradigan, ularning kayfiyatini ko'taradigan;
- yangi marralar sari ilhomlantiradigan;
- xalqchil va ta'sirchan ruhda;
- yangi ijodiy kuchlarni, iste'dodli yoshlarni jalb etgan holda o'tkazishga alohida e'tibor qaratish vazifasi yuklatiladi.

Demak, ta'lim muassasalarida turli bayram tadbirlarini

o'tkazish uchun alohida mutasaddi shaxs (rejissor) birlashtiriladi. Ushbu shaxsga ta'lim muassasasida o'tkazilishi lozim bo'lgan barcha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish vazifasi yuklatiladi. Ushbu ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirishda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:

– *puxta tayyorgarlik, ishontirish, yot g'oyalarga qarshi targ'ibot, tushunarliklik, "tasvirli" so'z, o'quvchilarning ruhi va kayfiyatini ko'tarish, yangi marralar sari ilhomlantirish, auditoriya bilan ishlash, o'quvchilarni to'la qamrab olish, samimiyat, ko'rgazmali vositalar va erishilgan natijani mustahkamlash.*

Quyida ana shu tamoyillarning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

**Puxta tayyorgarlik.** Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirga tayyorgarlik ko'rishda tashkilotchi mas'ullar o'zlaridagi mavjud uslubiy qo'llanmalardan, ilmiy adabiyotlardan, internet tarmog'idan foydalanishi, mutaxassislar bilan suhbatlashishi, oldindan har bir tadbir uchun alohida ma'lumotlar to'plashi kerak. Bunda ayniqsa, respublikamizning markaziy ommaviy axborot vositalari, teleradiokanallari ma'lumotlaridan unumli foydalanish zarur. Tadbir tashkilotchisi yoshlarni tadbirdan kamida bir hafta oldin xabardor etuvchi e'lonlarni osib qo'yishlari, og'zaki e'lon qilib, tadbir haqida ma'lumotlar

berib o'quvchilarni qiziqtirishlari kerak. Tadbir uchun zarur audio, vizual ko'rgazmali vositalarni tayyorlab, faol ishtirokchilarni rag'batlantirish choralarini ko'rib qo'yish lozim bo'ladi. Toki tadbir hali boshlanmasdan turib, o'zining e'loni, nomi, mazmuni bilan o'quvchilarni qiziqtirsin va o'ziga chorlasin. Uni eshitgan, o'qigan bola tadbirda ko'tariladigan masalalar unga daxldorligini tushunsin.

**Ishontirish.** Mustaqilligimizning bebaho ne'matligiga yoshlarni ishontirish, ularda iftixor, O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchning yanada mustahkamlanishiga erishish demakdir. Ana shu mustaqillikni mustahkamlash uchun har bir talaba o'z o'rniga ega ekanini, bitta o'quvchining harakati tufayli ham katta natijalarga erishish mumkinligiga, har bir fuqaro yurt kelajagi uchun, mamlakat taqdiri uchun daxldor bo'lishi shartligiga ishontirish talab etiladi. Toki tadbirdan chiqayotgan yoshlarning ishonchi kirayotganidan kuchayib, mamnun chiqsin.

**Yot g'oyalarga qarshi targ'ibot.** Mustaqilligimizni ko'ra olmayotgan guruhlarni, ularning buzg'unchi targ'ibot olib borayotganini zinhor unutmash kerak. Ularning buzg'unchi fikr, g'oyalarga mustaqillik yillarida erishgan, o'sha hududda har kuni ko'rib yurgan, shuningdek, o'sha tuman, viloyat, respublikamizda erishilgan yutuqlarimizdan misollar bilan zarba berish darkor. Bu avvalo, o'quvchilarning daxldorligini, ogohliligini oshirsa, ikkinchidan, o'quvchilarga erishgan yutuqlarimiz haqida yangi ma'lumotlar berib, iftixor uyg'otadi. Uchinchidan, islohotlarning qadriga yetishga, shukronaga chorlaydi.

Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda bo'layotgan voqealardan misollar keltirish, ularning natijasi, oqibati nimalarga olib kelganligini, bizning yurtimizda ana o'shalardan qaysi birlarining ayrim ko'rinishlari mavjud ekanligini aniq dalillar asosida keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda, barcha buzg'unchiliklarning asoschisi ham oddiy fuqarolar, yoshlar – odamlar ekanini, har bir bolaning kichik xatti-harakati ham katta ko'ngilsizliklarga va tanazzulga olib kelishi mumkinligini singdirishimiz lozim bo'ladi. Misol uchun, e'tiqod va vijdon erkinligi – inson huquqlarining eng muhim asoslaridan biri. Unga daxl qilish jinoyatlar sirasiga kiradi. Shunga qaramay, o'zining diniy g'oyalarni noqonuniy ravishda tarqatish asosiy mafkuraviy muammolardan bo'lib qolayotir. Bu jinoyi takliflar asosan o'z asl qiyofasini turli niqoblar ortiga yashirishga urinayotgan protestant-nasroniy tashkilotlari tomonidan ilgari surilmoqda.

Bunga yagona Sudan davlatining parokanda bo'lish sabablaridan biri – missionerlik va prozelitizm oqibatlarini misol bo'la oladi. Bugungi kunda sudanlik aldangan murtadlar orasida "Missionerlar kelishganida ularda Injil, bizda yer bor edi. Hozir yer ularga o'tdi, bizda esa Injil qoldi", degan bir armonli hikmat keng tarqalgan. Dunyoda global miqyosda mafkuraviy-g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning kuchayishi missionerlik harakatini tobora avj olishga zamin yaratmoqda. Zero, mazkur harakatlar aksariyat holatlarda turli din va diniy konfessiyalar o'rtasidagi hamjihatlikka nifoq solish orqali diniy adovatlariga zamin yaratmoqda. Aynan, mazkur holatlar ushbu illatlarga qarshi

jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: *"O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi"* [179], – deya ta'kidlagan edi. Zero, missionerlik oqibatida diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo hamkorlikka rahna solishi tufayli mamlakat taraqqiyoti va istiqboliga tahdid solayotganligi namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonining tobora kuchayishi missionerlik harakatini keng miqyosda faoliyat ko'rsatishga zamin yaratmoqda. Xorijdan yo'naltirilayotgan "maqsadli" iqtisodiy yordam ta'sirida rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tengsizlik tobora keskin tus olishi oqibatida bir qator tahlakali vaziyatlar vujudga kelmoqda. Vaholanki, missionerlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan "maqsadli" yordam mazkur mintaqalardagi muammolarni hal etish uchun emas, balki mazkur davlatlarni o'zlariga iqtisodiy qaram qilish orqali o'zlarini moddiy jihatdan yuksalishiga zamin yaratmoqda. Aynan, missionerlik tashkilotlari tomonidan "maqsadli" yo'naltirilayotgan iqtisodiy yordam tufayli muayyan mintaq va hudud miqyosida noan'anaviy diniy jamoalarning soni ko'paymoqda [99].

Ana shunday missionerlik tashkilotlardan biri Ukrainada tashkil etilgan Ternopol missionerlik instituti (TMI)dir. Mazkur institut va uning qoshida tashkil etilgan allaqanday **"Madad qalbi"** guruhi dunyoning 50 mamlakatida musulmonlar uchun cherkovlar tarmog'ini tashkil etishgan. Ularning vazifalaridan biri Yevangelchi "Injil"chilarga Iso Masihga ishonadigan odamlarni o'zlari tomonga og'dirishga ko'maklashishdan iborat. Unga tegishli saytlarda Osiyo va Afrikaning bir qator mamlakatlarida olib borgan targ'ibot ishlarining **"natijalari"**ni ko'rsatuvchi foto va videolavhalar o'rin olgan. Institut rahbari M.Reznikning gapiga qaraganda, Xudo uning tushiga kirib, **"musulmonlarni nasroniyga aylantir"**, degan emish. Oradan ko'p o'tmay, Ternopol missionerlik instituti direktori Mixail Reznik musulmonlarning e'tiqodini o'zgartirish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlaridan biriga ko'chib kelgan. U hech kimdan **"mahalliy aholining tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan "Injil"chilik (yevangel) ta'limotini qabul qilishga xohishi bormikin?"** deb so'ramadi. Missionerlar sodda odamlarning ongiga *"atrofini zulmat va zalolat o'rab olgani"*, *"bundan qutulish va to'ppa-to'g'ri jannatga tushish uchun e'tiqodni o'zgartirish lozimligi"*, buning uchun aynan **"ular ko'rsatgan yo'ldan yurishi"** lozimligini singdira boshlashadi.

Afsuski, bu mudhish ta'limotning makriga uchganlar safi kengayib borayotir. O'tgan yillarda minglab kishilar o'z e'tiqodini o'zgartirib, ularning tuzog'iga tushgan. Missionerlar esa, bu bilan cheklanib qolmoqchi emas. Ular o'z qamrovini yanada kengaytirishni ko'zlamoqda. Sayt ma'lumotlariga qaraganda, bundan tashqari, ular yana sakkizta loyiha bo'yicha ish olib borishmoqda.

“Bu – hali faqat boshlanishi”, – deydi Reznik. Har qalay, Ternopol missionerlik instituti “xodimlari”ning Markaziy Osiyoda paydo bo‘lishi o‘ta jiddiy ijtimoiy pedagogik muammolardan birini paydo qiladi.

**Tushunarliklik.** Targ‘ibot nazariyasida **“Ma‘ruzalarda 10 ta tushunarsiz so‘z ishlatgan notiq bankrotga uchraydi”**, degan naql bor. Bu bejiz emas. Targ‘ibotchi ko‘proq kundalik hayotimizda ishlatiladigan so‘zlardan foydalansa, uning nutqi o‘quvchilarga tushunarli bo‘ladi. Rasmiyatchilik o‘zi darsdan toliqqan o‘quvchilarni tadbirdan bezdiradi. Tadbirga mavzu tanlanganda, albatta, ta‘lim muassasalari talabalarining yosh xususiyatlari e‘tiborga olinishi kerak. Targ‘ibot materialining mazmuni, keltirilayotgan dalillar, bayon uslubi ta‘lim muassasalari yoshlarining o‘rtacha darajasiga mos bo‘lishi kerak. Talabalar nima haqida gapirilayotganini o‘sha vaqt va joyning o‘zida tushunib yetishlari lozim. Bu ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning samaradorligini oshiradi.

**“Tasvirli” so‘z.** Oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi asoslaridan ma‘lumki, so‘z – ikkinchi signallar sistemasini tashkil qiladi. U birinchi signallar sistemasining o‘zbekona lug‘atidir. Ta‘sirchan, obrazli, o‘z o‘rnida aytilgan publitsistik so‘z unda tasvirlanayotgan voqea manzaraning o‘rnini bosishi mumkin. Bu fiziologlar tomonidan tasdiqlangan. Masalan, Surxondaryolik talaba Xushnud Angren-Pop temir yo‘lini, “Toshkent City”ni hali borib ko‘rmagan. Kecha tadbirda tarix o‘qituvchisi bu qurilishni shunday tasvirladiki, Sherzod Qamchiq tunnelidan o‘tgandek bo‘ldi. Chunki haroratli, obrazli bayondan ta‘sirlandi. Qurilish ko‘lamidan hayratga tushdi. Demak, obrazli so‘z ko‘z o‘rnini bosishi mumkin ekan. Chunki Sherzod “asr qurilishi” deb nomlanayotgan temir yo‘lni ko‘zi bilan emas, notiqning so‘zi bilan **“ko‘rdi”**. Targ‘ibotchi unda temir yo‘lni ko‘rganlarda sodir bo‘lgan hayrat, zavqni paydo qildi.

Targ‘ibot mazmuni u yoki bu ijtimoiy siyosiy, mafkuraviy hodisaning sodir bo‘lgan vaqtdan kelib chiqib, kelasi, hozirgi va o‘tgan zamonlarga bo‘lib davriylashtiriladi. Bular – voqea haqida oldindan ma‘lumot beruvchi, voqea bilan birga boshlanuvchi va voqeadan keyingi targ‘ibotdir. Uchalasi ham o‘z vaqtida maqsadli ishlatilishi muhim. Aks holda ayrim kishilarda axborot yetishmasligi tufayli buyuk ishlar mohiyatini to‘la tushunmay qolishi mumkin.

**Yoshlarni ma‘naviy rag‘batlantirish orqali ularni yangi marralar sari ilhomlantirish.** Bu tamoyil o‘quvchilarning ongiga tez va soz kirib borishga xizmat qiladi. Badiiy nutq, qiyos, jo‘shqin ruh o‘quvchilar qalbi va ongiga yo‘l ochadi. Qarashlariga tez ta‘sir qilib, orzularga qanot beradi. Buning uchun yoritiladigan voqea, misollarni tanlashda ularning ko‘pchilik uchun muhimligidan kelib chiqiladi. Odatda majlis, tadbir qatnashchilarning diqqati **dastlabki olti daqiqa davomida faol bo‘lib**, keyin ko‘nikish oqibatida susayib boradi. Shuning uchun avvalo o‘quvchilar bilan faol muloqot o‘rnatib olish kerak. Misollar keltirishni so‘rab auditoriyaga murojaat qilish ham qatnashchilarning diqqatini jamlashga hissa qo‘shadi. Daxldorlikni his qilishga undaydi. Bu bir necha

marta takrorlanishi ham mumkin. Bunda targ‘ibotchi bilan o‘quvchilarning yakdilligi namoyon bo‘ladi. Bundan o‘quvchilar ruhlanishadi.

**Interfaollik.** Milliy g‘oya targ‘ibotida interfaollik asosiy tamoyillardan biri. Bunda yoshlar bilan bevosita aloqa o‘rnatiladi. Yoshlar milliy g‘oya targ‘ibotining passiv tinglovchilari emas, balki faol ishtirokchilariga aylanishadi. Buning uchun ishtirokchilarni qatorlarga, guruhlariga bo‘lib, ularga savollar yoki qiziqarli topshiriqlar berish. Tadbir oxirida faol va hozirjavob 3 talabani rag‘batlantirib, ularga ham qisqacha so‘z berilsa, yaxshi bo‘ladi. Ular o‘z so‘zlarida beixtiyor notiq aytgan asosiy fakt, fikrlarni qayta eslatsin. Ana shunda notiq bir marta aytgan fikr ikkinchi marta boshqa odam tomonidan, aynan emas, qiziqarli, boyitib eshittiriladi. Har bir takror esa, targ‘ibot nazariyotchilaridan birining tili bilan aytganda, **“devorga mix qoqayotgan bolg‘aning navbatdagi zarbasiga o‘xshaydi”**.

**Yoshlarni to‘liq qamrab olish.** Ushbu tamoyil mohiyatini tushuntirish uchun analogiya usulidan foydalanamiz. Tasavvur qiling, parranda grippidan ogohlantiruvchi targ‘ibot samaradorligini qanday baholasa bo‘ladi? Oliy ta‘lim muassasasi talabasining 100 foizi parranda grippi nimaligini tushuntirib bera olsa, o‘zini va atrofdegilarni parranda grippidan qanday himoya qilishini ko‘rsatib bera olsa, o‘zini parranda grippidan himoya qilishda yuqoridagi ikki amallarni qilsa bu ta‘lim muassasasida hech kim gripp bo‘lmaydi. Chunki qamrov 100 foizga kafolatli ta‘minlangan bo‘ladi.

To‘liq qamrov nafaqat ogohlantirish maqsadlarida, balki bunyodkor yutuqlarimiz targ‘ibotida ham zarur. Har bir yoshning qalbiga faxr-iftixor, quvonch kirib borishi kerak. Bu ulardagi daxldorlik fazilatining emotsional namoyishini paydo qiladi. Ana shunda ular o‘z xalqining shijoati, qudratini, nimalarga qodir ekanligini his qilgan holda o‘z kelajaklarining yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi bilan bog‘liqligini anglab, his qiladilar. Buning uchun har bir tadbirning qamrov-ko‘lami qancha keng bo‘lsa, undan ko‘proq o‘quvchi bahramand bo‘ladi. Aksariyat hollarda axloq-odobli, jim o‘tirib tinglaydigan o‘quvchilar tadbirga jalb etiladi-yu, ammo qolgan tarbiyasi biroz og‘irroq, loqayd bo‘lgan, passiv o‘quvchilar e‘tibordan chetda qolishlari uchrab turadi. Natijada tadbirlarga ta‘lim muassasalari talabalarining 15-20 foiz faol o‘quvchilari jalb etilib, qolgan qismi bexabar qolishi natijasida qamrov to‘liq bajarilmaydi.

**Samimiyat.** Targ‘ibotda samimiyat begonani – tanishga, tanishni – do‘stga aylantiradi. Ayniqsa, **milliy g‘oyamiz ro‘yobiga daxldorlik**, uni qalblarga jo qilish masalasida buning ahamiyati katta. Shuning uchun davlat rahbari mustaqillik bayramini butun yurtimiz bo‘ylab keng nishonlash to‘g‘risidagi qarorda rasmiyatchilik, balandparvoqlik kabi xatolardan bizni ogohlantiradi. Samimiylik so‘zlovchi va tinglovchilarni bir ma‘naviy organizmga aylantiradi. Yuraklar bir xil ura boshlaydi. Bunga erishmoq uchun notiqdan e‘tiborlilik, ziyraklik, chuqur bilim, samimiyat talab qilinadi. Agar rasmiyatchilikka berilib ketilsa, o‘quvchilarda hatto

eng muqaddas mavzularga ham befarqlik paydo bo'lishi mumkin.

**Ko'rgazmali vositalar.** Ko'rgazmali vositalar kam vaqt ichida ko'p ma'lumotni chiroyli qilib ko'rsatadi. Notiqning ko'rgazmali vositalardan yaxshilab foydalanishi uning jiddiy tayyorgarligini ko'rsatib, tinglovchilarda unga hurmat uyg'otadi. Shuning uchun tadbirlarda O'zbekistonning mustaqillik davrida erishgan yutuqlari, unda inson omilining muhim qadriyat ekanligiga bag'ishlangan hayotiy misollar, hujjatli filmlardan, multimedialardan va slaydlardan faol foydalanish tavsiya etiladi.

**Erishilgan natijani mustahkamlash.** Targ'ibot-tashviqot ma'ruza so'ngida notiq yoshlar bilan mavzu yuzasidan savol-javob uchun vaqt ajratadi. Yoshlarda savollar tug'ilishi tabiiy. Agar tadbir so'ngida munosabat sust bo'lsa, bu mavzuning to'liq tushunilmaganidan dalolat beradi. Bunda mavzu yuzasidan qo'shimcha savollar bilan tinglovchilarni faollashtirib, tadbir samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tadbirlar samaradorligiga quyidagi mezonlar asos qilib olinsa, samaradorlik ortadi:

- *hozirgi zamon ilm-fani erishgan natija, darajaga tayanish;*
- *milliy istiqloq g'oyalaridan kelib chiquvchi vazifalarga moslash;*
- *mazmun oddiydan murakkabga qaratilgan, uzviy va uzluksiz bo'lishi;*
- *nazariy qoidalarni tushuntiruvchi misollar bilan ta'minlash;*
- *bilimlarning amaliy ahamiyati va hayotda qanday qo'llanilishini ko'rsatish;*
- *talabalarning yosh va intellektual imkoniyatlarini hisobga olish;*
- *talabalarga kuzatish, mashq qilish, mustaqil ishlash, takrorlash va o'z-o'zini tekshirib ko'rish uchun ma'lumotlar, savollar va ko'rsatmalar berish;*
- *bayon tilining oddiy, obrazli, tushunarli bo'lishi;*
- *tushunishni osonlashtiruvchi illyustratsiya, infografika, rasm, tablitsa, diagramma, karta, sxema, chizma, ilovalar bilan ta'minlash;*
- *tadbir mazmunining hayot bilan chambarchas bog'liqligi;*
- *yoshlar ongini daxldorlikni rivojlantirishga qaratilgan mazmun bilan boyitish.*

**Hozirgi zamon ilm-fani erishgan natija, darajaga**


**tayanish.** Milliy g'oya targ'ibotiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davomida to'qima obrazlar va voqealardan ko'ra, hozirgi kunda ta'lim muassasalari yoshlarining o'zi ko'rib, qulog'i eshitib turgan natijalarga tayanish lozim bo'ladi. Masalan, har bir talabaga **“yurtga daxldor bo'l, yaxshi bo'ladi”**, deyshdan ko'ra ana shu yaxshi bo'lganiga bugungi kun yutuqlaridan misol keltirish zarur. Masalan, shaxmat sport turi bo'yicha o'tkazib kelinayotgan yoshlar o'rtasidagi xalqaro olimpiadada o'z tengdoshining ishtirok etib, yurtimiz sha'nini himoya qilgani va uni jahonga tanitganini maqtab, har bir yoshni ana shunday yutuqlar sari ilhomlantirish kabi misollardan keng foydalanish lozim.

**Milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan kelib chiquvchi vazifalarga moslash.** Har bir misolni milliy g'oyamiz tamoyillari bilan bog'lash mumkin. Yuqorida keltirilgan misol milliy mafkuramizning vatan ravnaqi va komil inson g'oyalarining ro'yobiga misol bo'la oladi. Demak, olimpiada ishtirokchilari milliy g'oyamizdan kelib chiquvchi vazifalardan ikkitasini amalga oshirishga o'z daxldorligini ko'rsatgan. Shu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

**Tadbir mazmunining hayot bilan chambarchas bog'liqligi.** Tadbir o'tkazishdan avval uning mazmun-mohiyatini ishtirokchilar ko'rib-bilib yurgan, hayotda uchrayotgan masalalarga bog'liqligini o'rganib chiqish va shundan so'nggina uni o'tkazishga kirishish lozim bo'ladi. Agar u hayot voqealaridan yiroq, kitoblarda yozilgan nazariya bilan cheklanib qolgan bo'lsa samaradorlik yo'qoladi.

**Nazariy qoidalarni tushuntiruvchi misollar bilan ta'minlash.** Agar qandaydir bir nazariy qoidani keltirish ehtiyoji tug'ilganida uni oddiy misollar bilan tushuntirib berilmasa ham natijaviylik past bo'ladi. Chunki, yoshlar asosan kundalik hayotda ko'rgan narsalariga ko'proq ishonishadi. Masalan, “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q” deb, buni tasdiqlovchi misollar keltirmasak, aytgan qoidaning o'zlashishi qiyin kechadi. Shuning uchun har bir nazariy qoida uchun yoshlarga tushunarli bo'lgan misollar ham topib, undan foydalanish zarur.

**Bilimlarning amaliy ahamiyati va hayotda qanday qo'llanilishini ko'rsatish.** Yoshlarga berilayotgan har bir ma'lumotning amaliy ahamiyati nimadan iborat ekaniga alohida to'xtalish talab etiladi. Daxldorlikni shakllantirish va rivojlantirishga oid tadbirda daxldorlik hayotda nimalarda qanday aks etishini, buning uchun nimalarga ega bo'lish lozimligini yoshlarga ko'rsatib berish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini so'zsiz oshiradi.



# I BO' LIM

## TEATR VA KINO

Sherzod PIRMATOV,  
O'zDSMI "Vokal" kafedrası professori

### O'ZBEK TELESERIALLARIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

**Аннотация.** Ushbu ilmiy maqolada teleseriallarni sohadagi va bugungi kunda yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni beqiyos ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishayotgan yutuqlarimiz va kelgusida amalga oshirish zarur bulgan muammolar xususida to'xtalib o'tiladi.

**Калит so'zlar:** teleserial, mavzu, ijod, tarbiya, tendensiya, g'oya, ta'lim.

### СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В УЗБЕКСКОМ ТЕЛЕСЕРИАЛЕ

**Аннотация.** В данной научной статье подчеркивается уникальная роль телесериалов в воспитании молодежи. В статье также уделяется внимание достигнутым достижениям и проблемам, которые необходимо решить в будущем.

**Ключевые слова:** телесериал, тема, творчество, воспитание, тенденция, идея, образование.

### ARTISTIC AND CREATIVE AND MODERN TRENDS IN THE UZBEK TV SERIES

**Annotation.** This research article highlights the unique role of television series in youth education. The article also focuses on the achievements achieved and the problems that need to be addressed in the future.

**Key Words:** television series, theme, creativity, education, trend, idea, education.



Kino yoki serial insoniyat hayot tarzida muhim va ajralmas o'rin egallashga ulgurdi. Biz serialni shunchaki tomosha qilmay, balki muhokama qilamiz, ergashamiz va tanqid qilamiz. Seriallar orqali biz o'zligimizni, orzu-intilishlarimizni, tariximizni, kelajagimizni, urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni badiiy obrazlar va ta'sirchan voqealar orqali ifoda etishimiz mumkin. Qolaversa, milliy mafkura, milliy g'urur, vatanparvarlik, e'tiqod, millatlararo do'stlik va totuvlik, insoniylik, mehr-saxovat, odob-axloq masalalarini yoritishda kino hamda seriallar boshqa san'atlardan ko'ra, badiiy-ta'sirchan va jalb etish kuchiga egadir. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, biz mana shu kino yoki seriallar orqali sanab o'tgan ma'naviy boyliklarimizni yo'qqa chiqarishimiz, noto'g'ri talqin qilishimiz va badiiy saviyasiga putur yetkazishimiz ham mumkin. Shunday ekan, bu san'at turi qanchalik qiziq bo'lmasin, shunchalik nozik jihatlarga ham ega. Seriallar inson tafakkurining muvozanatida doim bahsli ahamiyat kasb etib qolaveradi.

Bugun televideniye olamini serialsiz tasavvur qilish qiyin. U nafaqat kino san'ati, balki televideniye sohasida ham o'z o'rnini mustahkam egalladi, deb ayta olamiz. Serial o'z navbatida televizion kanal reytingini ko'tarishi hamda tomoshabopligi bilan ham ekranning boshqa janrlaridan farq qiladi. Avvaliga ushbu san'at turiga ko'ngilochar bir ermak sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunga kelib u katta telebiznesga aylangan va dunyo televideniyesini zabt etgan

san'at turidir. Dunyoda ko'p qisimli seriallar allaqachon muxlislarini topib ulgurgan bo'lsa-da, serial o'zbek kino va televideniye sohasiga birmuncha kechroq kirib kelgan.

O'zbekiston televideniyesida birinchi marta suratga olingan serial "Ko'ngil ko'chalari" bo'lib, unda bir o'zbek oilasi misolida millatning turmush tarzi, keksalar hayoti, mahallada yuz berayotgan voqealar, oilaning darz ketishi, farzand tarbiyasi va hayotdagi turli muammoli vaziyatlar hikoya qilinadi.

"O'zbekfilm" studiyasida suratga olingan ayrim filmlar ("Keksa ustaning vasiyati", "Chinor", "Olovli yo'llar") stilistika jihatidan katta kinematografiya shakllaridan kam farq qiladi. Garchi bu filmlar milliy kinoimiz uchun unchalik katta obro'-e'tibor keltirmagani bilan yaqin kelajak yillarda ko'p qisimli mahsulotlarning to'lqin kabi ko'payib kirib kelishi uchun zamin yaratdi. "O'zbektelefilm"da shu yillarda yaratilgan "Akbarning sarguzashtlari" (rejissor: A.Qosimov), "Diqqat, motor!" (rejissor: F.Davletshin), "Adolat manzili" (rejissor: F.Haydarov), "Qabohatga qo'yilgan tuzoq" (rejissor: B.Ahmedov) va boshqa filmlarni esga olib o'tish mumkin.

O'ziga xos tajribaning o'sib borishi natijasida, "O'zbektelefilm" studiyasida milliy seriallarga katta e'tibor berila boshlandi. Bu jabhada "Lafz", "Iymon"ning rejissori Bahodir Ahmedov, "Charxpalak", "Qaytar dunyo"ning rejissori Shavkat Junaydullayev, shuningdek, "Gulxan atrofidaqilar", "Tutash taqdirilar", "Opa-singillar"

seriallarining rejissori Zamira Begimqulovaning qilayotgan ishlari ijobiy baholangan edi.

Milliy seriallarni rivojlantirish harakatlari davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanganligini qayd etish darkor. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005-yil 27-dekabrda PQ-245-son Qarorini bajarish yuzasidan hamda aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, milliy an'analarni tarixiy va ma'naviy merosni saqlab qolish, fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, yoshlarni va o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, Vatanga muhabbat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehтиrom ruhida tarbiyalash maqsadida, Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Milliy serial" kompleks ijodiy-ishlab chiqarish dasturini joriy etish bo'yicha qaror qabul qilingan. Qarorga muvofiq ushbu dasturda:

- televizion seriاللarning yuksak g'oyaviy-badiiy va professional darajasini ta'minlashga qodir bo'lgan ijodiy guruhlarini shakllantirish, shuningdek, yuqori malakali rejissorlarni, operatorlarni, shu jumladan sifatli rejissurani ta'minlaydigan xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

- vatanimizning teleseriallar ishlab chiqarish industriyasi uchun mamlakatimiz tegishli o'quv yurtlarida, shuningdek, ixtisoslashgan xorijiy ta'lim markazlarida, kino va televideniye tashkilotlarida milliy kadrlarni kasb jihatidan tayyorlash va qayta tayyorlash;

- ko'p qismli televizion, hujjatli, multiplikatsion filmlar va boshqa kinovideo mahsulotlarning g'oyaviy-tematik, janr va kompozitsion turli-tumanligini kengaytirish kabi maqsadlarni o'rtaga tashlagan edi.

So'nggi yillarda esa, davlat va xususiy televideniye faoliyatini takomillashuvi natijasida milliy seriاللarga ehtiyoj kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-avgustda PQ-3176-son "Milliy kinematografiyani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq kinematografiyaning ko'plab yo'nalishlari qatori milliy seriاللarga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. Milliy va umuminsoniy, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni tarannum etuvchi, aholining madaniyati va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan seriاللar yaratish talabi qo'yildi. Bu talabni amalga oshirish maqsadida, davlat va xususiy telekanallar tomonidan so'nggi uch-to'rt yilning o'zidayoq o'nlab seriاللar yaratildi. Har birining badiiy saviyasi turli bo'lsa-da, ijodkorlarning televizion materiallarni yaratish borasidagi izlanishlarini ijobiy baholash mumkin.

Televizion adabiy janrlar ichida teleserial bugungi kunga kelib, eng ommabop, ta'sirchan, ayni paytda eng serdaromad sohalardan biriga aylandi. Internet asri shitobi bois, kitob mutolaasiga vaqt topa olmayotgan odamlar ham teleseriallarni ommaviy tarzda tomosha qilyaptilar. Shu paytgacha biror badiiy asarni o'zini qilib o'qimagan yoshlar keyingi o'n-o'n besh yil ichida o'nlab seriاللarni (yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan) oila a'zolari bilan birgalikda ko'rib chiqishga ulgurдилar. Dastlab Lotin Amerikasi va Yevropa xalqlari hayotidan olingan, ularga xos axloq normalari, ma'naviy aqidalar singdirilgan

teleseriallar odamlarni mahliyo qilib qo'ydi. Hatto, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, shu serial qahramonlari hayot tarziga taqlidan "yangi hayot" boshlagan erkak va ayollar paydo bo'ldi. Shuningdek, Turkiyaning ("Xinoli qor", "Zerda", "Achchiq yolg'on", "Aliya", "Ishkomli uy"), Lotin Amerikaning ("Muhabbat qahvasi", "Morena Klara", "Muhabbat mojarosi", "Yolg'on asirasi") va Koreyaning ("Qish sonatasi", "Yoz ifori", "Ko'ngil rishtasi", "Xonaki erkak") seriاللari millatimiz qalbini egalladi-ki, ushbu serial qahramonlarining hayotdagi muqallidlari paydo bo'lishiga shubha qilmay qoldik.

Bir paytlar odamlar orasida "Qanday kitob o'qiyotganingni aytsang, sening kimlingini aytaman", degan ibora yurardi. Bugun ushbu iboraga biroz tahrir kiritishga to'g'ri keladi, chamamda. Ya'ni, bugun "Qanday serial tomosha qilayotganingni aytsang, sening kimlingingni aytaman", degan ibora zamon ruhini, afsuski, to'la-to'kis ifodalaydi. Bir mahallar Farhod-u Shirinlar, Layli va Majnunlar, Bahrom va Diloromlar, Otabek va Kumushlar, Yo'lchi va Gulnorlar sevgisiga havas qilgan millat yoshlari bugun mayda oilaviy mojarolar, qiyofasiz qahramonlar, ma'nau buzuqlikka yetaklovchi g'oyalar bilan sug'orilgan seriاللarga qalbini bermoqdalar. Eng yomoni bunday kasallik oilaviy, shu yo'l bilan umummilliy miqyos olmoqda.

Xo'sh, bizga taqdim etilayotgan "g'aroyib" teleseriallar nimani targ'ib va talqin qiladi? Ezguliknimi? Insonparvarliknimi? Vafo va sadoqatnimi? Farzandning ota-ona oldidagi burchinimi? Sabr-toqatnimi? Do'stliknimi? Yuqorida qisman tasavvur hosil qilishga uringanimiz qaysi serialda insonshunoslik ilmining bunday abadiy muammolari aks etgan?! Agar aks etgan bo'lsa, bu qaysi serialda ko'zga tashlanadi. Agar bunday jihatlari bo'lmasa, biz buxoriylar, samarqandiyalar, termiziylar, xorazimiylar, shoshiylar, farg'oniyalar, namangoniylar, andijoniylar avlodlari bunday seriاللarning nimasiga mahliyo bo'lamiz?! Tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ularga qanday muhtojligimiz bor?

O'ylashimcha, bugun uchun o'ta dolzarb bo'lgan ushbu muammo yuzasidan qalbida vijdoni, iymoni bor har bir o'zbek shunday fikr yuritadi. Bugunga kelib, teleserial muammosi umummilliy dardga aylanganini, uni bartaraf etmagan avlodning kelajak oldida yuzi qora bo'lishini qalban his etadi. Ammo bu bilan ish bitmaydi. Faqat amaliy harakatgina ushbu dardga davo bo'lishi mumkin va quyidagi takliflarimizni bayon qilmoqchimiz:

*Birinchi*dan, O'zbekiston televideniyesi va xususiy telekanallar orqali namoyish etiladigan har qanday xorijiy film va teleseriallarni davlat tomonidan maxsus tashkil etilgan komissiya nazoratidan keyingina tamoshabingaga taqdim etish maqsadga muvofiq.

*Ikkinchi*dan, mahalla, maktab, oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan ma'naviyat tadbirlarida xorij teleseriallarining asl mohiyati, maqsadi va g'oyasi xususida tushuntirish ishlarini olib borish joiz.

*Uchinchi*dan, ushbu ulkan muammoning eng samarali va oqilona yechimi tom ma'nodagi milliy teleseriallar yaratish bilan amalga oshadi. Chunki chuqur tarixiy, milliy



asosga ega teleseriallar ruhida tarbiyalangan, o'zining ma'naviy-ma'rifiy mezonlariga ega bo'lgan tomoshabin, har qanday xorij filmlariga o'z bahosini bera oladi, milliy o'zligini yo'qotmaydi.

Milliy seriallar agar xorij seriallarini o'rmini bosa olmasa, bundan yomoni yo'q. Sababi, kimdandir nimanidir "tortib olayotib", o'rniga undan yaxshisini bermasang, xarxasha kuchayaveradi. Milliy serial yaratish maktabini kuchaytirish har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, yurtimizda bu soha rivojlanish bosqichida ekanligi inobatga olinsa, kelajakda milliy seriallarimiz butun dunyoda katta qiziqish bilan tomosha qilinishiga umid qilamiz. Faqat buning uchun biroz vaqt hamda aniq strategik o'sish kerak. Yana, seriallarga oid tasavvurga ega, bilim va tafakkuri yuksak bo'lgan kadrlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratish lozim. Yosh mutaxassislar seriallarga oid faoliyatni kuzatish va o'rganish orqali o'ziga xos bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib oladi. Shu asosda, bu kino janrni o'rganishda ayrim chora-tadbirlarga tavsiyalarni keltirish mumkin.

*Birinchidan*, seriallarning o'ziga xos xususiyatlarini

tahlil qilishga asoslangan amaliy mashg'ulotlar sonini oshirish kerak. Jonli suratga olish maydonchalariga tashrif buyurish yoki ma'lum seriallarning rejissorlariga yordamchilik qilish choralari ham o'zini oqlashi mumkin. Faqatgina xorij ijodkorlariga intilib yashash hamisha ham o'zini oqlamaydi.

*Ikkinchidan*, eng muvaffaqiyatli seriallarni yaratish tarixi xususida hujjatli film tayyorlash kerak. Bu yosh rejissorlarning yanada irodaliroq bo'lishini ta'minlashi mumkin.

*Uchinchidan*, talabalar serial rejissorlari bilan jonli fikr almashishlari uchun uchrashuvlar tashkil etish kerak. Bu hech bo'lmaganda ijodkorga motivatsiya bera olishi mumkin.

Umuman olganda, har bir san'at turi bo'yicha o'ziga xoslik bo'lishi lozim. Zamonaviy seriallarni ko'rish, o'rganish va tahlil qilish jarayonida amin bo'ldik-ki, hali biz qilishimiz va o'rganishimiz kerak bo'lgan vazifalar juda ko'p. Kamchiliklar o'zimizniki va ularni chetdan kimdir kelib hal qilib ketmaydi. Hammasini o'zimiz, o'z bilimimiz va tajribamiz orqali hal etmog'imiz lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-avgust kuni O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi nutqidan.
2. 2017-yil 7-avgustdagi "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror.
3. A.Mitta "Kinoda rejissura va dramaturgiya". – Toshkent: 2012.
4. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – T.:
5. Abulqosimova X., Teshaboyev J., Mirzamuhamedova M. Kino Uzbekistana. – T.: "Adabiyot va san'at", 1985.

## MUQIMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON DAVLAT MUSIQALI TEATRIDA YOSH QAHRAMONLAR OBRAZINI YARATISH MASALALARI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrda sahnalashtirilgan spektakllarda yosh qahramonlar obrazini yaratishdagi izlanishlar xususida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *o'zbek musiqasi merosi, audioyozuv, to'plam, shakllantirish tarixi, etnomusiqashunoslik ekspeditsiyasi, raqamlashtirish.*

## ЮНЫЕ ГЕРОИ В УЗБЕКИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ТЕАТРЕ ИМЕНИ МУКИМИ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ ИМИДЖА

**Аннотация.** *В данной статье рассказывается об исследовании создания образа юных персонажей в спектаклях, поставленных в музыкально-драматическом театре имени Мукими.*

**Ключевые слова:** *узбекское музыкальное наследие, аудиозапись, коллекция, история создания, этно-музыковедческая экспедиция, оцифровка.*

## YOUNG HEROES IN THE UZBEKISTAN STATE MUSICAL THEATER NAMED AFTER MUKIMI ISSUES OF IMAGE CREATION

**Abstract.** *This article This article talks about the research on creating the image of young characters in plays staged in the musical drama theater named after Mukimi.*

**Key words:** *uzbek musical heritage, audio recording, collection, history of the development, ethnomusicological expedition, digitization.*



Yosh avlodni ma'naviy va ruhiy barkamol qilib tarbiyalash vazifasi davlat tomonidan ustuvor maqsad qilib belgilangan ekan, mazkur ishda teatr san'ati ahli ham o'z vositalari orqali, bu maqsad sari bo'layotgan harakatlarda o'z ulushini qo'shib kelmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, bunday xayrli ishda boshqa professional teatr jamoasi bilan bir qatorda, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri jamoasining ham xizmati beqiyosdir.

Mustaqillikdan so'ng, teatr jamoasi o'zining milliy an'analari, o'ziga xos uslub va izlanishlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy mavzudagi spektakllar bilan birga milliy mumtoz asarlarning sahna talqini bilan ham o'z tomoshalarini hushnud etib kelmoqda. Yosh aktyorlar ijrosida namoyish etilgan spektakllarning, premyeradan keyin saviyasi tushib borayotganligiga guvoh bo'lamiz. Buning sababini aniqlash uchun alohida tadqiqot olib borish lozim. Muqimiy nomidagi musiqali teatrda yoshlar ijrosidagi spektakllarda har kim o'z shevasida gapirishi ham tadqiqotga alohida mavzu bo'ladi. Bu masala, sahna nutqiga e'tiborni susayganligiga dalildir.

Yana bir jiddiy masalaga oydinlik kiritish lozim. Musiqali drama nomini olgan bir qancha spektakllarda janr talablariga rioya etilmaganligi ko'rinadi. Spektakllar janr jihatidan musiqali drama emas, balki qo'shiqli tomoshaning o'zginasi bo'lib qolmoqda. Buning ustiga qo'shiqlarning mavzusi ham, ijrosi ham talab darajasida emas. Yuqori saviyadagi musiqali drama teatri muxlislarning bunday saviyasi past tomoshalardan bezishi tabiiy hol. Haminqadar spektakldan so'ng, teatrga tomoshabinni majburlab olib kirib bo'lmaydi. Chunki, teatr avvalo ma'naviyat, ma'rifat va tarbiya o'chog'idir. Shu ma'noda, teatrnı inson ruhiyatini poklovchi, ibrat

maktabi deb atashlari bejiz emas. Muqimiy teatrda afsuski, so'nggi yillarda bu masalaga jiddiy e'tibor berilmayapti.

Teatr jamoasida yoshlar ko'payib, ularning avvalgi izlanishlari susayib, ijodiy bamaylixtirlik kayfiyatlari paydo bo'lmoqda. Muqimiy teatri tarixini va an'analarni yaratgan san'at ustalarining eng kuchli fazilatları nimada edi? Ular, yuqori saviyadagi dramaturgiya asosida ijod qilgan edi. Qolaversa, ular teatrnı o'z taqdirleri deb bilgan va shunga ishongan fidoyi kishilar bo'lishgan. Avvalo, ular teatrga muqaddas dargoh, deb qarashgan. Sahnani tabarruk joy, deb unga sidqidildan xizmat qilishgan. Bunday fidoyilik zamirida ijod va izlanish yotardi. Chunki, ular ijodiga ilhom beradigan dramaturgiyada, o'z dilidagini tomoshabinga aytadigan "dardiga" asos bo'lar edi. Zamonaviy dramaturgiya va undagi yosh qahramon taqdiri, navbatdagi juda jiddiy masala bo'lib, uning yechimini topmoq musiqali teatrlar istiqboli bilan bog'liq.

Yuqorida biz sanab o'tgan bir qator e'tibor talab masalalar yechimi, bizningcha, musiqali teatr rejissurasi bilan bog'liq muammolardir. Professional rejissura, avvalo, yuqori saviyadagi badiiy yaxlit spektakl degani. Bunday rejissor teatrda sahna nutqiga alohida e'tibor qaratadi. Qolaversa, janr masalasiga savodli yondashuv ham aynan professional rejissura bilan bog'liqdir. Yosh qahramon taqdiri va ularning ijro mahorati ham, professional rejissuraning bosh masalasi ekanligini, alohida ta'kidlash lozim.

Professional rejissor bilan ijod qilgan yosh aktyorning ijodiy kuchiga kuch, ilhomiga ilhom qo'shiladi. Yosh aktyor, o'ziga topshirilgan rol mukammal bo'lishi uchun mahoratini ishga solib, ustozlar o'gitiga amal qilgan

holda ijodiy vazifalarni astoydil bajarishga kirishib ketadi. Institutni tamomlab, teatrga kelgan yosh aktyor ustoz san'atkorlar ko'magi va nazoratida shakllanishi lozim. Bu – eng muhim kasb talablari va shartlaridir. Ilk qadamdan ijodiy vazifani mas'uliyat bilan bajarishga o'rgangan yosh aktyor, albatta, ijodiy shaxsga aylanadi. Buning kaliti esa, qahramonning sahnaviy hayotini jonlantirishni amaliy o'zlashtirish orqali, professional rejissura talablari darajasiga ko'tarilishidir.

Ayni paytda, musiqali teatrlarimiz repertuari ko'pgina zamonaviy sahna asarlari, yosh qahramon taqdiri bilan bog'liq spektakllar bilan boyib bormoqda. Xususan, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali drama teatri ijodkorlari ham bu masalaga o'ziga xos uslubda yondashmoqda. Shuning uchun, teatr repertuaridan o'zbek xalqining o'ziga xos tabiati, orzu-istaklari, milliy qiyofasini aks ettiruvchi, zamonaviy mavzudagi, bugungi kun yoshlari hayotidan hikoya qiluvchi, ularning yutuq va muammolarini yoritib beruvchi sahna asarlari joy olmoqda. Masalan “Otabek va Kumushbibi”, “Ayrim nusxalar”, “Baxtli bo'l dugonajon”, “Osmonning bag'rikeng”, “To'da”, “Oyonam-qaynonam”, kabi spektakllar ana shular jumlasidandir.

Bu spektakllarda musiqali teatrining o'ziga xos milliy ruhdagi an'analarga amal qilinishi kuzatilmoqda. Shu an'analarni saqlab qolish va davom ettirib, rivojlantirish uchun zamon ruhiga mos sahna asarlari zarurligini anglab yetgan ijodkorlar buning asosi milliy dramaturgiya ekanligini tushundi. Bunga Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asari asosidagi, O'zbekiston xalq shoiri Jumaniyoz Jabborovning “Otabek va Kumushbibi” nomli insenirovkasini misol qilish mumkin. Uni marhum rejissor, O'zbekiston xalq artisti Rustam Ma'diyev sahnaga olib chiqdi.

Oradan yillar o'tgan sari adibning “O'tkan kunlar” romani o'zbek kitobxonlarining qo'lidan tushmay kelmoqda. Chunki, Otabek va Kumush, Anvar va Ra'nolarning taqdiri misolida afsonaga aylangan sevgi iztirobi, sevishtanlarning orzu-umidi kirib bormagan birorta o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. “O'tkan kunlar” qariyb ellik yil muqaddam o'zbek kinorejissori Yo'ldosh A'zamov tomonidan suratga olingan keyin film qayta-qayta har bir o'zbek xonadoniga kirib kelmoqda.

Asar qahramonlari o'rtasidagi muhabbat, Zaynabning yurak dardi, Yusufbek hojining o'zbek otalariga xos ichki dardi, O'zbek oyimning onalarimizga xos orzu-havasi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, roman go'zal va badiiy etuk obrazlar bilan to'ldirilgan. Shuning uchun uni sahnaga olib chiqishda, ya'ni uning musiqali variantini yaratishda ijodkor bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy hol edi.

Jumaniyoz Jabborov, romanni insenirovka qilar ekan, filmdagi kabi asarning konfliktlarga boy nuqtalarini tanlab oladi. Rejissor esa, ana shu insenirovkani “Otabek va Kumushbibi” nomi bilan musiqali spektaklga aylantiradi. Spektakl “qizlar bazmi” sahnasi bilan boshlanadi. To'y arafasi. Qizlar o'yin-kulgi qilishmoqda. Ularning o'rtasida Kumush – Zulfiya Umarova o'tiribdi. Boshiga

oq ro'mol tashlagan. Qizlar ariyasi va shu ariyaga mos ikki qizning xirom aylashi, bazm muhitini paydo qiladi.

Bazmdan so'ng sahnada Homid – Habibullo Ortiqov paydo bo'ladi. Aktyor Homidga xos ayyorlik bilan harakat qilmay, balki qo'lidagi uzun qamchisini sahnaning u chetidan, bu chetiga urib o'tib, xuddi chorasizdek baqiradi. Bizningcha, sahnada maqsadsiz baqirish, aktyor ijrosiga tomoshabinning e'tiborini susaytiradi.

“Chinakam artist sahnada hayotiy, insoniy xatti-harakatlar qilmog'i kerak. Obraz ehtirolari asosini aniqlamay, bemaqsad o'ynab bo'lmaydi, balki, obraz shart-sharoitiga asoslanib, maqsadga muvofiq xatti-harakat qilmoq lozim”<sup>1</sup>, – deb ta'kidlaydi rus teatrining mutafakkiri K.S.Stanislavskiy. Bizningcha, maqsadsiz baqirish, zo'riqish, ortiqcha harakatlarni keltirib chiqarish, yosh aktyor Habibullo Ortiqovni noqulay holatga olib kiradi.

Spektaklning navbatdagi sahna ko'rinishi romanda ham, filmda ham betakror va juda go'zal tavsirlangan. El orasida “siz o'shamu?” iborasi bilan mashhur bo'lgan epizod sahnaga ko'chganda ham o'z jozibasini yo'qotmagan. Aktyorlar ijrosi ham aynan shu ijobiy natijani beradi. Otabek rolini ijro etgan aktyor Muzaffar Hamidovni tomoshabinlar Otabek, deb qabul qila oldi. Fikrimizcha, shu sahna spektakl tayanchini mahkamlab turadi. Bu sahnada barchasi go'zal – ijro, libos, nutq, hatto ularga hamohang musiqa ham. Aktyorlar voqeani qalban idrok etgan holda rolga yondashgan.

Rejissor spektakldagi bu sahnani “Kutilmagan baxt” deb nomlagan va shu voqeani qura olgan. Navbatdagi sahnada teatrning tajribali aktyorlari namoyon bo'lishadi. Bu Yusufbek xoji – marhum ustoz sah'atkor, O'zbekiston xalq artisti Fayzulla Ahmedov hamda O'zbek oyim – O'zbekiston xalq artisti Maryam Ixtiyorovalardir. Ular Otabekni Toshkentdan uylantirish rejasi bilan yig'ilishgan. Rejissor ota-ona va o'g'il kurashini ko'rib chiqmagan. Shuning uchun, Otabek kundoshlik balosiga duchor qilayotgan ota-onasiga: “...keliningiz oldida meni bir jonsiz haykal o'rnida tasavvur qilingiz” kabi ichki dard, alam, iztiroblarni yetkazib berolmaydi. Kurash sahnasi puxta-pishiq ishlanmaganligi sababli, Otabek ota-onasi tomonidan aytilayotgan so'zlarga oddiy, odatdagidek tarzda javob qaytaradi.

Otabek – Muzaffar Hamidov ota-ona istagiga binoan, Kumush va uning ota-onasidan rozilik olish uchun Marg'ilonga keladi. Mazkur sahnada Qutidor – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Turg'un Beknazarov va Oftob oyim – Gulnora Rustamova qatnashadi. Qutidor va Oftob oyim kundoshlik balosini eshitib chekayotgan azoblari, har ikkala aktyor ijrosida ham ortiqcha xatti-harakatlarsiz, ishonarli bajarilgan. Bu ijro sahna ustalariga xosdir.

Otabek va Kumush uchrashuvi sahnasida ularning bir-biriga befarqligi namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, ijrochilar o'z qahramonining aynan shu holatdagi ichki kechinmalarini ochib bera olmagan bo'lsalar-da, ular tomonidan ijro etilgan ariya va duetlar juda ta'sirli hamda go'zal natija topgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerak-ki, dramatik sahnalardan ko'ngil to'lmasa ham spektaklning har bir sahnasida aytilgan ariya va duetlar, ularga hamohang yozilgan musiqalar tahsinga sazovordir.

<sup>1</sup> Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi – Toshkent: “Badiiy adabiyot”, 1965. – B.57.

“Haydaliş” sahnasida ko‘ngil qo‘ygan yorining uyidan haydalgan Otabek – Muzaffar Hamidov ichki kechinmalarini tomoshabinga so‘zsiz yetkazib berolmaydi. Natijada, sahna harorati pasayadi. “Sahnada artist tomonidan bajarilayotgan harakatning chinligi va haqiqiyliги o‘z-o‘zidan paydo bo‘lsa, bundan yaxshi ish yo‘q”<sup>2</sup>, – deydi K.S.Stanislavskiy.

Otabek Marg‘ilonlik usta Olim bilan tasodifan uchrashib qoladi. Usta Olim (Hakim Nosirov) Otabek bilan suhbatlashar ekan, o‘z qahramonining turishi, harakatlari, so‘zlarida nechog‘liq bag‘rikeng insonligini ko‘rsatib bera olgan. Otabek va usta Olim sahnasidan so‘ng, “sir ochilishi” voqeasi sodir bo‘ladi. Sahnada oldida Homid va uning sheriklari Kumushni qanday qo‘lga olish kerakligi to‘g‘risida reja tuzishadi. Otabek esa, ularning barcha so‘zlarini eshitib, rejalaridan xabardor bo‘ladi. Demak-ki, sir ochiladi. Spektaklning bu sahnasi mantiqiy yakunlanib, navbatdagi sahnaviy jarayonlarni harakatga keltiradi. Otabek asarning boshida, Kumushga nikohlangan vaqtida qanday baxtli edi, qayin otasi Qutidor tomonidan haydalganda qanchalar baxtsiz edi. Asar ana shunday baxtdan baxtsizlik sari rivojlanadigan voqealarning keskin o‘zgarishiga qurilgan. Afsuski, aktyor Muzaffar Hamidov spektaklning birinchi pardasida qanday bo‘lsa, haydalgandan keyin ham, sirdan voqif bo‘lib qasos olgandan so‘ng ham, Kumush bilan uchrashganda ham va yakuniy sahna Kumush zaharlanganda ham, shunday shartli “Otabek” bo‘lib qolaveradi. Sababi, u aktyorning voqealarga munosabati sahnadan-sahnaga o‘zgarib borishiga sabab bo‘ladigan harakatlarga tayanmaydi.

Iste‘dodli aktrisa Ma‘rifat Ortiqova spektaklda Zaynab rolini ijro etgan. Aktrisa rejissor tomonidan berilgan vazifani to‘g‘ri bajarishga harakat qilgan. Tomoshabin voqea davomida Zaynabga mehr qo‘yadi. Uning nozik harakatlari, Otabek bilan suhbatda qo‘rs muomalaga muloyimlik bilan javob qaytarishi, tomoshabin dilini yayratadi.

Spektaklning final sahnasi. Bu ko‘rinish kinotasmalarda shu kungacha tomoshabinni larzaga solgan voqeyi jarayondir. Filmdagi ruhiyat spektaklning final sahnasiga ko‘chmagan. O‘zbek oyim Zaynabga atala tayyorlashni buyuradi. Zaynab atalaga zahar qo‘shib, uni Kumushga beradi. Kumush esa, zahar ta‘siridan jon beradi. Afsuski, tomoshabinni larzaga solib kelgan mazkur sahnada aktyorlarning ijrosi yetarli talqin etilmagan.

Musiqali teatrning o‘ziga xos imkoniyatlari bor. Bunda ijrochilar ovozigaga, ya‘ni ariya va duetlarni aytish imkoniyatiga qarab tanlanadi. Teatr jamoasi ulug‘ adibning asariga musiqiy yondashib, ma‘lum ma‘noda yutuqqa erishgan. Asarga yozilgan ariyalar ta‘sirli chiqqan. Xususan, “qizlar bazmida” aytilgan ariyalar, Kumush ariyasi, Otabekning Marg‘ilonda Kumush bilan aytgan dueti iztirobli va go‘zal chiqqan. Shuningdek, Otabekning spektakl finalida alamli holatda aytgan ariyasi spektakl ta‘sir kuchini oshirgan.

Musiqali teatr aktyorining obraz xarakterini ochishda dramatik va vokal ifodalarini bir-biriga singdirib

yuborish imkoniyati bor. So‘z yoki vokaldan birontasi kuchsiz ijro etilsa, so‘zdan kuyga yoki kuydan so‘zga o‘tishda organik holat buzilsa, xatti-harakat izchilligi yo‘qoladi, sun‘iylik va yuzakilik paydo bo‘ladi. “Otabek va Kumushbibi” spektaklidagi yosh aktyorlar ijrosida aynan shunday holatlar, ya‘ni ariyadan so‘zga o‘tishda tajribasizlik kuzatiladi. Yosh aktyorlarning ijrosi davomida qahramonlarning ichki olami – dramatik holatlarini ochib berishda, ma‘lum sustliklar seziladi. Har qanday musiqali spektaklda – so‘z, harakat, dramatik holat, musiqa, ijro etilayotgan ariya va duetlar uyg‘unlasha olsagina, kutilgan badiiy yaxlitlikka erishish mumkin.

Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchilik maktabini yaratgan bo‘lsa, o‘zbek hikoyachilik maktabini Abdulla Qahhor yuqori darajada badiiy saviyaga olib chiqdi. Adibni haqli ravishda jahon hikoyanavislari qatoriga qo‘shish mumkin. Abdulla Qahhor ijodi serqirra va serjilodir. Adabiyot dasturxonimizni adibning hikoyalari, roman, bir qancha qissa va ko‘plab sahna asarlari bezab kelyapti. Adibning har bir asari oddiy xalq hayoti, uning turmush tarzi, dardi va orzulari haqidadir.

Yozuvchi o‘z vaqtida sobiq Hamza, hozirgi O‘zbek Milliy Akademik drama teatri jamoasi bilan ijodiy hamkorlikda faoliyat olib borgan. Adibning “Ayajonlarim”, “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, “Ayrim nusxalar” kabi bir qator pyesalari mazkur teatrdan sahnalashtirilib, o‘z vaqtida teatr repertuarini bezab kelgan. Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz teatrlarida yozuvchining sahna asarlari birin-ketin qaytadan, yangi talqinda sahnalashtirildi.

Buyuk so‘z san‘ati sohibi bo‘lmish Abdulla Qahhor o‘zining asarlarida xalqning turmush tarzi, insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, imon-e‘tiqod singari umuminsoniy qadriyatlar bilan birga jamiyatdagi illatlar, jirkanch holatlarni o‘z komediyalarida badiiy ifoda etgan. Adib romanlari va hikoyalaridagi bu kabi mavzularni sahna asarlarida ham ko‘rsata olgan. Quyida biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan “Ayrim nusxalar” (“Tobutdan tovush”) asari ilk marotaba 1962-yilda hozirgi O‘zbek Milliy Akademik drama teatrida rejissorlar Aleksandr Ginzburg va Amin Turdiyevlar tomonidan sahnalashtirilib, o‘z davrida matbuot sahifalarida anchagina shov-shuvlarga sabab bo‘lgan.

Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligi munosabati bilan “Tobutdan tovush” asariga ilk marotaba murojaat qildi. Albatta, bu quvonarli hol. Teatrning bosh rejissori Bahodir Nazarov pyesani zamonga moslashtirib, spektakl orqali bugungi kunning dolzarb muammolarini ochib berishga harakat qilgan. Rejissor asardagi ba‘zi qahramonlarning xarakter mohiyatini o‘zgartirgan. Chunki, davr o‘zgargan. Shuning uchun asar bugungi kunga moslashtirilgan. Asardagi Qori obrazi Azlarxon deb atalib, u spektakl davomida din niqobi ostida emas, balki Suxsurovning hamtovog‘i va shu asnodan rafiqasi Netayxonni davolovchi ekstrasens vrach qiyofasida namoyon bo‘ladi.

Spektakl mavzusi pyesamavzusiga hamohang ravishda, poraxo‘rlikka qarshi kurash bo‘lib qoladi. Sababi, undagi

<sup>2</sup> K.S.Stanislavskiy. Aktyorning o‘z ustida ishlashi – T.: “Badiiy adabiyot”, 1965. – B.191.

bir guruh qahramonlar hamma narsani pulga chaqadilar va eshigiga sadaqa so'rab kelgan gadoydan ham sadaqa so'rab kelganligi uchun, pora olishga urinadilar. Shuning uchun pyesa dastlab yozilgan paytda, sho'ro hukumati tomonidan qarshilikka uchragan. Sababi, kommunistlar rahbarlik qilgan hukumatda poraxo'rlar bo'lishi mumkin emas edi. Natijada asarni ta'na-yu dashnomlardan so'ng, nomi "Ayrim nusxalar" deb o'zgartirilgan ekan.

Asar voqeasi poraxo'rlikning illat ekanligini ta'kidlovchi ashula va balet guruhining raqsi bilan boshlanadi. Sahnada davr obrazini ifodalaydigan qilib bezatilgan xonadon. Uyning to'rida pechka. Pechka yonidagi stol ustida mehmondorchilikdan qolgan shisha idishlar qalashib turadi. Sahnaning chap tomonida Suxsurov – Turg'un Beknazarov va uning hamtovog'i Yusuf – Tursunboy Pirjonovlar kechagi maishatdan so'ng, xurрак otib uhlab yotishibdi. Xuddi shu holatda ularning ro'parasida Azlarxon – Dilmurod Uzoqov ham sheriklari kabi dam olyapti.

Sahnada Netayxon – Gulnoza Saidova ko'rinadi. U payt poylab asta-sekin borib, Azlarxonni uyg'otishga harakat qiladi. Netayxon obrazi dramaturg tomonidan mol-dunyoga o'ch, yuziga ajin tushishidan qo'rqib, ayol uchun muqaddas – onalik baxtidan voz kechgan shaxs qiyofasida tasvirlangan. U eri Suxsurovni sevmaydi, biroq hovli-joyini, mol-u davlatni o'z nomiga o'tkazish niyati uni chidashga majbur qiladi. Netayxon eri yo'q vaqtlarda, qo'shni xushtori – Azlarxon bilan maishat qiladi. O'z eriga xiyonat qila turib, asrandi qizi Hojarni axloqsizlikda ayblaydi. Aktrisa Netayxon xarakterining salbiy jihatlarini to'liq ochib bera olmagan. Chunki, uning maqsadidan kelib chiqqan holda ijroga yondashmagan. Voqealarning keskin o'zgarishidan qat'iy nazar, u o'zgarmaydigan baqiroq ayol sifatida namoyon bo'ladi.

U Xojarni erkin yashashiga xalaqit berayotgani uchun yomon ko'radi. Bu sahna aktrisa tomonidan bo'rttirib ijro qilinadi. Natijada baqiriq paydo bo'ladi. Azlarxon bilan xufiyona uchrashganda, unga suykaliqlaridan Netayxonning maqsadi faqatgina kayfi-safo ekanligi yanada yorqin anglashiladi. Aslida Netayxonni maqsadi boshqa, bu hovlidagi mol-mulkka to'liq ega bo'lishdir. Bu jihat sustligi uchun u yengiltakdek ko'rinadi. Aktrisaning

turli qiliqlar bilan kulgi qo'zg'atishga harakat qilishi ham spektaklda o'zini oqlamaydi. Yana achinarlisi shuki, bu sahnada uning nutqidagi kamchiliklar ham seziladi.

Shobarot obrazini aktyor Umid Shodmonov talqin etadi. Spektakldagi voqealar rivoji davomida aktyor atrofda bo'layotgan voqelarga befarq munosabatda bo'ladi. Uning ijrosidagi Shobarot qiliqlari avvalgi epizodik rollaridagi harakatlarini takrorlashi, uni izlanmaydigan aktyorligiga dalolat deyish mumkin.

Spektaklning yakuniy sahnasida Netayxon Xojarning yuziga tarsaki tushirishi, uning xarakterini keskinlashtiradi. Buning natijasida, qahramon so'zlarida chalkashliklar yuzaga keladi. Bu topilma sahnada haqiqat paydo bo'lishiga yordamlashadi.

Xulosa qilib aytganda, spektaklda ko'tarilgan mavzu va g'oya bugungi kun uchun ham muhim hisoblanadi. Demak, bunday spektakl teatr repertuaridan joy olmog'i darkor. Afsuski, mavzu va g'oya jihatdan baquvvat bo'lgan spektakllar repertuarga kiritilgandan so'ng bir yil o'tmasdan, ijrochilar tomonidan yengil-yelpi yondashuv holatlari ham kuzatilmoqda.

Yosh ijodkorlar o'z rollariga befarq munosabatda bo'lishlari, o'z nutqi ustida ishlamasliklari, tayyorgarliksiz to'g'ridan-to'g'ri sahnaga chiqishlari oqibatida, rolni "o'ynab tashlash" yuzaga kelmoqda. Bu befarqlik natijasida, yosh aktyorlar ijrosida kamchiliklarga yo'l qo'yish odat tusiga kirib qolishi ehtimoldan holi emas. Umuman olganda musiqali teatr san'ati namunasining mo'jizakor qudrati tomoshabinlar qalbini to'lqinlantirib, hayratlantirib, o'zlikni anglashga xizmat qilishi lozim. Zero, u tomoshabinlarga bevosita g'oyaviy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Sahnada ijodkori bilan tomoshabinni ma'nan boyitadi, ruhini poklaydi, ko'nglini ko'taradi, ertangi kunga ishonch hosil qiladi. Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi shart, deganlaridek musiqali teatr san'atining bo'lg'usi namoyandalari ham bu javobgarlikni his qilib, o'z ustida tinimsiz izlanishi, musiqali teatrnin sir-asrorlarini yaxshi anglagan holda ish tutishlari hozirgi davr talabidir. Aktyorning sahnadagi bu harakatlarini ko'rgan tomoshabin uni haqiqiy san'atkor deb tan olsin. Teatrda kelgan odamlar kulsinlar, yig'lasinlar, xayolga cho'msinlar, nafosat va go'zallikdan bahramand bo'lsinlar.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov M. Sehr va mehr. – Toshkent: "O'qituvchi", 1980.
2. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: "Yangi asr avlodi", 2007.
3. Хамидова М. Актерское искусство узбекские музыкальные драмы. – Т.: "Фан", 1987.
4. Хамидова М. Узбекская музыкальная драма. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
5. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: "Sharq", 1997.
6. Jabborov A. Musiqali drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. – T.: "G'afur G'ulom", 2000.
7. Umarov M. Mannon Uyg'ur estetikasi. – T.: "Musiq", 2007.
8. Ikromov H. "Musiqali teatr: tashabbus va ijro". "Teatr" jurnali, 2000. №3.
9. Tursunov T. "Sahna badiiyati ko'chalarida". "Teatr" jurnali, 2005. №1-2.

## RESPUBLIKA YOSH TOMOSHABINLAR TEATRIDA REPERTUAR YARATISH MASALASI

**Annotatsiya.** Maqolada Respublika Yosh tomoshabinlar teatrining mustaqillik yillarida sahnalashtirgan spektakllari, repertuar yaratish hamda rejissura, aktyorlik san'ati rivoji yo'lidagi izlanishlari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** teatr, dramaturgiya, mavzu, janr, xarakter, fabula, monolog, xatti-harakat, aktyor, rejissor, kompozitsiya, badiiy g'oya.

## ПРОБЛЕМА СОЗДАНИЯ РЕПЕРТУАРА В ТЕАТРЕ ЮНОГО ЗРИТЕЛЯ РЕСПУБЛИКИ

**Аннотация.** Статья посвящена спектаклям, Республиканским зрительным театром в годы независимости, созданию репертуара и режиссуры исследованием в области развития актерского искусства.

**Ключевые слова:** театр, драматургия, тема, жанр, характер, фабула, монолог, действие, актер, режиссер, композиция, художественная идея.

## THE PROBLEM OF CREATING A REPERTOIRE IN THE THEATER OF THE YOUNG VIEWER OF THE REPUBLIC

**Abstract.** The article talks about the performances staged by the Republican Young Audience Theater during the years of independence, the creation of repertoire and the researches in the direction of direction and development of the art of acting.

**Keywords:** theater, dramaturgy, theme, genre, character, plot, monologue, action, actor, director, composition, artistic idea.



Repertuar teatrning ko'zgusi va mezoni hisoblanadi. Ma'lumki, repertuardan joy olgan asarlar teatr jamoasining ijodiy badiiy salohiyatini belgilaydi. Repertuar qanchalik boy va rang-barang bo'lsa, shunchalik teatrning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bugungi kun teatrlari repertuaridan milliy ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, unutilayotgan urf-odatlar va marosimlar aks etgan sahna asarlari, tarixiy mavzudagi dramalar, zamonaviy muammolar hamda zamonaviy qahramonlar obrazi tasvirlangan spektakllar o'rin olgan. Mustaqillik yillarida Respublika Yosh tomoshabinlar teatri repertuari mahalliy yozuvchilar bilan bir qatorda chet el dramaturglarining tarjima asarlari bilan ham boyidi.

Teatr repertuaridan kichik yoshdagi tomoshabinlarga mo'ljallangan "Cho'p qo'g'irchoq" (E.Xushvaqto'v), "Jonu dilim pishloq", "Schrli dur" (Xitoy xalq ertagi), "Alamazon va uning piyodasi" (Tilab Mahmud), "Orzular kemasi" (Anvar Obidjon) kabi yana bir qancha spektakllar o'rin oldi.

Bog'cha va boshlang'ich sinf o'quvchilarini asosan ertak janridagi spektakllar qiziqtiradi. Ertak voqealaridagi ezgulik va yovuzlik, halollik va tumballik, muhabbat va nafrat kabi tushunchalar bolalar ko'ngliga tez yo'l topa oladi. Bola sahnada ko'rganlarini bevosita hayotda qo'llab ko'rishga harakat qiladi. Bajarayotgan ishining yaxshi yomonligini seza boshlaydi. Yosh bola ongi barcha narsani tez qabul qiladi. Bu tabiiy jarayon albatta. Qo'yilayotgan har bir spektakl bolalarning ma'naviy, axloqiy va ruhiy holatiga ta'sir eta olish kerak. Yosh tomoshabin spektaklni ko'rib to'lqinlansin, yaxshi-yomonni ajrata bilsin. Bemalol yayrab o'tirsin, kulsin, nimadandir ta'sirlansin. Sahnadagi jonli harakatlar ular uchun misoli ko'zgu.

Teatr jamoasi mustaqillik yillarida repertuari kichik yoshdagi tomoshabinlar talabiga javob bera oladigan spektakllar bilan boyitishga harakat qildi. Teatr repertuarini kuzatir ekanmiz, O.Salimov tashrifidan so'ng ayrim eskirib qolgan uslub va shakllardan voz kechildi va har tomonlama tomoshabinga ozuqa beradigan spektakllar yaratishga izlanish bo'ldi. Zero, "Har bir rejissorga xos bo'lgan mushtarak fazilat – uning o'z safdoshlariga qaraganda aqlliroq va zukkoroq ekanligi, boshqalardan muayyan ma'noda ustunligi, atrofidagi ijodkor kishilar va badiiy qobiliyat egasi bo'lgan mutaxassislar boshini biriktira oladigan qobiliyatli kishi bo'lishidir"<sup>1</sup>.

A.Kudryatsev tomonidan sahnalashtirilgan E.Xushvaqto'vning "Cho'p qo'g'irchoq" asari qiziqarli voqealarga yo'g'rilganligi bilan yosh tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otdi. Unda Nozigul ismli qizcha qishloqdagi buvisinikiga dam olishga keladi. Ammo oradan hech qancha vaqt o'tmay, u zerika boshlaydi. Xarxasha qilib uyga ketaman, deb janjal qiladi. Nevarasini qanday ovutishni bilmagan buvi uning atrofida girdikapalak bo'ladi. Hattoki, yon qo'shnilar ham buviga yordamlasha boshlaydi. Lekin Nozigul ularni haqorat qilib, haydab yuboradi. Buvisining esa dilini og'ritadi. O'yinchoqlarini jahl bilan har tomonga uloqtirib tashlaydi.

Bir kuni ertalab ko'zini ochsa, ajoyib mo'jiza ro'y beradi. Atrofidagi hamma narsalar katta-katta bo'lib ko'rinadi. Daraxtlar, supacha, tomlar, hattoki, yotog'i ham. U qo'rqib yig'lay boshlaydi. Shunda buvisi yasab bergan, ammo uni o'ynashni istamagan cho'p qo'g'irchoq tilga kirib Nozigulga yordam bermoqchi bo'ladi. Bir o'zi uddalay olmaydi. Shunda yordamga Nozigulning o'yinchoqlari, ayiqpolvon va sherni chaqiradi. Ammo qizcha ularni uloqtirib yuborgani uchun o'yinchoqlar unga yordam berish o'rniga o'ch olmoqchi bo'ladi. Oxir-oqibat Nozigul o'yinchoqlariga boshqa

<sup>1</sup> Usmonov R. Rejissura. – Toshkent: "Fon", 1997.

injiqlik qilmaslikka, buvijoni va yaqinlarini xafa qilmaslikka soʻz beradi. Soʻng, hamma narsa asl holatiga qaytadi. Bu Nozigulga saboq boʻladi. Spektakl yosh tomoshabinni doʻstlikka, kattalarga hurmatda boʻlishga chorlaydi. Yonatrofdagilar bilan xushmuomala, hattoki qoʻgʻirchoqlarga ham eʼtibor berishga undaydi. Tantiq, arazchi, urushqoq bolalar bilan hech kim doʻstlashmaydi, degan gʻoyani ilgari suradi.

Asar qisqa va loʻnda voqealardan iborat. Aktyorlar ijrosi Nozigul (S.Parpiyeva) va buvisi (H.Otaxonova) rejissor gʻoyasini toʻgʻri talqin eta olganlar. Liboslar, dekoratsiyalarda ertak ruhi hukmron. Rassom va rejissorning fikri uygʻunlikda olib borilgan. Yosh tomoshabin xohish-istaklari, dunyoqarashidan kelib chiqib tanlangan asar “Choʻpqoʻgʻirchoq” kichik yoshdagi bolalar qalbidan joy oldi.

Dramaturg E.Xushvaqtoʻv asarlarida soddalik va samimiylilik bor. Ijodkor hayotni ortiqcha bezaklardan holi, oddiy va dilga yaqin holda chizadi. Qahramonlari nihoyatda odamshinavanda va shaffof qalb. Adib bolalarga xos fazilatlarini, beboshlik, shoʻxliklarni pyesada mohirona tasvirlay olgan. Spektaklni tomosha qilgan jajji tomoshabin ortiqcha erkaligu shoʻxliklarni tashlab, ota-onasining soʻziga quloq soladigan bolakay boʻlishiga ishonamiz. Nafaqat oʻz ota-onasining, balki oʻzidan kattalarni ham hurmat qilib, ular soʻziga quloq tutish kerakligini anglab etadi.

Teatr repertuaridan oʻrin olgan Anvar Obidjonning “Alamazon va uning piyodalari” asari ham tomoshabinlarga manzur boʻldi. Rejissor Aleksandr Kudryavsev yosh tomoshabinning psixologiyasidan kelib chiqqan holda pyesaga yondashadi. Alamazonning yaqin doʻsti Eshmat biroz oʻyinqaroq va shoʻx bolakay. Alamazon esa koʻproq shirin xayollar suradigan va atrofdagilar uchun qandaydir foyda keltirishni istaydigan bola. Ikki doʻst kelishib xazina topishga otlanishadi. Alamazonning fikricha, agarda ular xazinani qoʻlga kiritsalar maktab uchun stadion qurishni rejalashtiradi. Xullas, ikki doʻst oʻylashib, kelishib Yelkantogʻdagi gʻorda joylashgan Zimistonsaroyga yoʻl oladilar. Gʻorga yetib kelishganda birdan gumburlagan ovoz taraladi, toshlar koʻchib, chang koʻtariladi, shunda gʻorning ogʻzi yopiladi. Shu payt ularning yoniga ikki kishi kirib keladi. Birining ismi Shilpiq, ikkinchisi Tirtiq. Ular mana shu mamlakatning soqchilari boʻlishadi. Bu mamlakat esa Yulduziston deb nomlanadi. Uni yovuz shoh Isqirt birinchi boshqaradi. Ikki doʻst Yulduzistonni yovuz shohdan va uning “shayka”laridan qutqarmoqchi boʻladilar. Alamazon harakat qilib, Isqirt birinchini yengadi va haqiqiy malika Xazinaga Yulduzistonni ozod etgani haqida xabar joʻnatadi. Soʻng esa gʻordan chiqib oʻz mamlakatlariga qaytishadi. Spektakl yakunida esa bularning bari Alamazonning tushida kechgani aniqlanadi. Asar yakunidagi Alamazon tomonidan aytilgan fikr: *“Agar rostanam tush boʻlsa hayotimdagi eng goʻzal tush bu. Yana qancha umr koʻrmayin, oʻsha gʻaroyib Yulduzistonni, undagi qadrdon doʻstlarimni sogʻinib eslayveraman. Eslaganim sayin, ezgulikka talpinaveraman. Menimcha har bir yurakning oʻz sehrli mamlakati boʻlgani yaxshi”*. Bu qahramonning soʻzlari orqali har bir bolaning murgʻak qalbidagi oʻz orzu-umidlari, istaklari borligini bilish mumkin.

Asardagi obrazlarni Alamazon – Hakim Halilov, Eshmat – Sherzod Bozorov, Shilpiq – Abdumaʼruf Qodirov, Tirtiq

– Dilbar Abdulazizova, Otin bibi – Farida Umarova, Malika xazina – Nafosat Pozilovalar mahorat bilan ijro etganlar. Sahnadagi dekoratsiyada biroz kamchiliklar sezilsa-da, ammo rassom voqealar holati va mazmunini aks etdira olgan. Liboslar ham har bir qahramon xarakteri, holatiga mos tanlangan. Spektakl dramaturgiyasiga toʻxtaladigan boʻlsak, bolalarbop asarlarni maromiga yetkazib yoza oladigan mashhur yozuvchi Anvar Obidjon ayrim bolalarning kirchir boʻlib yurishlarini Isqirt birinchi va uning sheriklari orqali ochib berishga intilgan. Bu asar bilan u mana shu qahramonlarni koʻrib xulosa chiqarishni va oʻzlaridagi salbiy jihatlarni oʻzgartirishlarini istaydi. Alamazon obrazi orqali esa doim yaxshilikka intiluvchi, atrofdagilarga yordam berishga harakat qiluvchi bolalarni ifodalab bergan. Bu asarni tomosha qilgan bolajon oʻylaymizki, sahnadagi qahramonlardan oʻrnak olib, feʼl-atvorini oʻzgartirishga intiladi.

Maʼlumki, bolalar va yoshlar tarbiyasi – jamiyatimizning yangi ijtimoiy shart-sharoitlarda olgʻa qarab siljishidagi tub masaladir. Bundan koʻrinadiki, Yosh tomoshabinlar teatri ijodiy jamoasi zimmasida nozik va masʼuliyatli vazifalar turadi. Teatr, albatta, u tomoshabinlarni yuragiga yoʻl topa bilishi, oʻz sahna asarlari bilan saboq berishi, xullas, sanʼatning sehrli kuchini namoyish qilishi, bu kuchni ular ongiga singdira bilishi kerak. Bundan tashqari teatrga nisbatan muhabbat va aksincha sanʼatning shu turiga nisbatan loqaydlik hissi ham bolalarda Yosh tomoshabinlar teatridan boshlanadi.

Ana shunday maqsadlar bilan ijod qilishga shaylangan Yosh tomoshabinlar teatrida rejissor Toʻlqin Rahmatov Xitoy xalq ertagi asosida “Sehrli dur” asarini sahnalashtirdi. Spektakl voqeasi sahnaga masxarabozlar chiqishi bilan boshlanadi. Ular turli harakatlar, oʻyin-kulgi orqali spektakl boshlanishidan darak beradilar.

Spektakl qahramoni Dumen ismli yigit sehrli dur topib oladi. Uni guruchga solib, guruch koʻpaytiradi. Soʻng atrofdagilar unga pul koʻpaytirishni maslahat berishadi. Qarabsizki, Dumen oddiy dehqondan amaldor, boyga aylanadi. Keyinchalik esa Dumen qoʻrqqanidan oxir-oqibat sehrli durni ogʻziga solib uxlaydigan boʻladi. Shunday kunlarning birida u durni yutib yuboradi va ajdarhoga aylanib qoladi. Oʻz holiga qaytishni juda-juda istagan Dumenga spektakl oxirida tabiat malikasi yordam beradi. Uning koʻmagi bilan Dumen oʻz holiga qaytadi.

Rejissorning yutugʻi, garchi asar Xitoy xalq ertagi boʻlsa-da, uni oʻzbek xalq masxarabozlari ijrosi bilan boyitgan. Yaʼni Toʻlqin Rahmatov spektaklga oʻzbekona ruhni ham kirita olgan. Aktyorlar jamoasi ham yaxshi tanlangan. Rahmatilla Qurbonov, Nafosat Pozilova, Baxtiyor Pozilov, Nargiza Moʻminova, Sherzod Ahmedov Abduvohid Sariqov kabi isteʼdodli aktyorlar ansambli yaratilgan. Sahna dekoratsiyalarida ham Xitoy xalqiga xos muhit hukmron.

“Sehrli dur” asari kichik yoshdagi bolalar toifasiga moʻljallangan boʻlib, spektakl gʻoyasi ham bitta, yaʼni peshona teri bilan topilmagan boylik yaxshilikka olib kelmaydi. Darvoqe, bosh qahramon Dumening ochkoʻzlik va ziqnaligi oʻzining boshiga yetadi. Teatr jamoasi bu asar bilan bolalarni ochkoʻzlikdan osonlik bilan pul topishga oʻch boʻlmaslikka oʻrgatadi. Har bir spektaklda boʻlgani kabi “Sehrli dur”da ham yaxshilik va yomonlik oʻrtasida konflikt yuz beradi. Sahnadagi turli xatti-harakatlar, voqealarni

tomosha qilgan jajji tomoshabin qalbida ham atrofidagi hodisalarga munosabat tug'diradi. Ular ham mana shu sahnadan voqealar orqali nima yaxshi-yu, nima yomonligini tez anglay olishadi.

Teatr jamoasi yosh tomoshabinlar talabidan va psixologiyasidan kelib chiqqan holda bir qancha spektakllarni sahnalashtirdi. D.Urban "Sichqonlar pishloqni yaxshi ko'radi" asari asosida rejissor A.Kudryavsev sahnalashtirgan "Jonu dilim pishloq" spektakli teatr repertuarini yanada boyitdi. Asardagi voqealar kulrang va oq sichqonlar orasidagi mojarolar atrofida kechadi. Ikki sichqon oilasida kelisholmasdan bir-biri bilan tortishadi va asar so'nggida afsungar sichqon yordamida nizolar bartaraf etiladi. Sahnadagi qahramonlar, ya'ni sichqonlar obrazini iste'dodli aktyorlar Zebiniso Qodirova, Zafar Asqarov, Bahrom Usmonov, Akrom Bo'ronov, Dilbar Aromova va Nafosat Pozilova kabi aktyorlar ijro etganlar. Iste'dodli aktrisa Nafosat Pozilovaning kichik qahramoni haqida to'xtaladigan bo'lsak, u oq sichqonning Frunzi ismli qizi obrazini yaratgan. Aktrisa sahnada xuddi oq sichqonlardek harakat qiladi. Uning yurishlari, xatti-harakatlari, ovozing mayinligi tomoshabinlarni voqealar qurshoviga chorlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalar ongi hali murakkab narsalarni qabul qila olmaydi. Ularga sodda va jo'n tilda voqeani yetkazib berish kerak. Mana shu fikrlarni inobatga olgan holda rejissor aynan shu asarga qo'l urgan. Bu spektaklni kichik yoshdagi tomoshabin maza qilib maroq bilan tomosha qilsa, ikkinchidan mehribon bo'lishga va atrofda qilargalarga xushmuomalada bo'lishga o'rganadi.

Ma'lumki sahna asari dramaturg, rejissor, rassom, kompozitor, ssenograf va aktyor mehnatidan yuzaga keladi. Rejissor va dramaturg g'oyasi, ijodiy mahsulini aktyor sahnada talqin etadi. Aktyor serqirra shaxs bo'lishi kerak. Aktyorlik san'atining ham o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Tomoshabinni voqeaga ishonтира olish, sahnadagi qahramon holatiga kira olish, rejissorning oliy maqsadini amalga oshirishdan iborat. Shu bilan birga aktyorda improvizatsiya ham kuchli bo'lishi kerak. Ijodiy jarayon davomida rol taqsimlanadi, rejissor vazifalarni tushuntiradi,

pyesani o'qib chiqadi, so'ng o'zi mustaqil ijod qiladi, obrazga mos xarakter, detal topishga intiladi. Agarda, aktyor rejissor ko'rsatib bergan holatdan chiqib ketolmay, talqin etayotgan obraziga biror yangilik yarata olmasa, uning ijodi so'na boshlaydi. Aktyor ijrosi zaldagi tomoshabinlar uchun mos holda, sahnadagi voqelikka uyg'unlashgan tarzda bo'lishi kerak.

Dramatik teatr aktyoridan farqli o'laroq Yosh tomoshabinlar teatri aktyori o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ya'ni bolalarga spektakl o'ynash mushkul bo'lib, ularda sahnadagi voqea-hodisalarga munosabat ochiq oydin bo'ladi. Voqealar davomida salbiy qahramonlarga bor munosabatni ifodalaydilar. Spektakl voqealariga aralashishga urinadilar. Aktyorlar bundan o'rinli va ununmli foydalanishlari lozim. Shundagina teatrga tashrif buyurgan tomoshabin asardan ma'naviy ozuqa olishi mumkin. "Avvalo bolalar va yoshlar teatri kattalar teatriga o'xshagan, ammo undan-da yaxshiroq bo'lishi kerak. Bu fikr aktyorlarga ham tegishli. Bolalar teatri aktyori serqirra va mohir ijodkor jismonan baquvvat, ruhan tetik, tabiiy xususiyatlari bolalarning qiziqishiga mos keladigan shaxs bo'lishi shart"<sup>2</sup>.

Yosh tomoshabinlar teatrlarining o'z spetsifikasi bor, ya'ni yosh bolalarga ma'naviy ozuqa bera oladigan, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan, har tomonlama mukammal, qiziqarli spektakllar yaratish lozim. Teatr jamoasining mustaqillik yillarida yosh tomoshabinlar talabiga javob beradigan spektakllar yaratishga muvaffaq bo'lganligini kuzatish mumkin.

Teatr san'atining asosini repertuar, rejissura, aktyorlik san'ati hamda ssenografiya, musiqa komponentlari belgilaydi. Mana shu mushtaraklik aks ettirilsa, ajoyib sahna asarlari yuzaga keladi va mazkur teatr faoliyati haqida yana va yana to'xtalishga, ilmiy xulosalar qilishga undaydi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, Respublika Yosh tomoshabinlar teatri doimo yurt kelajagi bo'lgan yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularning ong-u shuuriga ezgulik, bunyodkorlik, mehr-muhabbat, sadoqat, oqibat, do'stlik, bag'rikenglik kabi g'oyalarni singdirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – B.288.
2. Ikromov H. Davr va teatr. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. – B.240.
3. Istiqlol va milliy teatr. – T.: "Yangi asr avlodi", 2002. – B.216.
4. To'laxo'jayeva M. Teatr tanqidchiligi. – T.: "San'at", 2015. – B.410.
5. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: "Yangi asr avlodi", 2007. – B.267.
6. Tursunboyev S. O'zbek teatri sarhadlari. – T.: "O'zDSMI xabarlari" ilmiy jurnali, 2010. – B.308.
7. O'zbekiston san'ati (1991-2000). – T.: "Sharq", 2001. – B.240.

<sup>2</sup> Shodiyeva S. "Bola sahnada o'zini ko'rsa". "Teatr" jurnali, 2009-yil. №7-8.



## OGAHIY NOMIDAGI XORAZM VILOYAT MUSIQALI DRAMA TEATRINING SHAKLLANISHIDA DRAMATURG VA REJISSORNING O‘RNI

**Annontatsiya.** *Ushbu maqolada Ogahiy teatrining shakllanish va rivojlanishida rejissor va sahna asarlarining o‘ziga xos jihatlari e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga aktyorlar ijro mahorati, rejissor yondashuvi, dramaturgiyadagi izlanishlarga ahamiyat berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** teatr, rejissor, dramaturg, shoir, uslub, aktyor, sahna, dekoratsiya, repertuar.

## О СТАНОВЛЕНИИ ХОРАЗМСКОЙ ОБЛАСТНОЙ МУЗЫКАЛЬНО ДРАМАТИЧЕСКИЙ ТЕАТР ИМЕНИ ОГАХИ РОЛЬ ДРАМАТУРГА И РЕЖИССЕРА

**Аннотация.** *Эта статья посвящена конкретным аспектам режиссуры и постановки в становлении и развитии театра Огахи. В то же время актерам придавалось большое значение исполнительскому мастерству, режиссерскому подходу, исследованиям в области драматургии.*

**Ключевые слова:** театр, режиссер, драматург, поэт, стиль, актер, сцена, декорации, репертуар.

## ON THE FORMATION OF THE KHOREZM REGIONAL MUSIK AND DRAMA THEATER NAMED AFTER OGAKHI THE ROLE OF THE DRAMATURG AND THE DIRECTOR

**Annotation.** *This article is devoted to specific aspects of directing and staging in the formation and development of the Ogahi Theater. At the same time, the actors attached great importance to performing skills, director's approach, research in the field of drama.*

**Keywords:** theater, director, playwright, poet, style, actor, stage, scenery, repertoire.



Xorazm viloyati markazi sanalgan Xivada 1922-yilda tashkil etilgan (Ogahiy teatri) “Xalq uyi” nomli yangi teatr “Sharq o‘g‘loni” deb nomlanagan maxsus tomosha namoyish etdi. Dastlab teatr o‘z atrofiga Muhammad Yusuf Xarratov, Madrahim Yoqubov, Qadam Qutliyev, Jumaniyoz Qalandarov, Sharif Ollayorov, Samandar Saraymanov, Umar Qurboniy, Ro‘zmat Yusupov, Saodat Muxtorova, G‘ani Jalil kabi bir qator iste’dodlarni jamladi. Muhammad Sharif Polvonov teatr tashkil etdi va teatrning birinchi rejissori etib tayinlandi. Yosh jamoani oyoqqa turishida Hamza Hakimzoda Niyoziyning xizmati ham beqiyosdir.

Mahalliy matbuotning yozishicha: “Teatrini ochilishi mahalliy xalq musulmonlariga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi”. O‘sha vaqtda repertuar bir aktli agit drama va konsert programmalaridan iborat edi. Bulardan tashqari Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Tuhmatchilar jazosi”, “Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari”, “Farg‘ona fojeasi” nomli trilogiyasi, M.Uyg‘urning “Turkiston tabibi”, G‘ulom Zafariyning “Erk bolalari” kabi bir qator asarlari sahnalashtirilgan.

1933-yilga kelib, asosiy truppa Xorazmning yangi poytaxti Urgenchga ko‘chirilishi uni Xonqa teatr jamoasi bilan birlashtirdi va Xorazm musiqali drama teatri nomini berdi. O‘z tarkibiga Salim Xo‘jayev, Solih Devonov, Vahobjon Fayozov, Rahmon Ollaberganov, Mahmud Safoyev, Sharif Ramazonov, Hojixon Boltayev, Onabibi Polvonova va rassom Kaminskiylarni yig‘di. Keyinchalik ijodiy jamoani yanada salmog‘ini oshirish maqsadida Tamaraxonim, Zuhur Qobulov, Armug‘on Muhammadov, Sayfi Olimovlar o‘z xizmatlarini qo‘shdilar. Tamaraxonim Xorazmdagi paytlarini shunday xotirlardi: “Hayotimning Xorazmdagi davrini eslasam jo‘shqinlanib ketaman. Negaki, o‘sha paytlar men uchun teatr, sahna, zal va kulisdan mo‘tabarroq ulug‘roq joy yo‘q edi. Zuhur Qobulovni serg‘ayrat desak kam, u yosh, baquvvat,

shijoatkor ham edi. Xorazmda ishlagan birinchi ma’lumotli rejissor. U o‘z ishiga loqaydsizlarni yomon ko‘rardi..., repetitsiyaga kechikib kelganlarni haydab yuborib, o‘rniga o‘zi rol ijro etardi. O‘zining o‘tkir yonuvchi ko‘zlari va kelishgan gavdasidan shijoat yog‘ib turgan bu yigit ishda ham qattiqqo‘l edi. “Qodir qo‘llaringni qayerga yashiryapsan”, – deya zaldan artistga qichqirganida, qo‘rqibroq qo‘lini ko‘targan aktyor “mana u”, deya olardi. “Men ularni ko‘rmayapman. Nima uchun qo‘ling harakatda bo‘lmaydi. Jestlar bilan ijro et, mana bunday”, – deya o‘zi ham sahnaga otilib chiqib ketardi. Biz uni ana shuning uchun ham hurmat qilardik”, – deya eslaydi Tamaraxonim.

“Teatr rejissori Zuhur Qobulov faqat rol ijrosi ustida qayg‘urib qolmagan. U artistlarning hayotiga taalluqli hamma masalalar ustida qayg‘urgan. Rejissorning eng yaqin yordamchilaridan bo‘lgan Akbar Muhammadov va Po‘lat Rahimovlar mehnatini ham alohida aytish joiz.

Teatr faoliyatini samarali olib boishda Zuhur Qobulov boshchiligidagi spektakllar postanovka qilishga, har bir rolni dublyor bilan o‘ynashga kirishilgan. Bundan tashqari biz teatrdan raqs to‘garagini tashkil etdik. Dars berish esa menga yuklatildi. O‘sha paytda kam bilimim bilan juda qiyinalardim. Ammo tinmay izlanish o‘z samarasini bera boshladi. O‘ylaymanki, Xorazmda xalq raqsi bilan ham ohang tug‘iladi. Bu yerda yoshlar ham keksalar ham raqs tushadi. Yana qanday raqsga tushadi deng! O‘zim ham o‘qidim, ham o‘qitdim”, – deya xotirlaydi Tamaraxonim.

Buyuk san’at darg‘alari zahmatning samarasini keyingi davr taraqqiyotida ko‘rdilar va shu san’atga qo‘shgan hissalaridan o‘zlarida faxr tuyg‘usini his etdilar. Bu yillarda tomoshabinlarga mukammal zamonaviy mavzudagi qator spektakllardan Komil Yashinning “Yondiramiz”, “Nomus va muhabbat” o‘zbek xotin-qizlar ozodligini madh etuvchi “Gulsara”, uzoq o‘tmish haqida hikoya

qiluvchi “Uyg‘onish” asarlari taqdim etildi. Ayniqsa, shular ichida Xurshidning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” poemalari teatr ixlosmandlari tomonidan zo‘r ishtiyoq bilan qabul qilingan. Xorazm xalqi uchun madaniy hayotni targ‘ib qiladigan professional spektakllar “Boy ila xizmatchi”, “Xolisxon”, “Maysaraning ishi” bo‘ldi. Zamon ruhi bilan hamnafas holda ijod qilgan rejissorlar rus va jahon klassiklarining nodir durdonalari sanalgan K.Gotsiyning “Malikai Turondot”, Gogolning “Revizor” kabi asarlarini ham sahnaga qo‘ygan.

Ulug‘ vatan urushi yillariga kelib, teatr xalq mardligini, jasurligini, vatan ozodligini tarannum etuvchi, insonlarning ma‘naviyatini oshiruvchi pyesalarga murojaat etdi. Bular “Davron ota”, “O‘lim bosqinchilarga”, “Oftobxon”, “Qasam” spektakllari bo‘lib, o‘sha davr uchun haqiqiy shuhrat pog‘onasini olib kelgan. Albatta, bu sahna asarlarining muvaffaqiyatini bosh rejissor I.G.Ilyalov, S. Saraymonov, V.Fayozovlarning mehnatini samarasi belgilagan.

Yildan-yilga teatr jamoasi yuksalib, sayqallanib boraverdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin repertuarda Uyg‘unning “Hayot qo‘shig‘i”, “Navbahor”, “Oltin kuy”, A.Qahhorning “Yangi yer”, “Og‘riq tishlar”, B.Rahmonning “Yurak sirlari”, “Surmahon”, O.Yoqubovning “Chin muhabbat” kabi qator pyesalarga murojaati quvonarli bo‘ldi. Shular qatori tarixiy inqilobiy mavzudagi Oybekning “Qutlug‘ qon”, Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy”, S.Abdullaning, “Muqimiy”, asarlari va afsonaviy pyesalar sanalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra”, “Semurg” kabi bir qator spektakllari jamoani xalqqa yanada yaqinlashtirib, muxlislar soni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Sahnaga asarlari mukammallashib borishi aktyorlarning o‘z ustida ishlab, mahoratlarini ko‘rsatishga imkon yarata olgan. Masalan, yosh aktyor S.Devonovning Navoiy va Ferdinanti, M.Rahimov yaratgan Jaloliddin, S. Rahimovning mahorati ochilgan Gul va Luizasi, V.Fayozovning Qays obrazlari tomoshabinlarni hayrat va hayajonga solib, yoshgina san‘atkorlarga nisbatan yana bir bora hurmat uyg‘ota olgan. Keyingi bosqich jamoani original sahna asarlariga murojaati bo‘ldi. Teatr O‘zbekistonda birinchi bo‘lib Litva dramaturgi Y.Marsinkyavichusning “Mindagaus” tarixiy dramasi, bolgar dramaturgi N.Yordanovning “Muhabbat” melodramasini sahnalashtirdi.

1960-70 – yillarga kelib ijodiy jamoada yuksalish pog‘onasi bo‘ldi. O‘sha yillarda repertuarga “Qaroqchilar”, “Kechikkan sevgi”, “Dahshatli tun”, “Xonumo” spektakllarini qo‘yilishi teatrning ko‘plab festivallarda mavqei yuqori pog‘onaga ko‘tardi. Ushbu sahna asarlarni sahnaga olib chiqilishi, albatta, izlanuvchan ijodkor jamoani katta yutug‘i bo‘la olgan.

1980-yillardan keyin dramaturgiyada nodir asarlar bo‘lsa, o‘z navbatida yosh rejissor va aktyorlar tarkibida yangi nomlar, talantlar bo‘ldi. Eng quvonarlisi shundaki, o‘sha vaqtda teatr binosining qayta jihozlanishi, aktyorlarga keng sahnada qoqilmasdan rollar ijro etishiga imkon yaratib bergan.

Bu yillarda iste‘dodli rejissorlardan Hoshim Isломov, Ibodulla Niyozmetovlar sahnada hayotning eng dolzarb masalalarini aks ettirgan asarlarni sahnalashtirib, repertuari boyitishda samarali hissasini qo‘shgan. Fransuz, nemis, ozarbayjon, turkman va boshqa ko‘plab xalqlar dramaturglarining asarlari sahnalashtirilishi aktyorlar jamoasini ijodiy izlanishga, yangi qirralarini shakllanishiga xizmat qilgan.

<sup>1</sup> Rizayev S. Ogahiy nomli musiqali drama va komediya teatri (Ijodiy izlanishlar). – Toshkent: 1983.

Hoshim Isломovning doim zamonaviylikka intilishi zamonga mos spektakllarni sahnaga qo‘yish fazilati uni boshqa rejissorlardan ajratib turardi. “Ibodulla ham spektakldan spektaklga o‘tib bilimini tinimsiz oshirib boradigan ijodkor. U qanday asarni qo‘lga olmasin, avvalo dramaturg ko‘zlagan g‘oyani ilgari surishga harakat qilardi. Niyozmetov rejissurasining yana bir qimmatli tomoni shundaki, u plastik vositalarga, sahna bezagi va kostyumlarga, o‘yin va rang-barang sahna nurlariga, muzika va sahna ovozig‘a alohida ahamiyat berardi. Shuningdek, qahramonning ichki tug‘yonidan kelib chiqib, buni murakkab obraz ijrochisi psixologik talqiniga yo‘naltirish ham Niyozmetov rejissurasida asosiy o‘rin egallaydi. Bunday xususiyatlar uning spektakllarida ham ko‘zga tashlanadi”<sup>1</sup>.

Haqiqatdan ham bu ikki ijodkor o‘z izlanishlari samarasini yaratgan spektakllaridagi muvaffaqiyatlarda ko‘ra olgan. Albatta, bunday yuksalishlarda rassomlarning o‘rni ham alohida ta‘kidlanadi. Sahnaga dekoratsiyalarining qanchalik asar bilan uyg‘unligida bu san‘at ahlining xizmatida ko‘rinadi. Ular yaratgan bitta motiv sahna asari saviyasini yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishi, yoki aksincha, tushirishi ham mumkin. Chunki dekoratsiyalarining rang-barangligi sahna asari qimmatini belgilab beradi. Buning yaqqol misolini o‘sha vaqtda teatrga qo‘yilgan tarixiy mavzudagi “Beruniy” dramasi ko‘rish mumkin. Ushbu asar boshqa sahna asarlaridan tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turgan va tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olingan. Asarda Beruniy hayotining Xorazm shox saroyidagi davri ko‘rsatilgan. Rejissor bu asar orqali o‘sha davr qahramonining ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini, keskin qarshiliklarga uchragan olim hayotini yoritib bera olgan. Ulug‘ mutafakkir Beruniy obrazi San‘at Devonov tomonidan mahorat bilan ijro etilgan.

Istiqlol davrigacha jamoa ko‘p zahmatli yo‘lni bosib o‘ta oldi. To‘siqlar ham muvaffaqiyatlar ham o‘z mahsulini ko‘rsatdi. Yangi davr teatr ixlosmandlari uchun zamonaviy mavzulardagi sahna asarlarini sahnalashtirilishi yutuqli holat bo‘ldi. Jumladan, “To‘maris”, “Feruz”, “Layli va Majnun”, “Jobbi Jo‘jakning hiylasi”, “Tikansiz tipratikanlar”, “Arab Muhammadxon”, “Kechikkan ko‘z yoshlar”, “Tilla tarvuz”, “Marvarid taqqan ayol”, “Qizil tangalilar sardori”, “Aldagani xotin yaxshi”, “Javlon jo‘ra”, “Handalar”, “Chirog‘imni kim yoqdi”, “Jonginam jonimni ol”, “Susanbil”, “Hasan kayfiy”, “Nur qilich” kabi asarlar sahnalashtirilib, teatr jamoasining eng sara ijod namunalari qatoridan joy egalladi.

Ogahiy teatrida tarixiy pyesalarni sahnalashtirish Ibodulla Niyozmetov oldidagi asosiy maqsad bo‘ldi. Bu borada rejissor-shoir, dramaturg, romannavis Erkin Samandarga murojaat etadi. Dramaturgning fikriga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak: “Jaloliddin Manguberdi haqida asar yozish orzusi oltmishinchi yillarda yuragimga cho‘g‘ tashlagan. Avval baytlar bitdim, she‘rlar yozdim. “Xiva” she‘rimdagi “Jaloliddin bo‘lib tulporda daryoni kechib yoxud” misrali band, “Xorazm farzandiman” she‘rimdagi:

*Men u kunlar hasratida o‘rtanib yonmay nechun,*

*Hali ham vayronlarda izg‘isa achchiq tutun,*

*Mard Jaloliddin yiqildi jangda shu tuproq uchun,*

*Men shu tuproq vorisiman, men shu el farzandiman,*

– kabi misralar ilk izlanishlarimdan tug‘ilgan. So‘ngra Alouddin Xorazmshohning o‘z o‘g‘li Jaloliddin bilan so‘nggi uchrashuvi haqida “Olis nidolar” balladasi yozildi. Shundan keyin Manguberdi o‘z onasi, xotinlarini Chingizning qo‘liga tusha ko‘rmasin, deb noiloj daryoga oqizgani to‘g‘risidagi “Ona va o‘g‘il” dostoni dunyoga

keldi. Saksoninchi yilga kelib, ko'nglimda Jaloliddin Manguberdi haqida roman yozish istagi tug'ildi. Uzoq o'yashlarimdan so'ng asarni nimadan boshlashni topganday bo'ldim. Yoza boshladim. Baribir qalam ravon yuravermadi. Chunki, bosh qahramonlarimning aksariyati hukumdorlar-ku, axir. Jaloliddin Manguberdi, Alouddin Xorazmshoh, Chingizxon, uning o'g'illari, Hind, Xuroson, Eron, Iroq tojkorlari. Qanday podsho yaxshi-yu, qanday yomon. Ular umuman ma'lum. Shunday bo'lsada, aniq taassurotlar kerak. Oldimda juda ko'plab savollar ketma-ketligi, ularga javoblarni ravon to'g'ri yozishni ichimdagi muharrir boshqarib turardi. "Ajodlar qilichi" va "Yot hujra" tarixiy asarlarimdan so'ng roppa-rosa ikki yil ichida "Jaloliddin Manguberdi" sahna asari tayyor holatga kelgan. Bu asarda butun teatr jamoasi ishtirok etgan. Sahnama-sahna, ko'rinishma-ko'rinish jarayonlarini reja asosida rejissor bilan tayyorlab repetitsiyalarni qayta-qayta ishlaganmiz. Juda ko'p tortishuv, bahslar asosida spektakl sahnaga chiqqani, haliyam kechagidek esimda"<sup>2</sup>.

Erkin Samandar qalamiga mansub "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy sahna asarida moziyning uzoq o'tmishiga nazar tashlaymiz. Teatr sahnasida 1993-yili rejissor Ibodulla Niyozmetov tomonidan sahnalashtirilishi ham muvaffaqiyatli kechgan.

Xorazmning milliy qahramoni Jaloliddin Manguberdi ideallashtirilgan shaxs sifatida xotirlash mumkin emas edi. Ana shunday bir paytda Erkin Samandarovning "Jaloliddin Manguberdi" asari yaratildi. Rejissor Ibodulla Niyozmetovga asar har tomonlama ma'qul tushadi, ayrim joylarini qayta ishlab, ayrim joylarini olib tashlab sahna asarini yaratishga kirishadi. Ammo bunga qarshi bahs-munozaralar, tortishuvlar o'z aksini ko'rsatadi.

Erkin Samandarovni teatr dramaturgiyasiga jalb qilish juda katta voqea bo'ldi, boisi u Xorazm teatri uchun g'oyaviy pyesalar yozdi. Dramaturgiyadagi ilk mashqlari bo'lganligi sababli, pyesalar ayrim kamchiliklardan holi emas edi. Shuning uchun Ibodulla Niyozmetov asarlarni muallif bilan qayta ishlagan. Masalan, she'riy tarixiy drama janrida yozilgan "Ajodlar qilichi" asarining ayrim joylari sahnabop emas. Asarda berilgan ba'zi voqealar, holat va sharoitlarni sahnaga chiqarishning iloji yo'qligi uchun ham rejissor ishga kirishadi. Pyesada voqealar shunday tarzda aks etadi: *"Uzoq davom etgan shafqatsiz jang taqdiri dushman foydasiga hal bo'layotgan mash'um damlar. Yerda qilichlar, dubulg'alar va qalqonlarning siniqlari, ko'kda hamon bursiqib turgan qora tutunlar. Yondirilgan uylar, yakson etilgan istehkomlar. Otlarning zorli kishnashlari, yaradorlarning og'ir ingrashlari, xotinlar, bolalarning faryodlari. So'nggi olishuv lavhalari. Daryoda qon oqmoqda, sohilda yong'in borliqni o'z qa'riga tortmoqda. To'rga tushgan sherday o'kirib Jaloliddin keladi. Qo'lida qilich, chap yelkasi va qo'lidan tirkirab qon oqmoqda. Uning boshida o'ynayotgan qilichdar domini Muza'ffar Malik, boshqa pahlavonlar qaytarib, qo'tirgan yovni yer tishlatib turgan bo'lsada, qo'shin ilojisiz daryoga chekinmoqda"*<sup>3</sup>.

Dramaturg asarning boshlanishidanoq barcha kulfatlarning sababchilaridan biri bo'lgan Xo'ja Badriddinni sotqinligini ochib qo'yadi. O'tror taslim bo'lgach uning pahlavonlari Muza'ffar Malik va Yovqoch botir Xorazmshoh oldiga keladilar. O'tror qal'asini Qoracha Hojib sotganini aytishadi. Shu yerda bir xat ko'rsatib Xo'ja Badriddinni

xoinligini isbotlashadi. Xorazmshoh uni zindonband qilishni buyuradi. Biroq keyingi voqealarda Xo'ja Badriddin qanday paydo bo'ladi, bu ma'lum emasligi uchun rejissor bu parchani olib tashlashga majbur bo'ladi. Birinchidan, mantiqqa to'g'ri kelmasligi bo'lsa, ikkinchidan, Xo'ja Badriddinning sotqinligini tomoshabin oldindan bilsa, spektakl biroz sustlashishi mumkin edi.

Rejissor asarni yana bir joyidan parcha olib tashlagan. Bu Zankija bilan Yovqoch botir voqeasidir. Zankija Yovqoch botirning sevgilisi bo'lib, u ertaga katta jang bo'lishini eshitgach, qiz to'yda kiyiladigan oq libosni kiyib Yovqoch botirning oldiga borib o'z taklifini bildiradi. Ular nikoh o'qitishni, jang oldidan to'y qilishni bildirgan Zankijani bu ishlaridan tassufga tushgach, Yovqoch botir biroz ikkilanadi. Jaloliddinning onasi Oychechan ona to'ysiz marosimsiz qanday bo'lar ekan, deydi va Jaloliddin fikrlarini hurmat bilan tinglashadi. Shunda u nikohga rozilik beradi va Oychechan ona ularga nikoh o'qiydi. Shu bilan tasodifan urush boshlanib ketadi. Yovqoch dushman bilan jangga kirishganida jufti halolining tirik qolishini istagan Zankija ham orqasidan ketadi.

Rejissor Ibodulla Niyozmetov shu sahna ko'rinishini, voqealar ketma-ketligini olib tashlaydi. Teatrdan ayollar yetishmasligi boisdanmi, yoki to'qima obrazlardan tuzilgan voqea bo'lganligi uchunmi rejissor bu parchadan foydalanmaydi. Rejissor muallif g'oyasini yaxshi tushunib uni talqin qilibgina qolmay, asarni g'oyaviy mantiqqa yot bo'lgan, yoki hayot haqiqatidan yiroq bo'lgan lavhalarni qisqartirib, g'oyaviy jihatdan yetuk asar yaratishga harakat qilgan. Dramada tasvirlangan qahramonlik xislatiga ega bo'lganlar obraziga vatanni himoya qilish uchun jangga o'tlanib jonolib, jon beradilar. Bular Jaloliddin yetakchiligidagi lashkar boshlilar va suvoriylardir. Ularning qismati va jasorati doimo tomoshabinda g'urur hissini uyg'otadi. Chingiz va uning o'g'illarining xatti-harakatlari, bosqinchilarga xos g'ayriinsoniy jihatlarini ko'rib nafratlanasan.

Ijodiy kollektiv shu tarixiy asarga qo'l urish jarayonida Jaloliddinni insonlarga yaqinligi ochiq tasvirlanadi. Tabiiyki, Jaloliddin Manguberdi Kavkazga u yerlarni bosib olish uchun bormagan. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi birlashib kurashish, qo'lni-qo'lga berish maqsadini xatlar, elchilar orqali Ozarbayjon, Gruziya va boshqa qo'shni mamlakatlar boshliqlariga izhor etgan, jumladan, bosqinchilar tez orada Kavkazga ham, ularning qo'shnilariga ham tig' tortib kelishi muqarrarligini uqdirgan. Qay podshohlar buni anglagan, qay birlari (uzoqni ko'rolmaydiganlari) birlashmoqni rad etgan. Bu ham yetmaganday o'zlariga uzatilib turgan do'stlik qo'lini kesish yo'lini tutishgan. Birlashmaslik halokat ekanligiga qattiq ishongan sulton Jaloliddin muamoni to'g'ri tushonganlarga tayangan holda, kuchlarni birlashtirish yo'lini qat'iy davom ettirgan. Jaloliddinni nafaqat jangechi sardor sifatida, balki vafodor yor timsolida ko'rdilar. "Sulton Jaloliddin... Bug'doyrang va o'rta bo'yli. Butun qiyofasiga ko'ra tom bir turkiy. Turkiycha so'zlashar. Forschani ham bilar. U sokin tabiatli bo'lib, biron-bir kishini so'kib haqoratlamasdi. Jiddiy va viqorli. Kulmas, kulimsirar. Oz gapirar"<sup>4</sup>.

Ibodulla Niyozmetov "To'maris" asarini Ogahiy teatrida sahnalashtirishda zabardast rollarni ijro etib kelayotgan aktyorlar guruhiga murojaat qiladi. Dramaturg Ne'mat Solayev asarida To'maris obrazini bosh mavzuni yoritishda yetakchilik qilganligini chiroyli bo'yoqlarda tasvirlaydi. *Mard, qo'rqmas, xalq g'amini yeydigan qabila hokimasi, mehribon ona va eng asosiysi ezgulik sari olg'a harakat qiladigan mard, jasur ayol timsolida qog'ozga tushirilgan. To'maris Gulora Rahimova ijrosida o'ziga ishongan, xalq*

<sup>2</sup> Erkin Samandarov bilan bo'lgan suhbatidan.

<sup>3</sup> Asardan olingan parcha.

<sup>4</sup> Sulton Jaloliddin. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T.: 2007. – B.5.

dardini anglay biladigan, bor vujudi bilan kurashadigan qo'rqmas xarakterda gavdalanadi. Yana shuni tan olish kerak-ki, Malika Ibrohimova To'marisni chinakam jangovor ruh berib qiyomiga yetkazib ijro etgan. Aktrisaning ma'noli qarashlari, aytmoqchi bo'lgan so'zlarini avval o'ylab, so'ng mulohaza bilan bayon etishi, atrofidagilarga kezi kelganda qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lishi obrazning naqadar yutuqli tomonlaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Dramaturg asar g'oyasini juda yaxshi topilmalar asosida tanlangan, e'tiborni tortadi. Yuqorida keltirilgan misollar asosida ushbu tarixiy asarda insonlar o'rtasida mehr-muhabbatning yuqori bo'lishi bilan birga vatanparvarlik g'oyalarining naqadar ustun ekanini aks ettirgan. Voqealar jarayonida insonlar urush bilan qon to'kib emas, ezgulik, oqibatlilik, sevgi-muhabbatlarini kuchaytirgan holda bir mamlakat ikkinchi bir mamalakatga do'stona munosabatda bo'lishiga ishora qiladi. Spektakl davomida har bir personaj voqealar ketma-ketligini ishonarli va ta'sirchan ko'rsatishga harakat qilgan.

*"Har bir tarixiy davrning o'z teatri, o'z aktyorlari, o'z tomoshabinlari bo'ladi. Davr o'tishi bilan uning teatri va artistlarining ijodiy nafasi, talqin usullari, ijro ranglari o'zgaradi"*<sup>5</sup>. Darhaqiqat, rejissor Ibodulla Niyozmetov juda katta kuch bilan birin-ketin o'z davrining teran fikrlaydigan ijodkori, ya'ni teatr fidoiysi sifatida shakllandi va o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ibodulla Niyozmetov 2001-yili dramaturg Komil Avaz qalamiga mansub yana bir tarixiy asar "Avesto"ga qo'l uradi. Bu gal ustoz-shogird an'alariga sodiq holda, yoniga teatr aktyori va rejissuraga mehr qo'yib kelayotgan Odambay Abdullayevni jalb qiladi. Chunki, ustoz ko'p jihatdan shogirdiga o'z kasbining sir-asrorlarini qunt bilan o'rgatishni ham oldiga maqsad qilib qo'ygani, yana bir tomondan jamoaga bo'lgan e'tiboridan darak beradi.

Ikki qismli tarixiy musiqiy dramadagi bosh rolni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Orazqilich Tog'onov ijro qiladi. Shuningdek, O'zbekiston xalq artistlari Madrahim Bobojonov – Purushasp, Gulora Rahimova – Dugdava, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Odambay Bobojonov – Eshim, Shirin Ramazonova – kampir rollarida namoyon bo'ladilar. Umumlashtirib aytganda, o'n sakkizta obraz sahnada ko'rinish beradi, bundan tashqari olomon, sipohlar, farishtalar, ommaviy sahnalarda teatrning butun ijodiy jamoasi ishtirok etgan. Aktyorlarni o'sha zamon ruhi bilan sahnada yashashga, obrazga kirishida rejissor va muallifning mehnati katta bo'lgan. Chunki, o'sha davr kiyimlari, yurish-turishilari, soch turmaklari, xatti-harakatlari, insonlarning mehr-

oqibatlilik kabi bir qator fazilatlarini tasavvur qilgan holda tomoshabiniga yetkazish shart bo'lgan va bu albatta o'z ifodasini topa olgan.

Umuman XI asrda Zardusht sa'y-harakatlari bilan dunyo yuzini ko'rgan "Avesto"da o'n ming yillik tariximiz mujassam bo'lib tarixiy, diniy, ahloqiy, tarbiyaviy va milliy qadriyatlarimiz haqida hikoya qilinadi. Musiqalarni bastakor Bozorboy O'rinov nozik did va o'tmish davrlarini o'ta sinchkovlik bilan ilg'agan holatda ohanglarni kuyga solgan. Bu gal Ibodulla Niyozmetov rejissurasidagi o'ziga xoslik uning tajribasi, asarning qon-qoni, jon-joniga singib ketib ro'y bergani shundoq spektaklda aks etgan. O'zbekiston xalq artisti Gulora Rahimova Dugdava Zardushtning onasini qiyomiga yetkazib, ichki bir dard bilan rejissor kutganidan ham yuqori darajada ijro etadi. O'g'li Zardushtning uyiga ko'p Xudolik tarafdorlari undan qutilish uchun o't qo'yib, yoqib yuboradilar. Bu ahvoldan o'zini qo'yarga joy topolmagan onaizorning faryodi yovuzlikdan, razolatdan nafrat tug'yoni bo'lib eshitaladi va bu tug'yon beixtiyor bo'g'zimizni kuydirgan otashga aylanadi. Shu payt Bratarvaxshga qarata qilgan nolasi butun tomoshabinlar qalbini larzaga soladi:

*Dugdava – Voy-dod! Bu ne ko'rgulik?! Meni bolamni tiriklay o'tda yoqqanlar u dunyo-yu, bu dunyo do'zaxda chirisin! (dod solib yig'laydi) Iloho, nuridiydamni yoqqanlarning qo'llari akashak bo'lsin! Sen zolim, jallod Bratarvaxsh, yonib kul bo'lg'aysan! Ey, noxuna odamlar! Nega bu qonxo'ning iziga ergashasizlar?! Tokaygacha gunohga botasizlar, qo'llaringizni qonga bulg'aysizlar? Yetimlar oshiga og'u solasizlar?! Nahotki yaxshilikka yomonlik qaytsa?! (yig'laydi) Adolat o'rniga adovat bo'lsa?! Eh, begunoh ketgan bolam! (xushidan ketadi)*<sup>6</sup>. O'zbekiston xalq artisti Shirin Ramazonova – Kampir rolida chiqqan, kiyinishidan tortib har bir so'zi, xatti-harakatlari borasida Xorazmga xos va mos onaxon timsolini ko'ramiz.

Kampir – Shirin Ramazonova talqinida o'ta ayyorona, o'ziga ishongan, ko'rinishidan biroz madori ketgan bo'lsada, gapga ustaligi bilan boshqalardan ajralib turishini kichik sahna orqali bo'lsada, tomoshabinlar e'tiboriga ma'qul bo'lgan siymoni ijro etgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, sahnada qo'yilayotgan tarixiy asarlarimiz har biri tomoshabiniga nimadir bera olsa, uni chuqur mushohadaga tortsa, qayg'uuga sorsa, o'zining olamida bir soniya yashatsagina haqiqiy mukammallik darajasiga yetaklagan bo'ladi. Ushbu sahna asarida biz yuqoridagi so'zlarimizni isbotini topa oldik va uni muvaffaqiyatli spektakllar deb aytish o'rindir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komil Avaz. Jahannam qo'shig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
2. Erkin Samandar. Sulton Jaloliddin. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2007.
3. Bayandiyev T., Ikromov H., Ahmadjonova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini. – T.: 2009.
4. Turob To'la. Tanlangan asarlar. – T.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2018. – B.908.
5. Yusupov J. Qaynoq qalb sururi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.
6. To'laxo'jayeva M. Teatr tanqidchiligi: artist, rejissor, spektakl. –T.: "San'at" jurnali, 2015. – B.234.
7. Xoliqulova G. Sahnalaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. – T.: "Fan va texnologiya", 2015. – B.56-57.
8. To'laxo'jayeva M. "Teatr tanqidchiligi". "San'at" jurnali, – T.: 2015.
9. Tursunboyev S. Sharq mumtoz teatri. – T.: 2017.
10. Komil Avaz. Ming oy umr hikmatlari. – T.: 1995.
11. Komil Avaz. O'lis ohanglar. – T.: 1997.
12. Komil Avaz. Xiva dilbandi. – T.: "Yozuvchilar", 1997.

<sup>5</sup> Tursunov T. Turg'un Azizov. "Yangi asr avlodi", T.: 2004. – B.27.

<sup>6</sup> "Avesto" musiqiy tarixiy dramadan olingan.

## VILOYAT TEATRLARIDA REJISSURA MASALASI (SURXONDARYO TEATRI IJODIY FAOLIYATI MISOLIDA)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston san'at arbobi, uzoq yillar davomida Surxondaryo teatrining bosh rejissori sifatida faoliyat yuritgan Mansur Ravshanovning ijodiy izlanishlari, o'zbek rejissurasidagi islohotlari haqida so'z boradi. Surxondaryo teatrining rivojlanish bosqichi va badiiy qiyofasini belgilab bergan spektakllar tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** teatr, dramaturgiya, aktyor, rejissor, kompozitsiya, badiiy g'oya.

## ВОПРОС РЕЖИССУРЫ В ОБЛАСТНЫХ ТЕАТРАХ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУРХАНДАРЬИНСКОГО ТЕАТРА)

**Аннотация.** Данная статья посвящена многолетним исследованиям главного режиссера Сурхандарьинского театра, Заслуженного деятеля искусства Узбекистана Мансура Равшана. Особое внимание уделено анализу спектаклей, сыгравших роль в развитии Сурхандарьинского театра и становлении его художественного образа.

**Ключевые слова:** театр, драматургия, актер, режиссер, композиция, художественная идея.

## THE ISSUE OF DIRECTION IN REGIONAL THEATERS (IN THE EXAMPLE OF THE CREATIVE ACTIVITY OF THE SURKHANDARYA THEATER)

**Annotation.** This article is devoted to years of research by the main director of the Surkhandarya Theater, Honored Artist of Uzbekistan Mansur Ravshan. Particular attention is paid to the analysis of the plays that have played a role in the development of the Surkhandarya Theater and the formation of its artistic image.

**Key words:** theater, drama, actor, director, composition, artistic ideas.

*Surxondaryo teatri haqida so'z ketganda, bevosita O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, tajribali rejissor Mansur Ravshanov nomi tilga olinadi. Teatr uning hayoti, kechagi va bugungi ham ertangi kunidir. Usiz na bosib o'tgan yo'lini na ertangi kunini tassavvur eta olmaydi. Hech bir mubolag'asiz teatr uning uchun jonajon vatan ichidagi kichik vatandir. Vatan bo'lganda ham u o'ta mehribon, o'ta qattiqqo'l vatandir. U shu vatan quchog'ida o'sdi, ulg'aydi. Rizqni, obro'-e'tiborni, yor-do'st va shogirdlarni ham shu teatrdan topdi. Shu bois Mansur Ravshanov teatrnı ota-onadek e'zozlaydi, vatandek qadrlaydi.*

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan teatr san'atiga, xususan "Madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish, madaniyatni yanada keng taqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish" [1.B.2]ga jiddiy e'tibor qaralilib kelinmoqda. Respublikamizning janubida joylashgan Surxondaryo teatri ham bu jarayonlardan chetda qolganı yo'q. Surxondaryo teatrining taraqqiyotiga, jamoaning el-yurt o'rtasida ardoq topishida, mashaqqatli hayot yo'li davomida mehnatni o'zining baxt chirog'i deb bilgan Mansur Ravshanovning buyuk xizmatlari bor. To'g'rirog'i, Surxondaryo teatrining 1970-yillardan keyingi faoliyatini, rivojlanish yo'lini, bugungi samarali ijodiy jarayonlarini Mansur Ravshanovning mehnatlari va rejissurasidan holi tassavvur etib bo'lmaydi.

1935-yil Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan Mansur Ravshanov, besh-olti yoshida otasining xizmat vazifasi tufayli Surxondaryo viloyatining Denov tumaniga ko'chib borishadi. Oilasida san'atkor bo'lmagan Mansur Ravshanov Denov shahrida joylashgan Oxunboboyev nomidagi umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil oladi. Adabiyot, tarix, tasviriy san'at fanlari sevimli darslari hisoblangan. Yoshligidanoq qalbida san'atga qiziqish uyg'ongan Mansur Ravshanov

3-sinfda o'qiyotgan kezaridayoq "Obidning aybi ochildi" nomli kichik asar yozib, sahnalashtiradi. Undagi san'atga bo'lgan kuchli ishtiyoqni ko'rgan ustoz san'atkor Sora Aliyeva o'zining maslahatlarini beradi. Shundan so'ng Mansur Ravshanov ustozı Sora Aliyeva rahbarligida "Boy ıla xizmatchi", "Zaharli hayot", "Burungi saylovlar"... kabi bir qancha asarlardan parchalar sahnalashtirib, maktabdoshlari va ustozlari hurmatiga sazovor bo'ladi. O'rta maktabni tugatgach, ustozlar maslahati va yuragidagi san'atga bo'lgan ishtiyoq uchquni Mansur Ravshanovni san'at olamiga yetaklaydi. 1957-yili Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutiga o'qishga muvaffaqiyatli qabul qilinadi. 1957-1961 – yillarda institutning "Drama va kino aktyorligi" bo'limida tahsil oladi.

Mazkur bilim dargohida u mohir pedagoglar To'laxo'ja Toshxo'jayev, Mixail Fottoxov, Rahim Sayfuddinovlardan aktyorlik va rejissorlikning nozik sirlarini o'rganadi. Shu bilan birga o'zbek teatr san'atining buyuk darg'alari Abror Hidoyatov, Nabi Rahimov, Botir Zokirov, Anvar Yoqubxo'jayev kabi san'atkorlarning tajribalarini sinchkovlik bilan o'rgandi. 1961-yili institutni tugatgach, yo'llanma bilan Surxondaryo viloyat teatriga ishga keladi. U teatrdı dastlab aktyor sifatida ish boshlaydi. O'shanda teatrga Zohid Alimov direktor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Bahodir Jamolov bosh rejissor edi. M.Ravshanovdagi rejissorlikka xos qobiliyatni his qilgan B.Jamolov uni yoniga oladi. Natijada, shu yilning oxirida M.Ravshanov teatrdagi birinchi va yirik ishini Hamzaning "Boy ıla xizmatchi" dramasi B.Jamolov bilan hamkorlikda sahnaga qo'yadi. Shundan so'ng uning rejissorligida dolzarb mavzudagi asarlar puxta o'ylangan yangicha yechim asosida tomoshabinlar e'tiboriga havola etila boshlaydi.

1962-yillarning oxirida teatrga M.Ravshanov bosh rejissor etib tayinlanadi. Uning ijodiy izlanishlari tufayli teatr repertuaridan G'arb dramaturgiyasining klassik

asarlari ham o'rin ola boshladi. Yosh rejissor, tajribali rassom G.Fayzulin bilan hamkorlikda shu yilning o'zida H.Vohitning "Birinci muhabbat", A.Jamolning "Ko'z ilg'amas soyalar", K.Galdonining "Ikki boyga bir malay" asarlarini tomoshabinlar e'tiboriga havola etdi.

Mansur Ravshanov 1964-yili okrug teatrida K.Yashinning "Nurxon" (T.Jalilov musiqasi), musiqali dramasi sahna-lashtirib, teatrning keng imkoniyatlarini namoyon etdi. Teatr jamoasi ayni shu yili ilk bor Toshkentga "Nurxon" musiqali dramasi bilan ijodiy safar uyushtiradi. Spektakl-dagi asosiy rollarni teatrning yetakchi aktyorlari X.Bobo-xonova (Nurxon), R.Nomozov, I.G'ofurov, U.Ber-diyev (Haydar), Z.Olimov, S.Nurmatov, S.Rahimqulov (Hoji), M.Sarimsoqova (Kimyo), S.Nurmatov (Mamat), G.Muhiddinova (Qumri), H.Muhiddinov (Huzurxo'ja), T.Latipova (Xalcha), O.Olimova (Zebi), S.Jalilova (Qunduz), T.Yorqulova (Shakar), A.Rahmatov (Mullakamol) ijro etilar. Spektakl mutaxassislar tomonidan munosib baholandi. Shu yili teatr aktyorlaridan Zohid Olimov va Xadicha Boboxonova "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" oliy unvon bilan taqdirlandilar. Bunaday e'tirofdan ilhomlangan teatr jamoasi musiqali dramalarni sahnalashtirishga keng e'tibor qaratdi. M.Ravshanov teatr direktori Z.Olimov bilan hamkorlikda Xurshidning "Layli va Majnun" (Gliyer, F.Sodiqov musiqasi), Q.Shang'itboyev, Q.Boyseitovlarning "Jon qizlar" (A.Muhammedov musiqasi), S.Abdulloning "Alpomish" (T.Jalilov musiqasi), kabi bir qator musiqali dramalarni sahnalashtiradi.

Sahna asarining ichki mohiyatini ochib berish, ma'naviy mazmunini tomoshabinga yetkazish, xarakterlar haqqoniyli-gi va ijro uyg'unligiga erishish rejissor va aktyorlardan kuch, bilim va mahorat talab etadi. 1968-yili M.Ravshanov sahnalashtirgan Sh.Sa'dulla va S.Boboyevning "Yoritosh" musiqali dramasi ana shunday mushtaraklik, hamjihatlik hamda uyg'unlik ko'zga tashlanadi. Dastavval 1946-yili sahnalashtirilgan "Yoritosh" spektakli M.Ravshanov rejissorligida hamda aktyorlar ijrosida yangicha talqin topdi.

Asar qahramoni Gulnora qiyofasini G.Muhiddinova zo'r ishtiyoq bilan yaratdi. Aktrisa musiqali dramalarida ilk bor ishtirok etayotganligiga qaramay, asarga mas'uliyat bilan yondashdi. "Aktrisa obraz xarakteri, iztirob-qayg'ulari, soddadilligi, samimiyligi, bir yonib shamdek shodimonliklarini harakatga, yuz ifodasiga, ovozigah mahorat bilan ko'chira oldi". Natijada, qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar tomoshabinlar qalbiga yetib bordi.

Rassom G.Fayzulinning izlanishlari tufayli sahnada ezgulikni kuylagan xalq ruhi balqib turadi. Har bir sahnada xalq san'atidan mohirona foydalanganligi sezilib turadi. Spektaklda musiqa butun voqealar, qahramonlar kechinmalarini boshqarib borayotgandek tasavvur hosil qiladi. Tomoshabin uning sehr kuchidan ruhiy ozuqa oladi. Bu esa teatrning musiqa rahbari R.Komiljonovning spektaklga musiqa tanlashda nozik did va o'ta mas'uliyat bilan yondashilganligini tasdiqlaydi. Spektakldagi bunday ansambllik teatrning zabardast qiyofasini namoyon etish bilan birga ijodiy mahoratning ham yildan-yilga o'sib borayotganligini ko'rsatadi.

Bu haqida: "Jamoani yangi zamonaviy mavzudagi X.Azimovning "Niqob", A.Qahhorning "Ayajonlarim" asarlarini sahnalashtirib, tomoshabinlar ko'rigidan muvaf-faqiyatli o'tganligi bilan bilan tabriklash kerak", – deb yozadi viloyat gazetasi [2.B.283].

Yetmishinchi yillarning boshlarida aktyor va rejissor

M.Ravshanov ijodida samarali jarayonlar kechdi. "Niqob" spektaklida salbiy qahramon Ulug'jonov roli bilan muvaf-faqiyat qozongan aktyor R.Orifjonovning "Guldan ham nozik" asaridagi axloqiy tuban, inson uchun eng yuksak tuyg'u – sevgidagi ahdu vafoni bir pulga sotuvchi, o'zining iflos qilmishini ustalik bilan niqoblab, boshqalarni ham shu yo'lga undovchi ma'naviy buzuc Dilshod obrazini talqin etdi. Muhimi, aktyor spektaklda rol o'ynash bilan bir qatorda asarni sahnalashtirishni ham o'z zimmasiga oladi.

Ustozlar duosini olgan M.Ravshanov o'z tajribasini yanada takomillashtirish maqsadida, 1972-yili Moskvadagi oliy rejissorlik kursida ikki yil tahsil oladi. Mazkur bilim dargohida rejissorlik san'atining mashhur namoyandalari A.Popov, M.Knebl, A.Goncharov, B.Ravenskiy, A.Efros-lardan pyesaga o'z mushohadasi bilan yondashish, voqeaga falsafiy ma'noda qarash, asarga kutilmagan yechim topish mahorati va sirlarini o'rganadi. Oliy rejissorlik kursini tamomlab, Qashqadaryo teatriga ishga kelgan M.Ravshanov 1975-yilning o'rtalarida o'zi uchun qadrdon bo'lgan Surxondaryo teatriga bosh rejissor sifatida qaytadi. Uning qaytishi bilan teatr faoliyatida keskin ijodiy o'zgarishlar davri boshlanadi. Rahbarlik mas'uliyatini chuqur his etgan M.Ravshanov jamoadagi qo'nimsizlikka barham berish va shu orqali aktyorlarni ijro mahoratini oshirishga intildi. Izlanishlar natijasi, yaratilgan spektakllarning saviyasi va badiiy talqin jihatlarida yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

M.Ravshanov yangilikka intiluvchanlikdan, sinalmagan yo'llarni izlashdan qaytmaydigan, qo'lurayotgan ishi mushkul va muammo ekanini bila turib undan voz kechmaydigan qatiyatli ijodkor. O'z g'oyasini amalga oshirish yo'lida dramatur, rassom, sozandalar bilan hamjihatlikda tinimsiz izlanadi, yangicha talqin amallarini yaratadi. Shu bois uning spektakllari tomoshabinlarda va soha mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, janr va mavzu jihatidan turlicha hamda davr uchun dolzarb bo'lgan X.Vaxitning "Birinci muhabbat", A.Jamolning "Ko'z ilg'amas soyalar", Karlo Goldonining "Ikki boyga bir malay", K.Yashinning "Nurxon", H.G'ulomning "Ajab savdolar", Z.Fatxullinning "Hijron alangasi", V.Shukshinning "Serg'ayrat kishilar", F.Shillerning "Makr va muhabbat", Ch.Aytmatovning "Oq kema", "Momo yer" kabi murakkab yechim topgan spektakllar rejissorning keyingi ijodi uchun mustahkam poydevor bo'lish bilan birga uning ijro ulubidagi murakkab talqin yo'llarini namoyon etdi.

1977-yil sahnalashtirilgan F.Shillerning "Makr va muhabbat" (K.Yashin va M.Hakim tarjimasini) spektakli teatr hayotida muhim voqea bo'ldi. Teatr jamoasi bu asarni sahnalashtirish uchun M.Ravshanov rahbarligida uzoq yillar puxta tayorgarlik ko'rdi.

Spektaklda nemis gersogligining birida prezident o'g'li Ferdinandning oddiy muziqachining qizi Luiza bilan sevrishib qolganligi, ammo Ferdinandning otasini bunga qarshi turishi, oxiri ikki sevrishganni halok bo'lishi haqida hikoya qilinadi. Spektakl muvaffaqiyatli va ta'sirchan sahnalarga boy bo'lib, har bir sahna ko'rinish tomoshabinlarni e'tiborsiz qoldirmadi. Rejissor qahramonlar o'rtasidagi beg'ubor muhabbatni asosiy planga olib chiqadi.

Asar voqeasi tomoshabinda kuchli taassurot qoldiradi. Rejissor Ferdinand va Luizaning fojeali qismatini spektakl yechimida hayajonli tasvirlaydi. Atrofni qoplab olgan o'rgimchak to'rlari orasidagi kichkina tirqishdan sahnaga yorug'lik tushib turibdi. O'sha nurga qarab cho'zilgan pillapoya atrofiga ko'm-ko'k maysalar chirmashib ketgan.

Ramziy ma'nodagi bu ko'rinish, erkinlik sari chirmashib bo'y cho'zayotgan yashil maysalar Ferdinand va Luizaning pok qalbi va kuchli sevgisidan dalolat berib turadi. "V.Mixaylichenko tomonidan ishlangan dekoratsiya spektaklning tub mohiyatini o'zida aks ettirib turadi", [4.B.297.] deb yozadi V.Neyburg "Pravda Vostoka" gazetasiga yozgan "Spektakl haqida ko'p gapirishadi" maqolasida.

Spektaklning so'nggi sahnasida o'rgimchak to'riga aylangan parda prezident atrofni chirmab oladi. Qo'lida qilich tutgan Ferdinand – M.Abduqunduzov esa to'rni chopishga urinib, sahna yuqorisidagi ko'm-ko'k osmon gumbaziga yo'nalgan zinapoyadan holsiz ko'tarila boshlaydi. O'sha pillapoya orqali nurga – erkinlikka intilgan Luiza so'ng Ferdinand halok bo'lishadi. Kumush va qora ranglardan hosil bo'lgan o'rgimchak to'rlari ham ko'zdan g'oyib bo'ladi. Sevishganlar o'limidan so'ng sahna fonida yaqindagina murdalari olingandek silkinib turgan dorlar paydo bo'ladi. Bunday ramziy ifoda, muhabbatni halok qilgan jamiyat qachondir bir kun jazolanadi, degan ma'noni anglatadi. Finaldagi ta'sirchan bunday yechim spektakl muvaffaqiyatini ta'minladi. Makr kuchlari qanchalik qudratli bo'lmasin, Ferdinand ularga qarshi kurashadi. M.Abduqunduzov yaratgan Ferdinandning insonparvarligi ham shunda. Ferdinand va Luiza jisman halok bo'lsalar-da, ma'nang'alaba qozonadilar. Ularning sevgisi prezident jamiyatiga qarshi asosiy zarbani beradi. Matbuotda O'zbekiston rus akademik drama teatrlarining yetakchi aktrisasi O'zbekiston xalq artisti Lyudmila Gryaznova M.Abduqunduzovning "Makr va muhabbat" spektaklidagi Ferdinand obraziga yuqori bergan va bu aktyordan kelajakda baquvvat obrazlar kutib qolishini ta'kidlaganligi ham teatr yoshlari mahoratiga berilgan munosib baho edi.

Teatr jamoasi ushbu asarni sahnalashtirib, ko'p yillik orzusiga erishdi. Asosiysi, "Termiz teatri jamoasi bu asarni o'z ijodiy ko'zi bilan o'qib, o'z tilida tomoshabinlarga so'zlab berdi. Bu teatr ijodiy jamoasining imzosi qo'yilgan "Makr va muhabbat"idir", [7.B.122.] deb yozdi matbuot. Qilingan izlanish, tayyorlik natija bermasdan qolmadi. Teatr jamoasi 1978-yili sobiq ittifoq miqyosida o'tkazilgan festivalda ushbu spektakl bilan ishtirok etib, 400 ga yaqin teatrlar orasida M.Abduqunduzov ham Ferdinand roli uchun "Eng yaxshi obraz" e'tirofiga sazovor bo'ldi. 1980-yil Moskvada o'tkazilgan GDR san'at kunlariga bag'ishlangan festivalda "Makr va muhabbat" spektakli II-darajali diplom bilan mukofotlandi. Bu mukofot respublikamizning janubiy chegaradosh chekka viloyatida poytaxt teatrlari bilan bellasha oladigan teatr shakllanganligining yorqin isboti bo'ldi.

Teatrning musiqali drama yo'nalish bo'yicha olib borgan izlanishlari 1977-yili M.Rashanov sahnalashtirgan Ch.Aytmatovning "Sarvqomat dilbarim" spektaklida namoyon bo'ldi. Rejissor qahramonlari taqdirida bo'y ko'rsatgan hayot falsafasini, chuqur ruhiy holatlarda hamda M.Leviyev tomonidan ishlangan musiqalar ostida ko'rsatib beradi. Avtobazada dispetcher bo'lib ishlayotgan Hadicha (Z.Otaboyeva)ning, endigina yigitlik burchini o'tab bazaga shofyor bo'lib ishga kirgan Ilyos (R.Mamataliyev)ning o'ziga rom etishi, yigitning xo'jalikka qatnab Asal (G.Ravshanova va M.Mahmudova)ga ko'ngil qo'yib qolishi spektakl voqealarini harakatlantiradi. Yoshligidan eski urf-odatlariga ko'ra qarindoshiga unashtirib qo'yilgan Ilyos nomusini toptagan Asalni uzoq safarga olib ketishga undaydi. Qiz ham atrofdagilar la'natidan qutulish uchun u bilan qochishga qaror qiladi.

G.Ravshanova, M.Mahmudovalar Asalning sof qalbini, quvonch va iztiroblarini, jo'shqinligini lirik xatti-harakatlarda ko'rsatib beradi. Asalning sevgan yigiti bilan qochishi, romantik tuyg'ularga berilishi, Ilyosning muhabbatini soxtaligini bilgach, chuqur iztirobga botishi, yosh go'dakni bag'riga bosib, sargardonlikda fojialarni boshidan kechirishi, Bektemir (T.Ergashev) uyida Ilyos bilan tasodifan uchrashib qolganligidagi holatlari tomoshabinlarni hayrat va hayajonga soladi. Aktrisa tomonidan kuylangan ariyalar, xorning munosabati Asalning qalb kechinmalarini ochilishida yordam beradi.

Rejissor spektakl dekoratsiyasi orqali asarga obrazli yechim topishga intiladi. Yalang'och sahna, faqatgina sahna chetida yonib atrofga shu'la taratayotgan pech o'rnatilgan. Bu pech inson haroratiga qiyosiy tarzda berilgan bo'lib, ramziy ifoda vositasida Boytemir obrazi asar qahramoni darajasiga ko'tariladi. Uning insoniy harorati atrofga, ko'plab insonlarga yorug'lik va iliqlik bahsh etishi shartli ifoda vositalarida ko'rsatiladi. Asal ham farzandi bilan shu yerdan panoh topadi. Spektakldagi barcha komponentlar mana shu ijobiy qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Yalang'och sahnadagi pech, kimsasiz dalada yashayotgan Boytemirning insoniy harorati ramzi tarzida namoyon bo'ladi. Asosiysi, teatr jamoasi "Sarvqomat dilbarim" musiqali spektaklda og'ir, hayotiy kechinmalar ichida o'z baxtini qidirayotgan odamlarning jonli qiyofasini poetik usullarda namoyon etoldi.

Teatrning musiqali asarlarni sahnalashtirish borasida olib borgan izlanishlari 1978-yilning o'rtalarida M.Ravshanov qo'lurgan, xalq poetik an'analari asosida yozilgan Hamzaning "Maysaraning ishi" musiqali komediyasida o'zining yangi qiyofasini kashf etdi. Rejissor S.Abdulla va M.Muhammedov qayta ishlagan va S.Yudakov kuy bastalagan musiqali drama variantini sahnalashtirib, klassik asarni yangicha talqin etish, badiiy yaxlitlikka erishish bobida sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritdi. Asar ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, rejissor unda inson erki, tenglik va ozod muhabbatni tarannum qilishni maqsad qilib oladi.

M.Ravshanov asarni boshqa teatrlardagi talqinlardan keskin farqli o'laroq, yangi tajriba tarzda sahnalashtiradi. Spektakl tomoshabin va mutaxassislarda turlicha fikrlarni uyg'otdi. Yangicha talqin kimlargadir qiziqarli bo'lib tuyulsa, kimlargadir ma'qul tushmadi va qator baxs va munozaralarni vujudga keltirdi. Muhimi shunda-ki, spektakl tarafdorlari ham, qabul qila olmaganlar ham bo'ldi.

M.Ravshanov bunday yangicha usulni teatrdagi teatr orqali asoslaydi. O'z o'rnida asarga ba'zi qo'shimcha so'zlar va boshlovchi obrazini ham qo'shadi. Boshlovchiga spektakl voqealariga istagan vaqtda aralashish, hatto, aktyorlar ijrosini ma'lum me'yorda ushlab turish huquqini beradi. Spektakl boshlanishi bilan Boshlovchi – M.Abduqunduzov sahnaga chiqib, tomoshabinlarni asar mazmunidan xabardor qilib, aktyorlarni taklif qiladi. Taklif qilish ham no'anaviy usulda davom etadi. Masalan: sahnaga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist A.Rahmatov taklif qilinadi. Xuddi shu yerda aktyorga Hoji darg'a roli ijro etish topshirilganligi aytiladi. Aktyor rozilik bergach, boshlovchi – M.Abduqunduzov "qani", "marhamat boshlang", kabi yoki shu ma'nodagi biror jumla bilan ularning rollari ijrosiga da'vat etadi. Aktyorlar xuddi shu yo'sinda tomoshabin guvohligida o'z rollarini qabul qilib oladi.

Yangicha talqin bilan boshlangan spektakl finali ham original yechimga ega. Asar so'ngida tomoshabinlar

qilmishlariga yarasha jazo olgan, yarim yalang'och kimsalarning o'zlariga zamondosh qiyofasida tiz cho'kib turganligini, atrofni o'rab olgan insonlar ustidan zaharhandaliy kulgisi jaranglayotganiga guvoh bo'lishadi.

Rejissor muallif fikridan kelib chiqib, Mullado'st – H.Muhiddinovning bo'shangligini “qamchi ostiga” oladi. Aktyor ham qahramoni xarakteridagi botirlikni susaytirib, uni o'ychan, ezilganlik va erksizlik kayfiyatida ko'rsatishga harakat qiladi. Bu bilan u obrazning bo'shanglik tomonlarini yanada teranlashtirgan bo'lib, Mullado'stni Maysara bilan qovushtirishga asos qolmaydi. Vaholanki, asarning asl variantida ham muallif Maysara va Mullado'stni qovushtirish ustida so'z yuritsa-da, uni amalga oshirishni haqli ravishda lozim ko'rmaydi. Sahna san'ati tinimsiz ijodiy izlanishlar asosiga qurilgan bo'lsagina ko'zlangan natijalarga erishish mumkin. Izlanishlar tufayli X.Boxonovanning Maysara, H.Muhiddinov yaratgan Mullado'st qiyofasi davr muhitiga hamohang tarzda murakkab va zamonaviy talqin topdi.

Har qaysi ijodkor qo'lga olgan asarni avvalo o'zi yashab turgan davr ruhiyatiga, sharoitiga moslagan holda kuzatib, tomoshabinlar ommasiga tadbiiq etishga harakat qiladi. “Maysaraning ishi” spektaklidagi muammolar, poraxo'rlik, qalloblik, buzuqchilik kabi illatlar, bugungi kunda ham ma'lum darajada jamiyatimizda uchrab turibdi. Bunday illatlarni spektaklda o'tmish voqealari orqali ko'rsatish tomoshabinni ham zavqlantiradi, ham o'ziga xulosa chiqarishga da'vat etadi.

M.Ravshanov harakatlari tufayli 1970-80 – yillarda Surxondaryo teatrda repertuari shakillantirish va yosh aktyorlarni sahna san'atiga qiziqtirish, ular bilan ishlash hamda tajriba sinovlarini o'tkazish uchun keng shart-sharoitlar vujudga keldi. Yoshlar seksiyasi tuzilib, unga a'zo bo'lgan ijodkorlar teatr san'atini rivojlantirish uchun qator qo'shimcha vazifalarni bajarishlari, jumladan, plandan tashqari spektakllar yaratishlari ko'zda tutila boshlandi. Termiz aholisining ko'pchiligi, ya'ni harbiy qismlarda xizmat qiluvchilarning rusiyazon bo'lganlarini e'tiborga olib, teatrdan rus tilida ham spektakllar sahnalashtirishga kirishadi. Qirg'iz dramaturgi M.Bayjiyevning «Жених и невеста» (“Kelin va kuyov”), Arbuzovning “Ko'hna komediya”, T.Minullinning “Ayollar hayotidan”, A.Gelmanning “Barcha bilan yuzma-yuz” asarlarini sahnalashtirib, teatrning xalq orasidagi nufuzini yanada oshiradi.

1978-yili bosh rejissor M.Ravshanov sahnalashtirgan, qirg'iz dramaturgi M.Bayjiyevning “Жених и невеста” (“Kelin va kuyov”) spektakli olti oylik mehnat evaziga tug'ilgan dastlabki spektakl bo'ldi.

Asar mohiyatini rejissor “Insonning shaffof dunyosi haqida” (“О хрустальном мире человека”) deb belgilaydi. Afsonaviy muhabbat, o'zining xayoliy shahzodasini kutgan, orzu qilgan qiz bir kuni o'z tilagiga yetishadi. U yashab turgan kichkina shaharga musiqa o'qituvchisi bo'lib kelgan yosh yigit unga ko'ngil qo'yadi. Bu obraz spektakl davomida kuyov deb ataladi. Kuyov ham o'z orzulariga, o'z ideallariga ega yigit qiyofasida ko'rinadi. U o'z iste'dodini juda qadrlaydi, kelgusida mashhur kishi bo'lib ketishiga ishonadi. Yigitning o'z shaxsiyati yo'lidagi manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yishi, kelin muhabbatining sarobga aylanishiga sabab bo'ladi.

Rejissor spektakl so'ngida kelinning keyingi hayotini tasvirlamaydi. Aksincha, bu o'rinda xulosa chiqarishni tomoshabinning o'ziga qoldiradi. O'zining yoshlik orzulariga

sodiq qolgan kelinning hayotini har bir tomoshabin o'zicha tasvirlagan, va o'zlari xohlagan baxtga eltib qo'yishga intiladi.

Spektakl qatnashuvchilari uch kishidan iborat bo'lib, voqealar asosan shu obrazlar atrofida yechim topadi. Bunday kam personajlarga intilish teatr jamoasining keyinchalik sahnalashtirgan Arbuzovning “Ko'hna komediya”, T.Minullinning “Ayollar hayotidan”, A.Gelmanning “Barcha bilan yuzma-yuz” asarlarida ham ko'rindi. Ushbu spektakllarda qatnashuvchilar soni juda kamchilikni tashkil qiladi. Sababi, teatrdan rus tilida erkin ijro eta oladigan (bu ham og'ir mehnat evaziga) bir necha aktyor topilar edi. Qo'llanilgan tajribalar natijasida rus tilida spektakllar yaratish uchun asta-sekin ijodiy imkoniyatlar shakllanib bordi.

Teatrshunos M.Qodirov: “...rus tilida spektakl qo'yish yaxshi tashabbus, ammo aktyor talaffuzni buzmay gapirishdan tashqari shu tilda fikrlay olishi lozim. Aks holda spektakl san'at emas, balki pyesani rollar orqali o'qish bo'lib qoladi. Bu borada aktyorlar ijro etgan obrazlari haqiqiy san'at darajasiga ko'tarilgan”, [5.B.94.] deb ijodkorlar mahoratiga munosib baho bergan edi. A.Arbuzovning “Keksalik hangomasi” tarixiy dramasi sahnalashtirilishi Surxondaryo teatrida rus tilida asarlar yaratish imkoni yanada shakllanganligidan darak berdi.

Teatr jamoasi 1983-yili Gelmanning “Barcha bilan yuzma yuz” asarini sahnalashtirib, rus tilida spektakllar qo'yish borasidagi butun imkoniyatlarini namoyon qilish bilan birga, yirik muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. “Rus tilida sahnalashtirilgan asarlar orasida ushbu spektakl tilning sof talaffuz etilishi va badiiy barqarorligi jihatidan ancha muvaffaqiyatli chiqdi”, [7.B.167.] deb yozadi matbuot. Teatr va rassomlik institutini bitiruvchisi A.Gamirov tomonidan M.Ravshanov rahbarligida sahnalashtirilgan A.Gelmanning “Наедине со всеми” ya'ni “Barcha bilan yuzma-yuz” asari g'oyaviy tomondan ham, sahnaviy tomondan ham eksperiment shaklida vujudga keldi. Zero, yaratilgan har bir spektakllarda aktyorlarning til ustida ishlashida, ruscha fikrlash talablariga javob bera olishida, davr tizginidan kelib chiqishida o'ziga xos tajriba – eksperiment ekanligi sezilib turdi.

“Barcha bilan yuzma-yuz” pyesasi davrning dolzarb muammolaridan biri, insonning jamiyat oldidagi burchini unutmaslik, mansabparastlikning vujudga keltiradigan salbiy oqibatlariga haqida. Mana shu g'oyani tomoshabiniga yaxshiroq va yaqinroq yetkazish maqsadida, dramani teatr foyesida o'ynash maqsadga muvofiq deb topiladi.

“Barcha bilan yuzma-yuz” spektakli foyeda tomoshabin bilan uch tomondan o'ralgan davra ichida o'ynaladi. Bu holatga chetdan nazar tashlaydigan bo'lsak, tomoshabinlarni to'rtinchi personaj deb atash ham noto'g'ri bo'lmaydi. Rejissuradagi o'zaro uyg'unlikka intilish natijasida, tomoshabin va asar qahramonlari bir butun ansamblni tashkil etgandek ko'rinadi.

Repertuarida rus tilida sahnalashtirilgan asarlarning ko'payishi tufayli, turli millat vakillarining Surxondaryo teatriga bo'lgan qiziqishi yanada ortib bordi. Bu holat teatr repertuari xilma-xilligiga va o'z davrida vujudga kelgan tomoshabin muammosini hal etishda ahamiyatli bo'ldi. Bu jarayon bugungi kunda ham teatr muxlislari, ijodkorlari va tanqidchilari tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda.

Rus tilidagi spektakllar, garchan o'zbek tilida o'ynalgan spektakllarga nisbatan kamroq bo'lsa-da, bu holat



Surxondaryo teatrining har tomonlama izlanuvchan ijodiy jamoa ekanligini ko'rsatib turadi. Eng muhimi, bu eksperimentlarning barchasi ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi bilan qadrlil bo'ldi.

Yetmishinchi yillardan hozirgi davrgacha o'tgan yillar davomida teatr qo'nimli ijrochi kuchlarga, ijodiy tajribaga va o'z talqin usuliga ega jamoa sifatida qaror topdi. O'zining g'oyaviy, siyosiy va badiiy konsepsiyasiga ega bo'ldi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, Mansur Ravshanovning izlanishlari tufayli Surxondaryo teatrining ko'p janrli, mavzu ko'lamiga keng reperturi paydo bo'ldi. Mustahkam repertuar tanlash maqsadida, milliylikimiz aks etgan asarlarga hamda mahalliy dramaturglar bilan ijodiy hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi. U teatrga yosh tajribali aktyor va aktrisalarni tortish bilan birga yangi mualliflarning dramaturgiyaga kirib kelishiga keng yo'l ochdi. Shu tariqa Usmon Azim, Xoliq Xursandov, Qilich Abdunabiyev, Shafolat Rahmatullayev, Erkin Norsafar kabi ijodkorlar shu teatrdan dramaturg sifatida shakllandi. Ularning "Alpomishning qaytishi", "O'lding, aziz bo'lding", "Osmonsiz uy", "Amur Temur va Yildirim Boyazid", "Shoh va shoir", "Tashna qalblar" singari ilk asarlari M.Ravshanov tomonidan muvaffaqiyatli, kutilmagan talqin va yechimda sahnalashtirildi. Ushbu spektakllarning aksariyati respublika va xalqaro (Qohira, Qozog'iston, Tojikiston) miqyosda o'tkazilib kelinayotgan festivallarda namoyish etilib, munosib baholandi.

Surxondaryo teatri jamoasi keyingi yillarda milliy qadriyatlarimizni, folklor-etnografik san'atimizni, an'ana va udumlarimizni tiklash, ularni boyitish va sayqal berib tomoshabingaga yetkazishga harakat qilayotganligi ko'zga tashlanadi. Bu jarayonda ham Mansur Ravshanovning ijodiy izlanishlari hamda xizmatlari beqiyosdir. M.Xayrullayevning "Olam seniki", U.Azimning "Bir qadam yo'l", "Alpomishning qaytishi", Xoliq Xursandovning "Qaysar cholning qiligi", "Kampir topaymi dadajon", "Alla", E.Xushvaqtovning "Chimildiq", "Qalliq o'yin" kabi asarlari boshqa teatrlar talqinidan farqli o'laroq yangi, ya'ni folklor-etnografik yo'nalishda sahnalashtirilganligi e'tiborli. Teatrning keyingi yillardagi repertuariga jiddiy e'tibor qaratisa, voha turmush tarziga xos folklor-etnografik yo'nalishni teatr san'atiga singdirishga urinish ketayotganligi va bu urinish o'zining samarali natijasini berayotganligi ayon bo'ladi.

Surxondaryo teatrida sahnalashtirilgan asarlarning aksariyatida folklor yo'nalishiga xos insonparvarlik xususiyatlari yetakchilik qilib keladi. Ayniqsa, dramaturg Xoliq Xursandovning deyarli barcha asarlari ana shu yo'nalishga qurilganligini kuzatish mumkin. Dramaturgning

"Alla" asari ham M.Ravshanov rejissorligida folklor-etnografik yo'nalishda munosib talqin topdi. Ushbu asar hayotiy voqealar asosiga qurilgan bo'lib, unda farzand ko'rish, farzand o'stirish, farzandni boqib balog'atga yetkazish mavzusi asos qilib olinadi.

Xoliq Xursandovning "Alla" asari komediya janrida yozilgan bo'lsa-da, sahna varianti tomoshabinni jiddiy o'yga toldiradi. Sahnalashtiruvchi rejissor insonlarga xos mehr-muhabbat, oqibat, e'tiqod, o'zi yashayotgan jamiyat uchun javobgarlik hislarini dramatik xatti-harakatlar orqali obrazlar xarakteriga singdirishga harakat qiladi.

Teatr jamoasi yangi maskanga ko'chib o'tishi bilan Mansur Ravshanov rejissorligida tajribali dramaturg Usmon Azimning "Alpopishning qaytishi" asari sahnalashtirilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. "Alpomishning qaytishi" asarida vatanga sadoqat, millatning o'zligini anglash, insoniylik kabi milliy g'oyalar yuksak badiiy topilmalar orqali ifodalangan. Unda Alpomishning Qalmoqqa ketishi, o'z qavmiga qaytishi, liboslarini o'zgartirib sodir bo'layotgan shafqatsizlik-u, o'z e'tiqodiga sadoqatli insonlarni bir karra "elakdan o'tkazishi" va nihoyat beboshlarni jazolab, yurtiga egalik qilishi haqida so'zlanadi.

Mazkur asar bilan Surxondaryo teatri jamoasi Toshkentga galdagi gastrol safarini uyushtirdi. Bu gastrol teatr jamoasi uchun ijodiy ko'rik bo'lib, ular o'z san'atlarini yana bir karra poytaxt tomoshabinlari va mutaxassislari sinovidan o'tkazdi. O'zbek Milliy akademik drama teatrida to'rt kun davomida ikki marotabadan keng ommaga namoyish etilgan "Alpomishning qaytishi" spektaklidan olingan taassurot, teatrdan ijodiy ishning ahvoli, yutuq va kamchiliklar haqida atroflicha fikr yuritishga yetarli imkon berdi.

M.Ravshanovning so'zi bilan aytganda, xotirjamlik va loqaydlik har qanday ishning, ayniqsa, san'atning xavfli dushmanidir. Chunki san'at – doimo izlanishda mukammallik kashf etib boradi. U qanchalik shijoat bilan harakat qilsa, ko'zlagan manziling cheki yo'qdek ko'rinadi. Ijodning qizig'i ham, insonlarga bemsiz zavq bag'ish etishi ham shunda. Surxondaryo teatrida yaratilayotgan har bitta asarning o'ziga xos qiyofasi mavjud. Teatr sahnasida yaratilgan va yaratilayotgan asarlar nafaqat insonlar taqdiri, balki o'zligimizni anglatuvchi unitilmas qadriyatlarimizni, an'analarimizni tarannum etadi. Surxondaryo teatrini milliy an'ana va qadriyatlarsiz, urf-odatlarsiz, folklor etnografik kuy-ko'shiqlarisiz, qolaversa, shu go'zal zamindan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, bu yurtda o'zbekning asl o'zligi mujassam. Shunday ekan, Mansur Ravshanov va teatr jamoasi mangukka daxldor sahna asarlari bilan hamisha insonlarni hayratga solaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil, 29-noyabr.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: "O'zbekiston", 2008.
4. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: "Yangi asr avlodi", 2007.
5. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi (ikki tomlik). – T.: O'zDSI. 2009.
6. O'zbekiston teatr ijodkorlari uyushmasi. Istiqlol va Milliy teatr. – T.: "Yangi asr avlodi", 2002.
7. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va sana'at" nashriyoti, 2000.
8. Abduvohidov F. Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri: kecha va bugun. – T.: "Vorisi", 2017.

## ZAMONAVIY O'ZBEK DRAMATURGIYASIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI MAVZUSINING BADIY TALQINI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqlar ma'naviyatini shakllantirish ilojisiz ekanligini tushungan ma'rifatparvar jadidlarning islom ma'naviyatini yangi bilimlar bilan boyitib, tarixiy jarayonda odamlar imon-e'tiqodi, ma'naviyati, dunyoqarashini shakllantirishda munosib hissa qo'shganliklari, shuningdek, ilm-u ma'rifat, ma'naviyat inson kamoloti uchun nechog'liq muhim ekanligi, yoshlar ongiga singdirishda kerak bo'lsa o'z jonini fido qilganliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ilm, bilim, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, adabiyot, dramaturgiya, teatr.

## ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ТЕМЫ МОЛОДЕЖНОЙ ДУХОВНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

**Аннотация.** В этой статье просвещенные джадиди, понимая, что без научных знаний невозможно формировать духовность народов, обогатили исламскую духовность новыми знаниями и внесли достойный вклад в формирование духовности и мировоззрения людей в историческом процессе. Тогда они пожертвовали своей жизнью

**Ключевые слова:** наука, знания, духовность, культура, просвещение, литература, драматургия, театр.

## ARTISTIC INTERPRETATION OF THE THEME OF YOUTH SPIRITUALITY IN MODERN UZBEK DRAMA

**Annotation.** In this article, enlightened moderns, who understood that it is impossible to form the spirituality of the people, enrich the Islamic spirituality with new knowledge, and in the historical process, they made their proper contribution to the formation of the spirituality of people's faith and worldview. if there is, it is said that they sacrificed their lives.

**Keywords:** science, knowledge, spirituality, culture, education, literature, dramaturgy, theater.

“Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi” [1], – degan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Ya'ni ma'naviyatning yetakchi targ'ibotchilaridan biri bu – teatr san'atidir. Chunki u bevosita tomoshabinlarga ta'sir ko'rsatadi. Sahnada yuz berayotgan voqealar bilan tomoshabin o'rtasidagi ma'naviy ko'prik vazifasini o'tagan holda, ikki tomonlama ta'sir kuchi bilan sahnada qahramon qiyofasini gavdalantirayotgan har bir aktyorga va uning harakatlarini kuzatib turgan tomoshabiniga ruhiy ozuqa beradi. “Teatr minbar, ibratxona, ma'rifat o'chog'i, odobnomadir” [2].

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda jadal sur'atda olib borilayotgan tub islohotlar bugungi kunga kelib, o'zining amaliy natijalarini bermoqda. Albatta, bu islohotlar so'nggi yillarda boshqa sohalar qatori, mamlakatimiz teatr hayotida ham tobora yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Hukumatimiz tomonidan teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. Mamlakatimizdagi ko'plab teatrlar jahon miqyosida o'tkazilgan festivallarda qatnashib, faxrlansa arzigulik natijalar bilan qaytishyapti. Yosh aktyorlar, rejissorlar, rassomlar, dramaturglar teatrga shiddat bilan kirib kelmoqda. Ular teatrga yangicha nafas, yangicha qiyofa, yangicha shaklni olib kirmoqda. Bu eng avvalo, respublikamizda mavjud barcha davlat tasarrufidagi teatr jamoasi o'z repertuarini shakllantira olish imkoniyatiga ega bo'lgani bilan izohlanadi. Natijada, teatrlarimiz repertuarida paydo bo'layotgan yangi asarlarning mavzusi, mazmun-mohiyati, soni va salmog'i yildan-yilga kengayib

bormoqda. Keyingi yillarda teatrlarimiz sahnasida paydo bo'layotgan asarlarning soni ortgan sari, ularni saralash, bugungi kun tomoshabinining turli qatlamlari talab va ehtiyojlarini qondira oladigan, ayniqsa, yoshlarimiz ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ota-ona hamda mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantira oladigan, unga ma'naviy-ruhiy quvvat bera oladigan zamonaviy mavzulardagi sara asarlarni sarhisob qilib sahnalashtirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Binobarin, teatr tomosha san'ati bo'lganligi uchun ham, har bir teatr jamoasi avvalambor, o'z tomoshabinining talab va ehtiyojini doimiy ravishda o'rganib borish zarur.

Mustaqillik yillarida dramaturglarimiz misli ko'ril-magan ijodiy erkinlikka erishdi. Turli mavzuda, turli janrda xalqimiz hayotining turli tarixiy davrlari haqida asarlar yaratish imkoniga ega bo'ldi. Bu davr qadimiy an'ana, urf-odat hamda qadriyatlar xalqimizga qaytarilganligini inobatga olsak, mustaqillikning dastlabki kunlarida dramaturglarimiz yoppasiga tarixiy mavzuga bejiz murojaat etmaganligiga guvoh bo'lamiz. Zero, aynan ushbu mavzu sho'ro davrida mafkura ta'qibi ostida qolib keldi. Albatta, tarixiy dramaturgiyada ham voqealar uzoq yoki yaqin o'tmishda kechsa-da, o'z mohiyatiga ko'ra, ayniqsa, qahramonlarning kurashi, muammolari bilan zamonga hamohang bo'lishi kerak. Yosh avlodni milliy g'urur, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash ruhida tarbiyalashda ularning o'rni beqiyosdir. Mustaqillik yillarida tarixiy asarlarning bu qadar ko'p yozilishi va sahnalashtirilishiga yana bir sabab, ularning davlat buyurtmasi sifatida ma'lum sanalarga mo'ljallab yozilganligidir.

“Yoshlarimiz millatimiz sha'nini ulug'lagan, uni dunyoga tanitgan olim-ufuzalolar, davlat arboblari, shoirlar taqdiri, hayoti aks ettirilgan sahna asarlari asosida qo'yilgan spektakllarni ko'rib qanchalik to'qinlansa, jamiyatimizda shu kunlarda kechayotgan jarayonlarni, voqealarni aks ettiruvchi, istiqlolni mustahkamlash uchun kurashayotgan qahramonlarni gavdalandiruvchi zamonaviy mavzudagi asarlar ham ularni shunchalik hayajonga soladi”. Faqat dramaturgiya va sahna ijodkorlari dolzarb va hayotiy mavzularni topa bilishi, ularni ta'sirchan ifoda vositalari yordamida talqin eta olishi kerak.

Dramaturg bir pyesani yozib, sahnaga chiqargunga qadar mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi. Chunki asar teatr jamoasida o'qilganda ham turlicha fikrlar bildiriladi. Dramaturg sabr-toqat bilan fikr-mulohazalarning eng muhimlariga e'tibor berib, asarni yaxshilab boradi. Bu jarayonda rejissor, rassom, kompozitor, aktyor, xullas, barcha ijod ahli bilan hamkorlik qiladi. Asar sahna yuzini ko'rib, tomoshabinga havola qilingandagina, dramaturg o'z vazifasini bajargan bo'ladi. Zamonaviy mavzularni yoritishda, afsuski, hayotda ro'y berayotgan jarayonlarni chuqur idrok etmaslik, sahna qonun-qoidalarini yaxshi bilmaslik, konfliktning kuchli xarakterlar to'qnashuvida emas, balki mayda maishiy mashmashalardan kelib chiqayotganligi, personajlarning quruq so'zamolligi kabi nuqsonlar kuzatilmoqda. Bunday nuqsonlarni bartaraf qilish uchun esa, dramaturglarimiz hayotni uzluksiz o'rganishi, insonlar, ularning xatti-harakatlari, turmush tarzini kuzatishi lozim bo'ladi. Dramaturg xalq bilan hamnafas, hamdard bo'lsagina haqiqiy zamonaviy asar yaratishi mumkin.

Ma'rifatparvar M.Behbudiy o'zining “Teatr nadur?” maqolasida “Teatr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonai ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir.”,[3] deb yozgan edi.

Xalqimiz Rixsivoy Muhammadjonovni kinodramaturg sifatida yaxshi taniydi. Uning qalamiga mansub kino kartinalar o'zbek kinosi taraqqiyotining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. So'nggi paytda R.Muhammadjonov teatr dramaturgiyasida samarali ijod qilishni boshladi. Dramaturg tomonidan yozilgan sahna asarlari, O'zbek davlat drama teatrida birin-ketin sahnalashtirildi. Ikki parda, to'rt ko'rinishdan iborat bo'lgan “Tirik yetimlar” dramasi teatr aktyori Bahodir Mirsodiqov tomonidan sahnaga olib chiqildi. B.Mirsodiqov mahoratli yosh aktyorlardan biri, uning rejissurada o'zini sinab ko'rishi va muvaffaqiyatga erishishi bevosita dramaturgiya bilan bog'liqdir.

Dramaturgiya – adabiyot janri. Lekin u teatr vujudga kelishi evaziga dunyoga kelgan. Demak, dramaturgiya teatrning o'zagi. Yaxshi pyesa hech vaqt javobsiz qolmaydi. “Tirik yetimlar” dramasi ana shunday ta'rifga loyiqdir.

“Tirik yetimlar”da aynan bolalar uyidagi hayot yoritiladi. Asarning bosh qahramonlari Butir, Baxtiyor, Bahor va Nazira ismli yigit-qizlar bo'lib, voqealar asosan ular o'rtasidagi bahs-munozaraga qurilgan.

Butir: ...bolalarimiz – kelajagimiz deb ko'kragimizga mushkullaymiz-u, lekin minglab bolalar o'z ota-onalarini kimligini bilmay bolalar uyida yashayotganidan xabarimiz yo'q. Yaxshiyam bag'rikeng davlatimiz bor. Tug'sang,

tug'dirsang bo'ldi, yallo qilib yuraverishing mumkin. Davlatni o'zi boqib olaveradi. Bizlarga nima bo'layapti-yu, yana qaysi tubanlikka tomon yo'l olayapmiz? Uzi ko'p gapirib va'zxonlik qilib yubordim. Sizlardan faqat bitta iltimos, uyga borganlaringda sekin oynaga qarab quloqlaringizga razm solib ko'ring. Yo'q, yo'q, bu yerda emas, uyda, uyda qaraysizlar. Bu yerda biron ko'rib qolishi mumkin.

Pyesani o'qiganingizdan so'ng unda ko'tarilgan mavzu, intriganing kuchayib borishi, dialoglarning lo'ndaligi, yechimning kutilmagan holatda yuzaga kelishidan kino dramaturgiya elementlarini uchratasiz. Biroq sahna san'ati qonuniyatlari chetlab o'tilmay, unga to'raligicha bo'ysudirilgan. Bu esa pyesaning sahnada jonlanishida aniq isbotini topdi.

Asar 2009-yil teatrning yosh, iqtidorli aktyori Bahodir Mirmaqasudov rejissorlik faoliyatining debyuti sifatida yuzaga keldi. Spektakl nomlanishiga kelganda, rejissor asar nomini saqlab qolmadi. Dramaning badiiy quvvatini yanada oshirish maqsadida, “Davlat bolalari” deya nom berdi. Mazkur nom qaysiridir ma'noda dramaturg ko'zlagan maqsadning to'raligicha ochilishiga sabab bo'ldi.

Sir emaski, spektakl sahnalashtirilmasdan avval yoki sahnalashtirilgan taqdirda ham uni ko'rmasdan avval pyesani o'qigan o'quvchi undagi qahramonlar ko'rinishini, egnidagi kiyimini, xarakterini o'z xayoli bilan gavdalandiradi. Spektakl janri, unda ko'tarilgan mavzu jihatdan jiddiyroq o'ylab qaralganda bunday tomoshaning yuzaga kelishi bir-biriga zid bo'lgan holatni vujudga keltirgan. Aktyorning sahnada tinimsiz harakat qilishi bu yaxshi narsa, lekin ko'pgina harakatlar oqlanmay ketgani, aktyor tomonidan topilgan improvizatsiya, bo'rttirilgan qiliqlarning ko'payishi evaziga ijroda bachkanalik seziladi.

Har kim qilgan ishiga qarab ajrim topadi, deyishadi. Biroq mazkur sahnani kuzatib turgan tomoshabin aynan shunday natija kutayotganligini ularning olqishlashlaridan ko'rishimiz mumkin. Baxtiyor va Bahor Butirning aytgan gaplari haqiqatga nechog'liq yaqin ekanligini bilish uchun sevishganlar rolini o'ynashga rozi. Lekin sir emaski, ko'ngillarining bir chetida Butirning hazil bilan aytgan so'zlari chin bo'lishiga orzumanda ekanliklari ularning holatlaridan ayon bo'lib turibdi. Butir do'stlari Baxtiyor va Bahorga ota-onalari kelganda o'zini qanday tutmog'i kerakligini o'rgatadi. Agar ular qarshi bo'lsa ham, o'z ahdidan qaytmasliklarini uqtiradi. Spektakl ichidagi spektakl boshlanadi. Avvaliga Baxtiyorning dadasi Nasliddinov (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist H. Arslonov) diplomat ko'targancha kirib keladi. Nasliddinov o'g'lini so'roqqa tutadi. Baxtiyor dadasining savollariga javob berarkan, aslida mazkur ishlar uyushtirilayotganini sezdirib qo'ygandek, tutilib-tutilib javob bera boshlaydi. Butir buni payqaydi va boshlagan tomoshasi oxiriga yetmasdan avval “proval” bo'lmasligi uchun Baxtiyorga yordamga keladi va Nasliddinov savollariga hech ikkilanmasdan tezkorlik bilan javob beradi. Nasliddinov Butirdan kimligini so'rganida u o'zini Butir Davlatovich deb tanishtiradi. Bu notanish yigitning javobi otani sergaklantiradi. Hatto soxtalik bilan Butirga dadasini tanishini aytadi. Butirni javobi esa doim naqd, u “dadamni hamma taniydi”, deya javob qilgandan so'ng Nasliddinov ichkari xonaga kirib ketadi. Oradan biroz vaqt o'tgach

Bahorning onasi Xumora (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist T. Mirmaqsudova) kirib keladi. U ham qizini savolga tutadi. Bahorning o'rniga Butir javob beradi. Butir bilan tanishgan Xumora ichkariga kirib ketadi. Sahnada esa natijani kutib turgan yoshlar qoladi.

Butirning Baxtiyor va Bahor haqidagi hazil bilan aytgan gaplari haqiqat edi. Haqiqatning achchiq bo'lishini ichkarida Nasliddinov va Xumoraning ko'rishib, sahnaga umuman o'zga qiyofada kirib kelishidan anglashimiz mumkin. Farzandlari o'z baxtini topayotganidan mumnun ko'ringan ota-onalar endi ularni turmush qurishiga qat'iy qarshi. Izohsiz sabab evaziga bunday qarshilikning vujudga kelishi Baxtiyorni shoshirib qo'yadi. Shuning uchun u otasini nima uchun qarshiligi sababini bilishga oshiqadi. Ota esa buning sababini izohlashga ojiz, chunki qarshisida turmush qurish arafasidagi farzandlari turardi. Bu haqiqatni anglagan Xumora ham to'yga qarshi, u ham qizi Bahorning savollariga javob bera olmaydi. Vaziyat taranglashadi, tabiiyki bunday damlarda tomoshani boshlagan Butirning o'zi tomoshaga yakun yasash uchun tilga kiradi. Butirning aytgan gaplaridan Nasliddinov ham, Xumora ham bo'yin tovlay olmasdi, chunki u ayni haq so'zlarni aytayotgandi. Baxtiyor va Bahor ota-onasining holatini ko'rib ular o'rtasida qondoshlik rishtasi rost ekanligiga endi tamomila ishonishadi. Ularning haqiqati ochiladi, endi navbat esa spektaklning bosh qahramoni Butirning haqiqati edi. Tomoshabin spektakl boshidan to shu mahalga Butirni akademikning o'g'li ekanligiga ishongandi. To'g'ri, o'zini tanishtirib Davlatovich deganida tomoshabin nimanidir sezgandek bo'lar, lekin Butirning o'zini tutishida, yetimlik to'g'risida umuman gap ochmaganligidan bu sezgi o'z kuchini yo'qotadi. Baxtiyor ota-onasini haqoratlagani uchun Butirga musht tushirganida uning haqiqat bulog'i o'z-o'zidan ochila boshlaydi. Butir ham ular kabi yetim o'sgan, lekin ular kabi otasi yoki onasi tirik bo'laturib yetim qolmagan, aksincha u chin yetim, na otasini na onasini biladi. Spektakl yakunida Butir shu paytgacha yashirib yurgan haqiqati haqida monolog aytadi. U monolog aytarkan avvalgi sahnalardagi uning xushchaqchaq kayfiyatini ko'rmaysiz, u nima uchun kundan kunga sevgi atalmish pokiza tuyg'u o'z kuchini yo'qotib borayotganidan, buning natijasida esa, bolalar uyi u kabi bolalar bilan to'lib borayotganidan, aslida dahshatli o'tmishini kulgisi ortiga yashirishini, bu uyalganlikdan emas, balki o'z-o'zini yolg'on bo'lsa ham

ovutish ekanligini, yuragining tub-tubida yashirib yurgan amlarini to'kib soladi.

Spektakldagi aktyorlar ijrosiga e'tibor beradigan bo'lsak, eng avvalo Butir qiyofasiga to'xtalish kerak. Agar biz spektakl voqealari boshidagi Butir bilan spektakl oxiridagi Butir qiyofasini solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida juda katta farqni kuzatamiz. Aktyor A.Ahmedov ijrosidagi sahnadan sahnaga o'tishda aktyorlik ijrosining o'sib borishi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, holatning o'zgarib borishi, ya'ni obraz dialektikasi ijrodagi eng katta yutuqlardan biri sifatida ko'rinadi. To'g'ri, pyesani o'qigan o'quvchi spektaklni tomosha qiladigan bo'lsa, aktyorning tashqi ko'rinishidan Butir sifatida hazm qila olmasligini ta'kidladik. Lekin natijaga kelganda muhimi ijro ekanligi, aktyorning ijrosi qaddi-qomatdagi tomoshabin hazm qila olmaydigan jihatlarni yengib o'tib, tomoshabin ko'ngliga yo'l topa olishi, bu aktyorlik maktabidagi ulug' haqiqat ekanligining yana bir bor guvohi bo'lamiz. Qolgan aktyorlarga to'xtaladigan bo'lsak, Baxtiyor qiyofasida gavdalangan S.Mansurov ijrosidagi sun'iylik, bu sun'iylik deklamatsiyaga aylanib qolganligini spektakl oxirigacha ko'rishimiz mumkin. Bahor rolini o'ynagan Yo.Yuldosheva ijrosiga keladigan bo'lsak, u Nazira qiyofasida gavdalangan N.Toshmatovaga nisbatan kuchli emotsiyaga ega aktrisa sifatida o'zini ko'rsata oldi. Baxtiyor va Bahorning ota-onasi qiyofasida sahnada gavdalangan H.Arslonov va T.Mirmaqsudovalarning ijrosi yosh aktyorlarga nisbatan orttirilgan tajriba evaziga o'zining tabiiyligini ta'minladi.

Rassomning ijodida hayratomuz sahna jihozini ko'rmadik. Balki bunga sabab bu ishni ham o'z zimmasiga olgan rejissorning ko'proq voqealarni shartli ravishda to'laqonli ochilishiga bergan urg'usidir. Agar spektakl g'oyasidan kelib chiqqan holda rassom ishida ramziy detallar topilganda aktyorlarga yanada erkinlik tug'ilardi va spektaklning ta'sirchanligini oshirishda o'z kuchini ko'rsatardi.

Debyutant rejissor ilk sahnaviy ishi bilan o'zida rejissorlik qobiliyati shakllanganligini ko'rsata oldi. Mazkur spektakl 2010-yil "Barkamol avlod yili"ga bag'ishlangan "Yosh rejissorlarning "Debyut – 2010" III – respublika ko'rik festivali"da qatnashdi. Festivalda spektakl taniqli teatr mutaxassislaridan iborat hakamlar hay'ati tomonidan munosib baholandi. Rejissor mazkur spektakl uchun "O'zbekteatr" ICHB diplomi va Respublika kasaba uyushmasi "Faxriy yorlig'"i bilan taqdirlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari. 2020.
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – Toshkent: "O'zbekiston", 2006. – B.9-10.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: "Universitet", 1998.
5. Fasafa qomusiy lug'ati. – T.: 2004. – B.122.
6. O'zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: 2001. – B.151.
7. Hasanov B., Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati. – T.: 2014. – B.102.
8. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Muhtaram yoshlarga murojaat". "Oyna" jurnali, 1914-yil / 41-son. – B.970-972.
9. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: 2010. – B.1.
10. O'sha manba. – B.5.
11. O'sha manba. – B.22.



# II BO'LIM

## MUSIQA SAN'ATI

Komiljon MIRZAYEV,  
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida dotsenti

### MAQOMSHUNOS IS'HOQ RAJABOVNING ILMIIY TADQIQOT ISHLARIGA BIR NAZAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maqomshunos olim I.Rajabovning o'zbek musiqa san'atiga qo'shgan hissasi hamda musiqa borasida yozilgan risolalar, qo'lyozmalar, maqomlarimizning qadimgi davrdagi holati, tarixi, bugungi kundagi maqomlarimizning kelib chiqishi, shakllanish va rivojlanish jarayoni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** maqom, o'zbek musiqasi, milliy musiqa, madaniyat, san'at.

### ИСХАК РАЖАБОВ И О ЕГО МАКОМНОЙ НАУЧНОЙ РАБОТЫ

**Аннотация.** В данной статье содержится информация о вкладе макомоведа И.Раджабова в узбекское музыкальное искусство, а также брошюры и рукописи по музыке, статус и история наших макомов в древности, происхождение, становление и развитие наших макомов сегодня.

**Ключевые слова:** статус, узбекская музыка, национальная музыка, культура, искусство.

### ISKHAK RAZHABOV AND HIS SCIENTIFIC MONOGRAPH "MAQOMS"

**Annotation.** This article contains information about the contribution of the makom scholar I. Radjabov to the Uzbek musical art, as well as brochures and manuscripts on music, the status and history of our makoms in antiquity, the origin, formation and development of our makoms today.

**Key words:** status, uzbek music, national music, culture, art.



Atoqli musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Is'hoq Rajabov o'zbek musiqa fani rivojiga juda barakali ta'sir ko'rsatdi. Xususan, olimning samarali izlanishlari o'laroq musiqashunoslik ilmi maqomlarni tadqiq etishda yangi bosqichga yuksaldi. Bu sohaning nisbatan mustaqil yo'nalishlari bo'lgan maqomshunoslik va musiqiy manbashunoslik tarmoqlariga asos solindi, ayni paytda, o'rta va oliy maxsus ta'lim muassasalari tizimida alohida fanlar sifatida o'qitilmoqda. Alloma Is'hoq Rajabov erishgan ilmiy natijalar mumtoz kasbiy musiqa namunalarini o'zbek hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilishida, shuningdek, 1993-yildan buyon respublikamiz miqyosida o'tkazilib kelinayotgan "Rajabiyxonlik" ilmiy-amaliy anjumanlarida alohida nufuzga ega bo'lib kelmoqda [1.B-1].

Shu bilan bir qatorda ustoz olimning qo'lyozma holdagi bir qator ilmiy asarlari, jumladan, "Maqomlar", "Sharq musiqa atamallari lug'ati", "Mahmud ash-Sheroziy", "Durratut-toj li-gurratid-deboj" qomusining "Dar ilmi musiqiy" ("Musiqi ilmi haqida") qismining forschadan o'zbek tiliga izohli tarjimasini, "Трактат средневековых ученых о музыке в фонда института Востоковедение АН Узбекистана", "Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati" kabi ilmiy ishlari nafaqat keng o'quvchilar ommasiga, balki ko'pchilik soha mutaxassislariga ham yaxshi ma'lum emas. San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida hamda olimning shaxsiy arxivida saqlanayotgan ushbu qo'lyozmalarni nashrga tayyorlab

berish ishlarini musiqashunoslarimiz oldida turgan eng muhim vazifalar qatorida qaramoq lozim [2.B-7].

Shuni ta'kidlash joizki, Is'hoq Rajabovning maqomlar mavzusida yozgan eng mukammal ilmiy asari 1963-yilda "Maqomlar masalasiga doir" nomi bilan nashrdan chiqarilgan bo'lsada, mazkur ilmiy risola san'atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibragimov tahriri ostida, ustozning qo'lyozmasi asosida to'ldirilgan tarzda 2006-yilda, "Maqomlar" nomi bilan nashrdan chiqarilgan. Olimning qo'lyozma nusxasi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida (inv.№843) saqlanmoqda. Muallifning doktorlik dissertatsiyasi asosida yuzaga kelgan bu keng qamrovli ilmiy asarni janr nuqtai nazaridan maqomlar qomusi, deb tavsiflash mumkin [3.B-6]. Zero, unda bu mumtoz san'at bilan bog'liq qariyb barcha masalalar, jumladan, maqomlarning qadimiy, o'rta asrlardagi va yaqin o'tmishdagi tarixi, o'rta asrlardagi nazariy o'rganilish jihatlari, maqom turlari, ularning tuzilish qonuniyatlari va o'zaro ta'sir munosabatlari hamda ijrochilik masalalari yoritiladi.

Shu bilan birga mazkur tadqiqotda muallifning "Maqomlar masalasiga doir" monografiyasidan o'rin olmagan yangi sahifa va bo'limlar ham mavjud. Xususan, "Maqomlar" risolasining qo'lyozmasida bu san'atni qadimiy kelib chiqish manbalari bir qadar kengroq yoritiladi, o'rta asr olimlarining musiqaga doir risolalari tavsifiga ham nisbatan kengroq o'rin beriladi hamda maqomot tizimida qo'llanib kelinayotgan

namudlar jadvali to'liq keltiriladi. Shuningdek, asarga O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimidagi Sharqshunoslik, Til va Adabiyot institutlari kitoblar zahirasida saqlanayotgan musiqiy risolalar ro'yxati hamda o'tmishda Shashmaqomda qo'llanib kelingan g'azallardan namunalar ilova etilgan. Bundan tashqari, zikr etilayotgan "Maqomlar" tadqiqotining qo'lyozma matni ma'lum darajada tahrir etildi. Bunda I.R.Rajabovning o'ziga xos "jonli" bayon etish uslubi to'la saqlangani holda faqat ayrim so'z va iboralar hozirgi davr musiqashunosligida qabul qilingan atamalar bilan almashtirildi [2.B-27] va 2006-yilda YUNESKO va Markaziy Osiyo mumtoz musiqasi – Shashmaqomni asrash bo'yicha Yaponiya Trast Jamg'armasining hamkorlikdagi loyihasi asosida O'zbekiston badiiy akademiyasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti tomonidan Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" ilmiy monografiyasi nashr qilindi [3.B-24].

"O'rta Osiyo xalqlari musiqqa madaniyati tarixidan" bo'limi Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" ilmiy monografiyasini boshlab beradi. **"Shuni aytish kerak-ki, O'rta Osiyo xalqlarining musiqqa madaniyati tarixi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Bu masalani, shu jumladan maqomlarning taraqqiyot yo'lini izchil yoritib beradigan yaxlit asarlar ham yaratilmagan. Umuman musiqqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir [3.B-15]. Bu materiallarni to'plab, O'rta Osiyo xalqlari musiqqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir"**, deydi muallif ushbu bo'limda va O'rta Osiyo xalqlari musiqqa nazariyasini asoslab bergan buyuk siymolar haqida hikoya qiladi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Safiuddin Urmaviy, Mahmud Sheroziy, Mavlono Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Navoiy va Abdurahmon Jomiylar haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi.

Monografiyaning keyingi bo'limi "O'tmishda bastakorlik san'atining ba'zi masalalari va kuy shakllari" deb nomlangan bo'lib, u shunday so'zlar bilan boshlanadi: "Bu masalalar Forobiy zamonidan boshlab XVIII asrlargacha yozilgan musiqqa risolalarida yoritilib kelindi. Bastakorlik an'anasi musiqqa asarlarining, shu jumladan, maqom turkumlarining rivojlanishi va takomillashuvida hal etuvchi ahamiyatga ega. Shashmaqom ham bastakorlik an'anasining mahsulati sifatida yuzaga kelgan edi. Shuning uchun ham bu masalaga alohida ahamiyat berilishi lozim" [17.B-42]. Musiqqa madaniyatimiz tarixida Navoiy va Jomiy zamonida ijod etgan juda ko'p bastakorlarning nomlari saqlanib qolgan. Ularning hayoti va ijodi haqida o'sha davrlarga oid tazkiralarda, tarixiy, adabiy, memuar xarakterdagi asarlarda qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Shunday manbalar jumlasidan Avfiyning "Lubob-ul-albob", Navoiyning "Majolis un-nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat-ushshuaro" va boshqa olimlarning tazkiralari, Boburning "Boburnoma"si, Vosifyning "Badoye' ul-vaqoye"si, Darvish Ali Changiyning "Risolai musiqiy" asari kabi ko'plab tarixiy manbalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, muallif Is'hoq Rajabov ushbu ilmiy monografiyani yozishga qo'l urishdan avval juda ko'p izlangan va qadimiy manbalarga tayangan. Bu bo'limda asosan Kavkabiya va Darvish Alilarning musiqiy risolalarida keltirilgan atama hamda dalillarni keltirib o'tadi [4.B-13].

"Sharq musiqqa nazariyasiga bag'ishlanib yozilgan ko'pgina yozma manbalarda musiqaning, xususan, musiqqa tovushlarining paydo bo'lishi haqida fikr yuritiladi. Bu o'rinda Qutbiddin ash-Sheroziy "Durratut-Toj" ensiklopediyasining musiqaga bag'ishlangan qismida hamda Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy" asarida keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir", deydi muallif monografiyaning "Maqomlarning nazariy asoslari" deb nomlangan bo'limda. Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, birinchi yaratilgan musiqqa ritmi "Zarbi qadim" ("Qadimiy zarb") deb ataladi. Bu ritm, go'yo inson tomirining urishidan olingan bo'lib, juda sodda "tan-tan" shaklida bo'lgan. So'ngra esa ritmlarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, "tana-tana", "tan-tan-tan", "tana-tana-tan", "tanna-tan" va hokazo. Bu ritmlar musiqqa asarlari bilan birga yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik esa Sharq xalqlarida mustaqil doyra usullari tarzida ham ajralib chiqqan. Ushbu bo'limda yana intervallar, ud cholg'usi haqida ma'lumotlar, tovushqatorlar jadvali ham keltirilgan [7.B-52].

"Maqom nima?" deb nomlangan bo'limda, bir necha mulohazalarni keltirgach, muallif shunday deydi: *"Maqom – ma'lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo'llari turkumi ma'nosini ifodalab keldi. IX – XIV asrlarda yaratilgan musiqqa risolalarida maqomlarning soni turlicha va noaniq ko'rsatilgan. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino asarlarida juda ko'p matsomlar va ularning sho'balari nomlari keltirilsada, ular aniq bir tizimda berilmagan. Ularning asarlarida maqom va sho'balarni yaqqol tasavvur etib bo'lmaydi. Xuddi shunday hol musiqqa nazariyasining IX – XIII asrlar davomidagi tarixiy taraqqiyoti jarayonini aks ettirgan Qutbiddin ash-Sheroziyning "Durratut - Toj" asarida ham o'z ifodasini topgan"* [2.B-35]. Bo'limda yana chizmalar keltirilgan bo'lib, ulardan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrlarda maqomlar 12 ta: Ushshoq, Buslik, Navo, Kuchak, (yoki Zirafkand), Rahaviy, Buzurg, Iroq, Rost, Isfahon, Hijoz, Husayniy va Zangula maqomlaridan iborat bo'lgan. Bular XV asr va undan so'nggi davrlardagi O'n ikki maqom (Duvozdah maqom) tizimiga kirgan maqomlarning o'zidir [16.B-61].

"O'n ikki maqom" nomli bo'limda: *"O'n ikki maqom tizimi (Duvozdah maqom) deyilganda, 12 maqom, ularning ma'lum qismlari asosida yuzaga kelgan tovushqatorlarning muayyan turlari - 6 ovoz, 24 sho'ba va murakkabot, deb atalgan lad ko'rinishlari tushuniladi"*, deyiladi. Bundan tashqari birinchi va ikkinchi guruhga kiradigan jinslar jadvali ham keltirilgan. Jamlarning pog'onalari va intervallari sentlarda ko'rsatilib, qulaylik uchun jadval ham tuzilgan. Sharq nota yozuvi haqida ham aynan shu bo'limda batafsil ma'lumot berilgan.

"Maqomlar" ilmiy monografiyasining birinchi qismi "O'n ikki maqom va Shashmaqom" bo'limi bilan yakunlanadi va unda shunday fikrlardan biri keltiriladi: *"Shashmaqomning shakllanishida dastlab O'n ikki maqom tizimidagi lad asoslari bir-biriga yaqin bo'lgan maqomlar va sho'balari birlashtirilgan. Bizning kungacha yetib kelgan Shashmaqomning tarkibiy tuzilishi, qiyofasi buning dalili bo'la oladi. Masalan, maqomlardan har birining cholg'u bo'limida Gardun, Muxammas, Saqil deb ataluvchi cholg'u*

yo'llari, bulardan tashqari, Rost maqomida Panjgoh, Dugohda Peshrav va Samoiy, Segohda Hafif, Ajam, Bastanigor kabi kuy yo'llari mavjud. Bulardan Panjgoh, Ajam va Bastanigor O'n ikki maqom tizimidagi sho'balarning nomidir. Kuy tuzilishi va lad qurilmasi mos kelgani uchun ular yuqoridagi maqomlar tarkibiga kiritilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas". Bu kabi ma'lumotlar qadimiy ilmiy adabiyotlarda ham bir necha bor keltirilgan. Bundan anglash mumkinki, bu ilmiy monografiyani yaratishdan avval olim juda ko'p izlangan, barcha manbalarni qunt bilan o'rganib, har bir detallariga alohida e'tibor bergan.

Ilmiy monografiyaning 2-qismi "Shashmaqom" bo'limi bilan boshlanadi va unda Shashmaqomning shakllanishi, tarixi, tarkibi va tartibi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan holda shunday deyiladi: "Maqomlar ham jamiyatning boshqa hodisalari kabi davrning ijtimoiy badiiy estetik talablariga va ehtiyojlariga bog'liq bo'lgan holda yashab keldi va o'z taraqqiyoti jarayonida katta o'zgarishlarga uchradi. O'n ikki maqom Shashmaqom shakllanishiga qadar yashab keldi, deb aytishga ba'zi faktik materiallar imkon beradi. Uning musiqa materiali – kuy va ashula yo'llari Shashmaqom turkumlarining asosini tashkil etgan, deb o'ylash mumkin". Maqomlarning ijro etilishida musiqa cholg'ulardan tanbur va doyra yetakchi sozlardan hisoblanganini alohida ta'kidlagan holda mana shu cholg'ular haqida batafsil ma'lumotlarni keltirgan [18.B-72].

"Maqomlar to'la va yaxlit holda ijro etiladigan bo'lsa, dastlab ularning cholg'u yo'llari birin-ketin ijro etilib so'ngra, ashula bo'limi sho'balarga o'tiladi", degan so'zlar bilan muallif "Shashmaqomning cholg'u bo'limi"ni boshlaydi. Cholg'u yo'llari haqida batafsil to'xtalar ekan xona va bozgo'ylar haqida ham qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Tasnif, tarje', gardun, muxammas, saqillar borasida ham aynan shu bo'limda o'qish mumkin.

"Shashmaqomning ashula bo'limi"ni yoritarkan, namudlar mavzusiga alohida to'xtalib o'tadi va: "Namudlar ko'pincha maqom sho'balarning boshlanishidagi kuy jumllaridan olinadi va ular boshqa sho'balarning avji sifatida foydalaniladi. Masalan, Buzruk maqomining Nasri Uzzol sho'basi yoki Nasri Chorgohning boshlanishidagi 3 yoki 4 kuy jumlasini butunligicha olinib, boshqa sho'balarda foydalaniladi va ular Namudi Uzzol yoki Namudi Muhayyari Chorgoh deb ataladi", deydi. Namudlarning soni, nomlanishi, qo'llanilishi haqida fikr yuritib, namudlarning bir qatorini batafsil sharhlab beradi.

"Shashmaqom ashula bo'limining birinchi guruh sho'balari"ga atalgan bo'limda suporish, daromad, miyonxat, Sarahborlar, Talqinlar, Nasrlar, Ufarlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. "Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balari"da esa Savtlar, Mo'g'ulchalar va ularning tipida yaratilgan boshqa sho'balarning haqida fikr yuritiladi [6.B-59].

"Hech shubha yo'qki", deydi Is'hoq Rajabov "Maqomlar monografiyasining "Xorazm maqomlari" bo'limida, "O'n ikki maqom yo'llari Xorazmda ham mashhur bo'lgan, shu bilan birga u yerda Eshvoy, Feruz, Ilg'or, Suvora kabi juda ko'p maqom tarzidagi kuy va ashula yo'llari mavjud edi". Shuni aytish kerak-ki, Xorazm maqom yo'llarining ba'zilari bizgacha to'liq yetib kelmagan va ularning nomlari ham almashtirib yuborilgan. Bu esa Xorazm kuy

yoki ashulalarining tuzilish xususiyatiga e'tibor qilinib, maqomlarga ijodiy yondashishning natijasi bo'lsa kerak degan fikrni ilgari surib, Xorazm maqomlarining jadvali va Xorazm tanbur chizig'iga alohida to'xtalib o'tadi.

"Xorazm maqomlarining chertim yo'llari (mansurlari)" bo'limida va "Xorazm maqom yo'llarining aytim yo'llari (manzumalari)" bo'limlarida Xorazm maqomlarining tarkibi Buxoro Shashmaqomi bilan solishtirilgan holda o'rganilgan va bayon etilgan [13.B-96].

"Farg'ona – Toshkentda mashhur bo'lgan maqom yo'llari" bo'limida esa Toshkent va Farg'ona vodiysida Shashmaqom ta'sirida yaralgan yuzlab asarlar mavjudligiga ishora qiladi va bir qancha asarlarni ilmiy tahlil qilib beradi. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llarini Shashmaqom bilan solishtira turib muallif shunday deydi: "Masala Bayot I, Dugohi Husayniy I, Chorgoh I, yana Shahnozi Gulyor (uning tuzilishi yuqoridagi maqom yo'llaridan farqlanadi, shuning uchun biz bir-biriga o'xshash maqom yo'llarini uchta deb oldik) Saraxborlar tartibida u ishlangan bo'lib, ularning takt-ritm o'lchovi doyra usuli, ularga aytiladigan shsrlar o'lchovi, ashula yo'lidagi kuy harakatlari Shashmaqomdagining o'zidir" [3.B-75].

Is'hoq Rajabov monografiyada "Shashmaqom ijrochilik masalasiga doir" bo'limida juda qimmatli ma'lumotlarni taqdim etgan. "Maqom ijrochiligida bir hofizning aytish uslubi va uning aytgan ashula yo'li ikkinchisiga hech bir o'xshamaydi. Ma'lum maqom yo'lini turli hofizlar hatto variantlar darajasida ijro etishi mumkin. Chunki ularning har biri ashula yo'lini puxta va chiroyli ijro etishi uchun o'z ovozinining imkoniyatlari doirasida unga ma'lum o'zgarishlar kiritadi. Bunda hofiz ovozinining kuchi va baland-pastligiga qarab, ashulada mavjud bo'lgan kuy bo'laklarini qisqartirib yoki ularga namudlar kabi qismlar kiritishi mumkin. Masalan, buxorolik hofizlar Qo'qon Ushshog'iga Segoh, Ushshog, Uzzol va Muxayyari Chorgoh namudlarini qo'shib aytgan bo'lsalar, Farg'ona vodiysida esa faqat Namudi Segoh bilan cheklanganlar. Tojikistonda unga hatto Zebo pari avjini ham qo'shib ijro etganlar. Navro'zi Sabo aslida Segoh, Navo va Oraz namudlari bilan ijro etilgan. Marhum Domulla Halim Navro'zi Saboga Namudi Segohni to'liq shaklda kiritib aytgan", deydi muallif.

"Shashmaqom va xalq ijodiyoti" bo'limida shunday so'zlar bor: "Bastakor-sozandalarning asrlar davomida maqom mavzularida kuy va ashulalar yaratib kelganliklari va hozirgi kungacha ham ular ta'sirida yoqimli va ajoyib asarlar yaratayotganliklari maqomlarning xalq musiqa ijodiyotiga chuqur singib ketganini ko'rsatadi. Masalan, Xorazm mashhur kuylaridan Ilg'orni olib qaraylik", deya, Ilg'or bilan birga Tarje' Dugoh, Munojot kabi asarlarni tahlil qilib beradi. "Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi qismiga kirgan sho'balarning xalq musiqa ijodiyotiga o'z navbatida kuchli ta'sir etganini tasdiqlaydigan boshqa dalillarni olaylik" deya juda qiziqarli faktlarni keltiradi. Ishning oxirida foydalanilgan qo'lyozma manbalarning qisqa tafsiloti, Shashmaqomning XIX asr o'rtalarida ko'chirilgan she'riy matnlaridan namunalarni hamda asarda uchraydigan ba'zi atamalarning qisqacha lug'ati ilova qilinadi [14.B-25].

Xalqimizning musiqa boyliklari juda ham ko'p qirrali, sermazzun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib

kuylarimiz kishiga quvonch, xursandlik bag'ishlaydi, og'ir damlarni yengil qiladi. U insonning olijanob fazilatlarini, his va tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga ega. Xalqimizning o'lmas musiqa xazinasi – maqom janri o'zbek xalq musiqa merosida alohida o'rin tutadi. Maqomlar yuksak badiiy estetik kuchga ega bo'lgan asarlardir. Shashmaqom O'rta Osiyo xalqlarining ko'p asrlik madaniy-tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida shakllangan bo'lsa ham uning yaratilishi va yuzaga kelishi juda qadim zamonlardan boshlangan.

Maqomlar asrlar o'tishi bilan yiriklashib bordi va

ularning dastlabki O'n ikki maqom shakli olti maqomga birlashtirildi. Maqomlar o'z boshidan juda ko'p zamonlarni kechirdi. Shu sababli, Shashmaqomda O'rta Osiyo xalqlari yashagan sharoit, tarixiy hodisalar o'z izini qoldirdi. Bu hodisalar maqom sho'balarning nomlarida ham o'z aksini topdi.

Atoqli olim Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" nomli shoh asari nafaqat mutaxassislar va amaliyotchilar e'tiborini qozonadi, balki bebaho mumtoz musiqiy qadriyatlarimiz tarixiga, taqdiriga befarq bo'lmagan ma'rifatli xalqimiz nazdida ham mo'tabar kitoblardan biri bo'lib qoladi, albatta.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov A. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. – Toshkent.: 2004.
2. Darvesh Ali Changiy. Risolai musiqiy. O'zR FA SHI -I Inv№468.
3. Oripov. Ustoz va olim. "Rajabiyxonlik" ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: 1994.
4. Rajabov I. Maqomlar. – T.: "San'at", 2006.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: 1963.
6. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: 2006.
7. Kavkabi N. "Risolai musiqiy. Risola dar bayoni Duvozdax maqom" A.Rajabov. – Dushanbe.: "Irfon", 1985.
8. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы. – T.: 2006.
9. Matyoqubov O. Maqomot. – T.: 2004.
10. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi (ilmiy uslubiy tavsiyalar). – T.: 2000.
11. Yunusov R. Ishoq Rajabov – XX asr maqom allomasi (To'plam). – T.: 1998.
12. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: 1993.
13. Matyoqubov Sh. An'anaviy ijrochilik tarixi. – T.: 2015.
14. Rajabiy Y. Shashmaqom (1-jild). – T.: "Toshkent", 1966.
15. Rajabiy Y. Akbarov I. O'zbek xalq musiqasi tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1981.
16. Rajabiy Y. Muziqa merosimizga bir nazar. – T.: "Adabiyot va san'at", 1978.
17. Qozi Ahmad bin Xoliqon. Tarixi vafoyoti ayon. – Misr.: Toshbosmada 1881-yil nashr etilgan.



## UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI

**Annotatsiya.** Maqolada Uchinchi Renessans davrida o‘zbek cholg‘u ijrochilik san‘atining xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Renessans atamasining ma‘nosi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida yurtimizdagi buyuk allomalar faoliyati va nihoyat Uchinchi Renessansni barpo etishda hamma sohalar kabi musiqa san‘ati sohasi oldida turgan vazifalar haqida mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Renessans, musiqa, san‘at, cholg‘u, ijrochilik, uyg‘onish, bilim, ko‘nikma, malaka, talaba.

### ВО ВРЕМЯ ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

### УЗБЕКСКАЯ ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ

**Аннотация.** В статье рассматриваются особенности узбекского музыкального исполнительского искусства эпохи Третьего Возрождения. Затрагиваются такие вопросы, как значение термина «Возрождение», деятельность великих ученых нашей страны в период Первого и Второго Возрождения и, наконец, задачи, стоящие перед музыкальным искусством, как и всеми другими областями, при становлении Третьего Возрождения.

**Ключевые слова:** Ренессанс, музыка, искусство, музыкальный инструмент, исполнительство, возрождение, знание, мастерство, навык, квалификация, ученик.

### DURING THE THIRD REVIVAL UZBEK TOOL PERFORMANCE

**Annotation.** The article examines the features of the Uzbek musical performing art of the Third Renaissance. The meaning of the term "Renaissance", the activities of the great scientists of our country during the First and Second Renaissance and, finally, the tasks facing the musical art, as well as all other fields, during the formation of the Third Renaissance are discussed.

**Keywords:** Renaissance, music, art, musical instrument, performance, revival, knowledge, skill, qualification, student.



O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi, Uchinchi Renessans bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g‘oya o‘zining ulug‘vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko‘zlamog‘i zarurligini ko‘rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekiston milliy g‘oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi.

**Uchinchi Renessans** g‘oyasini avvalo chuqur anglab olmog‘imiz kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, istiqbol dasturlarimiz, ta’lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat – barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog‘i lozim.

“**Renessans**” so‘zi fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma‘noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san‘atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘g‘irilgan.

**Birinchi Renessansda** yurtimizdan Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda

boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

**Ikkinchi Renessansda** – Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki **Renessans** davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur. O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish va unda musiqa san‘atini ham hamma sohalar kabi rivojlantirish vazifalari belgilab berildi [1]. Renessans hodisasi o‘ziga xos Uyg‘onish davri bo‘lib, unda ta’lim, ilm-fan va san‘at rivojlanishi, jamiyatda yangi turmush tarzi va g‘oyalar almashinuvi jarayoni kechadi. Shu jihatdan musiqa san‘ati va uning tarkibiy qismi – cholg‘u ijrochiligi yangi asoslarga ko‘ra taraqqiy etishi idrok etiladi. O‘zbekiston hududida keyingi ming yil davomida ikki Renessans davri kelganligi ma’lum [2]. Birinchi Renessans IX-XII asrlarda kelgan bo‘lib, unda o‘zbek cholg‘u ijrochiligi quyidagi tayanchlar asosida rivojlangan:

- xalq og‘zaki musiqa ijrochiligi;
- professional og‘zaki musiqa ijrochiligi;
- bastakorlik asosidagi musiqa ijrochiligi.

Ikkinchi Renessans davri XIV-XV asrlarda kelgan bo‘lib, mazkur jarayonda o‘zbek cholg‘u ijrochiligi rivojining tayanchi quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

- birinchi Renessans musiqa ijrochiligiga vorislik;

- maqom san'ati ijrochiligi;
- cholg'u ijrochiligi san'atining kuchayishi.

Har ikkala Renessans davrida o'zbek cholg'u ijrochiligi rivojida uch tendensiya kuzatiladi:

- a) Rubob, Dutor, Ud, Rud kabi ommaviy xalq cholg'ularining mavjudligi;
- b) cholg'u ijrochiligining takomillashib borganligi;
- v) iste'dodli sozandalarning voyaga yetganligi.

Uchinchi Renessans XX asrning I choragida jadic ma'rifatparvarlari tomonidan boshlanganligi va uni Yangi O'zbekiston sharoitida barpo etish idrok etilmoqda [1]. Bu davrda o'zbek xalq cholg'u ijrochiligini rivojlantirish asoslari quyidagilarda ko'rinmoqda:

1. **Manbalarni o'rganish.** O'zbek cholg'u ijrochiligini Uchinchi Renessans davrida rivojlantirishning muhim asosi manbalarga vorislikdadir. Bunda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- o'zbek xalq og'zaki musiqqa ijrochiligi an'alarini davom ettirish;
- maqom cholg'u ijrochiligida vorislikni ta'minlash;
- bastakorlik ijodiyoti asarlari ijrochiligini yangi bosqichga ko'tarish;
- yakkanavoz, ansambl va orkestr cholg'u ijrochiligini yanada rivojlantirish.

Milliy manbalarni o'rganish va u asosdagi cholg'u ijrochiligini rivojlantirish yangi davrda muhim ahamiyatga ega.

2. **Zamonaviy cholg'u ijrochiligi bardavomligi.** Uchinchi Renessans davrida zamonaviy cholg'u ijrochiligining bardavomligini ta'minlash dolzarb bo'lib turibdi. Bunda quyidagilar idrok etilmoqda:

- zamonaviy dunyo musiqqa san'ati ijrochiligini o'zlashtirish;

- jahon xalqlari cholg'u ijrochiligi an'alarini o'rganib borish;

– o'zbek yakkanavoz, ansambl va orkestr ijrochiligi tajribasini jahon sahnasiga olib chiqish;

- zamonaviy o'zbek cholg'u ijrochiligi Oltin fondini yaratish.

Zamonaviy o'zbek xalq cholg'u ijrochiligi an'anaviylik va novatorlik uyg'unligi asosida rivojlanishi kerak. Aks holda, yillar davomida to'plangan milliy cholg'u ijrochiligi tajribasi va vorislik uddumi zaiflashib qoladi.

3. **Iste'dodli sozandalarni voyaga yetkazish.** Bu masalada O'zbekistonda munosib shart-sharoit va tajriba mavjud. Ayni paytda, iste'dodli sozandalarni voyaga yetkazish uchun quyidagilarni amalga oshirish taqozo etilmoqda:

- yagona va tipiklashtirilgan "O'zbek cholg'u ijrochiligi Milliy dasturi"ni ishlab chiqish;

– mazkur dastur quyi musiqqa ta'limidan oliy musiqqa ta'limigacha bo'lgan bosqichlarda o'zbek cholg'u ijrochiligi asoslarini uzviylikni ta'minlashi kerak;

- mumtoz va zamonaviy o'zbek cholg'u ijrochiligi bo'yicha sozandalar avlodini voyaga yetkazish;

– yakkanavoz, ansambl va orkestr cholg'u ijrochiligini yangi bosqichda rivojlantirish;

- sozandalarda hozirgi zamon talablariga mos ravishda ijodkorlik malakasini tarkib toptirish.

Bunday asosda o'zbek cholg'u ijrochiligini Uchinchi Renessans davrida rivojlantirish kutilgan samarani berishi shubhasizdir. Buning uchun mavjud imkoniyat va sharoitlardan oqilona foydalanish, ustoz-shogird an'alarini yangi bosqichga ko'tarish, to'plangan ilg'or tajribalarni ommalashtirish va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash taqozo etiladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi. // [www.zionet.net](http://www.zionet.net). 2020-yil, 1-oktabr.
2. Milliy ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: 2019.

## FORTEPIANO MASHG'ULOTLARIDA MUSIQIY ASARLARNI YOD OLISH BOSQICHLARI

**Annotasiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'quv jarayonidagi o'rni, ularning ijobiy va salbiy ta'siri haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, maqolada fortepiano musiqasi janrlarida yaratilgan asarlarning e'tiborga molik jihatlari inobatga olgan holda, fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, talaba ijro dasturidan o'rin olgan badiiy namunalarni samarali yod olishdagi mantiqiy, motorik (harakat), eshitish, vizual (ko'rish) va emotsional xotira turlarining ahamiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** sintetik qobiliyat, xotira, musiqiy xotira, mantiqiy, motorik (harakat), eshitish, vizual (ko'rish), emotsional xotira turlari, ijro dasturi, pyesa, etyud, polifoniya, ekspozitsiya.

## ЭТАПЫ УЧЕНИЯ НАИЗУСТЬ МУЗЫКАЛЬНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ НА УРОКАХ ФОРТЕПИАНО

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль, положительные и отрицательные влияния информационных и коммуникационных технологий в образовании на сегодняшний день. Также в статье рассматриваются виды логической, моторной, слуховой, зрительной и эмоциональной памяти при эффективном запоминании музыкальных произведений с учетом особенностей, специфики жанра фортепианной музыки которые входят в программу студенческого исполнительства.

**Ключевые слова:** синтетическая способность, память, музыкальная память, логическая, моторная (двигательная), слуховая, зрительная, виды эмоциональной памяти, исполнительская программа, пьеса, этюд, полифония, экспозиция.

## STAGES OF LEARNING BY HEART A PIECE OF MUSIC IN PIANO LESSONS

**Annotation.** This article discusses the role, positive and negative effects of information and communication technologies in education today. The article also discusses the types of logical, motor, auditory, visual and emotional memory in the effective memorization of musical works, taking into account the features and specifics of the piano music genre that are included in the program of student performance.

**Key words:** synthetic ability, memory, musical memory, logical, motor (motor), auditory, visual, types of emotional memory, performing program, play, study, polyphony, exposition.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ta'limga, xususan Oliy ta'limga jiddiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas, albatta. Negaki, har bir davlat rivojlanish bosqichida bilim va malakali kadrlarga ehtiyoj sezadi. Bu borada Prezidentimiz aytganidek: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim". Zero, jadal rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan yuqori kompetentli, malakali kadrlar, axborotlashgan zamonda fan-texnika taraqqiyotiga albatta o'z hissalarini qo'shadilar.

XXI asr yuksak axborot-texnologiyalar davri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish, ta'lim jarayoni sifati va natijadorligini

oshirish maqsadida, axborot telekommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish yuzasidan keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya"si to'g'risidagi PF-5847-sonli Farmoniga ko'ra "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish", 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorida innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish; o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish kabi vazifalarga e'tibor qaratilgan<sup>1</sup>.

Hozirda IT texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib borib, kun sayin rivojlanmoqda. Shunga ko'ra oliy ta'lim professor-o'qituvchilar va talaba yoshlardan ham axborot-texnologiyalardan foydalana olish va uni o'quv jarayonida tadbir etish talab etilmoqda<sup>2</sup>. Informatsion texnologiyalarning ta'limdagi, xususan oliy

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

<sup>2</sup> Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. – Москва: Академия, 2005. – С.11.

ta'limdagi ta'siri yuqori bo'lib, ular orqali talabalarning kreativ va tizimli fikrlashiga molik ahamiyati borligini texnolog olimlar e'tirof etishgan<sup>3</sup>.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati qanchalik muhim va zarur bo'lmasin, yoshlarga bu vositalardan ratsional foydalanishni har doyim eslatib turishimiz zarur. Chunki, raqamli vositalardan ongsiz ravishda besamar, nazoratsiz foydalanish diqqat va xotiraga zarari borligi sohaga oid bir qancha tadqiqotlarda asosli ta'kidlangan<sup>4</sup>.

Musiqi ta'limini egallashda asosiy va eng muhim jihat, katta hajmdagi ma'lumotlarni egallash va yodda saqlash, o'quv dasturiga mos keladigan ijro repertuarini o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdir.

Fortepiano darslarida aksariyat talabalar uchun murakkab vazifalardan biri semestr ijro dasturida o'rin olgan yangi musiqiy asarlarni tez va sifatli yod olishdir. Chunki xotira – “in'ikos etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixologik jarayon”dir<sup>5</sup>.

Ma'lumki, xotiraning obrazli, emotsional, mantiqiy, motorik, vizual, hissiy kabi turlari mavjud. Musiqiy xotira esa eshitgan va esda saqlab qolingani musiqiy matinni izchil ifoda etishdir. Tarkibiga ko'ra musiqiy xotira murakkab sintetik qobiliyat bo'lib, xotiraning bir qancha turlarini, jumladan mantiqiy xotira, motorik, ya'ni harakat xotirasi, eshitish xotirasi, vizual (ko'rish) xotira va emotsional xotira turlarini o'zida mujassamlashtiradi<sup>6</sup>. Shundan kelib chiqqan holda musiqiy asarni o'rganish jarayonida sezgi, hissiy va aqliy faoliyat qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik tez o'zlashtiriladi. Demak, asar matnini yod olishda imkon qadar ko'proq xotira turlaridan foydalanish zarur.

Ma'lumki, nota matnlari tarkibiy jihatdan polifonik, gamofon-garmonik bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Musiqiy asarni tahlil qilish jarayoni asar mohiyatini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganilayotgan asar matni albatta batafsil tahlil qilinganidan so'ng yod olinishi kerak. Xususan, G.M.Sipinning “Fortepianoda chalishni o'rganish” (“Обучение игре на фортепиано”) qo'llanmasida musiqiy asarni yod olishning samarali uslublari yoritilgan. Uning ta'kidlashicha, musiqiy asarni yod olish jarayonida puxta o'ylangan, mantiqli uslublarga badiiy intellektual, hissiy aktivlikni birlashtirgandagina to'liq o'zlashtirish mumkin<sup>7</sup>.

<sup>3</sup> Allayarova S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oliy talim sifati va samaradorligini oshirish omili. “Zamonaviy ta'lim”, 2020. 4 (89). – B.10-19.

<sup>4</sup> Japhet E. Lawrence, Usman A. Factors that influence teachers adoption and integration of ICT in teaching/learning process // Educational Media International. February 2018, 55(4):1-27. DOI:10.1080/09523987.2018.1439712

<sup>5</sup> Xotira – nerv tizimi xususiyatlaridan biri bo'lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, xatti-harakat doirasida qayta tiklash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Qarang: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9 jild – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000. – B.241.

<sup>6</sup> Алексеев Д.Е. Методика обучения игре на фортепиано. – М.: “Музыка”, 1978. – С.34.

<sup>7</sup> Цыпин Г.М. “Обучение игре на фортепиано” – М.: “Просвещение”, 1984. – С.111.

<sup>8</sup> Ratsional – oqilona, maqsadga muvofiq. Qarang: Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: “Оникс”, 2005. – С.875.

Cholg'u asarni o'zlashtirishda dastlab uni ratsional<sup>8</sup> bo'laklarga taqsimlab olib, uning tonal va garmonik jihatdan modulyasiyalangan sekvensiyalarni hamda takrorlanuvchi o'xshash jumllarini aniqlab intonatsiyasi ustida ishlash, so'ng bir-biriga qo'shib yaxlit epizod (hajman yirik bo'lgan musiqiy lavha) holda asar matnini yodlash tavsiya etiladi. Bunday amaliyot nazarimizda, talabalarda o'rganilayotgan asar matnini “uzoq muddatli” xotirada saqlanishiga faol xizmat qiladi. Shu bilan birga, musiqiy matnini tezroq o'zlashtirib yod olishda vizual xotiraning ham o'rni bor. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak-ki, vizual xotira ichki eshitish xotirasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u xotira usuli bilan asar matni tahlil qilib chiqilganidan so'ng, kuy yo'llarini ichki eshitish xotira turini “ishga” solgan holda yod olish lozim. Ta'kid joizki, shu uslubda yod etilgan musiqiy asarni ijro etish jarayonida, albatta, uning matni ijrochi talabaning ko'z oldida namoyon bo'ladi.

Xotiraning emotsional turi esa kechinma xotirasi sifatida obyektiv voqelikning ta'sirida o'rganuvchi ongida kechgan his-tuyg'ular va hissiyotlarni yodda saqlaydi. Aynan emotsional xotira turi orqali musiqiy asarning badiiy obrazi ijroda “hosil” qilinadi. Hissiy kechinmalar emotsional xotiraning muhim omili bo'lib, u o'z navbatida musiqiy va hissiyotli ijroning poydevoriga aylanadi.



Musiqiy asarlarni yod olish jarayonida uning janrini inobatga olgan holda xotira turlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Shaklan murakkab bo'lgan 2, 3-4 ovozli polifonik asarlarda dastlab har bir ovozdagi mavzullar alohida-alohida yod olinadi<sup>9</sup>.

Bu jarayon yaxshi o'zlashtirilgandan so'ng, ularni ikki ovozdan juftlab (masalan, soprano-alt, alt-bas v.h.), keyinchalik qolgan ovozlarni birma bir qo'shib yodlash lozim. Shunda, tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lgan polifonik uslubdagi asarni o'zlashtirish ancha onson kechadi.



Passajlardan tarkib topgan etyud<sup>10</sup> va mohirona (texnik) pyesalarni esa dastlab o'ng qo'lda, so'ngra chap qo'lda o'rganish samaralidir.

Bunday o'zlashtirish jarayonida har bir qo'lning garmonik ketma-ketligi, applikatorasi, akkordlar fakturasini inobatga olgan holda ko'p marotaba takrorlash zarur. Ta'kid joizki, bu uslubda mushak, ya'ni fiziologik xotira ishga tushadi. Lekin bu xotira uslubiga mutlaq tayanib qolish tavsiya

etilmaydi. Chunki, asar ijrosidagi hayajonli vaziyatlarda, ayniqsa, imtihon va konsertlarda mushaklarning qisqarishi yuzaga kelib, mazkur xotira ijobiy ijro natijadorligiga erishishda pand berishi mumkin. Bu holatdan saqlanish maqsadida, mantiqiy xotirani "ishga" solish tavsiya etiladi. Zero, mantiqiy xotira orqali asar tuzilishi, garmoniyasi, ohang yo'llari, intiqa (modulyatsiya)lari, kompozitor g'oyasi, umumiy drammatik rejasi ijrochi talaba tomonidan idrok etiladi va yod olinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, musiqiy asarni, ayniqsa, yirik hajmdagi asarlarni yod olish bir necha bosqichlardan iboratdir. Hajman yirik asarni yod olishdan oldin, o'rnatilgan tartibda uni sinchiklab tahlil qilamiz, so'ngra esda saqlab qolishga ma'qul bo'ladigan, katta bo'lmagan birinchi va ikkinchi jummalarni, davriya va lavhalarga taqsimlab olamiz. Belgilangan lavhalardagi mavjud mantiqiy, ritmik o'xshash intonatsiyalar, shtrix, dinamika, applikatorlarini belgilab olgandan so'ng o'rganiladi.

Asar puxta yod olinishi uchun tempning ham ahamiyati katta. Bu jarayonni muallif tomonidan belgilangan tempda emas, avval mo'tadil sur'atda amalga oshirish kerak. Chunki tafakkur qilish imkoni yuqori tempda susayadi va o'z-o'zidan asar yuzaki yod olinadi. Yod olingan jumlaning qayta-qayta takrorlab, ongda saqlanganligiga ishonch hosil qilingandan keyin boshqa parchani yod olishga kirishiladi. Yangi ikkinchi jumla shu tariqa o'zlashtirilgandan so'ng

birinchi jumla bilan qo'shgan holda ijro etiladi. Pirovardida shu jarayon bilan o'rganilgan va yod olingan jumla mustahkam xotiraga jamlanishiga ximat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, musiqiy xotirani rivojlantirishga oid quyidagi muhim qoidalarni xulosa o'rinda aytib o'tish joizdir. Fortepiano mashg'ulotlari bilan muntazam, ma'lum bir vaqtda shug'ullanish musiqiy asarni yod olishning asosiy shartlaridan biridir. Bundan tashqari, matn tahlilida applikator, ya'ni barmoqlar joylashuvini aniqlab olib, har doim ularni bir xilda chalish, yod olingan asar ijrosida "uzulishlar" bo'lmasligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, asar ijrosi uchun muhim bo'lgan jihat badiiy obrazni ifoda vositalari orqali yod olinishi ham muhimdir. Musiqiy matnni o'xshash, bir xil jummalarini aniqlab, ularni solishtirish va yaxlit epizodlarni belgilab olish orqali uni qisqa vaqtda puxta yod olishga erishiladi. Musiqiy asarni yoddan ijrosida kutilmagan "uzulish" bo'lsa darhol to'xtab, nota matnida aynan o'sha taktlardagi nomukammal o'rganish sabablari aniqlanadi. Bunda, aniqlangan jumlaning yanada mo'tadil tempda forte chalish orqali ijrodagi "uzulish" sabablari bartaraf etiladi va mukammal ijroga erishiladi. Musiqiy matn to'liq o'zlashtirilgandan keyingina asarning badiiy obrazi ustida ishlanadi.

Yuqoridagi usullarni inobatga olib, musiqiy asarni yod olishiga erishish fortepiano mashg'ulotlarining ijobiy, samarali bo'lishini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. – Москва: «Академия», 2005. – С.11.
2. Allayarova S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oliy talim sifati va samaradorligini oshirish omili. "Zamonaviy ta'lim", 2020. 4 (89). – B.10-19.
3. Japhet E. Lawrence, Usman A. Factors that influence teachers adoption and integration of ICT in teaching/learning process // Educational Media International. February 2018, 55(4):1-27. DOI:10.1080/09523987.2018.1439712
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9 jild – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000. – B.241.
5. Алексеев Д.Е. Методика обучения игре на фортепиано. – М.: «Музыка», 1978. – С.34.
6. Цыпин Г.М. Обучение игре на фортепиано – М.: «Просвещение», 1984. – С.111.
7. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: «Оникс», 2005. – С.875.
8. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)).

<sup>10</sup> I.S.Baxning "Yaxshi temperatsiyalangan klavir" to'plamidagi e-moll fugasi misolida.

<sup>11</sup> K.Cherning (op 229) № 31 etyudi misolida.



## III BO' LIM

# SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Muslimbek YO'LDOSHEV,  
O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrası mudiri, dotsent,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

## O'ZBEK QO'SHIQCHILIK SAN'ATIDAGI FENOMEN SAN'ATKORLAR YOKI QO'SHIQ AYTUVCHI SHOIRLAR

**Annotatsiya.** Bu maqola noyob ijodiy iste'dod – shoir, sozanda, bastakor va xonandalikni yuksak cho'qqiga olib chiqqan, bu fenomen iqtidori bilan o'zbek qo'shiqchiligida alohida o'rganish obyekti sifatida yarq etib ko'ringan san'atkorlar haqida.

**Kalit so'zlar:** shoir, bastakor, sozanda, xonanda, bard, fenomen, baxshi.

## ФЕНОМЕНАЛЬНЫЕ АРТИСТЫ УЗБЕКСКОГО ИСКУССТВА ИЛИ ПОЮЩИЕ ПОЭТЫ

**Аннотация.** В данной статье речь идет об артистах, которые вознесли на высокую вершину свой уникальный творческий талант. Они и поэты, и музыканты, и композиторы и певцы одновременно. Они этим своим феноменальным талантом блеснули на небосклоне узбекского искусства как особый объект изучения.

**Ключевые слова:** поэт, композитор, музыкант, певец, бард, феномен, бахши.

## PHENOMENAL ARTISTS OF UZBEK ARTS OR SINGING POETS

**Abstract.** Given article is about artists who have lifted their unique, creative talent to a high peak. They are poets, musicians, composers and singers at the same time. With their phenomenal talent, they flashed in the sky of Uzbek art as a special object of study.

**Key words:** poet, composer, musician, singer, bard, phenomenon, bakhshi.



Insoniyat hayotining hatto bir kunini kuy-qo'shiqsiz tasavvur qilish mushkul. Bir zamonlar buning uchun maxsus yerlarga borib, vaqt va pul harj qilib kuy-qo'shiq tinglangan. Undan keyingi davrlarda radio ixtiro qilingach, bu mushkulot ancha yengillashib, endi odamlar havo mavjlarida yangraydigan qo'shiqlardan erkin zavq ola boshladilar. Yana ham keyinroq televizor kashf etildi! Undan ham bir muddat o'tib, magnitofon degan qurilma paydo bo'lib, hayotimizga, xonadonimizga kirib keldi. Bularning biri o'zimizda yaratilgan bo'lsa, ikkinchisi Rossiyada, keyingisi Olmoniyada, Angliyada ixtiro qilindi. Ko'rinib turibdiki, musiqa hamma xalqlar va irqqlar uchun birdek ko'ngil ehtiyoji ekan. Bugun biz sehrli diyori Hind qo'shiqlarini ham, Janubiy Amerika xalqlari musiqasini ham, kunchiqar Yaponiya-yu kunbotar Angliya taronlarini ham birdek yaxshi ko'rib eshitamiz. Musiqa hammabop va ommabop san'at deya e'tirof etilib, butun sayyoramiz bo'ylab ustuvor turibdi. Butun dunyo musiqasi cho'ntagimizda!

O'zbek san'atining o'zi ham rang-barang va xilma-xil. Har bir vohaning o'z usuli va uslubi, yo'nalishi va kuylanishi bor. Yana hammasi ham eshitimli, huzurbaxsh. Horazm-u Surxon, Samarqand-u Farg'ona, Toshkent-u Qo'qon musiqa maktablari xazinasidan hamma birdek ko'ngil chigilini yozadi. "Dilhiroj"ni ham, "Segoh"ni ham qo'msaydi ko'ngil. "Lazgi"ga ham, "Tamanno" ga

ham quloqch yozib raqsga tushaveriladi. Bu olam cheksiz, chegarasiz. O'lchami yo'q.

Musiqa va sozandalik alohida yo'nalish, xonandalik boshqa bir iqtidor va quvvayi hofizani talab etadi. Shoirlik esa, o'n sakkiz ming olamning biri! Har kim o'z iqtidori va ko'ngil istagi, imkoniyati va kuchiga qarab yo'lini tanlayveradi. Sozandalar minglar ichidan bir chiqsa, xonanda va shoirlar millionlar ichidan bir otilib chiqadi. Bir san'atkor ham, sozanda ham xonanda bo'lishi mumkin. Yoki bir musiqachi ham mohir sozanda va bir vaqtning o'zida yetuk bastakor bo'lishi mumkin. Ammo ham sozanda, ham xonanda, ham bastakor ham shoir bo'lish – bu aniq fenomen holatdir.

"Komiljon Otaniyozov kuylaydi" film konsertini ko'pchilik hanuz sevib tomosha qiladi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Avvalo tanlangan ashulalar, ashulaga sahnalashtirilgan raqs jozibası, rejissorning o'z ishiga mehr-muhabbat bilan yondashuvi, tasvirchining o'z husnixati bilan olgan "plan"lari... Va albatta, xonandaning maftunkor ovozi-yu betakror ijrosi! Bu qatorda yana shu film uchun Erkin Vohidovga maxsus yozdirilgan sakkiz qator she'r, uning Ubay Burhon ovoqidagi yuksak ijrosi... Hali yana sanalsa, film ichidan yana bu kabi durdonalarni ko'plab topish mumkin. Film tomoshabinni sehrlagan yana bir joyi, konsert finalida Komiljon Otaniyozov qo'lida tor, "Ko'kaldosh" ichkarisidan yurib chiqayotib kuylagan

bir band qo'shig'i! Aniqrog'i, qo'shiqning boshi. U bir xitobdek, ijodkor yurak nidosidek jaranglaydi. Vujud-vujudingizga tarqaydi, mudroq tuyg'ularingizni junbushga keltiradi. Qo'shiq so'zlarini keltirmoqlikni o'rinni bildik.

*Jahonda ma'rifatning sarvari har bob bo'lgaysan,  
Bo'lib zulmati g'amdin forig'i ruyob bo'lgaysan,  
Dili bino dalili el aro suhrob bo'lgaysan,  
Adab kamidin olgan gavhari noyob bo'lgaysan,  
Adab sarchashmasidin doimo shodob bo'lgaysan!*

Bu qanday so'zlar, qaysi shayx tilidan aytilgan hikmat, qay zamon va qaysi saltanat g'oyalaridan yaralgan palaxsa-palaxsa so'zlar! Qoyatosh xarsanglariga o'xshaydi! Nega bu nidoning davomi yo'q, nega u bunchalar qisqa va nega u filmning oxiriga qo'yilgan, degan savol tug'iladi. Bu asli kattagina bir she'r bo'lib, uni san'atkorimiz Komiljon Otaniyozovning o'zi yozgan ekan. Bu gapni eshitgan har bir qo'shiq muxlisi to'qlinlanib ketishi aniq. Xonanda she'r yozadimi? Qanday qilib? Axir she'r yozish shoirming ishi emasmi?

Keyin, ustoz Faxriddin Umarov ham shu singari she'rlar yozgani diqqatimizni tortdi. Asli bu masalaga oldinroq to'xtalish kerakmidi. Xonandalar faoliyatida shunday damlar bo'lsa kerak-ki, zudlik bilan biron-bir mavzuda qo'q'iy aytish kerak bo'ladi. Konsert yoki tadbirlar paytida tomoshabin muxlisga bir yangi narsa, yangi bir qo'shiq taqdim qilish istagi tug'ilganda, yoinki o'sha tomoshabin va shinavandalar munosabatiga hozirjavoblik bilan javob qaytarish zaruratidan uni o'zlari shoshilinch to'qib yo yozib, badiha qilib aytgan bo'lishlari mumkin-ku. Ha, ayni shunday bo'lgan bo'lishi kerak! Ilgarilari har bir konsertga ham boshlovchi-konferansye topilavermas edi. Ayniqsa, viloyat chekka hududlariga ijodiy safar kezlarda musiqachi yo xonandalar orasidan so'zga chechanroqlari, ko'p hollarda esa xonandalarning o'zi davrakashlik qilib ketaverganlar. Ehtimol o'shandiq kezlarda tug'ilib qolgan bir-ikki misra, yo chiroyli jummalarni vaqt o'tib qayta ishlab, to'liq hajmli she'rlarga aylantirgandirlar. Va bu bora-bora sevimli bir mashg'ulotga aylangan bo'lishini inkor etib bo'lmaydiku.

Faxriddin Umarov nihoyatda kitobsevar bo'lganliklari ma'lum. Mingga yaqin qo'shiqlar aytgan xonanda sifatida so'zlarning ma'nosini, jarangini, unli va undoshlarning qo'shiq ichidagi talaffuzini allaqachonlar o'zlashtirib olganliklari ham haqiqatdir. Mumtoz she'riyat bilimdoni bo'lish barobarida o'z zamondoshlari ijodidan ham yaxshigina xabardor bo'lgan zakiy odamga qo'shiq uchun she'r mashq qilib ko'rish unchalik mashaqqatli ish emas. Nafaqat qo'shiq qilib kuylash, balki, shunchaki dil izhorlarini misralarga tizib aytish istagi ham bo'lgandir. Aynan ko'ngildagi kuchli istak! Bir qancha she'rlari qo'shiq bo'lib ketgan, boshqa birlari taronaga aylanmagan bo'lsa-da, chiroyli she'r sifatida el og'ziga tushgani ham haqiqat-ku.

*Siz oliy muruvvat, oliy niyatsiz,  
Siz toza vijdonu, oliy himmatsiz.  
Oriyat siz bilan, hayo siz bilan,  
Ofiyat siz bilan, dunyo siz bilan.*

*Go'zallik siz bilan, navo siz bilan,  
Muhabbat siz bilan, vafo siz bilan.  
Sizlarsiz bu olam zavqi yo'q kuydir,  
Sizlarsiz bu olam chiroqsiz uydur.  
Hamisha yarqirab yoning bor bo'ling,  
Hayotning mehriga qoning, bor bo'ling!*

Faxriddin Umarovning ushbu mo'jaz she'riga har qanday nomi chiqqan shoir ham havas qilishi mumkin. So'zlari va misralari bir-biriga vobasta, purma'no va ravon, shu bilan birga sodda va tushunarli. Ba'zida biron shoirga: "mana bunaqa, mana unaqa so'zlarni ishlatib bir g'azal yo she'r yozib bering", deyilsa u yo yozadi yo yozolmaydi. Yozsa ham, ilimoschining ichidagi va uning o'zigina aytishi mumkin bo'lgan dardli so'zlarni ishlatmaydi, bilganicha yozadi. Mana shunday paytlarda xonandalar o'zlari jam bo'lib, jiddiy kirishib, kerakli so'zlarni tanlab, saralab, ipga tizib, yangi aytadigan qo'shiqlariga she'r yo g'azal yozib oladilar. Yetmish yoshga kirmagan, kirsam ham siz bosib o'tmagan hayot yo'llaridan nima ham yozib berishi mumkin. Axir u sizning umr yo'lingizku. Chamamda, Faxriddin Umarov ham o'zining yetmish yillik dovonidan o'tish to'yiga o'zi uchun o'zi aruzda mana bu musaddasni yozib olib, keyin uni ashula qilib aytgan bo'lsa kerak.

*Ey ona xalqim, menga berding kamol bardosh ila,  
To'g'ri yo'lga boshlading, yurdim aziz yo'ldosh ila,  
Bo'lmadim hamroh sira, yo'llarda bag'ritosh ila,  
Ko'rmadim kamlik yurib, armoni yo'q eldosh ila,  
Shu sabab non-tuz haqqi qoshingga keldim bosh ila,  
Ta'zim aylay deb bugun yetmishga to'lgan yosh ila.*

*Yayradim, sen yayraganda shodligim daryo bo'lib,  
Sayradim bag'ringda xalqim bulbulig'yo bo'lib,  
Toshdi har kun baxti iqbolim o'zing dono bo'lib,  
Etding imonim baquvvat, yangi bir dunyo bo'lib,  
Shul sabab ko'nglim toshib qoshingga keldim bosh ila,  
Ta'zim aylay deb bu kun, yetmishga kirgan yosh ila.*

*Ey, ona xalqim quchog'ingda, shukur, topdim kamol,  
Gohi qildim erkalik ham, kelmadi senga malol.  
Baxtiyorman sen bilan men, koinotda bezavol,  
Berdi unrim katta hosil gul hayotim bemisol,  
Shul sabab ko'nglim to'lib qoshingga keldim bosh ila,  
Ta'zim aylay deb bu kun yetmishga kirgan yosh ila.*

*Mustaqillik nuridan el hamda yurt bo'ldi mamnun,  
Shu kunin kutgan uzoq erdi alamli, bag'ri xun,  
Xurramu shod bo'ldi xalqim, kuylamay elni nechun,  
Mustaqillik bayrami budir men tug'ilgan kun.  
Shu sabab yayrab dilim qoshingga keldim bosh ila,  
Ta'zim aylay deb bugun yetmishga kirgan yosh ila?*

Hofiz ahli muxlislar uchun juda tanqis, talabgir bo'lishadi. Turli toifa va yoshdagi odamlar ularni do'st tutishga harakat qilishadi. Hofizlarning ham bunga ehtiyojli bor. Biroq ularning ko'ngillari har duch kelgan inson emas, o'zlariga dildosh bo'ladigan ijodkor qalblar bilan hamfikir bo'lishni xohlaydi. Faxriddin Umarov Yong'in Mirzo, Po'lat Mo'min, Sulton Akbariy singari yetuk shoirlar bilan do'st edi. Mana shu do'stlik yaqinligidan hofiz yuragida ham she'riyat ila do'st tutinish istagi tushgan bo'lsa, buning ajablanarli yeri yo'q.

<sup>1</sup> Sh.Dadash. G'azalگو'y hofiz. – Toshkent.: 2012.

<sup>2</sup> Sh.Dadash. G'azalگو'y hofiz. – T.: 2012.

Komiljon Otaniyozov ham shogirdlariga: *“Xonanda savodli, ma'lumotli bo'lishi, og'zidan chiqqan so'zning ma'nosini tushunishi uchun adabiyotni ko'p o'qishi kerak. Adabiyot bilan san'at nafaqat og'a-ini, balki egizakdir. Haqiqiy san'atkor shoirlar, adiblar bilan yaqin aloqada bo'lmog'i lozim”*,<sup>3</sup> der ekan. Mana shu gaplarda katta haqiqat borligi ushbu maqolada nomi tilga olingan hamma xonandalar ijodi tasdiqlaydi.

Bunday shoirtabiat xonandalar kam bo'lsa ham bor. Misol uchun Dadaxon Hasanov o'zi she'rlar yozganini, ularni hatto kitob qilib chop ettirganini ham bilamiz. Biroq bu o'rinda Dadaxon Hasanov aslida qalamkash sifatida ijodiy faoliyat boshlaganini, o'qishga konservatoriyga emas, jurnalistikaga kirganini nazarda tutish kerak. Shunday bo'lsa-da, butun umri xonandalikda o'tgan bu san'atkor ham o'zi she'r yozib, o'zi kuyga solib, o'zi ijro etib kelganiga misollar ko'p. Qo'shiq bo'lgan mana bu she'r so'zlari ko'pchilikning yodida bo'lsa ajabmas.

## Izlayman

*Bahor chog'larinda seni o'ylayman,  
Sen haqingda yonib, yonib kuylayman.  
Sendan o'zga kimga, kimga so'ylayman,  
Sen-chi, o'zgalarga ko'z tutdingmi yo?  
Bergan va'dalarni unutingmi yo?*

*Bog'larda men bilan yurgan eding-ku,  
Dasta-dasta gullar tergan eding-ku,  
Sevaman, deb va'da bergan eding-ku,  
Mendan yuragingni sovutdingmi yo?  
Bergan va'dalarni unutingmi yo?*

*Seni so'roq aylab chaman boglardan,  
Atringni izlayman gul, yaproqlardan.  
Sevishgan edik-ku yoshlik choglardan,  
Bugun bo'stonimni tark etdingmi yo?  
Bergan va'dalarni unutingmi yo?*

*Har tong sabolardan seni so'rayman,  
Suratingni o'pib gulga o'rayman,  
Ko'rsat jamolingni, bir bor k o'rayman,  
Bergan va'dalarni unutingmi yo?  
Uzgalar qalbini ovutdingmi yo?*

*Faqat sening bilan quvna hayotim,  
Faqat sensan mening uchqur qantomim,  
Nega qayrilmaysan, ey parizodim,  
O'zga yor ko'nglini yoritdingmi yo?  
Bergan va'dalarni unutingmi yo?<sup>4</sup>*

O'zbekim xonandalari orasidagi bu an'ana Sherali Jo'rayev repertuarida ham kuzatiladi. Uning qalamiga mansub bir qancha qo'shiqlar borki, ular haqida faqat ashaddiy muxlislarga bilishadi. Qolgan shinavandalar esa, *“Zo'r ashula bo'пти”*, deb eshitib yuraveradilar. Vaholanki, shoir ayni o'z ko'nglidagi gaplarni aytayotganda butunlay boshqacha xonish qiladi. Bu qo'shiqning dardi, nolasi, takror-takror aytilgan so'zlarning ta'siri sizni tinch qo'ymaydi. Qayta-

qayta eshitaverasizu, to'ymaysiz. Illo, xonanda bu paytda so'zni ham, dardni ham, musiqiy nolani ham bir butun qilib, qorishtirib to'kib solayotgan bo'ladi. Sherali Jo'rayevning atrofida shoirlar serob. Imkonini topib, ular xonandaga o'z she'rlarini tutqazadilar. Ammo u faqat yuragini tirnagan, ko'ngil torlarini chertgan va dardiga darmon mavzularga murojaat etadi. Lekin o'z boshidan o'tkazgan shodon yo nolon daqiqalardagi hissiyotlarini ham nola qilib aytgisi kelsa-yu, qavat-qavat kitoblardan uni topolmasa, o'zi yozgani va yozayotganini o'zidayoq ohangi va notasini topib xatga tushirgani yaxshi emasmi?! Albatta yaxshi.

*Baxtu toleini qidirgan odam,  
O'lis yo'lga chiqqan yurtdoshim, og'am,  
Bardam bo'l, horima, dadil qo'y qadam,  
Ilohim yo'llaring bexatar bo'lsin,  
Tangrim murodingni muyassar qilsin.*

*Tiriklik bozori boshingga tushdi,  
Er-ayol, keksayu yoshingga tushdi,  
Burgut ham rizq so'rab qoshingga tushdi,  
Qo'lin ochib kelsa, ko'ksing ochilsin,  
Qalbing muruvvatu mehrga to'lsin.*

*O'lis ipak yo'l bu, alamlari ko'p,  
Hindu Farang, Chinning sanamlari ko'p,  
Turku forsning qoshi qamlari ko'p,  
Bu yo'lda topganing haloling bo'lsin,  
Tangrim murodingni muyassar qilsin<sup>5</sup>.*

Bu o'shanday she'rlarning biri. San'atkorlar tilida ko'p sohaviy iboralar yuradi. *“Diapazon”* shularning biri. Odatda bu so'z ovoz kuchiga nisbatan aytiladi. Lekin ko'p hollarda uni boshqa narsalarga ham qo'llash mumkin. San'atkor diapazoni deyilganda oddiy qo'shiqchi, dardli qo'shiqchi, hassos qo'shiqchi, fidoyi qo'shiqchi singari diapazonlarga bo'lish ham mumkin.

Komiljon Otaniyozov ham, Faxriddin Umarov ham, Sherali Jo'rayev ham ana shunaqa diapazoni nihoyatda keng, qamrovi katta, qo'shiqlari rang-barang san'atkorlardir. Boshqa xonandalar aytmagan, xayoliga kelmagan mavzu va usullar, qo'l urilmagan asarlar, o'zgalay payqamagan iztirob-u alamlardan fig'oni ko'k o'rlagan qo'shiqlar aytgan ular. O'sha ijrolar uchun tayyor she'r-u g'azallar topilsa-ku, mayliga. Ammo ichingda dard kun sayin og'ir yukka aylanib yotaversayu, uni o'zingdan tashqariga chiqarishga vosita topolmasang, ko'nglingni bo'shatib olish uchun o'zing oq qog'ozga bosh egishingga to'g'ri keladi. Bu dard, ko'ngil tug'yonlari, uni izhor qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj mana bunaqa she'rlarga aylanadi.

## Sultondadir

*Bu jahon – mezbun, tiriklar barchasi mehmondadir,  
Bilki dehqon zahmatining mahsuli xirmondadir,  
Tinchligu to'qlik navosi nay bilan chirmondadir,  
Har qarich yer, tomchi suvning tashvishi dehqondadir,  
Qo'zg'alib turgan bu olam tashvishi sultondadir.*

*Ushbu dunyo barchamizga ko'hna mehmonxonadir,  
Kimga ayshu ishrat o'lsa, kimsaga g'amxonadir,  
Ishq yo'lin topmay birovlar bunda ko'p hayronadir,  
Desam aytding: “Bu zamin barchamizga onadir,  
Tinchligi yo'q ushbu olam tashvishi sultondadir”.*

<sup>3</sup>“Umrboqiy qo'shiqlar”. “SHARQ” NMAK Bosh tahririyati. – T.: 2013.

<sup>4</sup> Dadaxon Hasan. Bahor kelur bog'larga. G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.

<sup>5</sup> Jo'rayev Sh. San'atim. G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.: 2000.



*Ushbu olam orzusi senda ham bordir axir,  
Orzuing Yer yuzida yoki keng osmondadir,  
Balki gulyuz suhbatidir yoki yallodir, gapir,  
Desam aytding: "Orzuim qizu o'g'lonimdadir,  
Ushbu xislatkim, bobolardan meros qondadir".*

#### **Naqarot:**

*Har qarich yer, tomchi suvning tashvishi dehqondadir,  
Qo'zg'alib turgan bu olam tashvishi sultondadir.*

*Kimsalar bor, el g'amini o'zidan ustun qo'yar,  
Uyqusiz turlarda el deb, qilni qirq mingga bo'lar?!  
Shuncha zahmat chekmagingni, ey birodar, kim bilar?!  
Desam aytding: "Bilsa bilsin, bilmasa Tangrim bilar:  
Har qarich yer, tomchi suvning tashvishi dehqondadir,  
Elni tinch, to'q saqlamakning tashvishi sultondadir".<sup>6</sup>*

Bu kabi xonanda-shoirlar elimiz orasida ko'p. O'zlarini tanitishga qimtinganlari, mashhurlikka da'volari yo'qligidan biz ularni tanimaymiz. Vaholanki, xalqimizda "Oqqan daryo hamisha oqadi", degan maqol bor. Qadim oqinu baxshilarimizga birov she'r yozib beribdimi? O'zlari to'qigan, yozgan va o'zi ijro etavergan. Fozil Yo'ldosh, Ergash Jumanbulul o'g'li, Yodgor Baxshi, Bola baxshi singari daholar bosib o'tgan yo'l bu!

Rus ijodkorlari orasida "bard" deb ataluvchilar bor. Ular ham o'z so'zini o'zi qo'shiq qilib kuylagan. V.Visotskiy, B.Okudjava kabilar. Ular qatorida yana Y.Frenkel, I.Krutoyni ham aytib o'tishimiz mumkinki, ular boshqa san'atkorlar uchun ham qo'shiqlar yozib berishgan. Qo'shiq so'zlarini o'zlari yozishmagan bo'lishsa-da, boshqa shoirlar so'zlariga bastalagan qo'shiqlarini o'zlari kuylagan va o'zlari fortepianoda chalib ijro etishgan.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan o'zbek san'atkorlari izidan kelayotgan yosh ijodkorlar o'z ustozlari, salafaridan o'rnak olishadi, muxlislarini yangi-yangi durdona asarlar bilan hayron qoldirishadi. Demak, umid qilamizki, hali yana ko'plab yangi avlodlar orasidan bu daholarimizning izdoshlari chiqib keladi. Illo, buyuklarning dardi yuqumli dard.

Avval boshda so'zni Komiljon Otaniyozovdan boshlovdik. Yakunida yana shu san'atkorga qaytmoqchimiz. Komil tahallusi bilan yana bir qancha ash'or bitgan bu ijodkorning she'riy asarlari shogirdi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rahmatjon Qurbonov chop ettirgan "Men o'zbekning o'g'liman" – "Ustoz yo'lidan" nomli kitobiga kiritilgan<sup>7</sup>. Uning yozilish tarixiyu, bitilgan sana va o'rni haqida ham ma'lumot berilgan. Biz yuqorida misol qilib keltirgan o'sha muhammasni hofiz bir necha ko'rinishda ijro etib ko'rgan ekan. Suvora, savt suvora va yana boshqa. Bundan ko'rinadiki, ijodkor ushbu so'zlarga haqiqiy jon baxsh etishga, o'z ichki dardlarini eshituvchiga to'laroq, tushunarliroq qilib yetkazish uchun astoydil harakat qilgan ekan. Hatto bu so'zni o'z ustozlari bilan duet qilib ham aytgan ekan. Chin san'atkor mana shunday izlanishi kerak.

Endi azizlar, o'sha she'rni to'laligicha mushtariylar e'tiboriga havola qilamiz. O'qing, rohatlaning, dardlarini yuqtiring!

*Jahonda ma'rifatni sarvari harbob bo'lg'aysan,  
Bo'lib zulmoti g'amdin parig'u ro'yob bo'lg'aysan,  
Dili biyno daliri el aro surob bo'lg'aysan,  
Adab sarchashmasidin doimo serob bo'lg'aysan,  
Adab konidin olgan gavhari noyob bo'lg'aysan.*

*Kelib olam aro ko'rdim adadsiz yor ketgandur,  
Ne bir shohu gado gulchehra zulfi mor o'tgandur,  
Adabsiz xor, tokim beadab maqsudga yetgandur,  
Tariqat daftariga sarbasar odob bitgandur,  
O'qib xushhol bo'lgil xalq aro kamyob bo'lg'aysan.*

*Agar behuda yo'lin tutdi, har kim so'ng pushaymondur,  
Kimi saqlab o'zin maxmur matlabi chehra xandondur,  
Bu zahmat beadablik sha'niga nodir parmondur,  
Saodat faqrini adab ganji ichra pinhondur,  
Chunon sax aylagil olamda durri nob bo'lg'aysan.*

*Yonib birni chirog'i ibtidolik intiqqa so'ndi,  
Xabarsiz bu sirdin dod etar dona anga ko'ndi,  
Adab rasmini tutgan bo'ldi xandon ustiga qurdi,  
Adab bir tojdur – har kimni sevdi boshiga qo'ndi,  
Tavozipesha bo'l, zulmat aro mohtob bo'lg'aysan.*

*Sharofat duri bo'lg'aysan adabdan o'ylagin pandim,  
Agarki nomi jav topsang, demagil ravg'ani gandum,  
Kechib nafi havodan sen dema dunyoyi darbandim,  
Adab ikki jahon sarmayosidur, ey jigarbandim.  
Bu daryodin ichib suv doimo shod ob bo'lg'aysan.*

*Umidingni chirog'i toleyi iqbol erur adab,  
Ki inson umrining bo'lmoq daroz konidurur adab,  
Muhabbat podshosi fan ilmining boshidur adab,  
Azizlar xizmatiga kimiyodin yaxshidur adab,  
Bu nisbat domanini tutmasang qo'llob bo'lg'aysan.*

*Do'stini bilib ko'r, unutmam har kishi aslin bilay desang,  
Adabdin bo'lg'usi zohir aning xulqin ko'ray desang,  
O'qib o'rgan hamadin dahraro Komil bo'lay desang,  
Agar toji karomat boshingga afsar qilay desang,  
Adab daryosini kori tushib g'arqob bo'lg'aysan<sup>8</sup>.*

Komiljon aka ko'p she'rlar bitgan. Ammo mazkur she'ri to'laligicha inson odobi haqida, el ichida o'zini tutish, sabr va qanoat, o'qish-o'rganish, ma'rifatlilik orqasidan yurtda yaxshi nom qozonish haqida, muhabbat va do'stlik to'g'risida yozilgan. U kishini tanigan-bilganlar Komiljon akaning o'zi shunaqa orif, odil va odobli odam edi, deya eslashadi. Demak, hofiz o'zi e'tiqod saqlagan tushunchalarni kuylayapti. Demak, rost so'zlayapti. Rost so'zlar ekan – kishining so'zi shubhasiz ta'sirchan bo'ladi.

Qo'shiq yozuvchi shoirlar deganini eshitgansiz. Mana endi qo'shiq aytuvchi shoirlar bilan ham tanishdingiz. Buyuk ustozlar Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Umarovlar oramizdan ketishganiga ko'p vaqt bo'lgan esada, odamlar hali ham ulardan aql o'rganib keladi. Ularning ham, Sherali Jo'rayev, Dadaxon Hasanov ijod yo'llari ham yangi avlod ijodkorlari uchun bir ibrat bo'ladi, deb umid qilamiz. Illo, allomalar bilib aytishgan: "Iqtidorli odam har taraflama iqtidorli bo'ladi".

<sup>6</sup> O'sha manba.

<sup>7</sup> Otajonov K., Qurbonov R. Men o'zbekning o'g'liman – Ustoz yo'lidan. – T.: "Turon zamin ziyo", 2017.

<sup>8</sup> Qurbonov R. Ustoz yo'lidan. 2017.

## FOLKLOR – XALQNING MA'NAVY OZIG'I

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada folklor atamasi, xalq og'zaki ijodi namunalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.  
**Kalit so'zlar:** folklor, atama, xalq, og'zaki ijod, alla, latifalar, qo'shiq, xalq musiqasi, tasviriy.

## ФОЛЬКЛОР – ЭТО БОГАТСТВО КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** В данной статье содержится информация о термине фольклор, а так же примеры народного творчества.  
**Ключевые слова:** фольклор, термин, народ, устное творчество, колыбельная, анекдоты, песня, народная музыка, изобразительное.

## FOLKLORE IS THE WEALTH OF CULTURE

**Annotation.** This article contains information about the term folklore, examples of folk art  
**Key words:** folklore, term, people, oral art, lullaby, anecdotes, song, folk music, fine art.



Folklor (inglizchadan folk – xalq, lore – bilim, donolik) – xalq ijodini ifodalovchi termin. Ko'pincha xalqning hayoti, qarashlari, ideallarini aks ettiruvchi badiiy jamoaviy ijodiy faoliyatdir. Folklor xalq tomonidan yaratilgan va xalq ommasi orasida mavjud bo'lgan she'riyat (ertaklar, qo'shiqlar, latifalar, dostonlar), xalq musiqasi (qo'shiqlar, cholg'u kuylar va spektakllar), teatr (drama, satirik spektakllar, qo'g'irchoq teatri), raqs, me'morchilik, tasviriy va dekorativ-amaliy san'atni o'zida mujassamlashtiradi.

Qadim zamonlarda vujudga kelgan xalq amaliy san'ati butun jahon badiiy madaniyatining tarixiy asosi, milliy badiiy an'analarning manbai, xalq o'zligini anglashining so'zlovchisi hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar xalq ijodiyotiga noprofessional san'atning barcha turlarini (havaskorlar san'ati, jumladan, xalq teatrlari) ham ta'riflaydilar. "Folklor" atamasi birinchi marta 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilgan. So'zma-so'z tarjima qilinganda, xalq og'zaki ijodi, xalq donoligi, xalq bilimi degan ma'noni anglatadi. Turli mamlakatlarning ilmiy qo'llanilishida "folklore" atamasidan tashqari, boshqa atamalar ham mavjud: nemischa – Volkskunde, so'zning tor ma'nosida – Volksdichtung; fransuzlarda – xalq an'analari ma'nosini anglatadi

XIX asrda Rossiyada biroq keng talqin qilingan "xalq adabiyoti" yoki "xalq she'riyati" atamasi hukmronlik qildi. Folklorning badiiy va tarixiy ahamiyatini A.Gorkiy chuqur ochib berdi. Uning bayonotlari folklorning asosiy muammolarini ishlab chiqishda yetakchi ahamiyatga ega edi. Gorkiy Sovet yozuvchilarining birinchi qurultoyidagi ma'ruzasida shunday degan edi: "Yana bir bor e'tiboringizni, o'rtoqlar, shu narsaga qaratamanki, qahramonlarning eng teran va yorqin, badiiy jihatdan mukammal turlarini xalq og'zaki ijodi, mehnatkash xalq og'zaki ijodi yaratgan. Gerkules, Prometey, Mikula Selyaninovich, Svyatogor kabi tasvirlarning mukammalligi, keyin Doktor Faust, Dono Vasilisa, istehzoli omadli Ivan, Petrushka, shifokor, ruhoni, politsiyachi, shayton va hatto o'limni mag'lub etish barchasi, bular yaratilishida ratsionallik va sezgi, fikr va tuyg'u uyg'unlashgan tasvirlardir. Bunday uyg'unlik faqat ijodkorning voqelikni yaratish ishida, hayotni yangilash uchun kurashda bevosita ishtirok etishi bilan bog'liq".

Xalq og'zaki ijodi ming yillik tajriba ni aks ettiruvchi, insoniyatning mehnat faoliyati asosida o'sadigan poetik

ijoddir. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ham qadimiy bo'lib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelayotganligi sababli, ijtimoiy taraqqiyotning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, har bir xalq tarixini anglash uchun eng qimmatli manba hisoblanadi. Poetik folklori ma'naviy madaniyatning boshqa ko'rinishlaridan ajralgan holda ko'rib bo'lmaydi. Og'zaki xalq she'riyati xalq teatr san'ati sohalari bilan chambarchas bog'liqdir (mimika, imo-ishora, dramatik harakat nafaqat "xalq dramasi" deb ataladigan va sahnalashtirilgan marosimlarni – to'y, dafn, qishloq xo'jaligi, dumaloq raqslar va o'yinlarni ijro etishda, shuningdek, doston, ertak aytishda, qo'shiq ijrosida), xoreografik san'at (xalq o'yinlari, raqslar, davra raqslari), musiqa va vokal san'atida ham. Binobarin, folklorshunoslik teatrshunoslik, xoreografiya, musiqashunoslik (uning bo'limi "musiqiy etnografiya" yoki "musiqiy folklore" deb ataladi) kabi fanlarning ayrim bo'limlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodini tilshunoslik yordamisiz, bu og'zaki she'riy asarlar yaratilgan sheva, shevani o'rganmasdan turib o'rganib bo'lmaydi. Biroq xalq og'zaki ijodi, avvalo, adabiy tanqidning, xalq og'zaki ijodi esa og'zaki ijodning bir qismidir. Xalq og'zaki ijodi yozma badiiy adabiyot kabi og'zaki va obrazli bilish, ijtimoiy voqelikning in'ikosidir. Ammo xalq og'zaki ijodining xalq ommasi tomonidan yaratilishi, mavjud bo'lish shart-sharoitlari, kapitalizmga bo'lgan davrda badiiy ijodning tabiati, qadimgi xalq og'zaki ijodining salmoqli qismi bizgacha yetib kelgan. yozma badiiy adabiyotga nisbatan folklorning ayrim xususiyatlarini belgilab berdi. Xalq og'zaki ijodidagi jamoaviylik tamoyili, aksariyat folklor yodgorliklarining anonimligi, an'ananing folkloridagi salmoqli o'rni, bularning barchasi folklorida o'z izini qoldiradi va uni o'rganishning muayyan xususiyatlarini belgilaydi.

Xalq og'zaki ijodi har bir xalqning ma'naviy holati, ma'naviy taraqqiyoti ko'rsatkichidir. Qadim zamonlardan xalq og'zaki ijodi xalq ijodiyoti pedagogikasi hisoblangan. Xalq og'zaki ijodi xalq hayotining barcha jabhalari va jabhalarini qamrab olgan qomusiy ma'lumotlarni saqlash va yetkazish shakli edi. Bu ko'p asrlik tajriba bo'lib, sayqallangan va juda katta va kichik odamlar tomonidan ehtiyotkorlik bilan himoyalangan. O'zbek xalq og'zaki ijodi juda boy, ulkan va rang-barang jihatga ega. Undan bastakorlar, rassomlar, hunarmandlar cheksiz quduqdan o'z

asarlari uchun syujetlar olishadi. Bu esa yoshlarning bilim olishi uchun qanchadan-qancha imkoniyatlar beradi. Xalq ta'limi g'oyalari va tajribasi, komil inson idealini ko'rish, xulq-atvorni to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish va birdamlik, oqibat, mehr-muhabbatga yo'naltirish xalq poetik dahosi tomonidan asrlar davomida saqlanib qolgan shakllarda sayqallangan. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida odamlarni birlashtiruvchi, yaqinlashtiruvchi, o'tmish bilan zamonaviy uzviylikni ta'minlovchi badiiy vositadir. O'zbek milliy folklori juda boy va ko'plab janrlar bilan ifodalangan. Xalq og'zaki ijodining eng keng tarqalgan janrlaridan biri – doston bo'lib, ular asrlar davomida og'zaki-poetik an'ana tufayli bizgacha yetib kelgan. Asrlar davomida sinchkovlik bilan saqlanib kelinayotgan bu asarlar xalq orasidan chiqqan shoir va baxshilar tomonidan ham kirib keladi. Dostonlarda xalqqa, oilaga, mahbubaga mehr, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, ezgu naslchilik, do'stlik, qahramonlik, fidoyilik va boshqa ko'p narsalar haqida so'z boradi. Doston so'zlari o'ziga xos musiqa jo'rligida talaffuz qilinadi va bu so'zning tinglovchi tarbiyasiga ta'sirini kuchaytiradi.

Xalq og'zaki ijodining eng mashhur janri – xalq qo'shiqlarida mehnatkash xalq hayoti, orzu-intilishlari o'zgacha hayajon bilan tarannum etilgan. Ularda nafaqat yuksak tuyg'ular, pokiza muhabbat, vafo, birodarlik do'stligi, balki hayotning og'ir sharoitlari, inson kechinmalari ham yaqqol aks ettirilgan. Barcha folklor janrlarida o'zbek xalqining hayoti va madaniyati, uning tafakkuri va intilishlari, erk g'oyalari, birodarlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, vatanparvarlik, dushmanga nafrat g'oyalari yaqqol aks ettirilgan. Xalq musiqasi

daralarida o'quvchilarga xalq qo'shiqlari hamda turli xalqlar qo'shig'i o'rgatiladi. Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, hozirgi O'zbekiston hududida istiqomat qilgan xalqlar orasida eramizdan avvalgi IV – V asrlarda boy og'zaki she'riy ijod mavjud bo'lib, uning aks-sadolari hozirgi O'rta Osiyo xalqlari folklorining ayrim asarlarida saqlanib qolgan. Xalq og'zaki ijodining boshqa sohalari singari xalqa san'ati ham o'zbek xalqining ko'p asrlar an'analari asoslanadi. Ular tarixiy va madaniy kontekst, xalqning turmush tarzi bilan bog'liqdir. Binobarin tarixiy manbalar, uning yetakchi omillari, boshqa san'at turlari bilan aloqasi, yoshlarning ijtimoiy-estetik qarashlariga ta'siri va hokazolarni o'rganish zarur.

“Alla” qo'shig'i haqida so'zlashni o'rinli bildik. Darhaqiqat, beshiklar orasida asrlar qa'ridan bizgacha deyarli o'zgarmagan holda etib kelgan juda qadimiylari bor. Aynan “Alla” o'zbek hayotida birinchi folklor musiqa sanaladi. Bu qo'shiqda orzular, onaning farzandga bo'lgan cheksiz mehri tarannum etiladi. Musiqa va ona ovozi orqali bola ongi va qalbi eng yorqin lahzalarni, samimiy tilaklarni his etadi. Bularning barchasi axloqli, ma'naviyatli, halol, xayrixoh insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa ta'limi oldida turgan dolzarb muammolardan biri o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usini shakllantirishdir. Yosh avlodni ajdodlar an'analari asosida tarbiyalash estetik tarbiyani rivojlantirishga, eng yuksak qadrlil tuyg'ularni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, millatning turmush tarzi, milliy qadriyatlari va an'analari xalq og'zaki ijodida o'z aksini topadi. Xalq og'zaki ijodi xalqning kim ekanligini ko'rsatadigan oynai jahondir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K., Mirzayev N., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1990.
2. Жирмунский В.М., Зарифов Х.З. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947.
3. O'zbek folklor ocherklari. – T.: “Fan”, 1987.
4. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – T.: 2017.
5. Jo'raev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – T.: 2001.
6. Gorkiy M. Sovet adabiyoti, Sovet yozuvchilarining Birinchi Butunittifoq qurultoyidagi ma'ruzasi. – M.: 1935. – B.12.
7. Jirmunskiy V.M. G'arb va Sharq folklori. Qiyosiy tarixiy ocherklar “URSS tahririyati”, 2006. – B.464. ISBN 5-8360-0136-7 ISBN 5-8360-0536-2.
8. Kosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – T.: 2008.
10. Toshmatov U. Folklor qo'shiqlari. – T.: 2003.
11. Абдурахимов Б. Художественная культура Узбекистана. XX век. – T.: 2000.

<sup>1</sup> Kosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – T.: 2008.

## YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA SAN‘AT VA MADANIYAT MASALALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida san‘at va madaniyat sohasiga qaratilayotgan e‘tibor haqida so‘z boradi. Shuningdek, muallif ushbu sohani rivojlantirish orqali bugungi kunda erishilayotgan yutuqlar haqida to‘xtalib, san‘at va madaniyatning milliy taraqqiyotda tutgan o‘rnini atroflicha yoritib bergan.

**Kalit so‘zlar:** san‘at, madaniyat, teatr, musiqa, maqom san‘ati, folklor.

## ВОПРОСЫ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В данной статье показана государственная политика Узбекистана по отношению к сферам искусства и культуры. В том числе автор раскрыл роль и значение искусства и культуры в национальном преобразовании, подробно рассмотрев достигнутых побед на сегодняшний день в развитии этих сфер.

**Ключевые слова:** искусство, культура, театр, музыка, искусства маком, фольклор.

## ISSUES OF ART AND CULTURE IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN

**Абстракт.** This article discusses the attention paid to art and culture in the Republic of Uzbekistan in recent years. The author also pointed to the achievements of today thanks to the development of this area, as well as detailed coverage of art and culture in national development.

**Key words:** art, culture, theater, music, maqom art, folklore.



Mamlakatimizda so‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan san‘at va madaniyat yo‘nalishiga katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Bun holatni sohaga oid chiqarilayotgan farmon va qarorlardan ham ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevralda PF – 4947 farmoni bilan qabul qilingan<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 – yillarda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan. Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog‘lig‘ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta‘minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida 30 dan ortiq qonunlar hamda 900 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, xalq bilan muloqot natijalari bo‘yicha 11 yillik umumiy o‘rta ta‘lim qayta tiklandi. Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi. Hozirda ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog‘chalar qurish, ta‘lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, respublika ma‘naviy hayotida muhim voqea bo‘lgan ana

shunday loyihalar haqida gapirganda, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma‘rifiy muassasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ishlari boshlanganini alohida qayd etish zarur.

O‘zbekistonda san‘at va madaniyat sohasini rivojlantirish bo‘yicha ham ko‘plab salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining san‘at va madaniyat sohasiga oid 12 ta farmon va qarorlari chiqdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15 fevraldagi PF – 4956 sonli Farmon<sup>2</sup> “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” bo‘lib, ushbu farmonda Madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, mazkur sohada O‘zbekiston xalqining boy va o‘ziga xos madaniyati, san‘ati va ijodiyotini yanada rivojlantirishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini tubdan yuksaltirish, aholi keng qatlamlari orasida ma‘naviy-axloqiy kamolot va sog‘lom turmush tarziga intilishni kuchaytirish maqsadida, bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Yangi tashkil topgan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatining asosiy vazifa va yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilab berildi:

- madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, milliy madaniy va ma‘naviy merosni asrab-avaylash

<sup>1</sup><http://old.lex.uz/docs/-3107036><http://old.lex.uz/docs/-3107036>

<sup>2</sup><http://old.lex.uz/docs/-3115562>

va ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga mustaqillik, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'analariga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalari yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning muttasil ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni amalga oshirish;

- badiiy ijod, shu jumladan, teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirishni rag'batlantirish, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish;

- madaniyat muassasalari, jumladan, teatrlar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar hamda boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyat samaradorligini oshirish, ma'naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishida ushbu muassasalar imkoniyatlaridan yanada to'liq foydalanish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jumladan, mahalliy hokimiyat idoralari, jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlari, ijodiy uyushmalar va boshqa tashkilotlar bilan faoliyatning asosiy vazifa hamda yo'nalishlarini, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda, madaniyat va ijodiy muassasalar ishining samaradorligini ta'minlashda mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida takomillashtirish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ilg'or xalqaro tajribalardan foydalanish, madaniy-ma'rifiy muassasalar va o'quv yurtlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash;

- davlatlararo va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizning madaniy merosini, mamlakatimiz ijodiy jamoalari va mualliflari asarlarini, jumladan, konferensiyalar va ko'rgazmalar, madaniy tadbirlar va anjumanlar o'tkazish yo'li bilan chet ellarda keng targ'ib qilish, madaniyat sohasiga xorijiy investisiyalar va grantlar jalb etish, shuningdek, madaniyat sohasiga oid ommaviy adabiyotlarni chop etish, video va kino materiallar tayyorlash.

Yuqorida belgilab berilgan asosiy vazifa va yo'nalishlarni belgilashda O'zbekiston xalqining talab va istaklari hisobga olingan bo'lib, ularning amalga oshirilishi esa albatta o'zbek millatining ma'naviy saviyasini yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PQ-3022 sonli Qarori "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir

chora-tadbirlar to'g'risida" bo'lib, unda mamlakat ijtimoiy hayotini yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning insonlar hayotidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o'z Vataniga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida, O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 – yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Quyidagilar dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- madaniyat va san'at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati, moddiy-texnika bazasi holatini atroflicha o'rganish, ularni ta'mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta'minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rnlarni egallagan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash;

- yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog'lari hududida "Nuroniylar maskani"ni tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

- "Seni kuylaymiz, zamondosh!", "Debyut" kabi teatr san'ati ko'rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish. "Bahor nafasi" xalqaro san'at festivali, "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali, "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli xalq sayillarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyohlarni keng jalb etish;

- madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg'or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarini o'quv dasturlari va notalar, o'quv qo'llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash;

- O'zbekistonning yuksak madaniyati va san'atini xalqaro maydonda yanada keng targ'ib etish, xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining

ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san'at namoyandalari keng qatnashishlarini ta'minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish.

Ushbu dasturda belgilab berilgan asosiy vazifa va yo'nalishlar ham O'zbekistonda san'at va madaniyatga berilayotgan e'tiborni naqadar kuchli ekanligini ko'rsatadi. Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018-yil 6-apreldagi "Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida"gi qarorlari o'zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo'ldi. Ushbu qarorlarga asosan 2018-yilning 6-10-sentabr kunlari yurtimiz xalqaro "maqom" san'atiga bag'ishlangan nufuzli tadbirga mezbonlik qildi. Tadbir doirasida "Maqom musiqa san'atining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya, jahon va O'zbekiston maqom san'ati ustalarining yakka konsertlari, maqom ansambllari, xonanda va sozandalarning ko'rik-tanlovi, sayillar, mamlakatimizning dunyoga mashhur shaxslari hayoti hamda ijodiy faoliyati haqida zamonaviy va kreativ usulda sahnalashtirilgan dastur namoyishlari, maqom san'ati tarixiga oid ko'rgazma, o'zbek, fors, arab, ingliz va rus tillarida nashr etilgan ilmiy asarlar hamda ilmiy-ma'rifiy adabiyotlar namoyishlari o'tkazildi. Anjumanda 70 dan ortiq davlatlardan san'atkorlar qatnashib, xorijiy mamlakatlardan 300 dan ziyod mehmonlar kutib olindi. Anjuman 40 dan ortiq xorijiy davlatlarga to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya qilindi. Bu esa o'ylaymizki, mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshishiga xizmat qildi. Yurtboshimizning ushbu farmoniga javob sifatida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Qo'qon shahridagi Farg'ona filialida "Milliy maqom san'ati" maktabi o'z faoliyatini boshladi.

2017-yilning 3-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvda "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida davra suhbatini uyushtirildi. Ushbu uchrashuvda avvalo O'zbekistondagi adabiy muhit, kino, teatr sohasidagi muammolar, boringki, O'zbekistondagi ma'naviy-ma'rifiy va madaniy sohaga oid barcha masalalar muhokama etildi.

Shuningdek, yoshlarning ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy talablarga javob beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, 2017-yil 4-avgustda Prezident Sh.Mirziyoyevning "Yoshlar simfonik orkestrini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5009 sonli yana bir muhim farmoni e'lon qilindi. Bu farmon respublikada amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat dasturi vazifalarini hayotga tadbir etishda muhim omillaridan biri bo'lishiga shubha yo'q.

2017-yilning avgust oyi O'zbekistonda san'at va madaniyat sohasi bilan bog'liq yangiliklarga boy bo'ldi. 2017-yilning avgust oyida yana Prezident Sh.M.Mirziyoyevning PQ-3176 sonli "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ma'lumki, o'zbek kino san'ati bir asrdan ziyod tarixga ega bo'lib, bu soha o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bu davr mobaynida o'zbek kinosining poydevori yaratilib, u o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin egallagan. Mustaqillik yillarida milliy kinematografiya rivojiga respublika hukumati tomonidan qaratilayotgan katta e'tibor natijasida sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Mazmun va shakl jihatidan rang-barang kino asarlar yaratilib, ular tomoshabinlar e'tiborini qozondi. Ayni vaqtda bugun jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, respublikada jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiya qilish va yangilashning ustuvor vazifalari barcha soha va tarmoqlar qatorida kino san'ati faoliyatini ham takomillashtirish, soha rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratishni talab etmoqda. Biroq shu o'rinda qayd etish joizki, kinematografiya sohasida normativ-huquqiy bazaning mukammal emasligi, kino ishlab chiqaradigan yetakchi korxonalar, jumladan "O'zbekfilm", "Qoraqalpoqfilm" hamda "Ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar" kinostudiyalarining moddiy-texnika bazasi jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgani, kinofilmlarni moliyalashtirish tizimining bugungi kun talablariga javob bermasligi, kinoteatrlar va malakali kadrlar yetishmasligi soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ayni haqiqatdir. Bu yil sentabr oyida Toshkentda o'tkazilgan xalqaro kino festival ham mamlakatimizda kino sohasiga bo'lgan e'tiborning naqadar yuksak ekanligini ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, "Folklor san'ati bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir", xalq dostonlari faqat sevgi-muhabbat tarannumi emas, balki madaniyat, ma'rifat, tarbiya vositasi bo'lib kelgan. Yozma manbalar bo'lmagan qadimgi davrlardayoq ajdodlarimiz og'zaki ijod orqali avlodlarga mardlik, yaxshilik, halollik, vatanparvarlik, do'stlik ibratini yetkazgan. Shu jihatdan, baxshilar ezgulik elchilari bo'lgan va hamisha e'zozlangan. Zero, "Baxshilar nafaqat xalq o'tmishining aks-sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir". Bugungi globallashuv zamoniga kelib ushbu tarixiy san'at e'tibordan chetda qoldi. Katta baxshilar keksayib, ko'p joylarda bu meros unutilib borayotgan edi. Chunki e'tibor, qiziqish, rag'bat yo'q edi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Surxondaryoda baxshichilik maktabi tashkil etilgani uni asrab-avaylash, yosh avlodga yetkazish uchun yaxshi sharoit yaratdi. 2018-yil 1-noyabr kuni bu sohaga doir yana bir tarixiy qaror "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi PQ-3990 sonli Prezident qarori qabul qilindi<sup>4</sup>. Unga ko'ra, Surxondaryo viloyatida Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ikki yilda bir marta o'tkaziladi, dostonchilik san'atini asrab-avaylash va keng targ'ib qilish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik va ijodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Termiz shahrida ilk bora 2019-yil 5-10-aprel kunlari o'tkazilgan ushbu xalqaro baxshichilik festivalida 74 ta mamlakatdan 160 dan ziyod vakillar qatnashdi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, turkiy xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan

<sup>3</sup><http://old.lex.uz/docs/-3298092>.

<sup>4</sup>[https://nrm.uz/content/566246\\_O'zbekiston\\_Respublikasi\\_Prezidentining\\_01.11.2018yil\\_PQ-3990-son](https://nrm.uz/content/566246_O'zbekiston_Respublikasi_Prezidentining_01.11.2018yil_PQ-3990-son)

baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi bo'lib, o'lmas ma'naviy meros sifatida e'zozlanadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jahon madaniy merosining bu o'lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi".

Yuqoridagi ishlarning davomi sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi va dasturi qabul qilindi<sup>5</sup>. Endilikda konsepsiyaga asosan san'at va madaniyat sohasida qilinishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar aniq bir tizimga solinib, aniq rejalar belgilab olindi. Dasturda san'at va madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, dasturda olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, buning uchun respublikaning barcha hududlarida teatr, muzey, ko'chma sirk va hayvonot bog'lari faoliyatini doimiy ravishda yo'lga qo'yish masalalari ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda, konsepsiyada respublikamizda 2017-2021 – yillarda amalga oshirilgan "Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan vazifalarni bajarish va ularni tizimli davom ettirish ko'zda tutilgan edi.

Mamlakatimiz bugungi kunda dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega rivojlanayotgan davlat sifatida taraqqiy etib bormoqda. 2022-yilning 28-yanvar kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning PF-60 sonli 2022-2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni imzoladi. Ushbu dastur "Harakatlar strategiyasi"ning mantiqiy davomi bo'lib ushbu dasturda ham san'at va madaniyat sohasiga alohida e'tibor qaratilgan<sup>6</sup>. Ushbu davlat dasturi 7 tamoyilni o'z ichiga olgan bo'lib, ushbu tamoyillar 100 ta maqsad

asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Dasturning beshinchi tamoyilida "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" ko'zda tutilgan. Ushbu tamoyilga oid chora tadbirlar rejasi 76-maqsadda o'z aksini topgan. Unga ko'ra quyidagi 8 ta vazifa belgilab berilgan:

1. Madaniyat va san'at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi va xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

2. Teatr san'atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

3. Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

4. Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta'minlash.

5. O'zbek sirk san'atini yanada rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

6. Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o'tkazishni joriy etish.

7. O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

8. Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog'liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu dasturda belgilab berilgan vazifalar yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. Ammo o'zbek milliy san'ati va madaniyatini asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish O'zbekiston xalqi oldida turgan dolzarb vazifalaridan biridir. Uni amalga oshirish esa millatning har bir ziyoli vakili oldidagi muqaddas burchdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. – B.196.
2. Qoraboyev U. Madaniyat masalalari. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. – B.286.
3. Nazarbekov O. Madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni yanada oshadi. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni. – T.: "Oltin meros press", 2020. – B.488.
4. To'ychiyeva S. "Madaniyat va san'atimiz rivojida zarsahifalar". "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil, 5-fevral №26 (548). – B.6.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – B.464.
6. O'sha yerda.
7. Yo'ldoshev I. "Baxshi" so'zi etimologiyasi haqida". "O'zDSMI xabarlari" jurnali, "Donishmand ziyosi", 2019. – B.97.
8. <https://uzbektourism.uz/news/>
9. Sh.Mirziyoyev. "Baxshichilik san'ati va namoyandalari va muxlislariga tabrigi". "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-yil, 17-dekabr №54. – B.6.

<sup>5</sup> <http://old.lex.uz/docs/-4084926>.

<sup>6</sup> <http://old.lex.uz/docs/-5841063>.

## SAHNADA TARIX YARATGAN AYOLLAR SIYMOZI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ko'hna Sharqda yashab, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, tarix yaratgan ayollar siymosi va ularning obrazlarini sahnada gavdalantirgan san'atkor aktrisalarimizning ibratli fazilatları va har xil toifaga mansub rollarni ijro etishdagi mahoratlari madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'hna Sharq, tarix, san'at, mahorat, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, teatr, obraz, ibratli maktab.

## ЖЕНСКИЕ ПЕРСОНАЖИ СОЗДАЮЩИЕ ИСТОРИЮ НА СЦЕНЕ

**Аннотация.** В данной статье, представлены фигуры женщин, живших на древнем Востоке, принимавших активное участие в общественно-политической жизни страны, творивших историю, и образцовые качества наших артисток и актрис, воплотивших свои образы на сцене а их навыки исполнения ролей, принадлежащих к разным категориям, освещаются с точки зрения культурологии.

**Ключевые слова:** древний Восток, история, искусство, мастерство, общественно-историческое развитие, театр, образ, образцовая школа.

## FEMALE CHARACTERS CREATING STORY ON THE STAGE

**Abstract.** In this article, the figures of women who lived in the ancient East, actively participated in the social and political life of the country and created history, and the exemplary qualities of our actresses who embodied their images on the stage and their skills in performing roles belonging to various categories are highlighted from the point of view of cultural studies.

**Key words:** Ancient East, history, art, skill, social-historical development, theater, image, exemplary school.



Dunyoning yaratilish tarixi qanchalar qadimiy bo'lsa, ayol omili ham shu qadar teran tushunchadir. Garchi uning mulki, borliqda yaratilishdagi xilqati erkak jinsidagi odamning paydo etilishidan fursat jihatidan ozgina farq qilsada, zamindagi hayot nuqtai nazaridan ularning faoliyati bir vaqtda boshlangan bo'lib, zamon va makon mezonida ular aynan teng hisoblanadi. Lekin jamiyat rivojining turli bosqichlarida ayollarga xilma-xil munosabat bildirilgan. Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Ayniqsa, ayollarga sharqona ehtirom va e'zoz biz uchun ibratli merosdir. Xalqimizning buyuk tarixida o'zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o'chmas nom qoldirgan To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebiniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin, Qubonjon Dodxo kabi yuzlab ayollarimizni hamisha ehtirom bilan tilga olamiz.

Ulug' momolarimizga xos bo'lgan oliyjanob sharqona fazilatlar bugun ham muqaddas ayollarimiz siymosida davom etib kelmoqda. Ayol mehribon ona, vafodor yor, dono oila bekasi. Shuning bilan birga, adolatli hukmron, jasur ovchi va jangovor zobit ham edilar. Ma'lumki, yosh avlodni tarbiyalashda san'at, shu jumladan teatr san'ati muhim vosita hisoblanadi. Manbalarga tayanib aytadigan bo'lsak, tarix yaratgan bizning momolarimiz ibratli maktabi teatr san'ati orqali ko'plab tomoshabinlar qalbida muhrlanib qolgan. Mustabid tuzum davrida xotin-qizlarni yangi madaniyatga jalb etish borasidagi qarashlar ularni ana shu yangi madaniyatning faol ishtirokchisiga aylantirish bilan birga olib borildi. O'sha davr tarixining yorqin va fojiali sahifalaridan biri bu – Sharq ayolining

yangi ijtimoiy maqomini – uning yangi kasblarni, xususan, ijodiy va badiiy tushdagi kasblar, ya'ni o'qituvchilik, shifokorlik, artistlik kasblarini tanlash bilan bog'liq.

Tarixga murojaat qilsak, 1920-yillarda ayol roli erkak tomonidan ijro etilgan. 1930-yillarda esa vaziyat tubdan o'zgardi. Bunga javoban teatr sahnasiga chiqishga jur'at etgan xotin-qizlarning qanchasini qoni to'kilgan. O'zbek aktrisasi Nurxonning fojiali hayotini misol keltirishimiz mumkin. Ilk o'zbek aktrisasi Tursunoy Saidzimova 1911-yilda Toshkent shahrida dunyoga kelgan. 1924-yildan 1927-yilga qadar Moskvadagi maorif uyi qoshida ochilgan Moskva o'zbek drama studiyasida tahsil olgan. 1927-yildan to vafotiga qadar teatrdak aktrisa sifatida faoliyat yuritgan. U ko'plab spektakllarda qo'shiq ham kuylagan. Aktrisaning hamkasblari yoqimli ovozi uchun uni "O'zbek bulbuli" ham deb atashgan. Tursunoy Saidzimova dramaturg va shoir Hamza Hakimzoda Niyoziyning talabasi bo'lgan. Qisqa umri davomida o'zbek va chet el dramaturgiyasidan yorqin obrazlar yaratdi. Jumladan, "Revizor"da Mariya Antonovna, "Malikai Turandot"da Turandot, "Ikki boyga bir malay"da Klariche obrazlarni misol keltirish mumkin. 1927-yilning 10-mayida 17 yoshli aktrisa Buxorodagi gastrol safari paytida o'zining turmush o'rtog'i tomonidan pichoqlab o'ldirilgan.

Teatr sohasida o'zbek aktrisalari tomonidan 1920-30 – yillarda o'rnak bo'larli bir hecha o'zbek ayoli obrazi yaratildi. Dramaturg Komil Yashinning "Gulsara" musiqali dramasida Rizvonxon aya rolini O'zbekiston xalq artisti Maryam Yoqubova ijro etgan. Rizvonxon aya – Maryam Yoqubova go'zal insoniy xislat-fazilatları bilan tomoshabin yodida qolgan.

O'zbek Milliy Akademik drama teatrida Salohiddin Sirojiddinovning "To'maris" asari ijodiy jamoaga katta zafar keltirdi. To'maris obrazini O'zbekiston xalq artisti Malika Ibrohimova yuksak mahorat bilan talqin etdi.

<sup>1</sup> Rahmatullayeva D. O'zbek teatri: tarixiy drama. – Toshkent: "San'at", 2004. – B.248.





Aktrisaning ijrosi boradasida san'atshunoslik fanlari doktori Dilfuza Rahmatullayeva shunday deb yozadi: *“Aktrisa Malika Ibrohimova o‘z qahramonining nihoyatda murakkab tabiatini chuqur psixologik holatlarda talqin etishga intiladi. Aktrisa talqinida To‘maris nafaqat farzandining, balki qabilasining, yurtdoshlarining tinchligi va osoyishtaligini o‘ylovchi ona, shu bilan birga g‘animiga mag‘rur raqib bo‘la oladigan hokima, qabilaboshidir”*<sup>1</sup>.

To‘maris obrazini sahnaga olib chiqqan Malika Ibrohimovaning falsafiy hayot saboqlari bilan o‘rtoqlashganimizda, uning quyidagi so‘zlari bizni ham o‘ylantirdi: *“Teatr – mening ikkinchi uyim, balki birinchisidir. Odamzodning qanoti yo‘q, ammo u uchish uchun tug‘ilgan. Buni his qilish uchun uning ruhi ozod bo‘lishi kerak. To‘maris roli orqali insonning ozodligi, qalb erkinligi, hayqirig‘ini o‘z iztiroblarim bilan chiqara olganman”*.

Teatr mo‘jizasi shunda-ki, spektakl qanday janrda bo‘lishidan qat‘i nazar biz unda inson taqdiri, ruhiy olamini kashf etamiz. Shuningdek, aktyorlik, rejissorlik san‘atining o‘ziga xos qirralaridan voqif bo‘lamiz. Bu ayniqsa, istiqloq yillarida yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Mahoratli rejissorlar shakllandi hamda ko‘plab ajoyib spektakllar sahna yuzini ko‘rdi. Eng muhimi, bu davrda milliy mumtoz asarlarga e‘tibor kuchaydi. Bugungi tezkor jarayonda yoshlar tafakkurini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg‘usini oshirish borasida tarixiy asarlarga ehtiyoj oshib bormoqda. “To‘maris” spektakli ham inson erkinligi, ustunligi, milliy g‘urur tushunchalarini o‘zida mujassam etgan sahna asaridir.

Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasida tarixiy mavzularning tutgan o‘rni muhim va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, teatr san‘atida zamonaviy mavzular ko‘laminig ortib borayotgani barobarida tarixiy mavzudagi asarlarga ham ko‘p bor murojaat qilinmoqda. 70-yillar oxiri, 80-yillar boshida o‘rta asr sharqining ikki buyuk shoirasi haqida drama sahnalashtirildi. Ular orasida Turob To‘la qalamiga mansub “Quvvai qahqaha” (“Nodirabegim”) va Uyg‘unning “Zebiniso” dramasi tomoshabinlarga manzur bo‘ldi. Bu dramalarning yutug‘i shu edi-ki, birinchidan, tarixda o‘z

o‘rniga ega xalqchil shoira, ham malika bo‘lgan sharq ayollari Zebinisobegim va Nodirabegim obrazlari sahnaga olib chiqildi. Ikkinchidan, bu kabi murakkab taqdirli sharq ayollarining faoliyatiga murojaat qilinishi natijasida, tarixiy shaxs va davr muammolarining o‘ziga xos jihatlarini sahna orqali to‘la-to‘kis ko‘rsatib berilganligidadir.

Biz uchun ahamiyatli jihati, Nodirabegim siyomosida mujassamlashgan inson qadr-qimmatini, jamiyat va shaxs burchi, inson sharafi, izzat-oriyatni ulug‘lash kabi tom ma‘nodagi sharq ayoliga xos bo‘lgan hayo, ibo va mardonavorlik aktrisa Yayra Abdullayeva orqali mahorat bilan ijro etilgan. Aktrisa ijrosida Nodirabegim sahnada insonparvar, mutafakkir shoira, xalqparvar malika, mehribon mushfiq ona bo‘lib gavdalandi. Albatta, dramaturg, rejissor va san‘atkorning mehnatidagi uyg‘unlik, qolaversa xalq suygan va e‘zozlagan shoirasining bosib o‘tgan zahmatli yo‘li tarbiya maktabidir. Zero, Nodirabegim g‘azallaridan birida kuylaganidek, *“Meni saltanat masnosida ko‘rib, gumon etmang ayshu farog‘at bilan”*<sup>2</sup>.

O‘zbek xalqining mumtoz shoirasi Nodirabegimning dunyoqarashi, uning irodasi, shijoati va onalik mehri ufurib turgan sharqona hayo-ibosini ochib beruvchi ushbu asar 1992-yilda Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatrida qayta sahnalashtirildi. Ushbu sahnada Nodirabegim siyomosini O‘zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova ijro etgan bo‘lib, aktrisa ovoz va kuylash mahorati orqali Nodirabegim qalbidagi ruhiy jarayonlarni ko‘rsatishida katta yutuqlarga erishildi. Bu borada teatrshunos olim Muhabbat To‘laxo‘jayeva shunday yozadi: *“Zulayho Boyxonova yaratgan Nodirabegim obrazi o‘zida malikali qudrati va onalik mehrini sofdillik va munislik, o‘z yurtiga, xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbat va sadoqat singari yuksak insoniy fazilatlarini o‘zida mujassam etgan siymo sifatida namoyon bo‘ldi”*<sup>3</sup>.

Bugungi kunda mumtoz adabiyotimiz, tarixiy qadriyatlarimiz ibrat maktabini o‘tagan buyuk shaxslarimiz merosiga yangicha nuqtai nazar bilan qarab, yoshlarimiz ongi va shuuriga singdirishda teatr san‘atining bebaho o‘rni borligini yana bir sahna asari Uyg‘unning “Zebiniso” nomli poetik dramasi ham ko‘rsatdi. Rejissor Bahodir Yo‘ldoshev va rassom Georgiy Brim tomonidan sahnalashtirilgan ushbu tarixiy asarda Hindiston tuprog‘ida yashab, ijod etgan o‘zbek shoirasi hayoti tasvirlanadi. Zebinisobegim Zahiriddin Muhammad Bobur podshohning nevarasi Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangzeb – “Taxtbezagi” Olamgirming qizi bo‘lib, o‘z davrining zabardast shoirasi, yetuk olim, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot edi. Zebinisobegim o‘z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo‘lida savod chiqarib, Qur‘onni bir necha marotaba husnixatda ko‘chirgan va yoddan qiroat bilan o‘qigan. U arab va fors tillarida ijod qilib, o‘z davrida olimlarga, shoirlarga va san‘at ahliga homiylik ko‘rsatib, ularga maosh to‘lab turgan.

Spektaklning yana bir yutug‘i, Zebiniso hayotining butun tafsilotlarini emas, balki bu shaxsning ruhiy dramasi mahorat bilan tasvirlangan. E‘tibor bering-a: *“Men ilon og‘zidan shakar, o‘rgimchak uyasidan par talab qilaman, erkak sherdan sut, gadolardan zar talab qilaman”*, Zebiniso o‘zining umr yo‘ldoshini ana shunday – yo‘qni bor qiluvchi, ijodkor odam bo‘lishini orzu qilgan. Dramada yaratilgan Roziy obrazi o‘tmishning aniq manzarasini tomoshabin

<sup>2</sup>Nodirabegim. G‘azallar. – T.: 1991.

<sup>3</sup>To‘laxo‘jayeva M. O‘zbek teatr tanqidchiligi. – T.: 2015.

ko'z o'ngida gavdalantiradi. Garchan, Zebiniso o'z sof muhabbatiga erisha olmagan bo'lsa-da, muhabbatining ruhiy kechinmalari bilan yashab, ijod etadi. Zebiniso garchan Temuriy malika, shoh qizi bo'lsa-da, faqirlikni ixtiyor etgan va bu faxr tuyg'usi bilan faqir shoirtabiat yigit Oqilxon Roziyga bo'lgan cheksiz muhabbati ila yashab o'tgan. Ana shunday oliyjanob, insoniy tuyg'ular sohibasi Zebiniso obrazi Sayyora Yunusova tomonidan mahorat bilan ijro etilgan. Shoiraning husnu latofat va malohatda benazir, yuksak she'riy iste'dod sohibasi bo'lish bilan bir qatorda irodali va jasur, o'z davrining og'ir yukini gardanida mag'rur ko'targan Temuriy malika ekanligini aktrisa jozibali shaklda ifodalab beradi.

Yana bir teatr san'atining ajoyib yutuqlaridan biri "Diydor" teatr studiyasining sahnasida rejissor B.Yo'ldoshev shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi "Yulduzli tunlar" (P.Qodirov) romanini sahnaga qo'ydi. Spektaklning yangi talqinini tomosha qilish ekansiz, sahnada jozibali va latofatli yosh aktrisa Y.Rajabovani Xonzodabegim obrazi uchun yaratilganidek, tasavvur qilasiz. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, Xonzodabegim did-farosat, o'tkir zehn va aql-zakovat sohibasi bo'lgan. Y.Rajabova sharqona ibo, hayosi va latofatini mohirona ijro etish bilan bir qatorda, birgina ukasi Bobur Mirzoga qarata "Amirzodam", "Boburjon", "Inim" deb murojaat qilishlari orqali otadan erta yetim qolib, saltanatning og'ir yukini o'z gardaniga olgan ukasiga bo'lgan mehribonligi, ukasining ichki dard va faryodlarini jim turib tinglashlari har qanday tamoshabinni hayajonlantiradi. Spektaklning yutug'i ayni bugungi kunda yoshlar, insonlar o'rtasida mehr-muhabbat, shirin so'z "arzon" bo'lib, opa-ukalar, aka-singillar orasida oqibat yo'qolib borayotgan bir paytda mudroq qalblarni uyg'otishidir.

*"Teatr davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi asarlarni sahnaga olib chiqishi zarur. Farzandlarimizning ma'naviy dunyosini mustahkamlaydigan, kelajakka ishonchini oshiradigan, oriyatini kuchaytiradigan zamonaviy qahramon obrazini yaratishi kerak"*. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Buxorodagi madaniy markazning ochilishi munosabati bilan so'zlagan nutqida ta'kidlangan bu fikrda teran haqiqat bor. Adabiyot va

san'atning, jumladan, teatr san'atining muhim vazifalaridan biri vatanparvar, jasur, vijdonli insonni tarbiyalashdir. Bu sohada sahna asarlarining ta'siri salmoqli ekani barchamizga ma'lumdir. Aynan bugungi tezkor jarayonda xotin-qizlar masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasida bo'lib, ularning jamiyatda tutgan o'rni va har bir sohadagi fidokorona mehnatlari yuksak qadrlanmoqda. Bundan ruhlangan va ma'naviy qudrat olgan bizning teatr san'ati fidoyilari sahnalarda bizning sharq ayollarimizning ibratli fazilatlarini namoyon qilib, yangi-yangi qiyofalar yaratmoqdalar.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavharshodbegim Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzoning suyakli katta ayoli edi. Gavharshodbegim yuksak did-farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir so'zli, qat'iyatli husn bobida ham benazir ayol bo'lgan. Tabiatan mutaassib Shohruh Mirzo ko'p vaqtini toatibodat va kitob mutolaasiga sarflar edi. Saltanat, devon ishlarini o'ktam va tadbirkor ayoli Gavharshodbegim boshqarardi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so'ng, sekin-asta saltanat ishlarini o'z qo'lga oladi. Hattoki, taxtga valiahd tayinlash masalasida ham Gavharshodbegim o'z irodasini o'tkazishga urinadi. Spektaklda Yayra Abdullayeva ijrosidagi Gavharshodbegim aslzoda xonim, bilimdon, zukko va tadbirkor Temuriy Malika sifatida jonlangan. Spektaklda tomoshabin Yayra Abdullayevaning nuroniy chehrasi, mayin tabassumi, aslzoda xonimlarga xos tashqi qiyofasi, tarixiy shaxsni, ya'ni Temuriy malikalar ichki olamini puxta bilganligi tomoshabinni o'ziga rom qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida tilga olingan sahna asarlarida o'zining sharqona ibrat namunalarini bilan joy olgan bizning mo'tabar ayollarimiz siymosi bugun yoshlarimiz uchun tom ma'noda tarbiya manbaidir. Tarixiy shaxslar faoliyati bilan bog'liq ushbu sahna asarlarida tarixiy faktlar badiiyat bilan qo'shilishi natijasida, tarkib topgan bo'lib, ular tomoshabinni mulohazaga chorlaydi, ishontiradi. Ahamiyatlisi shundaki, tarix yaratgan sharq ayollarimiz siymolarini mahoratli aktrisalarimiz zamonaviy talablardan kelib chiqib, o'z qahramonlarining fikrlash tarzi va xususiyatlarini to'g'ri ochib berishga harakat qilishgan. Sahna san'atining yutug'i ham shunda.

## FILM MUVAFFAQIYATIDA IJODIY GURUH HAMFIKRLIGINING AHAMIYATI

**Аннотация.** Mazkur ilmiy maqolada davlat va xususiy kinostudiyalarda faoliyat olib borayotgan yosh rejissorlar, operator va rassomlar tomonidan yaratilgan badiiy va hujjatli filmlar professionalizm nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Ularning o'ziga xos ijod yo'li aniqlanadi. O'zbek badiiy kinosida yoshlar ijodining bugungi kundagi holatiga nazar tashlash asnosida, ijodiy hamkorlik borasidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga oid taklif va mulohazalar bildiriladi.

**Калит so'zlar:** san'at, kino, rejissura, badiylik, obrazlilik, mahorat, rassom.

## ВАЖНОСТЬ ТВОРЧЕСКОГО СОЛИДАРНОСТИ В УСПЕХЕ ФИЛЬМА

**Аннотация.** В данной научной статье фильмы молодых режиссеров, работающих на государственных и частных киностудиях, анализировались с точки зрения профессионализма. Выявляется их специфический творческий путь. Был сделан обзор современного состояния молодежного творчества в узбекском художественном кинематографе, высказаны предложения и замечания по устранению существующих проблем.

**Ключевые слова:** искусство, кино, режиссура, художественность, образность, мастерство, художник.

## THE IMPORTANCE OF CREATIVE SOLIDARITY IN FILM SUCCESS

**Abstract.** In this scientific article, the films of young Directors, Cameraman and Art Directors working at public and private film studios were analyzed from the point of view of professionalism. Their specific creative path is revealed. An overview of the current state of youth creativity in the Uzbek art cinema was made, suggestions and comments were made to eliminate existing problems.

**Keywords:** art, cinema, directing, artistry, imagery, skill, Art Directors.

Kino asarning yuzaga kelishida operator, rassom va rejissorning hamfikrligi muvaffaqiyat yoki inqirozga sabab bo'ladi. Operator – chinakam misli yo'q mutaxassis bo'lib, u faqat kinematografiyaga xosdir, uni kinematografiyaning taraqqiyoti dunyoga keltirdi va voyaga yetkazdi. Operator umumiy ishga o'z badiiy ko'rish qobiliyatining xususiyatlarini qo'shadi. Operatorning vazifasi voqeaning eng ifodali qismini bir kadr doirasi bilan cheklay bilishdir. U rejissor bilan birgalikda voqeaning ana shu ifodali qismini uyushtirishi, yoritishi, voqeani ixchamroq aks ettirish uchun vositalar topishi kerak. Shu bilan birga aktyorning bemalol, hech narsa bilan cheklanmay ishlashi uchun shart-sharoit vujudga keltirishi lozim.

Agarda tasodifan yaxshi uyushtirilmagan jamoada kinokameraning qarash nuqtasini tanlash ba'zan ish vaqtining yarmini o'g'irlasa, rejissor bilan operator bir-birini yaxshi tushunib olgan jamoada bu nuqta bir necha daqiqa ichida topilib, kinokamera o'rnatib bo'linadi. Bu gap filmning qanday yorug'likda olinishini hal etishga, shuningdek, kadrlar kompozitsiyasini montaj qilishga ham taalluqlidir.

Filmning butun tasviriy qurilishini uyushtirishda rassom ham ancha ko'p mashaqqatli ishlar olib boradi. Rassom studiyada qurilgan dekoratsiya yoki ssenarist bilan rejissor qo'ygan vazifalarga muvofiq talabchanlik bilan tanlangan "tabiat parchasi" bo'lishidan qat'iy nazar, voqea suratga olinadigan vaziyatni tiklab beradi, ba'zan esa yaxshilab ishlab chiqadi. Shunday bo'lsa ham hal qiluvchi ishni rejissor bilan operator bajaradi.

Kino – sintez san'at. Bu san'atga adabiyot bilan tasviriy san'at nihoyatda yaqin. Yillar davomida kino san'ati alohida tasviriy vositalarga ega bo'lgan mustaqil san'at sifatida shakllandi. Biroq kadr kompozitsiyasi ya'ni kadr doirasida ko'rinib turgan voqeani joylashtirish va shakllantirish vaqtida kino san'atida rassomlik madaniyatning ko'p asrlik boyligidan keng foydalaniladi. Shu ma'noda olganda, ovozsiz kinematografiya tasviriy san'at bilan chambarchas bog'langan edi. Ovozsiz kino montajining kuchi ko'p jihatdan kadr kompozitsiyasiga tayanadi. Hozirgi zamon ovozli kinematografiya ham ana shu aloqani saqlab qolgan, albatta. Biroq nutq, shovqin, musiqa kabi kuchli qo'shimcha vositalar qamrab olgan ovozli film kadrning o'zi ma'lum o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Keng ekranli kinematografda kadr tomonlarining nisbati boshqacha bo'lib qolganligi to'g'risida fikr yurityapmiz. Keng ekranli kinematografiyada kadr deyarli ikki baravar kengaydi. Kadr kompozitsiyasi panoramali kinematografiyada, ayniqsa o'zgardi. Panoramali kinoning egilgan ekranida bir yo'la uchta kinokamera bilan suratga olingan va tomosha zalida uchta proyeksiya apparatida ko'rsatilayotgan uchta parallel tasvir o'zaro birlashadi. Bunda uch kameraning biri suratga olgan kadr qayta birlashtirilgan to'la kadrning uchdan bir qismini tashkil etadi, xolos. Bu narsa kompozitsiyani tuzish vaqtida tegishli hisob qilib ko'rishni talab etadi. Ya'ni o'z ta'birimiz bilan aytganda, tomonlarning nisbati oddiy bo'lgan kadr to'g'risida gap yurityapmiz.

Kompozitsiya muammolari, voqea elementlarining gorizontal va vertikal holda joylashtirganda teranlik

taassurotini vujudga keltirish realistik tasviriy san'at taraqqiyotida hamisha eng muhim o'rin olib keldi, rassomlarning qunt bilan izlanishlariga, nazariy bahslar va o'tkir munozaralar olib borishlariga sabab bo'ldi. Realistik kompozitsiyasining vazifasi avvalo, obyektning haqqoniy tasvirlashidir. Peyzaj yoki portret janrlaridan qat'iy nazar, obyektning butun uch o'lchovi – uzunligi, kengligi va balandligi polotno sathida haqqoniy ko'rsatilishi kerak.

So'nggi yillar mobaynida “harakat qilib turib suratga olish” yoki panoramali qilib suratga olish haddan tashqari keng tarqaldi. Bu xilda suratga olish turli usullar bilan amalga oshirildi. Rels ustida sirg'alib yuradigan teleshkaga o'rnatilgan kinokamera bilan suratga olish usuli shulardan eng ko'p tarqalganidir. Bunday usulda kamera voqeaning markaziga, goh yaqinlashib, goh uzoqlashib suratga oladi. Voqeaning uzluksiz rivojlanishini kuzatib turgandek bo'lamiz.

“Harakat qilib turib suratga olish” vaqtida tomoshabinning voqeada “hozir bo'lish effekti” mukammalroq bo'lib chiqadi. Rejissor bilan operator oldingi o'rindagi voqea vaziyati elementlarini ustalik bilan joylashtirib, uzoqning kishida qoldiradigan ta'sirini bo'rttirib, voqeaning rivojlanish kuchini ta'kidlab, dinamik effekt ayniqsa kuchli bo'lib chiqadi. Panoramali suratga olishning badiiy vazifasini yetarli darajada ravshan tasavvur qilmoq uchun voqeani sahnadagi vaqt va makonga to'g'ri taqsimlash prinsiplariga asoslanmoq kerak.

Kinematografiyada mizanssenna qurishda montaj prinsipi bilan bir qatorda, rejissorlar iborasi bilan aytganda, ichki montaj prinsipi, ya'ni “harakat qilib turib suratga olish” juda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, montajning asosiy vazifasi alohida-alohida olingan kadrlarni ma'no, ritm va kompozitsiya jihatidan bir butun, uzviy tuzilishga ega qilib qayta birlashtirishdir. Syujetning rivoji va epizodning kompozitsion yechimi shuni taqozo qiladi. Kinematografiya vositalari qatoridan “harakat qilib turib suratga olish” usuli mustahkam joy oldi. Bu usul ma'lum darajada montaj prinsipining o'rini egalladi. Ana shu usulning o'z afzalliklari va ochiq ko'rinib turgan kamchiliklari ham bor.

Voqeaning butun dinamik protsess davomida uzluksiz rivojlanishini tasvirlay olish qobiliyati panoramali suratga olishning afzalliklaridandir. Masalan, qochib ketayotgan odamni va uning ketidan quvib borayotgan kishilarni, yo'lda ketayotib olib borilayotgan muhim suhbatni, piyoda yoki otliq askarlar hujumini shu usulda suratga olish mumkin. Ana shu manzaralarning hammasini harakat qilib turib suratga olar ekansiz, siz go'yo voqeaning o'zida qatnashganday bo'lasiz. Voqeaning har bir daqiqasini kuzatib, qayd etib, mushohada qilib borasiz. Qahramonlarning xatti-harakati va holatidagi har bir qimmatli detalni ilg'ay olasiz. Montaj usuli esa bunga butunlay qarama-qarshi bo'lgan boshqa vazifani hal etishga yordam beradi. Bu usulda rivojlanib borayotgan voqeadan eng ifodali, eng ahamiyatli elementlarni tanlab olib, shu elementlarni rakurs, yoritish, kadrda ishtirok etuvchi kishilarni mizanssennada joylashtirish va keyinchalik montaj qilish yordami bilan bo'rttirib beriladi. Shu orqali mustaqil qurilgan kadrlarni ifodali qilib joylashtirish imkoniyati tug'iladi.

Har ikki usulda biz nimadan yutamiz-u, nimadan yutqamiz?

Ponaramali suratga olishda biz vaqt faktorini yutqazamiz, vaqt faktori esa kinematografiya kabi keng masshtabli san'atda xaddan tashqari muhim ahamiyatga egadir. Bu usulda biz aytib o'tganimizdek, voqeani uzluksiz suratga kuzatish va voqeani tomoshabinning ishtirok etish effektiga ega bo'lish bilan yutamiz. Suratga olishning montaj usulida formaning siqqiq bo'lishi, makon yechimlarini badiiy tarzda aniqroq tashkil etish bilan yutamiz. Ya'ni biz har bir kadri ixchamlashtiramiz, uyushtiramiz, uning ichidagi hamma ortiqcha tasodifiy, ko'zda tutilmagan narsalarni olib tashlaymiz. Bunda tabiiy ravishda vaqtdan yutamiz. Suratga olishning har ikki usulini u yoki bu epizodning mazmuniga qarab turib, navbati bilan qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Biroq voqeani shu tahlidda tashkil etish yoki hamma harakat qiluvchi faktorlarni shunday joy-joyiga qo'yish mumkin-ki, buning natijasida panorama murakkab montaj qurilishi darajasida ham ma'naviy, ham dinamik effekt beradi, ba'zan montaj qurilishining darajasidan ziyodroq effekt beradi. Buni panoramali suratga olish praktikasi ko'rsatib turibdi. Buning uchun rejissor bilan qaysi joylarini bo'rttirish zarurligini oldindan hisobga olib qo'yishlari hamda suratga olish jarayonida kinokamerani qahramonlarga, yirik plan kadruga, goh yaqinlashtirib, goh ulardan uzoqlashtirib turishlari, goh qahramonlarni dekoratsiyaning biron elementi bilan ongli ravishda to'sib qo'yishlari kerak.

Rejissor Sh.Abbosov va operator R.Galiyev hamkorligida olingan “Otamdan qolgan dalalar” filmida Chor Rossiyasi qo'shinlari kirib kelishi panoramali usulda qanday suratga olinganligini eslab o'tish mumkin. Nazarimizda, ana shu sahna romanda ham, filmida ham eng muhim sahnalardan biri edi. O'zbek xalqi o'z boshidan kechirgan eng katta fojiani ko'rsatib berish kerak edi.

Insonparvar ruhida tarbiyalangan farosatli, sof ko'ngil, samimiy yoshlarning hayotiga axloqsiz dushmanning shafqatsiz vayron etuvchi ifodasi bosh suqib kiradi. Dushman bu hayotga qayerdadir, boshqa yerlarni bostirib kirgani yo'q. Aksincha, shu yerda ularning o'z uyida, bolaligi o'tgan yerda har bir so'qmog'i, har bir daraxti, har bir uyi tanish bo'lgan jonajon qishlog'iga, ko'chalariga, bog'lariga bostirib kiradi. Biz ana shu sahna ustida uzoq mulohaza yuritib, bu sahnani montaj vositalari bilan emas, balki ko'p pog'onali uzluksiz panorama vositalari bilan suratga olish usulini ko'rib turibmiz.

Bu filmni yaratilishi juda murakkab va mashaqqatli vazifalarni film ijodkorlariga yukladi. Rassom uch davrni, zamoni ko'rsatib berishga erishish kerak edi. To'g'ri, povilyon syomkalari tarixiy rasmlar asosida eskizlar chizilgan bo'lsa-da, asosiy suratga olish jarayoni shahar va qishloq ko'chalarida olib borildi. Shu davrga borib qolish effektiga, sal kam bir asr vatandoshlarimiz kechirgan yolg'onga qurilgan hayotni fosh etishga, mahoratli, o'z ishinig ustalari yordamida erishildi.

Rejissor M.Kalatozov bilan operator S.Urusevskiyning “Turnalar uchadi” filmi kinematografiyaning ifodalash kuchini oshirish sohasidagi qidirishlar orasida juda qiziqarli ish, deb hisoblash mumkin. Ma'lumki, bu film dunyo kino ijodkorlari va kino tomoshabinlari orasida qizg'in

munozaraga sabab bo'ldi. Ana shu filmning syujetidan boshqa yana nimasi e'tiborni o'ziga tortadi?

O'ziga xos stilistik uslublar yordamida hal qilingan sahnalarning emotsional ta'sirchanligi chuqur va kuchli syujet qo'ygan vazifaga mos bo'lib tushgan. Buning natijasida, tomoshabin hayotiy voqeadan yorqin tasavvur oladi. Bu tasavvur kinematografiya san'atining qudratli vositalari bilan yanada kuchaytiriladi. Kalatozov va Urusevskiy aktyor va uni hayot muhitida ish olib borish vaqtida qanday vositalardan foydalanganlar?

“Turnalaruchadi” filmidarejissorbilanoperator o'ta qisqa fokusli optikadan dadil, prinsipial va izchil foydalanganlar. Kamdan-kam sahnalarni hisobga olmaganda, deyarli hamma sahnalar fokus oralig'i 18 millimetrmli obyekt bilan suratga olingan. Bu narsa filmning butun badiiy yechimida katta rol o'ynadi. Yuqorida aytilganidek, nihoyatda qisqa fokusli optikadan foydalanish hayotning turli shakllarini ifodali qilib tasvirlaydi. Shu bilan birga bu shakllarni ancha o'zgartiradi, uzoqni ma'lum darajada buzib ko'rsatadi.

Shubhasiz, zo'r iste'dodga ega bo'lgan bu ikki san'atkorning asl maqsadi hayot materialini dinamik tarzda ochib berish bo'lgan. Ular o'z ishida foydalangan keng burchakli obyekt bu san'atkorlarga odamni ham birinchi planda, ham uni o'rab turgan muhitni keng ko'lamda ko'rsatish imkoniyatini bergan. Ular shunday bir mutanosib nisbatda ko'rsatilganki, tomoshabin aktyorning ko'zidagi nazokatni ham kuzata oladi, ikkinchi va uchinchi plandagi voqeaning turli xil elementlarni ham ko'ra oladi.

Agar Kalatozov va Urusakskiylarning “Turnalar uchadi” filmi boshqa chet el rejissor va operatorlarning ishi bilan taqqoslab ko'rsak, bu ijodkorlar o'z davrida kinematografiya texnikasi imkoniyatlaridan dadillik bilan foydalana olgan. Kinematografiyaning professional ustalari Eyzenshteyn bilan Pudovkinning dastlabki asarlari ham ana shu ajoyib maqsadga xizmat qilgan hamda yangi, rivojlanayotgan san'atning kuchi va vositalari bilan hayotga dadil aralashishning shu choqqacha klassik namunasi bo'lib qolishgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yillar davomida texnika rivojlanish sur'atlari bilan birgalikda hamnafas bo'lgan kinematografiya san'ati har soniya boyib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday yangi usul erishilgan yutuqdir. Demak-ki, film yaratish ustida olib borilayotgan barcha murakkab ishlarning rahbari rejissor uchun filmning turli jihatlarini va qismlarini yagona g'oyaviy badiiy vazifaga buyundirish asosiy vazifa bo'lib qoladi. Rejissor ayni vaqtda adabiy ssenariyning myallifi bo'lgan taqdirda ham, yoki boshqa kishining ssenariysi asosida ish olib borilishidan qat'iy nazar, mavzu va manbani dastlabki fikrlash vaqtidayoq u bo'lajak filmdagi eng muhim epizodlar kompozitsiyasini hal qilish yo'llarini aql ko'zi bilan tasavvur qilib oladi. Filmning obraz qurilishi rejissor ongida aniq shakillansa, rejissorning texnika va rassomlik mahorati yuksak bo'lsa, uning rassom va operator bilan ishlashi, bu o'z navbatida filmning muvaffaqiyatga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadjibayeva O.K., Melikuziev I.M., Khusanov Sh.T. Issues of the using the Special Effects as means of Visual expression in the Cinema art. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7, 2, 2020, 2204-2215.
2. Melikuziev I. (2020). CINEMATOGRAPHER'S ABILITY IN THE CREATION OF GRAPHIC IMAGE IN UZBEK HISTORICAL FILMS. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(05), 1554 - 1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
3. Melikuziev I. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1554–1567.
4. Umarova D.B. (2017). TRADITIONAL HERITAGE IN MODERN ART OF UZBEKISTAN. *Modern Science*, (5-2), 99-102.
5. Ахмедов Б. Режиссура телевизионного фильма (учебнометодическое пособие). – Tashkent: “Академ-хизмат”, 2005.
6. Ахмедов Б. “Ўзбек телевизион киносининг ривожланиш тарихи”, – Т.: “Академия”, 2007.
7. Абул-Касымова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. – Т.: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1985. – С.286.
8. Абул-Касымова Х. Основы киноискусства. – Т.: 2007. – С.120.
9. Акбаров Х. Кино санъати тарихи. – Т.: “ТИИ”, 2005. – С.39.
10. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Т.: Издательство журнала «San'at», 2016. – С.216.
11. Ikboljon M., & Tirkashaliyevich K.S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9 (1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat.A2948.109119.
12. Melikuziev I.M. (2018). *Film and Television Skills (Artistic Photography Formation and Development Process) Textbook*, Tashkent.
13. Melikuziev Ikboljon Mamasadikovich. Creativity of Young Directors in the Art of Cinema, Questions of Skill. *ASEAN Journal on Science & Technology for Development*. Vol 39, No 4, 2022, 242-247 242. DOI 10.5281/zenodo.7030902.

## "BOBURNOMA" ASARIDA QO'SHIQCHILIK SAN'ATIGA DOIR ATAMALARNING QO'LLANILISHI

**Annotatsiya.** O'zbek qo'shiqchilik san'ati qadimdan yuksak ehtirom bilan baholangan. Bu haqdagi ma'lumotlar tarixiy, san'at va madaniyatga doir manbalar bilan birgalikda mumtoz adabiy asarlarda ham o'z aksini topgan. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida qo'shiqchilik san'ati turlari va ularga oid tushunchalarning qo'llanilishi xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** qo'shiqchilik, navo, tarix, nag'ma, tushuncha, ijod.

## ПРИМЕНЕНИЕ ПОНЯТИЙ ПЕВЧЕСКОГО ИСКУССТВА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БОБУРНОМА»

**Аннотация.** Искусство узбекского пения с древних времен пользуется большим уважением. Сведения об этом, наряду с историческими, художественными и культурологическими источниками, нашли отражение и в классических литературных произведениях. В данной статье говорится о видах певческого искусства и применении связанных с ними понятий в произведении «Бабурнома» Захириддина Мухаммада Бабура.

**Ключевые слова:** пение, наво, история, песня, понимание, творчество.

## APPLICATION OF THE CONCEPTS OF SINGING ART IN THE WORK "BOBURNOMA"

**Annotation.** The art of Uzbek singing has been highly respected since ancient times. Information about this, along with historical, artistic and cultural sources, was also reflected in classical literary works. This article talks about the types of singing art and the use of related concepts in the work "Baburnoma" by Zahiriddin Muhammad Babur.

**Key words:** singing, navo, history, song, understanding, creativity.



Tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz, o'zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan buyuk hissasi, ma'naviyati uzoq o'tmishdan dunyoga ma'lum va mashhur bo'lib kelgani ko'zga yaqqol tashlanadi. Allohning inoyati, ajdodlarimizning aql-zakovati, mehnati va intilishlari tufayli bu zahmatkash xalq orasidan Amir Temur Ko'ragon, al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Beruniy, Ahmad Yassaviy, at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi necha allomayu daholar, olim-u fozillar, shoir-u rassomlar, podshoh-u sarkardalar yetishib chiqdilar. Millat nomini ulug'lagan allomalar haqida gap borganda, albatta, Temuriylar davri daholarini tilga olmoq darkor.

Biz bilamizki, Temur va Temuriylar davrida adabiyot, madaniyat va san'at rivojlanishning eng cho'qqisiga chiqqan davr hisoblanadi. Musiqiy ijod va ijro shiddat bilan rivojlangan. To'xtasin G'ofurbekovning keltirgan ma'lumotiga ko'ra: "Sohibqiron fikriga binoan, oddiy xalq orasida keng tarqalgan cholg'u asboblari qonuniy ravishda hokim va lashkarboshilarning ijtimoiy va harbiy mavqeini belgilab beruvchi timsolga aylangan". Demak, Amir Temur qonli urushlar ichida yurgan shoh bo'lsa ham san'atga o'zgacha nigoh bilan qaragan shaxs hisoblangan. Albatta, bu kabi go'zal tabiatli dunyoqarashni Zahiriddin Muhammad Boburda ham ko'rishimiz mumkin. Bobur san'at ahliga e'tibori katta va hurmati juda baland bo'lgan. Bobur o'zi bilan qayerga borishidan qat'i nazar "dasta" deb nomlangan san'atkorlar jamosini olib yurgan. Dasta Boburning eng yaqinlariga, safdoshlari va mahramlari ishtirokidagi xilvat suhbatlarda xizmatda bo'lgan. Dastaga asosan sozanda, xonanda va raqqoslar uyushgan va bu jamoani Bobur "ahli nag'ma" deb ham atagan. San'atshunos olim Muhsin Qodirov: "Bobur musiqaning uch tarkibiy qismi – sozandalik, bastakorlik va musiqa ilmidan yaxshi xabardor bo'lgan, sozanda va go'yandalarni yuksak qadrlagan,

sharoit va kayfiyatga qarab soz va nag'ma ahli ishtirokida guring va bazmlar uyushtirib turgan", [1.49-b] – deya qayd etadi. Bobur o'z davrining yirik madaniyat arboblari biri bo'lganini ayni paytda hamma tan oladi. O'zi podshoh bo'lgan mamalakatlarda u ijtimoiy fikrlarni rivojlantirishga, ayniqsa katta e'tibor berdi.

Bobur o'zining "Boburnoma" asari uslubi va maqsadiga ko'ra voqeanoma hamda tarixiy asar bo'lganligi sababli, unda san'at va san'at ahli haqida maxsus emas, balki qisqacha ma'lumotlar berib o'tadi. Bobur qo'shiq termini haqida "Boburnoma" asarida alohida keltirib o'tmagan, K.Sodiqov o'zining "Ilk va o'rta asrlar turkiy matnlari nomlarining izohli lug'ati" asarida keltirishicha, "Bobur "Muxtasar" asarida qo'shiq terminiga shunday ta'rif beradi: "... qo'shuq ko'ngil oladigan vazn:

*Qilgil ey arami jan necha tartay intizar,*

*Qildi hajring natavan qildi shavqing beqarar.*

*Bu vazn turk arasida qo'shuqqa mavzumdur. Urg'ushtak bitarda bu vazn taqsim qilurlar".*

"Boburnoma" asarida esa qo'shiqchilik san'atiga oid bir necha terminlarni keltirib o'tgan va bu atamalarning deyarli barchasini arab va fors tillarida uchratishimiz mumkin. Keling, dastlab Bobur o'zining "Boburnoma" asarida ushbu terminlarning qaysilaridan foydalanganini aniqlab olamiz, so'ngra ularni misollar bilan tahlil qilib chiqamiz: savt, naqsh, musiqiy, xonanda, nag'ma, nag'amot, ohang, go'yanda, mutrib, surud kabi terminlardan foydalangan.

**Savt** (a.) ovoz, tovush, kuy, ohang. Ushbu termin "Boburnoma" asarida keltirilgan. Navoiy ham "Sab'ai sayyor" asarida ushbu termindan aynan ohang ma'nosida foydalangan. Bobur mazkur termindan musiqa ma'nosida qo'llagan, deya olamiz: "Binoiy Hirida qolur. Ul kishi musiqiy mashq qilur, yozgacha oncha bo'lurkim, ishlar bog'lar. Yoz mirzo Hiri kelganda savt va naqsh o'tkarur" [2.242-b]. (Binoiy Hirotda qoladi. O'sha kuni musiqani mashq qiladi.

Yozgacha shunchalik harakat qiladi-ki, ohanglar ham ixtiro etadi. Yozda Sulton Husayn mirzo Hirotda kelganda unga o'zi ijod qilgan kuy va naqshlarni ijro etadi) [3.143-b]. Shu o'rinda bir narsani aytib o'tishimiz joiz-ki, Bobur ushbu asarida qo'shiqchilikka oid yangi termin yaratgan, desak ham bo'ladi. Chunki ahamiyat bergan bo'lsangiz yozuvchi asarda savt termini bilan birgalikda naqsh terminidan foydalangan va Bobur "Boburnoma" asarini boshidan oxirigacha savt terminini qayerda ishlatgan bo'lsa, albatta, uning oldida naqsh terminidan ham foydalangan. O'zbek tilining izohli lug'atiga qaraganimizda, **savt** – arabcha ovoq, tovush ma'nosida qo'llangan, **naqsh** – rasm, bezak, o'yama tasvir, gul, ko'chma ma'noda esa ko'rk, ziynat ma'nosida qo'llangan [4.216.67-b]. Bobur bizningcha, naqsh terminini ko'chma ma'noda qo'llab, ovozga ko'rk berish, chiroyli ijro qilish ma'nosini chiqarib bermoqchi bo'lgan.

**Musiqiy** (a.) musiqiy, ohangdor, ya'ni izohli lug'atda: inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi [4.203-b]. "Boburnoma"da esa quyidagicha keltirilgan: "Alisherbek taajjub qilib tahsin qilur. Musiqiyda tavr ishlar bog'labdur, ul jumladin bit naqshi bor, nuhrang'ga masum. Bu to'qqiz rangning tunganishi va naqshning maylosi rostadir" [3.242-b]. (Alisherbek taajjulani tahsinlar qiladi. Binoiy musiqada yaxshi ishlar ijod qilgan. Jumladan, uning "Nuhrang" deb atalgan bir naqshi bor. Bu to'qqiz rangning yakuni va naqshning yali-yalisi "Rost" ohangidadir. "Boburnoma" asarining A.Qayumov boshchiligidagi 2008-yil "O'qituvchi" nashriyoti tabdilida ham naqsh terminining aynan ma'nosi keltirilmay, o'zi holaticha tarjima qilingan.

**Xonanda** (f.) – ashulachi, hofiz, ya'ni qo'shiq aytuvchi shaxs "Tashqaridan Xoja Pir bakovul va ulug' og'alar va nekim bo'lg'on sozanda va xonanda kelib, Sulton Mahmud mirzoning Xonzodabegimdin bo'lg'on ulug' qizini Haydar mirzog'akim Poyanda Sultonbegimdin bo'lub edi" [2.94-b]. (Tashqaridan Xoja Pir bakovul, ulug' og'alar hamda mavjud bo'lgan sozanda va hofizlar kelib, Sulton Mahmud mirzoning Xonzodabegimdin bo'lgan edi).

**Nag'ma** (a.) – kuy, qo'shiq, ashulachilar ritmi ma'nosida qo'llaniladi. "Majlisda nag'ma ahlidin Hofiz Hoji edi Jamoliddin Mahmud noyi edi"[2.253-b] Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Bobur qo'shiqchilar jamoasini ahli nag'ma deb atagan va unda barcha san'at vakillari (qo'shiqchi, sozanda, raqqosa) uyushgan holda amaldorlarga xizmatda bo'lgan.

**Nag'amot** (a.) – nag'ma terminiga ko'plik qo'shimchasining qo'shilishi, desa ham bo'ladi. Nag'amot terminini asosan, Alisher Navoiy va Bobur ijodida ko'rishimiz mumkin: "Shayxiddin yana bir nima rivoyat qildilar: nag'amotqa andoq mustahzor ekandurkim, har nag'makim, eshitsa, der ekandurkim, falonning falon pardasi munga ohangdur, vale xili ish bog'lamaydur"[2.245-b]. (Shayxiddin yana bir narsani rivoyat qildilar: ohang idrokida shu darajada mohir ekanki, falonning falon pardasi bunga ohangdir deb aytarkan. Lekin ko'p kuy ijod etmaydi. Bir-ikki naqshni uniki, deydilar, xolos.)

**Go'yanda** (f.) – Navoiy asarlari lug'atida afsona aytuvchi, qo'shiq aytuvchi, baxshi ma'nosida, o'zbek tilining izohli

lug'atida esa ta'ziya ma'rosimida a'za qo'shig'ini aytuvchi ayol, qissa aytuvchi kishi ma'nolarida qo'llangan. Asosan, go'yandalar tarkibi saroyanda (ashulachi) va navozanda (cholg'uchi)lardan iborat bo'lgan va ularni faqat erkaklar tashkil etgan. "Sozandalar soz choldilar va go'yandalar nima ayttilar" [2.416-b].

Yuqorida keltirgan terminlarimiz barchasi "Boburnoma"da keltirilgan bo'lib, Bobur o'zining Tanlangan asarlar to'plamida ham aynan qo'shiqchilikka oid bir necha terminlardan foydalangan:

**Mutrib** (a.) – qo'shiqchi, cholg'uvchi, navozanda ma'nolarini bildirib, Navoiy ham asarlarida xuddi shu ma'nolarda qo'llaydi. Bobur esa quyidagi g'azalida cholg'uchi va navozanda ma'nosida foydalangan:

*Yoz bo'ldiyu bo'ldi yana jannat kibi yozi,*

*Xush ul kishikim, aysh ila o'tgay qishu yozi.*

*Dutora uni ayshu farog'atni berur yod*

*Mutribg'a quloq tutki, ne der nag'mada sozi.*

Mazkur g'azalning ma'nosiga ahamiyat bersak, qo'shiqchi ma'nosidan ko'ra ko'proq navozanda, sozanda tushunchasiga to'g'ri kelmoqda: sozandaga quloq tutki, ne der ohangida sozi.

**Surud** (f.) – qo'shiq, ashula.

*Necha davron g'ussasi bo'lg'ay mening jonimg'a xos,*

*Koshki o'lsam dog'i bu g'ussadin bo'lsam xalos.*

*Ohu vovaylo – surudim dardu g'am – hamsuhbatim,*

*Boda – ashkim qoni, kim ko'rdi muningdek bazmi xos?*

Bobur o'zining "Boburnoma" asarida bir necha xonanda va sozandalar bilan tanishtirib o'tadi: Ruhdam, Bobojon, Qanbuzy, Qosim Ali, Yusuf Ali Taryoqiy, Tengriquli, Abulqosim, Ramazon lo'li deganlari bo'lgan ekan va bu shaxslar ahli dastaning a'zolari bo'lgan.

Temuriylar va boburiylarga oid noyob manbalarning asosiy qismi Yevropa mamlakatlari muzey va kutubxonalarida saqlanmoqda. Ana shu noyob kitoblardan hech bo'lmaganda nusxalar ko'chirtirib, Andijonga olib kelish asosiy vazifadir. Murakkab hayoti va ijodi bilan insoniyatni yaxshilik hamda fidoyilikka, mardlik va oliyanoblikka undagan buyuk Zahiriddin Muhammad Bobur xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlikni ulug'lovchi, o'tmish bilan hozirgi zamoni bog'lovchi betakror zot bo'lib qolaveradi.

Xulosa qilib aytganda,

– Temur va Temuriylar davrida sozanda va xonandalarga e'tibor, hurmat va alohida e'tirof bilan qaralgan;

– "Boburnoma"da qo'llanilgan qo'shiqchilik san'atiga doir tushunchalar (savt, xonanda, nag'ma, nag'amot, naqsh, go'yanda, musiqiy) asosan, tub so'z hisoblanadi;

– Bobur qo'llagan qo'shiqchilik san'atiga doir tushunchalar arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar bo'lgan. Bobur bu tushunchalarning turli muqobillarini asarlarida hadeb takrorlayvermagan. Masalan, "Boburnoma"da keltirilgan go'yanda terminiga sinonim bo'la oladigan qo'shiq, alxon, o'lang, surud kabi tushunchalari mavjud, lekin birgina surud terminini Bobur Tanlangan asarlardagi g'azalida uchratishimiz mumkin;

– "Boburnoma"dagi ma'lumotlar XV asrda qo'shiqchilik san'atining bir qancha turlari taraqqiy topganligidan dalolat beradi.

#### Foydalanilgan adabietlar:

1. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. Maqolalar. – Toshkent: 1996.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: 1960.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: "O'qituvchi", 2008.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi", 2006.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. – T.: "O'qituvchi", 1976.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. III-tom. – T.: "Fan", 1983.
7. Farhangi zaboni tojiki. – M.: 1969.



# IV BO' LIM

## PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

Dilnoza JUMAYEVA,  
O'zDSMI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini muduri,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### "BOLALAR ADABIYOTI" FANIDA ALISHER NAVOIY ASARLARIDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Bolalar adabiyoti" fanida mumtoz adabiyot vakili mutafakkir, hazrat Alisher Navoiy asarlari namunalariidan foydalanish to'g'risida fikr bildirilgan. Bunda shoirning "Hayrat ul-abror" asaridan foydalandik.

**Kalit so'zlar:** "Hayrat ul-abror", tavoze', kamtarlik, Durroj, axloqiy, bolalar kitobxonligi.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОЯ В ТЕМЕ «ДЕТСКАЯ ЛИТЕРАТУРА»

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование примеров произведений Алишера Навои, мыслителя и представителя классической литературы в области Детская литература. В данном случае мы использовали произведение поэта «Хайрат ул-аброр».

**Ключевые слова:** «Хайрат ул-аброр», смирение, Дуррож, нравственность, детское чтение.

### USING THE WORKS OF ALISHER NAVOY IN THE TOPIC "CHILDREN'S LITERATURE"

**Annotation.** This article discusses the use of examples of the works of Alisher Navoi, a thinker and representative of classical literature in the field of "Children's Literature". In this case, we used the work of the poet "Hayrat ul-abror".

**Keywords:** "Hayrat ul-abror", humility, humility, Durroj, morality, children's reading.



O'zbek bolalar adabiyotining so'z san'ati sifatidagi ulug'vor vazifasi va tarbiyachilik vositasi istiqlol yillarida alohida e'tiborga molik bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrda e'lon qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida alohida belgilab berilganidek, bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quvmetodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash haqidagi, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari ham bu fanning maqsad mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi. Chindan ham bu jiddiy vazifani bajarishda, aniqrog'i, mustaqil yurtning har tomonlama yetuk, barkamol avlodini tarbiyalashda asrlar osha xalq an'analari, milliy qadriyatlar, folklor namunalari, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyoti an'analari zaminida voqelikka aylangan o'zbek bolalar adabiyotining beqiyos o'rni bor<sup>1</sup>.

Bolalar kitobxonligi tushunchasi ikki xil ma'noviy



ifoda kasb etadi. Keng ma'noda, umuman, bolalarning kitob o'qish hodisasi, ular o'qishiga mo'ljallangan barcha adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop asarlar mutolaasi bolalar kitobxonligini tashkil qiladi. Ammo bolalarga bag'ishlangan ijod namunalari hali mavjud bo'lmagan davrda, ilgaridan davom etib kelayotgan kattalar o'rtasidagi kitobxonlik, qissaxonlikda yoxud, didaktik asarlar mutolaa qilishga harakat qilganlarki, buni bolalar kitobxonligining dastlabki ko'rinishi sifatida qayd etish mumkin. Kitobxonlik bu – birgalikda kitob o'qish, yoki kitob, kitobatchilik bilan bog'liq tushuncha. Bolalar kitobxonligi haqida munosabat bildirgan Safo Matchonov: "...kitobxonlik tor ma'noda kitob o'qishni bildirsa, keng ma'noda tanlab o'qish, his

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil, 11-sentabr.



*etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi, adabiy tanqid va pedagogika ko'magida yuksala boradi*", – deb yozadi. Haqiqatdan, kitobxonlik keng va tor ma'noda ham kitob mutolaasiga daxldor. Shu sababli, kitob turli tillarda har xil jaranglasa ham, mohiyatan bir tushuncha ifodalaydi.

Bugun biz maqolamizda bolalar kitobxonligida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalariga to'xtalmoqchimiz. Bunda hazrat Alisher Navoiyning asarlariga urg'u berish lozim, deb o'yladik.

Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston" forscha-tojikcha yaratilgan mumtoz kitobxonlik namunasi bo'lsa, Alisher Navoiyning didaktik asarlari turkiy bolalar kitobxonligidan keng o'rin olgan. Alisher Navoiy – bolalar kitobxonligida inson axloqiy fazilatlarini, ta'lim-tarbiyasi Sharq adabiyotining yetakchi mavzu va mohiyatini tashkil etishi bejiz emas. Bu mavzudagi adabiyot-pandnomalardan tashqari, badiiy yuksak dostonlar, nasriy asarlarda ham "ma'viza", ya'ni o'git-nasihat xarakteridagi qismlar bo'lganligi adabiyotning didaktik tabiatini oydinlashtiradi. Inson odobi, ongi, ilm-u amali tufayli barcha maxluqotlarning afzali, sharifi deb ta'riflanishi turkiy adabiyotda Navoiy dahosi bilan boshlanadi. Qariyb olti asrdiki, Alisher Navoiy xalq faxri, tilimizning bayroqdori, she'riyat mulkining sultoni, madaniyat va ma'naviyatimizning porloq quyoshi bo'lib kelayotir. "Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, – deb yozadi I.Haqqul, – ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shanча kengroq egallaydi. Navoiyning so'zlari diliga o'rnashgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiyni yetarli darajada bilish-adolat, diyonat va imon-e'tiqodning kuchiga ishonch demak". XV asrning so'nggi choragi, XVI asrdan e'tiboran Navoiy asarlarini o'qish o'ziga xos an'anaga aylana borgan. Sharq xalqlari kitobxonligida fors-tojik tilida shohnomaxonlik, sa'diyxonlik, hofizxonlik, rumiyxonlik, jomiyxonlik bilan birga, turkiy (eski o'zbek) tilidagi yassaviyxonlik, qissaxonlik yonida navoiyxonlik ham qaror topgan. Jumladan, bolalar kitobxonligida Navoiy asarlarining ayriча ahamiyati borligi bejiz emas. Ulug' mutafakkir yosh avlod tarbiyasi uchun alohida e'tibor zarurligini o'z dostonlari va asarlarida yorqin ifoda etgan. Xususan, "Xamsa"ning dastlabki uch dostoni – "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", shuningdek, "Mahbub ul-qulub", "Arba'in" (Qirq hadis) da shoirning axloqiy qarashlari o'z tajassumini topgandir. Navoiy "Xamsa"sidagi kirish dostoni "Hayrat ul-abror" (Yaxshilarning hayrati) falsafiy, ta'lim-tarbiyaga oid she'riy asar bo'lib, u Sharq adabiyotidagi xamsanavislik an'anasiga muvofiq yozilgan bo'lib, didaktik mazmundadir. Navoiy dostonining muqaddima qismidagi munojotlarda Allohning buyuk va beqiyos go'zalligini ta'rif va tavsif etish bilan birga, shoir barcha mavjudot orasida eng ulug'i, eng sharaflisi insondir, degan fikrni badiiy yuksak darajada ifoda etadi:

*Barchasini garchi latif aylading,  
Barchadin insonni sharif aylading.*

"Hayrat ul-abror" asarining boshlanishi uch hayrat tavsifidan iborat. Ularda tabiat, koinot va insonning ulug'ligi va go'zalligi tasvir etilgan. Bu uch mavjudotning

yagonaligi, bir-biridan ajralmasligi, ularning hayratomuz darajadagi uyg'unligi uch hayratning asosiy mundarijasini tashkil etadi. 63 bobdan tarkib topgan dostonning 21 faslini an'anaviy muqaddimaviy boblar, 40 bobini – 20 maqolat va 20 hikoyat, qolgan ikki bobini esa – xotima va bir hikoyat tashkil etadi. Dostondagi yigirma maqolat komil inson o'zida mujassam etmog'i lozim bo'lgan fazilatlar izhoridan iborat. Asarning bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr va mulohazalarini bayon qilishi bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir adablilik to'g'risida fikr yuritarkan, uni kichiklarga baxtiyorlik, ulug'larga yuksak martabalilik omili, deb biladi. Bunda tavoze' – kamtarlikni asosiy vosita sifatida talqin etadi. Alisher Navoiy axloqiy qarashlarini ifodalashda hayotiy detallardan keng foydalanadi: "Qachonki yangi chiqqan oy tavoze' saqlab, qaddini xam qildi, u kun sayin kamol topa boshladi. ...Osmon ham tavoze'ga rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga buysunadi..." Hayo va adab insonning sharaf belgisi ekan, kulgi – adabsizlikning belgisi sifatida talqin etiladi. Shoir kaklikning qahqahasi ovchi tuzog'iga, g'unchaning ochilishi (kulib) xazon bo'lishiga, chaqmoqning kulgisi yerga pastlashishiga sabab bo'lganini tasviriy ufodalar orqali ko'rsatib beradi. Shuningdek, Alisher Navoiy kamtarlik to'g'risidagi me'yorni shunday ko'rsatadi: qulga bek ortiqcha tavozu' ko'rsatsa, o'ziga azob-uqubat iplarini orttirgan bo'ladi. Gadoning oldida sajda qilish marhamat emas; unga bir dirham bersang, bu unga nisbatan marhamat ko'rsatishdir. O'rindan turib bolaga joy berish ham adabdan emas; keksalar bu ishni adab hisoblashmaydi. Shu tariqa, shoir adablilik shartlarini saqlashda har bir odamning darajasiga qarab bajarish loyiqligini ta'kidlaydi. Jumladan, ulug' mutafakkir yosh bolaga nisbatan eng zarur ish, uni kichikligidan parvarish qilishdir, deb ko'rsatadi. Uning e'tiroficha, tarbiyaning biri bolaga yaxshi ism qo'yish bo'lib, uni nomi bilan chaqirganlarida uyaladigan bo'lmasligi kerak. Navoiy bolaga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirish lozimligini uqdirar ekan, shafqat qilish foydali, ammo ortiqchasi zarardir, deydi. Binobarin, har-xil balolardan farzandini o'z mehri bilan asrashni ota-onaning tavoze'si hisoblasa, ota-onani hurmat qilish – "buni bajarish uning (farzand) uchun majburiyatdir", – deydi. Shoir katta-yu kichikka qarata ota-onaga xizmatni birdek qilish, xizmati qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bilishni o'z o'gitlarida ilgari suradi:

*Boshni fido aylato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.  
Ikki jahoningga tilar sen fazo-  
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.  
Tun-u kuningga aylagali nur posh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.*

Dostonning sakkizinchi maqolatida Navoiy yolg'izlikka nisbatan ko'pchilik jamoatni ulug'lab, kishilarning bir-birlari bilan ahil, do'st bo'lishlarini istaydi. "Hayrat ul-abror"ning o'ninchi maqolati rostgo'ylik, halollik va to'g'rilikka bag'ishlangan. Shoir yolg'on so'zlashning yomon oqibatini "Sher bilan Durroj" masalida ovchining tuzog'iga tushgan Durroj obrazida hikoya qiladi. Masalda

keltirilishicha, bir beshada sher yashar, har gal bolalasa, chumolilar (mur) uning bolasini nobud qilaverganidan yurak oldirib qo‘ygandi. Shu sababli:

*Tishlabon ul moyai payvandini  
Og‘zida asrar edi farzandini.*

Biroq shu “beshada” bir durroj ham yashar, hamisha sher vahmidan cho‘chiverganidan qo‘qqisdan: “farr eta” uchar, bundan shervachcha seskanib ketardi. Bu holdan sher g‘am chekardi, nihoyat sherning

*Ko‘ngli bu ishdin bo‘lib ozorlik,  
Boshladi durroj bila yorlik.*

Va unga boshiga har qanaqa tashvish tushsa, ko‘maklashmoqqa so‘z berib, qo‘qqisdan uchaverib, uning bolasini qo‘rqitmasligini shart qilib qo‘yadi. Endi durroj uning yonida cho‘chimay, emin-erkin yashay boshlaydi. Hatto shu emin-erkinligiga ishonch hosil qilish uchun sherni sinamoqchi bo‘lib, bir gal ovchi domiga tushdim deya faryod ko‘taradi. Sher uni qutqarmoqqa borsa, faryod yolg‘on bo‘lib chiqadi. Durroj bu harakatini bir necha bor takrorladi. Shu sababli, sher unga ishonmay qo‘ydi. Boshqa bir mahalda durroj chindan ham sayyod domiga tushadi. Bu gal u:

*Qichqiribon dom aro ul muhtalo,  
Necha dedi, dod meni tuttilo.  
Sher qulog‘iga yetib ul maqol,  
Savtini doyimgidek etti xayol.  
Ko‘p eshitib erdi bu yolg‘onini,  
O‘yla gumon etti chin afg‘onini.  
Har necha kim rost fig‘on ayladi,  
Sidqini ham kizb gumon ayladi.*

Shu tariqa, durroj o‘z yolg‘onining qurboni bo‘ldi. Masaldan kelib chiqqan xulosa shu. Ilm ahllariga bag‘ishlangan o‘n birinchi maqolatda ilm va ilm ahli, qalam ahli, el manfaati, savob va jaholat, xudbinlik va xudbinlarga munosabat kabi masalalar axloqiy tahlil etiladi. Navoiy bir musofir, kambag‘al odamning chinakam ilm olishi uchun ne-ne muhtojlik, qashshoqlik, ochlik va sarson-sargardonliklar mashaqqatini bayon qilar ekan, ilmda sohibqiron bo‘lguncha o‘ttiz yillik davr o‘tishini, shunda ham bitta-ikkitagina kamolot egasi bo‘lib yetishishini asoslaydi. Ammo, uning ko‘ngli ilm maskani, ilm dargohi, uning bir qatra vujudi ilm daryosiga aylangani ulkan muvaffaqiyat sifatida talqin etiladi. Alisher Navoiy olimlik martabasini ana shunday yuksaklikda ko‘radi. U ilm ahli deganda ko‘p tillarni va bilimlarni egallagan qomusiy olimlik sharafini nazarda tutib, ularning johillarga xizmat qilishini esa zolimlik, deb baholaydi. Navoiy olimlar

bilan jaholat egasi bo‘lgan bek-u amaldorlarning surati va siyratini taqqoslarkan, hayotiy detallarni ayni muqoyasa sifatida eslatib o‘tadi: “Egnidagi to‘nida yuzta yirtiq bo‘lsa ham, gulning to‘ni yirtiq-yirtiq ekani ayb emas-ku! Quyoshning yalang‘ochligi uning ziynati-ku; bulutdan libos kiyganda esa, hamma yoqni qorong‘ilik bosadi. ...Er kishining sharafti kiyimda emas; dur sadafdan uzoq bo‘lsa, bahosi kamaymaydi. Pashshaning ham ust libosi zarrin, ammo uning qo‘nadigan joyi o‘limtiklarning ustidir”<sup>2</sup>. Darhaqiqat, ma‘rifatparvar va buyuk shoir Alisher Navoiyning axloqiy ta‘limiy qarashlari hozirgi kunda ham shu jihatlari bilan o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda. U o‘z zamonidayoq yoshlarni ilm-hunar egallash, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, Vatan yo‘lida sarf qilish zarurligini uqdirgan. Navoiy ta‘limotida ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish, o‘rganish ta‘kidlanadi. Bu jihat shoirning o‘z hayotiy tajribasida ham yetakchi shiorga aylanganini, ya‘ni juda yoshligidan ta‘lim olgani, o‘qishga berilganidan anglash mumkin. Qolaversa, 4-5 yoshlaridanoq ko‘p she‘rlarni yod bilganligi, Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) asarini ham bolalik chog‘laridayoq qayta-qayta o‘qib, yod olgani bu fikrni asoslaydi. Alisher Navoiy umrining so‘nggi damlarigacha iqtidorli yoshlarga, ma‘rifatga katta e‘tibor qaratganligini kuzatish mumkin. U mehnatkash xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilganligi, podsho Husayn Boyqarodan o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o‘zi madrasalar qurishda tashabbus ko‘rsatgani ham navoiyshunoslar tomonidan ko‘p ta‘kidlangan. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o‘zining “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo‘lgan mablag‘ ajratgani ana shunday e‘tiborli dalillardan. Navoiy dars beruvchini quyoshga o‘xshatadi va bu quyosh o‘z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya‘ni mudarris “abjadxonalar”ga, hali ilmdan bexabar bo‘lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma‘rifat beradi, deydi. Alisher Navoiy ta‘lim-tarbiyaviy fikrlarini o‘zi yaratgan badiiy asarlarida ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning xislati juda katta, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy inson shaxsining kamol topishi bolalikdan boshlanajagini nazarda tutib, dostonlaridagi ayrim boblarni qahramonlarining bolalik tarbiyasiga bag‘ishlaydi. Jumladan, Farhod va Majnun bolaligi tasviri bunga yorqin dalil bo‘la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon. – Toshkent: 1967.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T.: 1984.
4. Alisher Navoiy. Qiziq hikoyatlar. – T.: 1991.
5. Aliqulov H., Omonboyev R. Jomiy va Dovoniy ta‘lim-tarbiya haqida. – T.: 1984.
6. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – T.: 1979. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 11-sentabr.
7. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A.Hayitmetov. – T.: 1974. – B.85.

<sup>2</sup>Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A.Hayitmetov. – Toshkent: 1974. – B.85.

## FANTASTIKA ADABIYOTI VA UNING YOSH AVLOD TAFAKKURIGA TA'SIRI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jahon bolalar adabiyotida fantastika va fentezi janridagi asarlar, manga va komikslar, ularning bolalar va yoshlar tafakkuriga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Jahon fantastik adabiyotining o'zbek tiliga tarjimasi va kino, teatrdagi talqinlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** fantastika, fentezi, manga, komiks.

## ЛИТЕРАТУРА ФЭНТЕЗИ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА МЫШЛЕНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются произведения в жанре научной фантастики и фэнтези в мировой детской литературе, манга и комиксы, их влияние на современных детей и молодежь. Речь пойдет о переводе мировой художественной литературы на узбекский язык и ее интерпретациях в кино и театре.

**Ключевые слова:** фантастика, фэнтези, манга, комиксы.

## FANTASY LITERATURE AND ITS IMPACT ON THE THINKING OF YOUNG GENERATIONS

**Abstract.** This article discusses works in the genre of science fiction and fantasy in the world of children's literature, manga and comics, their influence on modern children and youth. It will be about the translation of world fiction into Uzbek and its interpretations in cinema and theater.

**Key words:** fiction, fantasy, manga, comics.

Zamonaviy jahon adabiyotini fantastikasiz tasavvur etish qiyin. Kattalar uchun yozilgan badiiy asarlar ichida ham fantastik asarlar muhim o'rin tutadi. XX asr jahon adabiyoti namunalari ichida ham ilmiy fantastik asarlar anchagina. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab tomoshabinlar diqqatini tortgan "Odam amfibiya", "Ko'rinmas odam", "Professor Douelning boshi", "Yulduzlar jangi", "Terminator", "Maymunlar sayyorasi", "Solyaris", "Vaqt mashinasi", "Matritsa", "Robokop", "Yura davri bog'i", "O'tmishga-kelajakka" kabi qator badiiy filmlar fantastik adabiyot namunalari asosida suratga olingan edi.

Sobiq ittifoq davrida uzoq vaqtgacha fantastikaga aynan o'sib kelayotgan yosh avlod uchun yaratiladigan adabiyot sifatida munosabatda bo'lingan. Bolalar fantastik adabiyoti bilan faqat Jyul Vern yoki Gerbert Uells asarlari yordamida emas, balki qator sho'rolar davri bolalar yozuvchilarining asarlari orqali tanishganlar, desak xato bo'lmaydi. Bolaligimizda o'qigan badiiy asarlar ichida fantastik asarlar ko'p bo'lgan: rus yozuvchilari qalamiga mansub A.Belyayevning "Odam-amfibiya" romani (1927), N.Nosovning "Bilmasvoyning sarguzashtlari", Ye.Veltistovning "Elektronikning sarguzashtlari" (1964), Kir Bulichyovning "Alisa Seleznyovaning sarguzashtlari" (1965-1986), L.Laginning "Ibn Xattobich" nomli ertak-romani (1938), V.Gubarevning "Qiyshiq ko'zgular qirolligi" (1951), S.Mixalkovning "Birinchi uchlik yoki 2001-yil" kabi asarlar keltirishimiz mumkin bo'lgan uzun ro'yxatning bir qismini tashkil etadi, xolos.

"...Muhimi, g'aroyib saltanat xayolot dunyosi kengliklarini bema'lol kezishi mumkin. Unda shartlilik, ramziylik, sayohat, xayolotga katta erk beriladi. Uning ajoyibotlari bolalar adabiyoti deb ataladigan mo'jizaviy sohada o'z ifodasini topadi." – deb yozgan

edi adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov o'zining "Bolalar adabiyotida fantastika" maqolasida[1]. Darhaqiqat, bolalikni ertaklarsiz, xayolot dunyosiga qilingan sarguzashtlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bolalar yozuvchilarining asarlari asosida juda ko'p badiiy filmlar yaratilganki, so'zsiz bu filmlar XX asrning 70-90 – yillari bolalarining ma'nalanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bugungi kunda ham jahon bolalar adabiyotida fantastika janrida juda ko'p asarlar yaratilmoqda va nashr etilmoqda.

Sohaga doir adabiyotlarga murojaat qilsak, adabiyotshunoslar va tanqidchilarning fantastika yoki ilmiy fantastika terminlari haqidagi qarashlari turlicha. Shunga qaramay, ularning katta qismi ilmiy fantastikani fandagi birorta yangilik, ixtiro, tabiatning yangi kashf etilgan qonunlari, hatto jamiyatning yangi modellari haqidagi adabiyot deb biladi [2]. Tor ma'noda esa ilmiy fantastika – bu yangi texnologiyalar va ixtirolar, ularning tasavvurga sig'imas imkoniyatlari, ijobiy yoki salbiy ta'siri, yuzaga keluvchi paradokslari haqida hikoya qiluvchi adabiyot. Bunday mazmundagi ilmiy fantastika tasavvurni junbushga keltiradi, insonni orzu qilishga undaydi, kelajak haqida, fan-texnikaning imkoniyatlari haqida mulohaza yuritishga chaqiradi. Umuman olganda esa, ilmiy fantastika bu ertaklarga xos sehr, mistikadan yiroq, amalga oshishi gumon bo'lgan mo'jizaviy hodisalar emas, balki ilmiy jihatdan asosga ega bo'lgan voqealarni tasvirlaydi.

Amerikalik yozuvchi Xyugo Gernsbek, birinчилardan bo'lib "ilmiy fantastika" – "science fiction" terminini qo'llagan va unga shunday ta'rif bergan: "Ilmiy fantastika" deganda men Jyul Vern va Gerbert Uellsning ilmiy faktlarga asoslangan va kelajakni oldindan tasvirlagan romantik hikoyalarni tushunaman"[3]. Dj.Klyutning fantastika ensiklopediyasida esa fantastikaning yo'qolgan dunyolar,

kiberpank, kosmik opera, ilmiy fentezi, yangi oqim, planetar fantastika, slipstrim, stipank, shartli fantastika, turborealizm, alternativ tarix, alternativ geografiya kabi janrlari borligi aytiladi.

Fantastika adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib taxminan 1860-1915 – yillarda dastlab Amerika bolalar adabiyotida o'smirlar uchun fantastik romanlar ko'plab nashr etiladi va ular "dime novels", ya'ni 10 sentlik romanlar deb atalgan. Amerika yozuvchisi Edgar Rays Berrouzing Tarzan haqida hikoya qiluvchi 24 kitobdan iborat asarlari bunga misol bo'la oladi. Qiz bolalar u paytlar fantastika o'qimagan, bunday mazmundagi asarlar ko'pincha o'g'il bolalar uchun yozilgan [4]. Hozirgi kunda ham bolalar kitobxonligiga xorijda juda katta e'tibor qaratiladi, jumladan, Yevropa davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar kitobxonligi yosh xususiyatlariga ko'ra quyidagi 5 turga bo'linadi va noshirlar aynan shu klassifikatsiya asosida badiiy asarlarni nashr qiladilar:

1. *Picture books – 5 yoshgacha bolalarga mo'ljallangan suratli kitobchalar;*

2. *Early Reader Books – 5-7 yoshlarga mo'ljallangan, o'qishga va bilim berishga mos asarlar;*

3. *Chapter Books – 7-9 yoshdagilarga atalgan, tarbiyaviy mazmundagi uncha katta bo'lmagan badiiy matnlar;*

4. *Longer Shapter Books – 9-12 yoshdagi kitobxonlarga atab yozilgan, muayyan syujetga ega bo'lgan badiiy adabiyot.*

5. *Young Adult – 12-18 yoshdagi o'smirlarga atab yozilgan badiiy asarlar. Fantastika adabiyoti odatda oxirgi ikki kategoriyaga, ya'ni 9-18 yoshdagi kitobxonlarga atab yoziladi [5].*

Shu o'rinda bir turk tadqiqotchisi Mexmet Sakinning "Kibermadaniyat bizni hayotdan uzoqlashtiradimi?" nomli maqolasidan parcha keltiramiz. "2007-yilda men Xitoyda partiya tomonidan tashkil etilgan birinchi ilmiy fantastika va fentezi anjumanida qatnashdim. Men u yerda hokimiyatning rasmiy vakillaridan biridan avvallari Xitoyda ilmiy fantastikaga munosabat salbiy bo'lganligini, endi nima o'zgarganini so'radim. Rasmiy vakilning javobi shunday bo'ldi: "xitoyliklar tayyor sxemalar asosida ajoyib narsalarni yaratdilar, lekin hech narsani takomillashtirmadilar va yangi narsalarni yarata olmadilar. Ular ixtirochi emasdilar. Shunda AQSHga yuborilgan delegatsiya vakillari Apple, Microsoft, Google kabi tashkilotlarda bo'lib, kelajakni yaratayotgan insonlardan o'zlari haqida so'radilar va aniqlandiki, ular bolaliklarida ilmiy fantastikani ko'p o'qigan ekanlar" [6]. Nazarimda, xitoyliklar chiqargan xulosa bizga ham tegishli. Badiiy adabiyot farzandarimizga boshqa bir dunyoni ko'rsata oladi, yangi mamlakatlarga olib boradi, tasavvurini boyitadi, ularni orzu qilishga, kelajak haqida xayol surishga o'rgatadi. Xayollarga ergashish, mavjud voqelikdan ko'ngli to'lmaslik esa, so'zsiz, insonning tasavvurini, dunyoqarashini o'stiradi, uni dunyoni o'zgartirishga g'ayratlantiradi. Agar biz kelajagimiz yorqin, buyuk bo'lishini istasak, bugun bolalarimizga eng yaxshi fantastik asarlarni o'qish imkoniyatini yaratishimiz kerak.

O'tgan asrda yaratilgan bolalar adabiyoti haqida so'z ketganda, mutaxassislar, so'zsiz, hozirgi bolalar fantastikasi 30 yil avvalgidan farqli ekanligini ta'kidlaydilar. Badiiy

asarlar dunyoni aks ettiradi. Shu jihatdan, avvalgi asr kishilariga qaraganda "Biz yovuzroqmiz va yanada munofiqlashdik", – deydi zamonaviy adabiyot haqida Rossiyadagi "Azbuka" nashriyotining bosh muharriri Aleksandr Jikarenev [7]. Zamonaviy jahon adabiyoti haqida so'z ketar ekan, komiks va mangalarni ham eslamalikning iloji yo'q. Ular fantastik adabiyotga muqobil bo'lishi mumkin. Manga – yapon komikslari bo'lib, ko'pincha komikku deb ham ataladi. Ularni chizuvchi rassom amgaku deyiladi. "Manga" so'zining ma'nosi, g'alati yoki quvnoq suratlar degani. Mangalar faqat fantastik mavzuda bo'lib qolmay, turli mavzu va yo'nalishlarda yaratiladi. Bugun Yaponiyada mangalarni barcha yoshdagilar o'qiydi, u tasviriy san'at va badiiy adabiyotning bir shakli sifatida qabul qilinadi. Mangalar hattoki, ta'lim sohasida ham bor, turli sohaga oid darslik va o'quv qo'llanmalar ham komikslar shaklida nashr etiladi. Manga kutubxonalar, manga kafelarning ko'pligi, Yaponiyadagi jamiki bosma nashrlarning to'rtidan bir qismi mangalar ekanligi uning qanchalik keng ommalashganini ko'rsatadi. Yaponiyaning sobiq premyer ministri, manga va anime muxlisi Taro Aso shunday deydi: "Mangalarni ko'plab nashr etish orqali biz iqtisodiy krizisdan chiqamiz va Yaponiyaning jahon arenasidagi nufuzining yaxshilanishiga erishamiz" [8]. To'g'ri, O'zbekistonda mangalarni o'qish kitobxonlar orasida hali keng yoyilgan emas, lekin kitobxonlik susaygan bir davrda ko'pgina xorijiy mamlakatlarda manga-kitoblarning ko'plab nashr qilinishini va bunday bosma nashrlar ham ma'naviy o'sishga xizmat qilishini o'ylab ko'rish kerak, nazarimizda.

Fantastikaning bir ichki turi bo'lgan fentezi adabiyoti ham uzoq tarixga ega bo'lib, uning ildizlari yunon-rim mifologiyasiga borib taqaladi. Xususan, Xomerning "Odisseya" epopeyasidaha ham ushbu janrning ilk xususiyatlari namoyon bo'ladi. Qadimgi ingliz epik poemasi "Beovulf", o'rta asr ritsarlik afsonalaridan biri bo'lgan "Qirol Artur haqidagi afsona", Shekspirning "Bo'ron" tragikomediya, Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari", Lyuis Kerrolning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asarlari fentezi janri xususiyatlarining Britaniya adabiyotida ham asrlar davomida shakllanib kelganidan dalolat beradi.

Sobiq sho'ro adabiyotida asosan ilmiy-fantastik asarlar yaratilgan bo'lsa, bugungi kunda esa fentezi adabiyoti ommalashib bormoqda. Fantastik adabiyotning mustaqil janri sifatida fentezi XIX asrda shotlandiyalik yozuvchi Jorj Makdonald ijodi bilan yuzaga keldi. Uning kelt motivlari asosida yozgan "Phantastes: fairy romances" (1858) asarida yosh yigitning ertakdagi mamlakatga borib, u yerda turli sarguzashtlarni boshidan kechirib, uyga qaytishi haqida hikoya qilinadi. Janrning keyingi rivojiga Uilyam Morris o'zining antik va o'rta asr mavzulari yoritilgan epik poema va romanlari bilan o'z hissasini qo'shdi. Morris tomonidan yaratilgan shriftlar to'plami va sahifalarni bezash usuli fentezi asarlari nashrida o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirdi. XX asrda Jorj Makdonald va Morris boshlab bergan an'anani Edvard Dansen "Elf qirollari qizi" romani bilan davom ettirdi.

XX asr Angliya bolalar adabiyotiga ham razm soladigan bo'lsak, unda fentezi janri boshqa janrlardan ko'ra sezilarli darajada ustunlik qilganini ko'rishimiz mumkin. Fentezi (inglizcha "fantasy" – fantaziya) – (xayolot) fantastik

adabiyot janri bo'lib, janr talablariga ko'ra voqealar biz yashaydigan "real" dunyodan butunlay farq qiladigan sehrli dunyoda sodir bo'ladi. Bu "ikkilamchi" dunyoning o'z qonun-qoidalarini mavjud bo'lib, ular oddiy mantiq va tabiat qonunlariga to'g'ri kelmaydi. Uning ilmiy fantastikadan farqi shundaki, fentezi janrida voqealar sodir bo'ladigan dunyoning qonun-qoidalarini ilmiy jihatdan tushuntirishga urinish mavjud emas. Vaqtlar almashinuvi hamda turli xayoliy qirolliklar fentezi dunyosida tez-tez uchrab turadigan hodisa. Bu xayoliy dunyoga qahramonlar turli yo'llar orqali o'tishlari mumkin: uxlab qolib yoki tush ko'rayotib, quyon uyasiqa tushib ketib ("Alisa mo'jizalar mamlakatida"), kiyim shkafi orqali ("Narniya saltanati"- "The Chronicles of Narnia"), loviya poyasiga tirmashib ("Jek va loviya poyasi") yoki tornado quyuniga tushib qolib va hokazo [9].

Shuningdek, g'ayrioddiy dunyo oddiy dunyoning ko'z ilg'amas, yashirin qismi bo'lib, unda sehrli va g'ayritabiiy kuchlar (kelajakni bashorat qilish, hayvonlar va o'liklar bilan suhbatlashish, inson qiyofasidan boshqa mavjudot qiyofasiga o'ta olish va hokazo) mavjudligi bilan ham ajralib turishi mumkin. Janrning xususiyatlaridan yana biri fantastik dunyoda g'alati jonozotlar ham hayot kechirishadi (so'zlovchi buyumlar va hayvonlar, afsonaviy jonozotlar, ritsarlar, sehrgar-u afsungarlar, bo'ri-odamlar, elflar, arvohtarlar, ajdarholar va shunga o'xshash boshqa mavjudotlar). Mutaxassislarning ta'kidlashicha, fentezi adabiyotining uzoq tarixi davomida uning ko'plab ichki janrlari shakllandi, uning bolalar adabiyotiga xos asosiy subjanrlari esa quyidagilardan iborat: *hayvonlar va o'yinchoqlar fentezisi, g'alati va g'ayritabiiy kuchga ega qahramonlar fentezisi, epik, komik va gotik (qo'rquv) fentezi* [10].

Qahramonlik fentezisi asarlariga ko'proq "qilich va sehr" mavzusidagi, muammolarini kuchi va epchilligi bilan hal qiluvchi jismonan baquvvat va tajribali jangchilar tasvirlangan asarlar kiradi. Bunday asarlarda qaroqchi, o'g'ri, yollanma qotil, daydilar ham bosh qahramon bo'lishi mumkin. Bu kabi asarlarga Gerakl va Tarzan haqidagi afsonalar, Robert Govardning Konan haqidagi asarlarini misol keltirishimiz mumkin. Epik fentezi esa katta hajmdagi asarlar sanalib, unda odatda qahramonlarning g'ayrioddiy quvvatga ega bo'lgan yovuz kuchlar bilan uzoq davom etgan kurashi aks ettiriladi. J.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asari epik fentezining mumtoz namunasi. Hozirgi kunga kelib epik fentezi janri yanada taraqqiy etib, tadqiqotchilar uning "postmodernistik fentezi" kabi ichki janri yuzaga kelganini ta'kidlaydilar.

Gotik yoki qo'rquv fentezi adabiyoti, inglizcha "dark fantasy" gotika va fantastika oralig'idagi janr bo'lib, gotikadan uning asosiy farqi voqealar o'rta asrlarni eslatuvchi fantastik olamda yuz beradi. Epik fentezida asarda normal hayot kechirayotgan bir dunyoga yovuz kuchlarning kirib kelishi tasvirlansa, gotik fentezida esa bu kuchlar allaqachon hokimiyat tepasiga kelgani, uning boshqalar tomonidan qabul qilingani tasvirlanadi. Glen Kukning "Qora otryad" turkumidagi asarlari, Anton Granovskiyning jodugarlar, tirilgan o'liklar, o'rta asrlardagi rus tasvirlangan asarlari gotik fentezi namunalarini sanaladi [11].

Fentezi adabiyotining kitobxonlar ichida keng

ommalashishida, albatta, kino san'atining ham xizmati bor. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab jahon kinosida suratga olingan juda ko'p mashhur filmlarga fentezi janridagi asarlar asos qilib olingani hammamizga ma'lum. Bugungi kun o'zbek yoshlari ichida ham fentezi adabiyotini yoqtirmasa ham, shu janrdagi filmlarni sevib tomosha qiluvchilar, Garri Potterning sarguzashtlari, "Uzuklar hukmdori", "Narniya xronikalari", "Xobbitlar" kabi asarlar kinopersonajlarini biluvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bugungi kunda jahon adabiyotida yuzlab ijodkorlar bunday asarlarni yaratmoqdalar.

Bu kabi badiiy asarlar haqida rus va boshqa xalqlar olimlarining tadqiqotlari juda ko'p, lekin o'zbek adabiyotshunos, san'atshunos, madaniyatshunos olimlari tomonidan bu mavzular hali atroflicha tadqiq qilinmagan. Bunday tadqiqotlar bu kabi asarlarning o'zbek yoshlarining shakllanishiga aynan qanday ta'sir qilayotganini aniqlash, ularning ma'naviy dunyosiga ijobiy yoki salbiy ta'siri xususida xulosalar chiqarish imkonini bergan bo'lar edi. Bunday deyshimizga sabab, xorijiy tadqiqotchilar orasida yuqoridagi fentezi adabiyoti namunalarini haqida salbiy fikrlarning ham ko'p uchrashini, masalan, Xensher va Pulman kabi olimlar Klayv Steplz Lyuisning "Narniya xronikalari" asarida xristian diniga oid ma'lumotlarning ustunlik qilishini va hatto asarda ba'zi qahramonlar tasviri, kiyinishida musulmon va sikkalarning ma'juziy tasviri sezilishini, asarda rasizmga xos qarashlar ilgari surilganligi bilan muallifni ayblashadi [12].

O'zbek yoshlari va bolalari orasida Jon Tolkin asarlari asosida suratga olingan filmlar ham juda mashhur. Jon Tolkin – dunyo madaniyatidagi mashhur kishilardan sanaladi, uni fentezi adabiyotining otasi deb ham atashadi. Fentezi adabiyoti ungacha ham bo'lgan, lekin u bu adabiyotni jiddiy adabiyot darajasiga ko'tarishga erishdi. "Xobbitlar", "Uzuklar hukmdori" asarlarini yaratib adabiyotda o'z izini qoldirdi. Professor Tolkin dunyosi jahon adabiyotshunos olimlari tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

Jon Tolkinning ijodini tushunish maqsadida, uning 1938-yilda Muqaddas Endryus universitetida o'qigan "Sehrli ertaklar haqida" ma'ruzasiga murojaat qilamiz [13]. Bu ma'ruza keyinchalik esse shaklida nashr etilgan bo'lib, Tolkinning fikriga ko'ra, sehrli voqealarni hikoya qilish bu fantaziya yordamida insonning ikkilamchi dunyosini yaratishdir. Fentezi janridagi adabiyotda Tolkin 3 jihat mavjudligini sanab o'tadi: ruhiy muvozanatning tiklanishini, mexanik sivilizatsiyadan uzoqlashish va baxtli yakun (taskin topish). Ruhiy muvozanatning tiklanish jarayoni insonga jamiyatdagi ijtimoiy tafakkur stereotiplaridan qutulishga va atrofidagi voqea-hodisalarni qanday bo'lsa shundayligicha ko'rish, anglash imkonini beradi. Ikkinchi jihati esa inson atrof-muhitdan uzoqlashib tabiatga, tabiiylikka, she'riyat, ertakka qaytadi. Uchinchi bosqichda esa ertak, fantaziya yordamida inson qalbi musaffolashib, o'zligiga qaytadi, yanada insoniylashadi, atrofidagi voqea-hodisalarni butun go'zalligi bilan qabul qila boshlaydi.

XX asrning o'rtalariga kelib, jahon adabiyotida fentezi janri xususiyatlarining qamrovi kengaydi. Bunda, ayniqsa, Tolkinning adabiy xizmati beqiyos. Uning yer markazidagi xayoliy dunyoda sodir bo'ladigan voqealar tasvirlangan "Xobbitlar"(1937) va "Uzuklar hukmdori"(1954-1955)

roman-epopeyasi fentezi va ushbu janrda ijod qiluvchi bolalar adabiyoti yozuvchilari uchun kuchli turtki bo'ldi. Ushbu asarlar nafaqat bolalar adabiyotining, balki fentezi janrining ham keyingi rivojlanish yo'lini belgilab berdi. Tolkin asarlari AQShda 1960-yilda, Rossiyada 1990-yillarda juda ommalashdi. 2001-yilda rejissor Piter Jekson asar asosida film yaratgach, asar yanada keng yoyildi. 2014-yilda bu filmning so'nggi qismi suratga olindi. O'zbek tomoshabini ham bu filmlarni sevib tomosha qildi, lekin J.Tolkin asarlari hali afsuski, o'zbek tiliga o'girilgani yo'q.

Bugungi kunda butun dunyoda kitobxonlik darajasi susayishining sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida qizg'in bahslar davom etar ekan, rus adabiyotshunosi, tarixchi, yozuvchi va pedagog M.O.Chudakovaning "He для взрослых. Время читать!" deb nomlangan asari e'tiborimizni tortdi. Bu turkum kitobda aytilishicha, kitob mutolaa qilishning uchta qonuni bor:

1. Hali o'qish erda hisoblangan kitoblar bo'lmaydi.
2. O'qish endi kech bo'lgan kitoblar mavjud.
3. O'smirlilikda o'qish shart deb hisoblangan kitoblar ro'yxatini tuzib olish va bema'ni kitoblarni o'qishdan qochish lozim [14.B.3].

Bu maslahatlar bugungi o'zbek kitobxoniga ham qo'l keladi. Ayniqsa, bolalar va yoshlarni badiiy adabiyot dunyosiga olib kirishda, ularni yoshi, dunyoqarashi, qiziqishlari, psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kitob tanlashga o'rgatishda M.Chudakovaning maslahatlari ayni muddaodir. Sababi, olimaning fikricha, bugun bolalar va o'smirlar tomonidan o'qilishi kerak bo'lgan badiiy asarlar o'z vaqtida o'qilmas ekan, ertaga ular voyaga yetgach, kitob o'qishning hojati ham qolmaydi. Boshqacha aytganda, har bir yoshning o'z psixologik xususiyatlari bor. Muayyan bir yoshda bolalar va o'smirlarda tuyg'ular, hissiyotlarning to'g'ri shakllanishida o'z vaqtida mutolaa qilgan badiiy asarlarning ta'siri katta bo'ladi, albatta.

Yurtimizda kitobxonlik darajasini orttirish uchun kitobxonlarning didi, talablari bilan muntazam qiziqib borish, bolalar va yoshlarning badiiy adabiyotning qaysi janrlarini o'qiyotganlarini kuzatib borish lozim. Bu nafaqat turli nashriyot va yozuvchilarni, balki o'rta, o'rta

maxsus ta'lim, oliy ta'lim sohasi xodimlarini, ota-onalarni ham qiziqtirishi kerak bo'lgan masaladir. Misol uchun 2015-yilda rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan 204 ta o'smir bilan o'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra, o'smirlarning 82% fentezi, 38% detektiv va sarguzasht adabiyotni, 6% esa mumtoz adabiyot asarlarini mutolaa qilishi aniqlangan ekan. Demak, fentezi muxlislari ko'pchilikni tashkil etgan. O'zbekistonda ham shunday tadqiqotlar muntazam ravishda o'tkazilib borilsa, kitobxonlarning talab va istaklari ilmiy jihatdan tadqiq qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa o'rinda quyidagilarni aytishimiz mumkin:

1. Zamonaviy jahon adabiyotining muhim bir qismi sifatida fantastika adabiyotiga, xususan, bolalar va o'smirlar uchun yaratilayotgan asarlarga e'tibor qaratishimiz darkor. Adabiyotning eng yaxshi namunalari o'zbek tiliga tarjima qilib, bolalar va o'smirlarga kitobxonlikni tatbiq qilish lozim. Bugungi kunda bolalar va o'smirlar uchun yaratilayotgan o'zbek filmlari son va sifat jihatdan talabga javob bermaydi. Jahon bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalari asosida spektakllar, badiiy filmlar, seriallar yaratishni davlat miqyosida rejali bir shaklda amalga oshirish lozim.

2. Yosh avlodni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik darajasini yuksaltirish, eng yaxshi badiiy asarlarni targ'ib qilish uchun kitob jurnalistikasi sohasini rivojlantirish zarur. G'arb mamlakatlarida noshirlik uylarining kitoblarini targ'ib qiluvchi o'z jurnalistlari bor, bizda ham shu amaliyotni joriy etish vaqti keldi.

3. O'rta maktablarda, oliy ta'limda ham adabiyotni, xususan, bolalar adabiyotini targ'ib qilishga jiddiy e'tibor qaratish kerak. O'zDSMI ta'limida ayrim yo'nalishlarda bolalar adabiyoti fani o'qitiladi. Bu fanni o'qitishni takomillashtirish, o'zbek bolalar adabiyoti bilan chegaralanmay, jahon bolalar adabiyotidagi zamonaviy tendensiyalar, oxirgi nashrlar haqida atroflicha ma'lumot berish zarur.

4. Jahon bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalari, uning turli janrlari taraqqiyoti haqida krosskultur, ya'ni turli madaniyatlar kesimidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borishni kuchaytirish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov A. Bolalar adabiyotida fantastika. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2008. 6-son.
2. www.wikipedia.org.ru
3. www.wikipedia.org.ru. Amazing Stories, aprel 1926.
4. Розенберг Р. Десятисентовые романы и бум дешёвых книг. 11 март, 2021. www.bookriot.com.
5. Берроуз Эдгар Райс // Большая советская энциклопедия: [В 30 т.]. под ред. А. М. Прохорова – 3-е изд. – Москва: «Советская энциклопедия», 1969.
6. Мехмет Сакин. Kibermadaniyat bizni hayotdan uzoqlashtiradimi? "Aksion", Turkiya.
7. www.prochtenie.org
8. Геворг Мирзаян. Вся сила в манга. Журнал "Эксперт", 2009, 25 май.
9. Громова В.В. Феномен популярности жанра фэнтези в современной массовой литературе для детей. Научная статья. Киберленинка.ру.
10. Олейник В.К. Жанр фэнтези в литературе XX века. Научная статья. Киберленинка.ру.
11. Маклаков И.А. Специфические особенности жанра фэнтези в творчестве Д.Толкина. Научный журнал КубГАУ, №87(03), 2013.
12. www.wikipedia.org
13. Толкин Дж.Р.Р. О волшебных сказках // Утопия и утопическое мышление. – М.: Прогресс, 1991. – С.146-276.
14. Чудакова М.О. Не для взрослых. Время читать! Полка первая. «Время», – М.: 2009. – С.3.

## TALABALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGNING INNAVATSION FAOLIYATI

**Annotatsiya.** Maqolada san'at va madaniyat oliy ta'lim tizimida talabalarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda pedagogik va psixologik xususiyatlari ochib berilgan. Bu jarayonda pedagogning zamonaviy faoliyati tuzilmasi tasniflanadi.

**Kalit so'zlar:** san'at, madaniyat, axborot-texnologiyalar, innovatsion faoliyat.

## ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В статье раскрываются педагогика-психологические особенности развития информационно-коммуникативной компетентности студентов в системе высшего образования искусства и культуры. В этом процессе классифицируется структура современной деятельности педагога.

**Ключевые слова:** искусство, культура, информационные технологии, инновационная деятельность.

## INNOVATIVE ACTIVITY OF THE TEACHER IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF STUDENTS

**Annotation.** The article reveals the pedagogy and psychological features of the development of information and communication competence of students in the system of higher education of art and culture. In this process, the structure of the modern activity of the teacher is classified.

**Key words:** art, culture, information technologies, innovative activity.



San'at va madaniyat oliy ta'lim muassasalari talabalarida axborot-kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi inson psixologiyasida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, sermahsul texnik-ijodiy namunalarni yaratish tizimini tezlashtirishga muhim psixologik asos yaratadi. Bu asos asnosida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bir nechta psixologik xususiyatlar ta'sirini hisobga olishni talab etadi. Axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni talabaning intellektual faoliyati rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji, idrok etishning rivoji, tasavvurlarning rivoji, diqqatning rivojini aks ettiradi. Intellekt – shaxs xususiyati bo'lib, obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari va qonuniyatlari bilan ongimizda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyatdir.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari talabalarning kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishda innovatsion g'oyalarga boy shaxs sifatida shakllanishida muhim vazifani bajaradi. Ijod jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish natijasida, inson ongining faqat o'ziga xos fenomenal jihatlari namoyon bo'ladi. Har bir ijod bosqichi murakkab jarayon bo'lib, u ijodkor insonning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiyotlari va intellekti xususida axborot beradi. Ijodiy faoliyat – yangi sahna asarlari va yangi qahramonlarni yaratish, original san'at asarini dunyoga keltirishdir. Shu bilan birga, asarga o'zgartirish kiritish, mustaqil qarorga kelish, shaxsiy xulosa chiqarish ham ijodiy faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun ijodiy qobiliyat har bir insonga xos xususiyat [2].

Ijodiy faoliyat natijasida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga keladi. Ijod o'z mohiyati jihatidan tarixiy-madaniy hodisa bo'lib, shaxs va jarayon kabi psixologik aspektlarga ega. U shaxsda qobiliyatlar, motivlar, bilim va malakalar borligi tufayli yangiligi, noyobligi bilan ajralib turuvchi mahsulot yaratilishini ta'kidlaydi. Shaxsning bu xususiyatlarini o'rganish natijasida tasavurning, intuitsiyaning, aqliy faollikning anglanmagan komponentlari,

shuningdek, shaxsning o'zini anglashga, o'z yaratuvchilik imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan ehtiyojlari ro'yobga chiqadi. Ijod madaniyatning qaysi sohasida qo'llansa (ishlab chiqarish, texnika, san'at, fan, siyosat, pedagogika va b.), ularning har birida ijod psixologiyasining o'ziga xosligini, shuningdek, ular orasida munosabat xarakterini aniqlashni talab etadi [3].

Ijodiy jarayon vazifa qo'yish, fikrni shakllantirish, fikrni amalga oshirishdan iborat; ijodkor shaxsi qobiliyatlar, aqliy xususiyatlar, temperament, yosh, xarakter va boshqalarga bog'liq; muhit va sharoit atrof-muhitni, jamoani, ijodiy faoliyat stimullari va to'siqlarini namoyon etadi. Ma'lumki, har qanday tizim, jumladan, inson ichki (shaxsiy) ehtiyojlar va tashqi atrof-muhit talablari ta'siri ostida o'zgarib boshlaydi, ya'ni rivojlanadi.

Innovatsion faoliyat va innovatsion texnologiyalarning mazmuniga tayanib, interaktiv ta'lim asosida, pedagog rahbarligida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida, san'at va madaniyat sohasi talabalarining ijodiy salohiyati rivojlanib boradi va ularning intellektual-jismoniy faoliyati yanada yuksaladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli boshqarish uchun har bir pedagog talabalarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganishi, yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini bilishi va ularning ma'naviy ijodiy malakalarini shakllantirish manbalarini yaratishi hamda kasb egalarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqishi zarur.

Innovatsion faoliyat istiqbolli maqsadlarni anglash orqali namoyon bo'ladigan jarayondir. Bu jarayon talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'qitishning zamonaviy usul va uslublanini tatbiq etish va foydalanishni talab qiladi. San'at va madaniyat oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida interfaol usullar va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, xodimlarning zamonaviy pedegogik va axborot texnologiyalari tomonidan uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, pedagogik faoliyatining modernizatsiyalashuviga olib keladi [4].

Talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni

rivojlantirishda yana bir asosiy omil sifatida pedagogik xususiyatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar psixologik xususiyatlarni ham o'zida qamrab oladi. Axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda talabalarning bo'lajak kasbiy faoliyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallashlari, kasbiy faoliyatlarini tashkil etish va boshqarish uchun zamonaviy ta'lim tizimida pedagog faoliyatini modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi.

San'at va madaniyat oliy ta'lim muassasalari talabalarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish o'z navbatida pedagogdan innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirishni talab etadi. Chunki bu soha chegara bilmas ijodkorlik, kuchli iqtidor va qobiliyat egalari hisoblanadi. Ularning bilim olishga bo'lgan talabini qondirish pedagogning o'z ustida yanada mukammal ishlashiga undaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning mentorlik faoliyati alohida ahamiyatga ega. Mentorlik pedagogik faoliyatni masofadan amalga oshirish jarayoni hisoblanib, unda mentor talaba berilgan vazifalarni mustaqil bajara olishini ta'minlaydigan aniq usul, yo'nalishlar, maslahat va tavsiyalarni taqdim etgan holda amalga oshiriladi.

Tyutorlik xorijiy davlatlarda keng qo'llaniladigan pedagogik faoliyat bo'lib, bu faoliyat talabaga shaxsiy ta'lim trayektoriyasini erkin tanlash imkonini beradi. Talaba muammoni individual, ijobiy hal etishda tyutor hamkorlik qiladi, vazifalarni bajarishda erkin tanlovni taqdim etadi va uni qo'llab-quvvatlaydi. Tyutor talabalarga kasbiy faoliyatni amalga oshirish va unda ilmiy, ijodiy natijalarga erishish rejalarini tuzishda ko'maklashadi hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Pedagogning tyutorlik faoliyati deganda talabalarning individual ishiga umumiy rahbarlik qilish tushuniladi. Tyutorlik quyidagi tamoyillar asosiga quriladi: talaba shaxsiga individual yondashish, o'quv jarayonini tashkil etishga yordamlashish.

Tyutorlikning zamonaviy talqini quyidagi jihatlarda o'z ifodasini topadi:

- *ta'limda subektivlik muammosini hal etishning samarali yo'li. Ya'ni, pedagog o'quv muammolarini hal etishda talabaning mustaqilligi va o'z-o'zini rivojlantirishga erishish;*
- *talabaning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishiga hamrohlik qilish (tayyor materiallarni berish emas, talaba bilan birgalikda hamkorlikda harakatlanish);*
- *talaba shaxsini har tomonlama kamol topishi, uning shaxsiy va o'quv faoliyatiga doir muammolarini hal etishga ko'maklashish [1].*


Garchi tyutorlik maslahatchilik faoliyatiga o'xshash bo'lsa-da, undan farqli ravishda sinfxona o'quv jarayonida har bir talabaning bilishga qiziqishi, xohish-istaklari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Tyutorlik tizimi oliy ta'lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta'lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi pedagog bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy

to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarni o'rganib, ularga atroficha echim topish bilan shug'ullanadi. Tyutor ishinin asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta'lim-tarbiya maslahatchisi bo'lishdan iborat. Tyutorga yetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, notiqlik mahorati, muloqatga kirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha malakaga ega bo'lish, ta'lim-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo'yiladi. Tyutorlik faoliyati biror-bir normativ huquqiy hujjat bilan tartibga solinmaydi. Bu narsani har bir oliy ta'lim muassasasi o'zi mustaqil belgilaydi. Tyutorlik faoliyati bo'yicha nizom tasdiqlagan bo'ladi.

Edvayzerlik faoliyati oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim uchun mo'ljallangan pedagogning innovatsion faoliyati turi hisoblanadi. Edvayzer pedagog talabaning o'quv jarayoni, o'quv dasturlarini to'liq, individual o'zlashtirishini ta'minlaydi. Har bir talabaning bilish qobiliyati va dunyoqarashi, xohish-istaklari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda faoliyatni olib boradi. Edvayzer talabaning ilmiy-tadqiqot ishlarini, ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirishida rahbarlik qiladi. Bu faoliyat talabadan berilgan muammoni ilmiylikka tayangan holda hal etishi va uni amaliyotda qo'llay olishini shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogning innovatsion faoliyat turlaridan biri kouch bo'lib, bu faoliyat o'quv-bilish jarayonini guruhlarda tashkillashtirish bilan bog'liqdir. Kouch guruh faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, o'z-o'zini baholash, bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali muammoni ijobiy hal etish usullarini taqdim etadi. Kouchlik faoliyatida guruh a'zolarining har birining rivojlanishi va kasbiy yetuklik darajasiga olib chiqishga erishish talab qilinadi. Bu faoliyatning boshqa pedagogik faoliyatlardan asosiy farqi har qanday vaziyatda qisqa vaqt mobaynida qaror qabul qila olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.



1-rasm. Pedagogning innovatsion faoliyati tuzilmasi.

Tadqiqot natijasida, talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning quyidagi takomillashtirilgan tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Xulosa qilib aytganda, pedagogik tizimda axborotga bo'lgan talab o'quv jarayoni faolligining ko'rsatkichidir, ammo axborot oqimini nazorat qilish va tahlil qilish pedagogik jarayonni boshqarish samaradorligini belgilaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika (Darslik). – Toshkent: “Sano-standart”, 2017. – B.21.
2. Лук А.Н. Психология творчества. – Москва.: 1978. – С.93.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – Ps.52.
4. Панюкова С.В. Использование информационных и коммуникационных технологий в образовании (Учебные пособия для студентов). – Москва: «Академия», 2010. – С.224.



## ВОСПИТАНИЕ И РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА УРОКЕ ФОРТЕПИАНО

**Аннотация.** *Главное место в их педагогической практике занимала работа над музыкальным произведением, требовавшая сосредоточенности, внимания, умения вслушиваться в исполняемую музыку. Большую роль при этом играли навыки анализа (гармонии, формы, фактуры), аппликатуры, педализации. Из этих задач вытекали проблемы развития пианистической техники, рассматриваемой в органической связи с художественно-исполнительскими целями.*

**Ключевые слова:** *школа, фортепиано, развитие техники, музыка, постановка рук.*

## FORTEPIANO DARSIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** *Pedagogik amaliyoti diqqatni jamlash va ijro etilayotgan musiqani tinglash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tahlil qilish ko'nikmalari (uyg'unlik, shakl, tekstura), barmoqlar, pedalizatsiya muhim rol o'ynadi. Ushbu vazifalardan badiiy va ijro maqsadlari bilan uzviy bog'liqlikda pianino texnikasini rivojlantirish muammolari kelib chiqdi.*

**Kalit so'zlar:** *maktab, pianino, texnikani rivojlantirish, musiq, qo'llarni joylashtirish.*

## EDUCATION AND DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE SKILLS IN THE PIANO LESSON

**Annotation.** *The main place in their pedagogical practice was occupied by work on a piece of music, which required concentration, attention, and the ability to listen to the music being performed. An important role was played by the skills of analysis (harmony, form, texture), fingering, pedalization. From these tasks flowed the problems of the development of pianistic technique, considered in organic connection with artistic and performing purposes.*

**Key words:** *school, piano, development of technique, music, hand placement.*

Начальное обучение игре на фортепиано – это часть общего учебно-воспитательного процесса работы с учащимися, имеющая, однако, свои специфические особенности. Работая с начинающими, педагог закладывает фундамент музыкального образования учащихся, учит их понимать музыкальные произведения, проникать в мир музыкальных образов. Все это имеет существенное значение для отношения ребенка к музыке. Заинтересовать, привлечь ребенка к музыке, обогатить и развивать его музыкальные впечатления – вот что составляет основное содержание, так называемого вводного или «донотного» периода обучения.

На начальных уроках ученик учится петь, подбирать по слуху, а потом и транспонировать различные легкие детские песенки; слушает музыку, ее характеризует, постепенно знакомится с названиями клавиш, с клавиатурой и членением ее на октавы, получает сведения о регистрах, о соотношении звуков по высоте. Очень важно, чтобы вся эта информация вводилась постепенно и была связана с музыкальным опытом ребенка. Начиная занятия с 5-6 летними детьми, часто еще физически малоразвитыми, со слабенькими руками, педагог позволяет подбирать им на инструменте песенки почти неорганизованной рукой, считая, что знакомство с фортепиано нецелесообразно задерживать из-за отсут-

ствия у учащихся навыков правильного звукоизвлечения<sup>1</sup>.

Посадка, «организация руки», формирование основных навыков звукоизвлечения, нотная грамота. Постепенно ребенок получает сведения о нотной грамоте (расположение нот на нотном стане, скрипичный, басовый ключи, длительности, альтерация и т.д.), что позволяет вводить в работу разбор и разучивание простейших пьесок по нотам. Следует обратить серьезное внимание на его посадку за инструментом и налаживание элементарных двигательных навыков. Условно это называют «постановкой» или организацией руки и подразумевают под этим такое состояние руки и пальцев, которое предполагает собранность, упругость мышц и позволяет свободно управлять движениями на клавиатуре.

Понятие «организованная» рука исключает как излишнюю напряженность мышц, так и их вялость, пассивность. Особенность и сложность фортепианного обучения заключается в том, чтобы научить ребенка уже на первых уроках слушать и исполнять из отдельных, естественно затухающих звуков, мелодическую линию. Лучше всего приобретение двигательных навыков начинать со штриха *non legato*. Ученику надо объяснить, что качество звука зависит от соответствующих движений. Полный, красивый звук связан со спокойным опусканием руки и кисти, с мягким и глубоким погружением округлого пальца в клавишу, «сухой и жесткий» – с напряженностью руки и пальцев. Сна-

<sup>1</sup>Алексеев А.Д. Методика обучения игре на фортепиано. – Москва: «Музыка», 1978.

чала можно поиграть попевки 3-м пальцем, как наиболее устойчивым и развитым, потом вводить 2-й и 4-й пальцы, затем добавить терцию 1-3-м и квинту 1 и 5-м<sup>2</sup>.

Введение штриха legato потребует объяснения того, что сущность этого приема заключена в плавном переходе из одного звука в другой, и схема исполнения legato будет выглядеть следующим образом: рука мягко опускается на клавиатуру, палец «погружается» в клавишу. Те пальцы, которым предстоит брать следующие звуки, слегка приподняты и согнуты, они поочередно опускаются на «свои» клавиши. Кисть и запястье должны быть устойчиво-гибкими, пальцы переступают по клавишам.

Применяя оба приема звукоизвлечения, хорошо давать такой музыкальный материал, в котором одновременно используются эти штрихи, и мелодическая линия передается из одной руки в другую. В начальном детском репертуаре довольно часто встречается указание staccato, которое на данном этапе обучения надо понимать как игру на non legato. Даже и значительно позже не следует допускать излишне острого staccato, так как резкое и отрывистое движение от клавиши легко приведет к скованности кисти и предплечья у ребенка.<sup>3</sup>

Нотная литература начального периода обучения. Вводя одновременную игру обеими руками, лучше обращаться к пьесам с различными партиями правой и левой руки. Они могут быть изложены в виде мелодии и простейшего сопровождения, могут включать в себя элементы полифонии – имитацию, подголоски. Даже на самом начальном этапе обучения ученику надо обращать внимание на характер играемых пьес, точно исполнять все встречающиеся указания: динамику, аппликатуру, артикуляцию. Задавая совсем легкие детские пьесы или этюды, надо проигрывать их ученику, чтобы познакомить с характером звучания, с настроением, обратить его внимание на наиболее красивые мелодические обороты, созвучия, поиграть отдельно мелодию и сопровождение.

В первые месяцы занятий ученик также знакомится и с элементами простейшей полифонии, очень важными для развития его слуха, основой его будущего полифонического мышления. С того момента, когда ученик начинает играть по нотам, встает вопрос об исполнении наизусть музыкальных произведений. Что в этом случае важно?; – чтобы ученик представлял строение произведения; – точно знал текст каждой фразы по нотам; – представлял характерные моменты пьесы; – знал, как построена мелодия и аккомпанемент<sup>4</sup>. В репертуар ученика начального периода обучения необходимо включать не только медленные, напевные пьесы, но и музыкальный материал другого характера, требующий, соответственно и другого темпа. Но переход к более подвижному темпу педагог обязательно должен

контролировать с тем, чтобы ученик не выходил за пределы доступного ему темпа, так как это может привести к тряске руки, к скованности и неровности звучания.

Несмотря на увеличение и усложнение изучаемых пьес, часть времени на уроке по-прежнему следует уделять подбору по слуху и транспонированию, полезно анализировать исполняемые произведения, чаще играть ансамблевые пьесы. Советы и рекомендации педагога в данном случае должны носить максимально конкретный характер.

Детская фортепианная педагогика 2-й половины XX в. Опыт работы педагогов-пианистов Артоболевской, Баренбойма с детьми дошкольного и младшего школьного возраста. Главнейшая задача «детской» педагогики – это зажечь, «заразить» ребенка желанием овладеть языком музыки и в дальнейшем поддерживать этот огонек интереса, раздувая его в пламя любви. Основная задача педагога на этот период – сделать интересными и любимыми занятия музыкой.

Необходимо при этом учитывать личность каждого ученика, хорошо знать его возрастные особенности. Например то, что у ребенка дошкольного и младшего школьного возраста слабо развита система торможения, отсутствует выбор, неясное восприятие, нет сосредоточенности, умения выбирать главное. Во всем этом призван помочь ему учитель. Приобщая ребенка к музыке, вести урок надо на самом высоком уровне<sup>5</sup>. Темп урока должен быть исключительно высок, и педагог здесь обязан проявить полное владение материалом, проводить урок по заранее намеченному плану. Такие приемы работы на уроке, как чтение с листа, подбор по слуху, транспонирование повышают интерес и увлеченность ребенка, способствуют развитию его музыкальной культуры.

Развитие воли к памяти, умение анализировать играемые произведения, образность мышления, повторение пройденного – вот те пути, приводящие к достижению наилучших результатов. Занимаясь практической педагогикой, нельзя пользоваться только интуицией. Очень важно использовать в работе существующие научные методы, а для этого на протяжении всей педагогической деятельности необходимо следить за всеми открытиями и данными наук, относящихся к пониманию личности и поведения человека<sup>6</sup>.

I. К важным компонентам обучения музыке относятся занятия подбором по слуху, транспонированием и, в доступной для каждого ребенка форме, сочинением музыки. Современная педагогика придает этой работе большое значение, т.к. при умелом ее проведении она способствует формированию живого интереса к музыке, быстрому развитию музыкального слуха и мышления у детей, помогает им тоньше воспринимать и более художественно исполнять музыкальные произведения.

II. Подбор по слуху обычно начинают с несложных попевок и детских песен. В дальнейшем мелодии постепенно усложняются в интонационном отношении и дополняются различными видами сопровождения.

Целесообразно на протяжении всего обучения давать ученику задания на воспроизведение по памяти

<sup>2</sup> Артоболевская А. Первая встреча с музыкой. – М.: Сов. комп., 1985.

<sup>3</sup> Madrimov B.X. O'zbek musiqi tarixi. – Т.: 2016. – В.121.

<sup>4</sup> Radjabov I.R. Maqomlar. – Т.: "San'at", 2006. – В.25.

<sup>5</sup> Либерман Е.Я. Работа над фортепианной техникой. – М.: «Музыка», 1971.

<sup>6</sup> Любомудрова Н.А. Методика обучения игре на фортепиано. – М.: «Музыка», 1982.

отрывков различных произведений и приучать его при этом распознавать на слух гармонические последования и полифонические элементы музыкальной ткани.

III. Транспонирование на начальном этапе обучения является продолжением подбора по слуху знакомых мелодий от разных звуков. В дальнейшем следует транспонировать легкие пьесы, отрывки из разучиваемых произведений, кадансовые обороты. В процессе занятий транспонированием необходимо следить за тем, чтобы оно протекало в условиях максимальной активизации слуха учащегося<sup>7</sup>.

IV. Постепенно, по мере музыкального развития ученика, педагог стремится заинтересовать его такими заданиями, как завершение неоконченных мелодий, придумывание к мелодиям сопровождений различных видов, а затем сочинение собственных песен или небольших пьес. Разностороннее развитие творческих данных учащихся целесообразно вести на протяжении всего периода обучения, но при этом исходить из их интересов и возможностей. Вся эта работа должна проводиться в тесном контакте с педагогами теоретического отделения в целях успешного осуществления комплексного воспитания учащихся<sup>8</sup>.

В современных условиях, при большой загруженности детей, особенно важно использовать наиболее эффективные методы занятий, выработанные опытом педагогов-практиков и рекомендуемые современной наукой – педагогикой и психологией. Активизация слуха, обращение к музыкальному восприятию ученика, к его интеллекту, – это основные методы воздействия при обучении игре на любом инструменте, в том числе игре на фортепиано. Приемы обучения: словесные пояснения педагога и исполнительский показ. Наиболее благоприятная ситуация возникает в тех случаях, когда педагог, используя традиционные методы воспитания, сочетает их с рекомендациями теории развивающего обучения. Применительно к работе в классе фортепиано, это означает продумывание педагогом путей для максимальной активизации самостоятельности учащихся в решении тех или иных технических и художественных задач, которые перед ним возникают, т.е. это поощрение его творческой инициативы. Педагог должен разумно сочетать в своей практической деятельности различные методы и приемы обучения в зависимости от индивидуальности ученика, т.е. от его способности, характера, уровня развития и т.д.

<sup>7</sup> Мартинсен К.А. Методика индивидуального преподавания игры на фортепиано. – М.: «Москва», 1977.

<sup>8</sup> Метнер Н. Повседневная работа пианиста и композитора. Сост. М.Гурвич, Л.Лукомский. – М.: 1979.

## МАСТЕРА СТАРОЙ ШКОЛЫ

**Аннотация.** В данной статье даются сведения о пленэрной практике, проведенной в середине двадцатого века в тысяча девятьсот пятьдесят шестом году со студентами художественного факультета уроке проведенной народным художником СССР член-корреспондентом Академии Художеств СССР профессором Рахимом Ахмедовым.

**Ключевые слова:** пленэр, натура, колорит.

## КЎХНА МАКТАБ ВАКИЛЛАРИ

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada SSSR Badiiy akademiyasi muxbir a'zosi, SSSR xalq rassomi, professor Rahim Ahmedovning 1969-yil boshlarida san'at instituti talabalari bilan ochiq havoda o'tkazgan mahorat darsi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** master-klass, tabiat, rang.

## MASTERS OF THE OLD SCHOOL

**Annotation.** This article provides information about the master class lesson by the correspondent of the USSR Academy of Arts, Professor Rakhim Akhmedov, a national artist of the USSR, in early th1969th, during an open-air practice with students of the art institute.

**Key words:** master class, nature, colour.

Реалистическая живопись на территории Узбекистана появилась в XVIII-XIX веках и начала развиваться. В этот период художники работали в соответствии с духом творчества европейских художественных традиций, использовали европейские методики. Более чем в половине произведений, созданных в те годы, мы почти не видим пейзажи или изображения архитектурных памятников. Образы, которые были основаны на некоторых событиях, были связаны с природой в этих картинах, и мы можем сказать, что развитие принципов живописи на пленэре было связано с тем же периодом.

Были в то время и представители пленэра. Среди них были С.П.Юдин, Р.К.Зоммер, Л.Л.Буре. В работах С.П.Юдина можно увидеть горные и деревенские пейзажи, а также панораму природы, описанную в драматических обстоятельствах Второй мировой войны. В творчестве Р.К.Зоммера и Л.Л.Бурелара можно увидеть памятники, улицы того периода, чайные домики и другие подобные работы, выполненные на пленэре. Возможно, мы сможем узнать из этих картин о людях того времени, о теплой солнечной природе Узбекистана.

Профессиональная подготовка и уровень учителя определяет будущее нации, и это считается ответственным моментом профессии преподавателя. Для этого преподавателями необходимо быть очень внимательными и высоко профессиональным при подборе материалов для студентов, магистрантов и учащихся. Это должно быть для слушателей понятным, доступным. В залах Государственного Музея Искусств Узбекистана представлены работы многих мастеров мирового искусства и мастеров национального искусства. Среди этих работ есть картина, принадлежащая Рахиму Ахмедову. Она называется «Материнское раздумье», выполненная в 1956 году. В творчестве Р.К.Зоммера и Л.Л.Бурелара можно увидеть памятники, улицы того периода, чайные домики и другие подобные работы, выполненные на пленэре. Возможно, мы сможем узнать

из этих картин о людях того времени, о теплой солнечной природе Узбекистана.

П.П. Беньков был замечательным художником и одним из тех художников, которые с высоким духом представляли в своих работах нашу солнечную страну. Он создал свою собственную школу в Узбекистане, которая была непохожа на другие.

В 1930 году Павел Петрович Беньков переехал в Самарканд, который в то время был столицей Узбекистана. Описывая архитектурные памятники, улицы, сады, людей этой земли, он внес большой вклад в наше изобразительное искусство. П.П.Беньков был так же занят и интересовался просветительской деятельностью. Он был основателем реалистической живописи Узбекистана и нынешнего республиканского колледжа искусств в нашей стране. Он сделал все возможное, чтобы воспитать новых художников и живописцев. Он делился с ними своим опытом и учил их с заботой и любовью.

С трудом работая над картиной «пленэр», он создал ряд произведений. Создание его произведений, их цветовая палитра, композиция являются одним из лучших образцов традиционной методологии изобразительного искусства. Работа под названием «Сбор винограда» (Подруги) была сделана на пленэре, там была представлена группа сборщиков винограда, и солнечные лучи, которые проходили через виноградные листья и освещали виноград, были изображены с высоким мастерством. Приближаясь к этой картине, можно ощутить ощущение настоящего виноградника.

П.П. Беньков был учителем будущих живописцев З. Ковалевской, Л.Абдуллаева, А.Абдуллаева. Следующее поколение художников осуществило такое же художественное наследие Бенькова. Они изучали эти методики в начальной изобразительной школе.

Один из творческих художников О.Тансиқбоев также работал на «пленэре». Работая, он изображал на своих картинах пейзажи, горы, реки нашей страны. А также

он выбрал правильные цвета в ярком стиле. Он оставил много «пленэрных» картин, которые были уникальны по-своему и непохожи на другие работы. Картина под названием «Моя песня» может быть лучшим образцом в жанре пейзажа и может быть названа символом этого жанра.

Н.Кузубоев, М.Саидов, Р.Ахмедов работали в тот же период, что и О.Тансыкбаев сделал. Их работы также были связаны с пленэрной живописью. Значительную роль в изобразительном искусстве сыграла портретная работа академика Рахима Ахмедова «Материнское раздумье». Он изобразил образ женщины, сидящей снаружи в тени дерева. Работа была выполнена очень аккуратно, цвета подобраны профессионально. Как он однажды сказал, он создал эту работу, обучая своих студентов во время практического процесса. Результатом этого урока стал один из шедевров изобразительного искусства Узбекистана. Здесь ниже мы хотели бы сказать несколько слов о практических моментах процесса обучения студентов.

После обретения независимости, в результате экономического и социального развития в нашей стране компьютерное искусство развивалось быстрыми темпами и даже непрофессиональные арт-дизайнеры были вовлечены и заинтересованы в области дизайнерских работ. Это привело к тому, что все пошло не так, мы могли видеть некоторые ошибки в окраске рекламных объектов, выбирая неправильные цвета в оформлении внутренних и внешних частей домов. Современный колористический рост и развитие требуют от нас высококвалифицированных и квалифицированных специалистов. По этой причине, студенты должны быть обучены способности видеть, чувствовать и выбирать цвета в правильном направлении. Вопрос развития способности видеть и замечать цвет картины является важнейшей задачей учебного процесса. В системе образования очень важно воспитание самостоятельно творческих, целеустремленных, молодых талантливых художников. Повышение своей способности работать с цветами невозможно осуществить без обучения. Студента нужно научить наблюдать за окружающей средой, чувствовать эстетику объекта, замечать чувство цвета окружающего мира.

Методологические-теоретические вопросы, связанные с жанром пейзажа и развитием колористических навыков студентов не решены в полной мере. Мы не можем сказать, что в этой области было решено достаточно много конкретных вопросов. Поэтому многие преподаватели в основном сосредоточились на обучении студентов замечать оттенки объекта. В результате природные краски природы остались незамеченными и не изучены в полной мере. Эта проблема отражена в работах студентов. Потому что способности студентов воспринимать цвет и искусства выбора цветов недостаточно. Это можно увидеть в практике пейзажной живописи на пленэре. Ошибки можно заметить в свете, солнечных лучах и цветах, приданных предметам, в цветах, используемых для изображения процесса изменения природы. Из этого можно сделать вывод, что учебно-тренировочный процесс, проходящий на пленэре, имеет достаточно проблем для решения. В учеб-

ном процессе все еще остаются некоторые методические проблемы, требующие решения для развития цветовых способностей студентов. Этот процесс требует развития и повышения способности студентов профессионально выбирать, замечать, чувствовать акцент или цвета. Пленэрная практика является неотъемлемой частью учебного процесса и важным аспектом в подготовке художника-педагога. Наслаждаясь природой и ее представлениями, рисованием, живописью на природе, студенты будут развивать свои навыки и закреплять знания, полученные в условиях мастер-классов.

В течение периода наблюдения, студенты развивают свои навыки наблюдения. Они анализируют строение конкретных элементов природы, их структуру, узнают об их цвете, уточняют знания о воздухе, солнечных лучах, дневном освещении в окружающей среде. Кроме того, они узнают о материалах, инструментах для использования. Таким образом будет развиваться мировоззрение студента и навыки работы в ландшафте рисующего.

В современной системе образования практикуются различные инновационные открытия, разрабатываются методы самообразования, проводятся новые мастер-классы. Цель всех этих занятий-эффективно донести основную суть занятий по специальности Изобразительное искусство, доступные методы обучения до студентов и слушателей. Творчество является многогранным воспитательным аспектом: оно включает в себя и конструктивный рисунок, живопись в цветовой гармонии, композицию с смысловым построением и другие узоры предмета.

Художник-педагог, преподающий специальность искусства, должен обладать этими знаниями и такими качествами, гармонизирующими все эти три вида, указанные выше дисциплины, результатом которых является произведение искусства. Во время учебы практика работы на открытом воздухе даст именно такие навыки и опыт для будущих учителей. Это было осенью, во время Второй мировой войны. Мы делали этюды мавзолея Шах-и-Зинда под открытым небом. В моих эскизах этого памятника преобладает тяжелая «Волковская» окраска. Я чувствовал, что в них нет света, они мрачны по звуку.

Однажды, когда мы делали наброски, неожиданно подъехал Фаэтон, из которого вышел рыжеволосый мужчина с веснушками на лице в роскошном белом костюме. Это был Павел Беньков. Он посмотрел на мою работу и спросил, кто мой учитель. Я ответил: «У Волковой». Он молча взял кисть, выдал на палитру половину белой побелки, взмахнул кистью, и на моем холсте появилось солнце. Коричневая тень превратилась в легкую, воздушную. После его прикосновения я понял, что такое световоздушный пленэр, что значит «Беньковская» природа, которую он знал и интерпретировал импрессионистически. Он открыл для меня возможности письма открытым, свободным мазком, с помощью которого создается эффект изменчивого движения цвета и света» [1.С.23-26].

Окончив техникум имени П.П.Бенькова, Р.Ахмедова поступил на учебу в Ленинградский институт живописи скульптуры и архитектуры имени Репина при Ака-

демии Художеств. Там он учился в портретной мастерской при содействии профессора И.Серебряного, после возвращения в Ташкент начал заниматься искусством и одновременно преподавал в институте. Во время летней пленэрной практики студенты отправились в Бурчмуллу. Студенты писали этюды, рисовали пейзаж, собирали материалы для будущих дипломных работ, по программе у них должны были быть образы природы под открытым небом. Учитель поставил инсценировку для студентов, объяснил студентам, как это делается, и начал писать вместе с ними. Он хорошо знал изображенную особу, ее историю, жизнь ее семьи, как он жил в суровые послевоенные годы.

Все вышеперечисленные моменты жизни изображенных злоумышленников нашли свое отражение в заявлении, написанном учителем: сидящая под орешником женщина о чем-то задумалась, ее сильные трудящиеся руки вышли на первый план, это говорит о том, что она работала всю свою жизнь, старый сильный орешник на заднем плане символизировал эту женщину стойкими и трудолюбивыми чертами, в лице ее мы видим задумчивость и печаль. Как будто вся ее жизнь проходит перед глазами, и напоминает о счастливых моментах прошедшего времени. Пейзаж подчеркивает эмоциональное настроение картины, яркое солнце, освещающее стены дома, зеленая клумба придает оптимистический тон этой работе, как символ длительности, несмотря на продолжающуюся жизнь.


Произведение выполнена на высоком художественном уровне, лицо и руки раскрашены мастерски, живописный колорит, гармония цвета и света, композиционное настроение постановки превратилось в картину, мастер-класс показал студентам, что отличает простую постановку от картины, выполненной мастером. Уже осталось немного студентов, которые были свидетелями этого урока, и они уже профессора в возрасте около семидесяти и более лет. В наше время учителя часто показывают своим ученикам мастер-класс уроков, разного уровня, разных задач этого урока, когда я смотрю эти мастер-классы, я вспоминаю урок, который провел мастер-класс Рахима Ахмедова в 1956 году в горах Бурчмуллы.

Картина написанная на пленэре висит в залах Государственного Художественного музея Узбекистана. Именно это произведение стало символом Скорбящей матери-женщины, олицетворением сил и мужества узбекской женщины, вдохновляет молодое поколение художников, напоминает о мастер-классе метра. Приведенный выше пример является небольшим штрихом из педагогической деятельности мастера, народного художника СССР, члена Академии художеств СССР Рахима Ахмедовича Ахмедова, который на протяжении многих лет обучал несколько поколений живописцев, составляющих основу современного художественного развития Узбекистана.



#### **Использованная литература:**

1. Jurabayeva L. The master. The teacher. The painter. АРТ. ИСКУССТВО. – 3/2001. Page.23-26.
2. Abdurasilov S.F., Tolipov N., Oripova N. Painting. – Т. “Uzbekistan”, 2006.



# V BO' LIM

## KUTUBXONASHUNOSLIK

Mirsoat IS'HOQOV,  
O'zDSMI "Kutubxonashunoslik" kafedrasi o'qituvchisi

### YANGI O'ZBEKISTON AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARINING DOLZARB VAZIFALARI

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi kundagi axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanayotganligi va kutubxona-axborot muassasalarining dolzarb vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot-kutubxona, axborot xizmati, internet-resurslar, innovatsion faoliyat, baza.

### АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В статье рассматривается создание качественно новой системы оказания информационно-библиотечных услуг, сохранение и обогащение национального культурного наследия, хранящегося в библиотеках, широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий, совершенствование организации информационно-библиотечных учреждений, а также актуальные задачи библиотечно-информационных учреждений.

**Ключевые слова:** информационно-коммуникационные технологии, информационная-библиотека, информационная служба, интернет-ресурсы, инновационная деятельность, база.

### ACTUAL TASKS OF INFORMATION AND LIBRARY INSTITUTIONS OF NEW UZBEKISTAN

**Abstract.** The article discusses the creation of a qualitatively new system for the provision of information and library services, the preservation and enrichment of the national cultural heritage stored in libraries, the widespread introduction of information and communication technologies, and the improvement of the organization of information and library institutions, as well as current tasks of library and information institutions.

**Key words:** information and communication technologies, information-library, information service, Internet resources, innovation activity, base.



Mamlakatimizda fuqarolarning axborotdan erkin foydalanishi bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, ularning milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlashda axborot-kutubxona muassasalarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda axborot-kutubxona muassasalari axborot olish, madaniy-ma'rifiy va ma'lumot-axborot xizmati muassasasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. "So'nggi yillarda milliy ma'naviyatimizda o'chmas iz qoldirgan ulug'

allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tatqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda"<sup>1</sup>.

"Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik, bu bilimsizlikdir! Shu sababli, hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzulksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"<sup>2</sup>.

Ta'kidlash joizki, axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda axborot siyosati madaniy siyosatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shu bois, o'tgan qisqa davrda mamlakatimizda bu sohaning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. Qonun va qarorlar axborot-kutubxona faoliyatini tartibga solish, sohani rivojlantirish borasidagi ishlarga huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent.: "O'zbekiston", 2021. – B.35.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2021. – B.24.

Shu bilan birga, vaqt o'tgan sayin shiddatkor zamon talabi mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarini saqlashga qaratilgan mutlaqo yangi, zamonaviy ko'rinishdagi axborot-kutubxonalar tizimini yaratish bugungi kun talablaridandir. O'z navbatida, zamonning ushbu chaqirig'iga monand O'zbekistonning barcha kutubxonalar axborot muassasalarida axborot xizmati ko'rsatishni kengaytirish va yaxshilashga ko'maklashadigan ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda yangi dasturiy mahsulotlarni joriy etishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda axborot-kutubxonalar muassasalari faoliyatida ularning ilmiy va axborot salohiyatini oshirish, shuningdek, axborot-kutubxonalar sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) elektron axborot-kutubxonalar muassasalari tarmog'i bilan hamkorlikda ishlash alohida e'tiborni talab qilmoqda. Qolaversa, mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jahon hamjamiyatiga kirish, O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborining ortishi axborot-kutubxonalar muassasalari zimmasiga mamlakatda bo'layotgan islohotlarga ko'maklashish, aholiga tezkor axborot taqdim etish bo'yicha qator majburiyatlarni yuklamoqda.

2019-yilning 7-iyunida qabul qilingan PQ-4354-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi ushbu sohada boshlangan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Qarorga muvofiq, axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasida bir qator asosiy vazifalar belgilandi. Jumladan, hujjatga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxonalar faoliyatini isloh qilish, aholiga axborot-kutubxonalar xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxonalar muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirilishi belgilandi. Shuningdek, kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish (shu jumladan, pullik xizmat ko'rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish ko'zda tutilgan<sup>3</sup>.

E'tiborlisi, o'z axborot-resurslarini yaratish va ularni sifatli to'ldirib borish orqali kutubxonalar an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxonalar xizmatlari bilan ta'minlashga o'tilmoqda. Aholiga axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxonalar muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida, axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalardan biri masofadan axborot-kutubxonalar xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish va modernizatsiya qilishdir. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan

masalalarni samarali amalga oshirilishi mamlakat axborot-kutubxonalar muassasalarining yanada rivojlanishi, axborot, madaniy-ma'rifiy, yangi ma'naviy makon doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi yagona axborot-kutubxonalar makonini yaratishga imkon beradi.

Prezident Qaroriga asosan hozirgi zamon kutubxonalari innovatsiya yo'lini tanlasagina rivojlanish va taraqqiyotga erishadi. Kutubxonalar ishida INNOVATSIYA – bu yangi faoliyat turlari namunalarini joriy etish, kasbiy faoliyatda yangi sifat ko'rsatkichlariga erishishdir. Innovatsion faoliyat – yangi samarali texnologiyalarni ishga joriy qilish, yangi olingan axborot resurslarini yo'naltirish, kutubxonalar ishining hamma jabhalarida, jumladan, kutubxonaning ommaviy ishlarida ham namoyon bo'ladi. Innovatsion faoliyat – bu axborot-kutubxonalar (resurs) markazi, va boshqa kutubxonaning yetakchi yo'nalishi bo'lib, u o'z maqsadiga ega: kutubxonachilik yangiliklarini baholash, ish faoliyatiga yo'llashdir. Kutubxonachilik ishining innovatsiyalari: axborot texnologiyalariga, kutubxonalar ishini boshqaruvga va axborot-resurslariga oid innovatsiyalar, degan turlarga bo'linadi. Texnologik yangiliklar kutubxonachilik texnologik jarayonlarni modernizatsiyalashga, yangi axborot-kutubxonachilik texnologiyalarini joriy yetishga qaratilgan. Yangi innovatsiyalar axborot-kutubxonalarining ommaviy ishlarini tashkil qilishda qo'l keladi. Buning uchun Kutubxonalar texnika vositalarini yangilash, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlar sotib olish, elektron o'quv zalini zamon talabiga monand jihozlash talab etiladi.

Chet el investirlari bilan hamkorlikda kutubxonalar fondini to'liq raqamlashtirish, xalqaro standartlar darajasida saqlash, eskirgan va to'zgan kitoblarni yangi texnologiyalar bilan ta'mirlash, qayta tiklash, buning uchun kerakli yangi texnika vositalari skanerlar va pereplyot uskunalarini sotib olish uchun mablag' ajratish kerak. Kutubxonalar texnika vositalarini yangilash, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlar sotib olish, elektron o'quv zalini jihozlash darkor. Elektron katalog bazasiga an'anaviy alifboli va tizimli kutubxonalar kartochoklarini kiritish dasturini va shu maqsadda ishlatiladigan texnika vositalarini sotib olish, mutaxassis shtat birliklarini ajratish yo'li bilan IMIDJ katlogini yaratish.

Axborot-kutubxonalar markazlarida kutubxonashunoslik va bibliografiya sohasidagi ishlarni tahlil qilish, ilmiy tadqiqotlarni yaratish va amaliyotga joriy qilish maqsadida, "Ilmiy tadqiqot" bo'limini tashkil qilish. Axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxonalar muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida, axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalardan biri – virtual ma'lumot axborot xizmati ko'rsatishni rivojlantirishdir. Kutubxonalar virtual axborot olamiga kirib kelishi munosabati bilan kitob ko'rgazmalari ham elektron (virtual) shaklda keng tarqala boshladi. Elektron kutubxonalar axborotlarni targ'ib qilishda "Virtual kitob ko'rgazmalari" an'anaviy (kitob ko'rgazmasi) va elektron ko'rgazmalarining sintezi – axborotlarni taqdim qilishning yangi usuli sifatida paydo bo'ldi.

An'anaviy kitob ko'rgazmalari o'rniga buktreylerni amalga oshirish qo'l keladi. "Buktreyler" – kitob adabiy

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. Qaror 2019-yil 7-iyunda qabul qilingan.



asarni video formatidagi taqdimotini videofilm shaklida yaratish, tushunchasidir. Buktreyler 1-2 daqiqalik kitoblar haqidagi video sharhdir. U animatsiyalar va maxsus effektlardan foydalanib tayyorlangan video taqdimot formatida bo'lishi mumkin. Uni kutubxonaning saytiga joylashtirish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, "Virtual kitob ko'rgazmalari"ning bir nechta turlari amal qilmoqda: "Rasmi animatsiyalar", kitob, va boshqa resurslar, press-rezislar, turli mualliflik ishlari, mualliflar va rassomlar haqidagi to'liq axborotlar, adabiyotlar ro'yxati, internet saytlari bo'ylab animatsiyali sayohat qilish imkonini beradi.

Virtual ko'rgazma – kutubxonadan olisda onlayn (masofadan) foydalanuvchi kitobxonlar uchun hamda aholining hamma qatlamlari foydalanishi mumkin bo'lgan elektron resurslar maxsus ajratilib, tizimga solingan nashr mahsulotlarini virtual internet tarmog'i vositalari

orqali ommaga namoish qilish imkonini beradi. Virtual ko'rgazmaning maqsadi, internet orqali turli hujjatlarni haftaning 7 kunida 24 soat davomida virtual ekspozitsiya namoyishini ko'rsatish mumkin. Axborotlarning katta oqimida bu ko'rgazmalar mazmunli va dolzarb bo'lib, kichik hajmda, mobil ko'rinishda kitobxon ommani ma'lum bir maqsadga yo'naltiradi.

Virtual ko'rgazmani tashkil etish orqali kutubxonalar bir qancha vazifalarni bajaradi:

- kutubxonaning ko'rgazma ishiga raqamli texnologiyalarni joriy etib, yangi ish shaklini o'zlashtiradi;
- ko'rgazmani an'anaviy kitob ko'rgazmasiga qaraganda uzoqroq muddat davomida saqlaydi;
- elektron shakldagi manbalarni taqdim etish orqali kitob fondini butun saqlashga hissa qo'shadi;
- foydalanuvchiga kutubxonaning axborot resurslaridan uzoqdan turib foydalanish imkoniyatini yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning strategiyasi. – Toshkent.: "O'zbekiston", 2021. – B.464.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori. Qaror 2017-yil 13-sentabrda qabul qilingan.
3. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. Qaror 2019-yil 7-iyunda qabul qilingan.
4. Karimova H. "Axborot-kutubxona sohasidagi islohotlar". "Ma'rifat" gazetasi, 2021-yil, 11 avgust. №32 (9357).
5. Is'hoqov M.M. Virtual ma'lumot – axborot xizmati ko'rsatish: Uslubiy tavsiyanoma. – T.: 2021/2022.
6. Is'hoqov M.M. Buktreyler – kitoblarni harakatlantirishning zamonaviy usuli: Uslubiy tavsiyanoma. – T.: 2021. – B.26.
7. Berdieva Z.Sh. Kutubxonashunoslik (O'quv qo'llanma). – T.: "Ilm-ziyo", 2020.
8. Berdieva Z. Adabiy viktorinalar (savol-javob o'yinlari): Tayyorlash va o'tkazish metodikasi. – T.: 1989. – B.16.
9. Berdieva Z. Adabiy o'qishlarni tayyorlash va o'tkazish metodikasi: Metodik tavsiyalar. – T.: 1989. – B.14.
10. Berdieva Z. Badiiy adabiyotlarni targ'ib qilishning ommaviy usullari: Metodik tavsiyalar. – T.: 1985. – B.25.

### Интернет ресурслари

- |  |  |
|--|--|
| <a href="http://www.talaba-qmii.nm.ru/Kutubxona/index_ek.htm">www.talaba-qmii.nm.ru/Kutubxona/index_ek.htm</a> | <a href="http://www.ngo.org.ru/ngoss">www.ngo.org.ru/ngoss</a>                 |
| <a href="http://www.lib.ru">www.lib.ru</a>   | <a href="http://www.sbras.ru/EMS">www.sbras.ru/EMS</a>                         |
| <a href="http://www.lib.km.ru">www.lib.km.ru</a>   | <a href="http://www.iis.ru/el-bib/index.html">www.iis.ru/el-bib/index.html</a> |
| <a href="http://www.rvb-edu.ru">www.rvb-edu.ru</a>   | <a href="http://www.mcsa.ac.ru">www.mcsa.ac.ru</a>                             |
| <a href="http://www.lib.ru">www.lib.ru</a>   | <a href="http://www.books.myweb.ru">www.books.myweb.ru</a>                     |
| <a href="http://www.lib.km.ru">www.lib.km.ru</a>   | <a href="http://www.nlr.ru">www.nlr.ru</a>                                     |
| <a href="http://www.rvb-edu.uz">www.rvb-edu.uz</a>   | <a href="http://www.lib.students.ru">www.lib.students.ru</a>                   |
| <a href="http://www.book.org.ua">www.book.org.ua</a>   | <a href="http://www.krotov.org">www.krotov.org</a>                             |
| <a href="http://www.oba.wallst.ru">www.oba.wallst.ru</a>   | <a href="http://www.bomanuar.ru">www.bomanuar.ru</a>                           |
| <a href="http://www.imwerden.de">www.imwerden.de</a>   | <a href="http://www.gpntb.ru">www.gpntb.ru</a>                                 |
| <a href="http://www.lib.coolparty.ru">www.lib.coolparty.ru</a>   | <a href="http://www.docs.gets.ru">www.docs.gets.ru</a>                         |
| <a href="http://www.reading-room.narod.ru">www.reading-room.narod.ru</a>                                       | <a href="http://www.jewish.ru/library.asp">www.jewish.ru/library.asp</a>       |
| <a href="http://www.saslib.ru">www.saslib.ru</a>   |  |
| <a href="http://www.ekniga.com.ua">www.ekniga.com.ua</a>   |  |
| <a href="http://www.e-kniga.ru">www.e-kniga.ru</a>   |  |
| <a href="http://www.sol.ru/Books">www.sol.ru/Books</a>   |  |
| <a href="http://www.bestbooks.ru">www.bestbooks.ru</a>   |  |
| <a href="http://www.feb-web.ru">www.feb-web.ru</a>   |  |
| <a href="http://www.lib.rin.ru">www.lib.rin.ru</a>   |  |
| <a href="http://www.mitridat.bos.ru">www.mitridat.bos.ru</a>   |  |
| <a href="http://www.artefact.cns.ru/library">www.artefact.cns.ru/library</a>                                   |  |
| <a href="http://www.lib.bigmir.net">www.lib.bigmir.net</a>   |  |
| <a href="http://www.heblit.al.ru">www.heblit.al.ru</a>   |  |
| <a href="http://www.biglib.com.ua">www.biglib.com.ua</a>   |  |
| <a href="http://www.lib.nexter.ru">www.lib.nexter.ru</a>   |  |

## AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI INNOVATSION METODLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot madaniyatining jamiyatimizda tutgan o'rni, axborot savodxonligini oshirish usullari hamda uning komponentlari haqida so'z boradi. Shuningdek, mualliflar ushbu sohani rivojlantirish orqali matnli axborot bilan ishlashning ayrim usullari haqida to'xtalib, ilmiy savodxonlikning milliy taraqqiyotda tutgan o'rnini atroflicha yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** axborot madaniyati, savodxonlik, plagiat, metodlar.

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** В данной статье показана о роли информационной культуры в нашем обществе, способах повышения информационной грамотности и ее составляющих. Авторы также акцентировали некоторые методы работы с текстовой информацией через развитие этой области и подробно объяснил ее роль в национальном развитии.

**Ключевые слова:** информационная культура, грамотность, плагиат, методы.

## INNOVATIVE METHODS IN FORMING INFORMATION CULTURE

**Abstract.** This article illustrates about the role of information culture in our society, ways to increase information literacy and its components. The authors mentioned some methods of working with textual information and explained in detail the role of scientific literacy in national development.

**Key words:** information culture, literacy, plagiarism, methods.



Bugungi kunda dunyodagi tub o'zgarishlar barcha sohalarga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi fuqarolarning yangi kasb-hunarlarini egallashga bo'lgan ehtiyoj kuchliligi o'z-o'zidan axborot resurslariga bo'lgan talabni oshirdi. Global axborot jamiyati qurish davrida insonlarga o'z salohiyatini oshirish uchun har kimga o'zi uchun zarur bo'lgan axborotni topa olish va undan samarali foydalanishni oshirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda kutubxonalar bilim olishning asosiy dargohlaridan biri bo'lib, bu yerda har bir foydalanuvchi ma'naviy madaniyat mahsulotlari va jarayonlari bilan faol muloqotga kirishadi, tafakkur durdonalarini o'rganadi. Ushbu o'rganish samarali bo'lishi uchun mavjud manbalardan qanday foydalanish yo'llarini o'zlashtirib olish doimiy va muntazam ko'nikmaga aylantirish har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot madaniyati – bu insonning zamonaviy yuqori texnologiyali axborot jamiyatida hayot va faoliyatga tayyorligi, ushbu jamiyat imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uning salbiy ta'siridan o'zini himoya qilish qobiliyatidir. Axborot madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

1. Axborot jarayonlarining qonuniyatlarini tushunish.
2. Kiruvchi ma'lumotlarning obyektivligi, ishonch-liligi, to'liqligi, dolzarblig, foydaliligini baholash qobiliyati.
3. Axborotni turli shakllarda taqdim etish qobiliyati.
4. Tegishli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda axborotni qayta ishlash qobiliyati.

5. Qaror qabul qilish uchun olingan ma'lumotlarni qo'llash qobiliyati

6. Axborotdan foydalanishda axloqiy me'yorlar va qoidalarga rioya qilish.

"Axborot madaniyati" tushunchasining mazmuni turlicha talqin qilinadi. Kemerovo davlat madaniyat va san'at universitetidagi hamkasblarimizning fikriga ko'ra, ushbu kontsepsiyani tushunish va talqin qilishda birlikning yo'qligi terminologik aniqlikni kiritishni va axborot madaniyati bilan bog'liq muammolarning butun majmuasini aks ettiruvchi ta'rifni ishlab chiqishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan ular ushbu kontsepsiyaning quyidagi talqinini taklif qiladilar: "Insonning axborot madaniyati – bu shaxsning umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri: axborot dunyoqarashi majmui va uning maqsadli mustaqil faoliyatini ta'minlaydigan bilim va ko'nikmalar tizimi. An'anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda individual axborotga bo'lgan ehtiyojni maqbul darajada qondirish – muvaffaqiyatli professional va noprofessional faoliyatning eng muhim omili, shuningdek, axborot jamiyatida shaxsning ijtimoiy xavfsizligi".

Ko'pchilik foydalanuvchilar o'zlari o'rganayotgan manbalarning ko'pligi va ularni izlash tizimlarining haddan tashqari murakkab ekanligini ko'rib, sarosimaga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun kutubxonachilarning asosiy vazifalaridan biri kutubxona axborot xizmati jarayonini iloji boricha soddalashtirish va tushunarli tarzda tashkil etishga e'tibor berishdir.



darajada samarali bo'lishiga imkon yaratadi. Axborot madaniyatini shakllantirishdagi professor-o'qituvchilar bilan hamkorlik ilmiy tadqiqotda plagiat (adabiy o'g'rilikka) qarshi kurash nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Talabalarga intellektual mulk yaratuvchilarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining fikriga tayanilgan holatlarda manbalarni aniq ko'rsatish, iqtibos (havola) keltirish qoidalari, manbalardan foydalanish etikasi haqida tushunchalar berish professor-o'qituvchilar vazifasiga kiradi. Chunki, haqiqiy axborot madaniyati izlayotgan ma'lumotni topishdangina iborat emas, balki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, uni o'rganish, tahlil qilish, mantiqiy tarkibiy qismlarga ajratish, qayta birlashtirish, qismning butundagi o'rnini aniqlash, olingan bilimdan foydalana bilishdir.

Ta'lim muassasalarining har birida mavjud o'quv dasturlariga kutubxona manbalari, onlayn katalog ko'rsatgichlaridan foydalanish kerakli davriy nashrlarni aniqlash va baholash haqidagi darslarning kiritilishi, o'quvchilar va talabalarining manbalardan foydalanishga oid malakalarining oshishi orqali axborot madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Axborot madaniyatini shakllantirishga oid faoliyatni

ta'lim muassasasi o'quv dasturiga uyg'unlashtirish quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi mumkin:

- axborotga bo'lgan ma'naviy ehtiyojni tarbiyalash;
- axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasini rivojlantirish;
- kerakli manbalardan ma'lumotlarni topa bilish;
- axborotni tanqidiy o'rganish, tahlil qilish va baholash ko'nikmasi;
- axborotdan samarali va ijodiy qaror qabul qilishda foydalana bilish;
- axborotni saralash, tahlil qilish, xulosa chiqarish orqali bilimga aylantirish malakasini rivojlantirish;
- axborot va axborot texnologiyalarining ijtimoiy-siyosiy, qonunchilikka oid va axloqiy jihatlarini tushunish va hurmat qilish;
- uzluksiz ta'lim olish malakasini yanada rivojlantirib borish.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmog'ining kengayib borishi natijasida, hajmi misli ko'rilmagan darajada ortib borayotgan axborotlar qurshovida qolgan har bir inson uchun, eng ishonchli to'g'ri ma'lumotlarni saralangan holda o'rganishning ahamiyati tobora yuksalib bormoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldashev I.J., Nosirov O'. Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: 2020. – B.390.
2. O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 7-iyun // 2019-yil 8-iyun.
3. Н.И.Гендина., Н.И.Колкова., И.Л.Скипор, Г.А.Стародубова. Формирование информационной культуры личности в библиотеках и образовательных учреждениях. Учебно-методическое пособие – Москва: 2002. – С.29.
4. Davlatov S. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishda kutubxonachining yetakchilik roli. 2022. №1. – B.30-35.



# V I B O ' L I M

## YOSH TADQIQOTCHI

Gulnoza SHAVKATOVA,  
O'zDSMI doktranti

### SHARL PERRO ASARLARI – YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI TALQINIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalar ma'naviy tarbiyasi shakllanishida ulkan hissa qo'shib kelayotgan Respublika yosh tomoshabinlar teatriida Sharl Perro asarlarining talqinlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** teatr, pyesa, dramaturgiya, tarbiya, ertak, san'at, bolalar, komillik, ma'naviyat.

### ПРОИЗВЕДЕНИЯ ШАРЛЯ ПЕРРО – В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕАТРА ЮНОГО ЗРИТЕЛЯ

**Аннотация.** В данной статье говорится об интерпретациях произведений Шарля Перро в Республиканском театре юного зрителя, который вносит большой вклад в формирование духовного воспитания детей.

**Ключевые слова:** театр, пьеса, драма, воспитание, образование, искусство, дети, совершенство, духовность.

### THE WORKS OF CHARLES PERROT – IN THE INTERPRETATION OF YOUTH THEATER

**Annotation.** This article talks about interpretations of Charles Perrault's works in the Republican Theater of Young Spectators, which has been making a great contribution to the formation of children's spiritual education.

**Key words:** theater, play, drama, upbringing, education, art, children, perfection, spirituality.



Kundan-kun rivojlanib kelayotgan texnika-texnologiya davrida raqobatbardosh asarlarni sahnaga olib chiqish, tomoshabinlar diqqat e'tiborini bir muddat jalb eta olish bugungi dolzab masalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tomoshabin yosh qatlamni tashkil etsa. Mustaqil O'zbekistonimizda bolajonlarga o'zgacha e'tibor, mehr va muruvvat ko'rsatilmogda. Ularning kelajak poydevori mustahkam bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmogda. Erkin bilim olishlari uchun yangi zamonaviy maktablar, kuchli va navqiron bo'lishlari uchun sport zallari, iste'dodlarini yuzaga chiqarish uchun esa san'at maktablari faoliyat yuritmogda. Yurtimiz bolalari bu e'tiborga, albatta, munosib. O'zbekistonda barcha teatrlar bolalarning yetuk, aql-idrokli bo'lib ulg'ayishi uchun faoliyat yuritmogda. Bugungi kunda yosh tomoshabinlar teatrlarida bolalarni yaxshilikka undovchi, qalblariga ezgulik fazilatlarini singdiruvchi, Vatanga muhabbat hissini uyg'otuvchi yaxshi spektakllar taqdim etib kelinmogda. "Aslida bolalar dramaturgiyasi eng qiyin janr sanaladi. Sababi kattalar uchun spektakl sahnalashtirilganda qahramonning ichki kechinmalarini tilda va harakatda yetkazib berish mushkul emas va bu katta yoshdagi tomoshabinlar uchun tabiiy holat. Ya'ni ular harakat bilan ham yetkazilayotgan voqealarni tushunib yeta oladi. Bolalarga esa voqealarni bola tilida, ularning dunyoqarashidan kelib chiqib ko'rsatish o'rinlidir. Ayniqsa, bugungi kunning bolajonlari o'ta zukko va kuchli aql-idrokka ega. Ularni shunchaki oddiy tilda yozilgan asarlar bilan qiziqtirib bo'lmaydi".



Darhaqiqat, jamiyatimizning yosh avlodini hayron qoldirish anchayin mushkul bo'lib qoldi. Lekin yoshlarimiz ma'naviyatiga zid g'oyalardan ularni himoya qilish maqsadida, g'oyaga qarshi g'oya bilan jadal kurash olib bormog'imiz lozim. Bu o'rinda teatr san'ati bizga o'zining har tomonlama yetuk g'oyalarni tatbiq eta olishi bilan yordam beradi. Yurtimiz teatrlari orasida yosh tomoshabinlar teatri yoshlarimiz ongida ilk davrdanoq ma'naviy tarbiya shakllanib kelishida muhim omil vazifasini o'tamogda. Bu yo'lda teatr jamoasi nafaqat o'zbek asarlari bilan, balki jahon dramaturgik asarlari bilan ham yosh tomoshabinlarni hursand etmogda.

"Teatr – bu ulug' dargoh! Bolalar teatri esa inchnun. Uning ulug'ligi shundaki, unda mehnat qilgan o'zbek teatrlarining ne-ne alloma nomoyandalari butun umrlarini

<sup>1</sup> Aytmurodov P. "Bolalar va qo'g'irchoq teatrlarida milliy dramaturgiyaning ulushi". "Teatr" jurnali.

mana shu “teatr” deb atalmish nozik san’at orqali bola qalbga ezgulik jo qilishday ulug’ ishga sarflaganlar. Men har doim bolaga dunyoni tanitish uchun o’zlarini sarf qilgan murabbiy-san’atkorlarni mehnati oldida bosh egaman”<sup>2</sup>, – rejissor Olimjon Salimov teatr fidokorlari haqida shunday ta’rif beradi.

2018-yil Respublika yosh tomoshabinlar teatri Xalqaro bolalar va yoshlar uchun teatrlar uyushmasi (ASSITEJ) a’zosiga aylandi. Bu xususida teatr direktori Zulfiya Hamroeva shunday deydi: “Biz O’zbekistonda teatr san’atini rivojlantirish bo’yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar va ijodiy rejalarimiz haqida so’zlab berdik. Barcha ishtirokchilar bizning taqdimotni katta qiziqish bilan kuzatib borishdi. Muhokamalardan ko’zlangan asosiy maqsad, bolalar teatri jahon harakatiga integratsiyalashishdir”<sup>3</sup>.

XXI asr o’z mohiyat e’tiboriga ko’ra insoniyat taraqqiyotida bir necha sohalarda madaniy o’zgarishlar davri sifatida tarixda iz qoldirmoqda. Shulardan biri O’zbekistonning jahon mamlakatlari bilan teatr sohasidagi madaniy hamkorligi bo’lib, keyingi davrdagi madaniy aloqalar tizimida, ayniqsa, bolalar teatrlarining o’ziga xos o’rni bor. Ayniqsa, so’nggi o’n yillik respublikamizdagi yosh tomoshabinlar teatrida milliy dramalarimiz bilan bir qatorda, xorijiy asarlarning ham sahnaviy talqinida muayyan ijobiy burilishga yuz tutganligi borasida alohida ahamiyatlidir, deb aytish mumkin.

Ma’lumki, bolalar teatri san’ati sohasidagi madaniy aloqalar zamirida hech istisnosiz, eng avvalo, adabiy aloqalar yotadi. Shu jihatdan xorijiy mamlakatlar bilan mazkur sohadagi aloqalarda bevosita shu mamlakat adiblari asarlarining o’zbek bolalar teatrlarida sahnalashtirilishi yoki o’zbek adiblari asarlarining xorij sahnalarida qo’yilishi ehtimoldan holi emas. Bunda hamkorlik doirasining umuminsoniy jihatlarini alohida unutmaslik zarur. Xususan, yosh tomoshabinlar teatrida milliy va xorijiy asarlarning sahnaviy talqini haqida so’z borar ekan, eng avvalo, milliy dramaturgiyaning milliy ong va tafakkur rivojidagi ahamiyati, shuningdek, xorijiy dramaturgiyaning bolalarimiz dunyoqarashining shakllanishida muhim ma’rifiy omil ekanligini talqin etmoq o’rinlidir.

Hechikkilanmay aytish mumkinki, o’zbek bolalar teatrida xorijiy asarlarning sahna talqinlari yosh tomoshabinlarni muayyan xalqning urf-odatlarini, dunyoqarashi va e’tiqodi, shuningdek, xorijdagi tengdoshlar qiziqishlari bilan bilvosita oshno qilishi tabiiydir. Boshqacharoq aytganda, yosh avlod ongida milliy va umuminsoniy tafakkur uyg’unlashuviga, komil insonning shakllanishuviga muhim ma’naviy zamin yaratadi.

Daniyalik ekspert Louis Valente teatrga tashrifi davomida: “Birinchi navbatda men Daniyaga qaytib borganimda, hamkasblarimga O’zbekistonning kuy-qo’shiqlari va madaniyati haqida gapirib bermoqchiman. Sahna asarini ko’rdim, tilni yuz foiz to’g’ri anglamagan bo’lsam ham spektakl madaniyatingiz uchun haqiqiy oyna vazifasini o’tashini angladim”<sup>4</sup>, – degan fikrlarni bildiradi.

Spektakl ta’sir kuchining yuqori bo’lishi, albatta, dramaturgiyaga bog’liq. Bu o’rinda bizga ertaklar o’zining soddaligi, mazmunan qiziqarliligi, tinglovchi dunyoqarashini shakllantira olishi jihatidan yordam

beradi. Butun dunyo bolalari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan, nafaqat bolalar, balki yoshi katta tomoshabinlarning yuragidan chuqur joy olgan ko’pgina ertaklarning muallifi Sharl Perro hisoblanadi.

Buyuk fransuz shoiri, tanqidchi Sharl Perro 1628-1703 – yillar yashab ijod qilgan. U butun dunyoga badiiy ertak asoschisi sifatida ma’lumdir. Uning bizgacha 12 ta ertagi yetib kelgan. “Qizil qalpoqcha”, “Etik kiygan mushuk”, “Zolushka” eng mashhur asarlari hisoblanadi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, uning ertaklari bir-biridan shaklshamoiil jihatdan tubdan farq qiladi. Yozuvchining qaysi ertagiga nazar tashlamang, barchasida bolalar zavq oladigan o’ziga xos qirralar borligini darrov payqaysiz.



I.S.Turgenev uning asarlari haqida shunday deydi: “Biroz nozik qadimfarang latofatidan qat’i nazar, Perro ertaklari jahon bolalar adabiyotida o’zining sharafli o’rniga ega. Ular quvnoq, maroqli, samimiy, ortiqcha pand-nasihat va muallif talablari bilan murakkablashtirilmagan. Ularda yaratuvchi xalq nazmining mayin sabolari sezilib turadi; ularda haqiqiy ertak to’qimasining farqli belgisini tashkil qilgan anglab bo’lmas darajada g’aroyiblik va soddalikning qorishmasi mavjud”<sup>5</sup>. Dunyoda uning “Etik kiygan mushuk” ertagini o’qimagan hamda ertak asosida yaratilgan multfilmni miriqib tomosha qilmagan bolajon bo’lmasa kerak. Ertakda aqllilik, bilimdonlik, topag’onlik kabi fazilatlar ulug’lanadi. Sharl Perro bu ertakda ham folklor an’analariga sodiq qoladi. Ertak qahramoni tegirmonchining kenja o’g’li Karabas va uning mushugi fahm-farosat, aql bilan ish ko’rib, o’z murod-maqсадiga yetadi. Yozuvchining barcha personajlari yorqin, pishiq-puxta tasvirlangani bilan ajralib turadi. Ularning hayvonlarga bo’lgan mehri, tabiatga ko’rsatayotgan e’tibori oliyanob bolalar fazilatlarini shakllanishida muhim o’rin tutadi albatta.

“Etik kiygan mushuk” spektaklini tomosha qilar ekansiz, har bir sahna ko’rinishi bolalar uchun qiziqarli sahnalashtirilganini guvohi bo’lasiz. Sahnalashtiruvchi rejissor Shuhrat Ibragimov tomonidan to’g’ri tanlangan aktyorlar jamoasi, tomoshabin bilan o’rnatilgan jonli muloqot bolalar uchun qiziqarli bo’libgina qolmay, ular diqqatini yanada tortishga yordam bergan. Parda ko’tarilishi bilan diqqatingiz chiroyli bezatilgan dekoratsiyaga qaratiladi. Spektaklda ertakdan farqli jihatlari ko’p. Siz bu spektaklda turli ertaklarda olingan sahna ko’rinishlari uyg’unlashuviga duch kelasiz. Rejissor berilgan shartsharoitdan unumli foydalangan holda mushuk va uning egasining sarguzashtlarini mahorat bilan tasvirlab bergan. Sehrigar saroyini izlab ketishda multfilmda asosan tegirmonchilar, dehqonlar bilan suhbatlar keltirilgan

<sup>2</sup> Salimov O. Yosh tomoshabinlar teatri katalogi.

<sup>3</sup> “Respublika yosh tomoshabinlar teatri xalqaro uyushmaga a’zo bo’ldi”. “Xalq so’zi” gazetasi, 2018-yil, 1-mart.

<sup>4</sup> “Hudud” informatsion dasturi, reportaj.

<sup>5</sup> Turdiyeva K. “Mashhur ertakchi”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2014-yil, 1-son.

bo'lsa, spektaklda siz yalmog'iz kampir ko'inishiga ega o'rmon parisi, elf ertakchi bilan to'qnashasiz. Voqealar multfilmdan ko'ra ko'proq hamda qiziqarliroq tasvirlangan. O'rmon parisi bir og'iz shirin so'z uchun asar qahramonlariga yordam berishi, bolalarga so'z qanchalik qudratli ekanini anglatadi. Elf ertakchining sodda va beg'uborligi tomoshabin kulgisini oshiradi. Mushuk obrazini gavdalanitirgan aktyorning so'z boyligi, uddaburonligi bolajonlar uchun yanada zavq bag'ishlagan. Spektakl davomida bolalar bilan o'rnatilgan muloqot, ularni yanada asar ichiga tortib, ezgulik qahramonlariga nisbatan qalblaridagi yordam hissini sezish mumkin. Ayniqsa, mushuk bilan sehrigar uchrashadigan sahnasida bolalardagi xavotir, ularning mushuk uchun qayg'urib sehgarni topishga urinishlari quvonarli hodisa albatta. Bundan bilish mumkinki, yosh tomoshabinlarimiz asardagi salbiy va ijobiy qahramonlarni ajrata olmoqda. "Etik kiygan mushuk" ertagida kichik o'g'il bosh qahramon sifatida gavdalanitirilgan bo'lsa, spektaklda asosiy qahramon mushuk bo'ladi. Shu o'rinda sahna dekoratsiyasiga to'xtalib o'tishni lozim topdim. Chunki parda ochilganda dekoratsiya bolalar ongida spektakl haqida dastlabki taassurot uyg'otadi. Aynan bu asarda dekoratsiya, o'zining rang-barangligi, ulkan obyektlari bilan bolalarni hayron qoldira oldi chamamda. Spektaklda bolalarning sevimli aktyorlari rol o'ynashgan. Jumladan, etik kiygan mushuk – Asqar Xikmatov, Markiz – Xudoyorxon Ahmadxonov, Qirol – Sherzod Bozorov, Malika – Zaynur Nig'matova, O'rmon parisi – Zebiniso Qodirova, Elf ertakchi – Barot Hasanov, Sehrigar – Iskandar Elmurodovlar o'z rollarini maromiga yetkazib ijro etishgan.



"Zolushka" ertagida esa voqealar biroz boshqacha, uni o'gay onasi va opalari hush ko'rmaydi, ammo butun jonzotlar uni yaxshi ko'radi. Zolushka go'zal, odobli, shirin so'z, barchaga mehribon bo'lib, uning bunday fazilati, mehnatkashligi ertak yakunida baxtli hayotga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida beg'ubor bolajonlarimiz uchun saboq vazifasini o'taydi. "Zolushka" spektaklida esa teatr jamoasi ta'sirchan vositalarga ko'proq e'tibor qaratgan. Sahnada rang-barang chiroqlar, nurli effektlar har bir sahna ko'rinishini yanada boyitishga, yosh tomoshabinlarni bevosita sehrli olamga sayohat qilishga yordam beradi. Qahramonlar tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar ertakni haqiqiy myuziklga aylantirgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aktyorlar jamoasi tomonidan har bir sahna uchun qo'yilgan raqslar ertakni yanada qiziqarli bo'lishiga yordam bergan.

Sahna pardasi ochilishi bilan Zolushka paydo bo'ladi. Atrof gullar bilan bezatilgan. Zolushka ular bilan muloqot qilganda gullar jonlanishi, bolalarni hayron qoldiladi. Asosan bu ertakning multfilm, film ko'rinishlarida

otasi vafot etgan bo'ladi. Spektaklda esa otasi kamtarin inson sifatida gavdalanitirilgan. Zolushkaning balga juda ham borishni istashi hamda otasining unga yong'oq olib kelishi filmdagi lavhalar bilan o'xshash tasvirlangan. Filmlarda shahzoda asosiy qahramon sifatida xarakteri ochib berilishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, bu spektaklda shahzodani to'g'ridan-to'g'ri bal sahnasida ko'rasiz. Spektakl boshidan saroy ayyonlari va qirol asosiy sahnalarga olib chiqilgan. Sevgisini izlash uchun o'zi bormay, ayyonlariga buyruq berganidan bilish mumkinki, shahzoda roli erkato'y va biroz tantiq holda gavdalanitirilgan. Filmlarda esa shahzoda hamma ishni o'zi mustaqil hal qila oladigan mard inson sifatida olib chiqilgan. Bu ertakni tajribali rejissor, xoreograf Malika Iskandarova sahnalashtiradi, obrazlarni: Zolushka – Asal Axralhadjaeva, Otasi – Abduvohid Sarikov, Salohiddin Mo'minov, O'gay ona – Nargiza Rustamova, Anna – Shahnoza Sultonova, Mariyanna – Dilnavoz Ahmedova, Feya – Shohida Usmonova, O'quvchi sehrigar – Barot Hasanov, Asqar Xikmatov, Qirol – Ulug'bek Rustamov, Shahzoda – Bahodir Ahmedov, Xudoyorxon Ahmadxonov, Padetrua – Baxtiyor Turg'unov, Shavkat Isroilov, Saroy a'yonlari – Zebiniso Qodirova, Nafosat Pozilova, Nargiza Raimova, Musulmonqul Yunusovlar gavdalanitiradilar.

"Qizil qalpoqcha" spektakli ham yosh rejissorimiz Shuhrat Ibragimov tomonidan sahnalashtirilgan bo'lib, bolajonlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Ertakdagi kabi spektaklda ham bolalarni hayron qoldirish bilan birgalikda, to'g'ri so'z bo'lish kabi yaxshi fazilatlar oqlangan. Rejissorning boshqa spektakllari kabi bunda ham dekoratsiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Multfilm va ertakdan farqli o'laroq spektaklda bo'ri ijobiy qahramon sifatida olib chiqilgan. Bu asarda ham boshqa ertaklar bilan integratsiyalashuvni ko'rish mumkin. Spektaklda qizil qalpoqcha qahramoni soddaligi, oqko'ngilligi, mehribonligi bilan yosh tomoshabinlarni jalb eta oldi. Ayniqsa liboslar yorqinligi, alohida e'tiborga loyiq. Aktyorlar ijrosining tabiiyligi, yoshi ulug' tajribali aktrisalarining qatnashishi spektakl saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu spektaklda asosiy rollarni Qizil qalpoqcha – Surayyo Erkinova, Bo'ri – Shavkat Isroilov, Onasi – Shohida Usmonova, Nargiza Rustamova, Buvisi – Yodgora Ziyomammedova, Ayiq – Hakim Halilov, Sherzod Bozorov, Ovchi – Bahodir Ahmedov, Barot Hasanovlar ijro etishdi.

Teatrga muhabbat uyg'otishni bolalardan boshlash katta ahamiyatga ega. Ular sahnada voqealar tufayli fikrlashga, xulosalar chiqarishga o'rganadi. Teatr bola uchun yaxshi sirdosh, maslahatchiga aylanadi. Chinakam bolalar dramaturgiyasini rivojlantirmay turib, bolalar teatrlarining istiqboli haqida orzu qilish mumkin emas.

Jahon dramaturgiyasining eng sara asarlari bolalarimiz uchun zamonaviy texnikalar orqali sahnalashtirilayotgani biz uchun quvonarli hol albatta. Bugungi kunda yoshlarni teatrga jalb qilish uchun satirik va sarguzashtli, romantik va axloqiy janrlardagi maktab, kollej, institut o'quvchi va talabalarining hayotidan olingan asarlarni ko'plab sahnalashtirish lozim. Zotan, buyuk bobomiz, jadid allomalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy teatrning yoshlar tarbiyasidagi roli haqida to'xtalar ekan, "...taraqqiy qilgan millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof va munaqqidi derlar..."<sup>6</sup> – deya e'tirof etganida batamom haq edi. Teatr san'atining jamiyat oldidagi ahamiyati borasida aytilgan ushbu fikrlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

<sup>6</sup> Behbudiy M. "Teyotr nadur?" "Oina" jurnali, 1914-yil, 29-son.

## ZAMONAVIY O‘ZBEK BADIY FILMLARIDA AKTYORLIK IZLANISHLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek kinosida namoyish etilayotgan ijtimoiy mavzudagi “Vatan” (rej. Zulfiqor Musoqov), “Sotqin” (rej. Rustam Sa’diyev) hamda “Ota uy” (rej. Aleksandr Gamirov) filmlarning tahlili asosida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kinodramaturgiya, rejissor, aktyor, operator, rassom, talqin, ssenariy, epizod, kartina, film, syujet.

## ДЕЙСТВУЮЩИЕ ВОПРОСЫ В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФИЛЬМАХ

**Аннотация.** В данной статье “Родина” на социальную тему, которая показана в узбекском кинематографе (реж. Зулфикар Мусаков), “Предатель” (реж.Рустам Саъдиев), а также “Отчий дом” (реж. Александра Гамова) мыслятся на основе анализа чарты фильмов.

**Ключевые слова:** кинематография, режиссер, актер, оператор, художник, интерпретация, сценарий, эпизод, картина, фильм, сюжет.

## CURRENT ISSUES IN MODERN UZBEK FILMS

**Abstract.** In this article “Homeland” on a social theme, which is shown in Uzbek cinema (dir. Zulfigar Musagav), “Traitor” (dir.Rustam Sa’diyev), as well as the “Father's House” (dir. Alexander Gamirov) are conceived based on the analysis of the film charts.

**Keywords:** cinematography, director, actor, cameraman, artist, interpretation, script, episode, picture, film, plot.



Bir asrlik tarixga ega o‘zbek kino san’ati bugungi kunga kelib o‘z ko‘rinishi, mavzular ko‘lami jihatidan rang-barang va jozibador ifoda kasb etdi. Kinodramaturgiyaga talab ortdi. Iste’dodli kinoijodkorlar – kinodramaturg, rejissor, operator va boshqa ko‘plab soha mutaxassislari safi kengaydi. Yaratilayotgan yangi ijod mahsullari mazmun va saviya jihatidan rivoj topdi. Aktyorlar ijod maydoni yanada kengaydi. Ijtimoiy mavzularni targ‘ib etgan “Vatan” (ssenariy muallifi va rejissor: Z.Musoqov. 2006-yil), “Sotqin” (ssenariy muallifi: Rixsivoy Muhammadjonov, rejissor: R.Sa’diyev. 2015-yil), “Ota uy” (ssenariy muallifi: Jasur Isxakov, rejissor: Aleksandr Gamirov. 2017-yil) kabi filmlar shular jumlasidan.

Zulfiqor Musoqov aktyorlar ansamblini tanlashda, ijobiy yutuqlarga erishgan. Ayniqsa, Obid Yunusov, Muzaffar Sa’dullayev, Ra’no Shodiyeva, Bobur Yo‘ldoshev va boshqa aktyorlar o‘zlariga topshirilgan rolni mahorat bilan ijro etgan. Filmda ilk bora ishtirok etgan Mannon Ubaydullayev bosh qahramon Qurbon otani debyutantligini sezdirmay talqin etgan.

Filmda Qurbon sevib, sevilib, umrining yosh, zabardast pallasini yorug‘ orzular bilan o‘tkazib, shodlikdan balqib yurgan bir pallada urush boshlanib, taqdir uni butkul boshqa ko‘chalarga adashtirib yuboradi. Asrlikka tushadi, fashistlar konslagerlarida xo‘rlilik va xorliklarni ko‘radi. “Turkiston legioni” deb nomlangan harakatlarga yolg‘ondan qo‘shilib, o‘z asl maqsadi, o‘zimiznikilar tomonga qochib o‘tib, yana kurashlarni davom ettirish uchun chora izlaydi. Chora topgandek bo‘ladi.

Biroq endi o‘z yurtidagi mavjud totalitar tuzum millionlab qurbonlar qatori film qahramonini ham sovuq saholarning qa‘riga itqitib, zo‘ravonlik saltanatini mustahkamlash uchun qurbonlikka mahkum etadi (balki shu nuqtai nazardan ham qahramonning ismi Qurbon deb belgilangan bo‘lishi mumkin). Yaxshi insonlarning ko‘magi bilan ummon ortiga qochib o‘tib, shu yerda panoh topadi, bola-chaqa qilib, ro‘zg‘or tiklaydi. Ammo uni muttasil bezovta qilayotgan intiqom hissi bor ediki, soch-

soqoliga batamom qirov tushgan esa-da, shu istak bilan ona yurtiga otlanadi.

U o‘sha qatag‘on davrlari uzoq o‘lkalarda abadiy azobga mahkum mahbus bo‘lib kun kechirar ekan, ayollar lagerida qamoq jazosini o‘tayotgan xotini Gunafshani tasodifan uchratib qoladi. Hayotiga nur kirgandek ko‘ngli yorishgan Qurbon ne umidlar bilan entikib, ayolini izlab boradi. Biroq u kechikkan edi. Bir kungina avval azoblarga dosh berolmay yoki, balki erining tirik ekanini ko‘rib, armoni ushanganidan taskin topib, Gunafsha dunyodan ko‘z yumgan edi. Xotining sovuq jasadi ustida ko‘zyosh to‘kar ekan, Qurbon ich-ichidan hayqirib kelgan alamu faryodlarni, bor iztirobini o‘zbekona bir samimiyat bilan uch-turt og‘iz so‘zda ifoda etadi: “Meni bir oz kutib turmabsan-da, Gunafsha. Yuzingdagi sepkillingni juda sog‘ingan edim”. Filmdagi ana shu lavha tomoshabinni mutaasir qiladi. Film qahramonlari taqdiriga befarq qoldirmaydi. Va Qurbonni aynan ana shu alam-u armonlar bir umr tark etmay, oradan ellik yil vaqt o‘tib, uni, oilasini shu azoblarga solgan dushmanidan o‘ch olishga da‘vat etganini tushunadi hamda qaror qabul qiladi. Qurbon otada armon bor. Ishongan do‘sti Hamidning xiyonati oqibatida juda ko‘plab ayanchli voqealarning kelib chiqishi, oxir oqibatda uzoqlarda Vatan sog‘inchidan mahrum bo‘lib yashashi uning armoniga aylanadi.

Filmda tomoshabin ko‘ziga yosh oladi. Qurbon ota ilk bora yillar o‘tib, O‘zbekistonga kelishi bilan samolyotdan tushib, tiz cho‘kib, ona yer tuprog‘ini ko‘ziga yosh olib peshonasini yerga tekkizadi. Amerikadan yurti O‘zbekistonga qaytib kelishidan birgina maqsadi bor, u ham bo‘lsa, Hamid – Obid Yunusov (bolalikkdagi do‘sti)dan o‘ch olish edi. Bu borada Qurbon ota Hamidni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgach, qo‘lidagi boltani tashlab, turgan joyida dohq qotadi. Ich-ichidan bolalikkdagi do‘stiga achinadi. Nega-ki, uning bir qo‘li yo‘q, ko‘zi ojiz. Demak, Yaratginning bergan jazosi shu ekan, “uni men emas, Xudo jazolagan”, degan fikrda Qurbon ota niyatidan qaytadi.

Bu kunni hayotining har bir lahzasida kutgan Hamid



ko'zi ko'rmasa ham uni Qurbon ekanini sezadi, his qiladi va aniq biladi. Ikki qahramonning quyidagi dialogi tomoshabinni larzaga soluvchi lavhalardan biri, desak adashmaymiz.

**Xamid:** Kim u? Kim bor bu yerda?! Kimsan?!

**Qurbon:** Qurbonman.

**Xamid:** Qaysi Qurbon? Tanimayman!

**Qurbon:** Sen nobud qilgan, Gunafshaning eri Qurbonman. Endi tanidingmi hayvon?!

**Xamid:** Tanidim! Axir topib kepsanda-a. Bilasanmi... bir kunmas-bir kun kep qoladi, deb butun umrim qo'rquvda o'tdi. Lekin yigirma yil oldin ko'zim ko'r bo'lib qolgandan keyin, o'zim seni har kuni kuta boshladim. Qachon o'ldirarkansan, deb. Hozir o'ldirasanmi?!

**Qurbon:** Yo'q. Yarim soatdan keyin. Cholkorga kirasanda, o'zingni osasan.

**Xamid:** Xop. Faqat bitta tilagim bor. Meni kechir!

Ana shu kadr orqali Obid Yunusovning Hamidi ovoqidagi ohang, jarangdorlik, so'zlarining ta'sir kuchi orqali qahramonining ichki dunyosini so'zlari orqali aks ettira olganidan dalolat beradi. Qalbi og'ir judoliklar ko'rgan Qurbon bir og'iz ham so'z aytmay, mashinaga o'tirib ortiga qaytadi. O'z joniga qasd qilish maqsadida, Hamid arqon qidiradi. Ammo o'lim ham undan yuz o'girib, arqon uziladi. Uning qalbi battar jarohatlanadi. Birgina qilgan xatosi Hamidning butun umrga azoblanib, qalbi jarohatlanib yashashiga sabab bo'ladi. Uning ich-ichidan kechayotgan qilmishlari, kechirib bo'lmas ayblarining nolasi, "Qurbon, Qurbon meni kechir!" degancha, orqasidan baqirishi ming armon, katta yuk ekanidan dalolatdir.

Tomoshabin Obid Yunusovning Hamidi qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qiladi. Bu insonning gap-so'zlari ham, xatti-harakatlari ham nihoyatda yoqimli, betakror bo'yoqlarda ifoda etilgan.

"Vatan"! Bu so'zda bir olam ma'no bor. Rejissor operator Abdurahim Ismoilov bilan bamaslahat ish ko'rganligi film kadrlarida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, muqaddas ona zamin, unga mehr qo'yganlar, muruvvat va xiyonat, sevgi-sadoqat, odamiylik bilan adovat, vafodorlik bilan birga xoinlik oqibatlarini yuqori darajada tasvirlangan. Shu jihatdan ham film ko'pchilikni, ayniqsa, yoshlarning diqqatini tortgani tabiiy. Tomoshabin Vatanni qumsagan, yorini ardoqlagan insonning o'zga yurtdagi besaranjom va befayz kunlari, ilk sevgisi haqidagi o'ylari, armonlari, bolalik qishlog'i bilan bog'liq shirin damlari namoyon bo'lgan kadrlarni yod olib chuqur tahlil bilan qabul qiladi. "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q", deganlaridek, hozirgi kunda hammamiz ham bu so'zning chuqur ma'nosi haqida o'ylamaymiz. "Vatan" filmi esa bizni chuqur o'ylashga, mushohadaga chorlaydi.

Homid (Bobur Yo'ldoshev) faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, do'stlikka xiyonat qiladigan, ikkiyuzlamachi, Vatan degan muqaddas so'zning qadriga yetmaydigan nopok inson obrazida gavdalandi. Uning fojiasi shundaki, hamqishloqlari undan yuz o'g'irgani, yonida hamsuhbat bo'ladigan qariya, yoru-birodarlari yo'q. Bundan ham inson uchun og'ir fojia bormi bu dunyoda. Qurbon mard, jasoratli, irodasi mustahkam, yillar davomida og'ir yukni ko'tarib keldi, ammo mardlarcha uni hal qildi, do'stlikka

xiyosat qilmadi. Uning baxti, Vatanini ko'rди, uning tuprog'ini o'pди va bu dunyodan armonsiz ketdi. Uning ruhi Vatandan yana judo bo'lishini xohlamadi...

Keksalarimiz bexudaga aytishmagan, "oxirimda xo'rlamasin" deb. Homidning umri tinch, osuda o'tadigan damlari yolg'izlikda, xo'rlikda, o'z-o'ziga bo'lgan kechirib bo'lmas xiyonati, ishonchsizlik yagona dushmaniga aylandi. Yillar davomida uni azoblab, qiynab, ajal topishiga olib keladi.

"Ssenariysiz film bo'lishi mumkin emas. Agar ssenariy kino nuqtai nazaridan yaxshi yozilgan, unga yaxshi g'oyalar singdirilgan bo'lsa, u rejissorda ijodiy ilhom uyg'otadi va film yaratish jarayoni boshlanib ketadi"<sup>1</sup>. Bunda ssenariyning kino talablariga qanchalik javob bera olishi ahamiyatli. Zero, taniqli kino arbobi Andrey Tarkovskiy: "Haqiqiy ssenariy tugallangan adabiy asar bo'lishga da'vo qilmasligi kerak. U avvaldanoq bo'lajak film sifatida o'ylab topilishi zarur"<sup>2</sup> deya, ssenariyga baho bera turib, uning adabiyotdan ko'ra kino san'ati mahsuli ekaniga urg'u berib o'tadi. Kino "tili"ga yaqin adabiy asos mahorat bilan qiziqarli va jonli talqin etilganda esa tomoshabin e'tiboriga mazmunli film yetib borishi mumkin. Shoyad, "Yaxshi hikoya qilingan film – eng avvalo, energiya, millionlarni hayajonlanishga, yig'lashga va kulishga majbur qila oladigan quloq eshitmagan darajadagi energiya ishlab chiqaruvchi va uni zalga nurlantiruvchi mashina hamdir"<sup>3</sup>.

"Vatan" filmida aktyorlar ijodi bilan ssenariyning mukammalligi, dialog, monologlarni puxtaligi alohida e'tiborga loyiq. Film inson qadr-qimmatini, ota-onaning beqiyos farzandlarga mehri, bir-birovni tushunish, do'stlikka vafo, lafz hamda eng buyuk ne'mat VATAN sog'inchi o'zini yaqqol namoyish etib, tomoshabinni ogohlikka undaydi. Film rejissori Zulfiqor Musoqov har bir suratga olish jarayonida alohida lavhalarining ta'sirchanligiga ahamiyat berganini ko'rish mumkin. Bunda albatta operator Abdurahim Ismoilovning ham mahorati muvaffaqiyatli albatta. Chunki ta'sir kuchini oshiradigan kadrlar, ayniqsa, aktyorlar ijrosi yirik planlarda aks ettirilgan. Kinoshunos Jo'ra Teshaboyevning quyidagi fikrlari e'tiborimizni tortadi "Film voqealari katta tarixiy davrni qamrab oladi. Unda urushdan avvalgi davrda va hozirgi zamonada kechayotgan voqealar gavdalantiriladi. Voqealar ko'laminin shu darajada kengligi, qahramon taqdiri qayg'uli ekanligiga qaramasdan, filmda murakkab tarixiy voqelik juda yuzaki, jo'n ko'rsatilgandek tuyuladi. Filmida yarim asr xorijda yashash, vataniga qaytib, qaylig'ining o'limida ayblangan sobiq do'stini o'ldirish payiga tushgan kishining axloqiy qarashlari ochib beriladi... Film g'oyasi bosh qahramon obrazi talqinida namoyon bo'lgan va tomoshabinni to'la ishonrtirgan"<sup>4</sup>.

Umuman, bu yillarda yaratilgan kinoasarlarda turli-tuman va rang-barangligi bilan milliy kinematografiya jarayonining qig'zg'in kechayotganidan darak berardi. Kinoijodkorlar birmuncha "jonlangan", tomoshabinlarning esa chinakkam ijod mahsullariga talabi oshib borayotgani kinoijodkorlarga ilhom bag'ishlardi. Kinoasarlarning tobora ortib borishi kino sohasida raqobatni kuchaytirar va bu esa ijodkorlarni yanada jiddiyroq intilishga undardi.

"Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli

<sup>1</sup> Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – Toshkent: "O'zDSMI xabarlari" jurnal, 2009. - B.5.

<sup>2</sup> Тарковский А. Уроки режиссуры. – Москва: "Искусства", 1993. - С.16.

<sup>3</sup> Mitta A. Kinoda rejissura va dramaturgiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2014. - B.18.

<sup>4</sup> Teshaboyev J. "Intilganga tole yor... O'zbek kinosining janrlimavzuli obzori (1990-2000 yillar)". "Sana't" jurnali, 2014-yil, 4-son.

bo'lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o'rgatadi. Bunday yondashuv – davr talabidir”<sup>5</sup> – degan fikrni davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ilgari suradi.

“Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz”<sup>6</sup>.

Rejissor Rustam Sa'diyevning “Sotqin” filmi aynan diniy ekstremizm mavzusiga yaqqol misol bo'la oladi. Filmning bosh qahramoni Sarvar Bahromov (aktyor Farruh Soipov) ismli talaba universitetda o'qib, oliy ma'lumotli jurnalist diplomiga ega bo'lgan iqtidorli yigit o'zi bilmagan holda bir muddat yashirin terrorchi guruhlar ta'siriga tushib qoldi. Qarashlari mustaqillik mafkurasi bilan yo'g'rilgan va dunyoviylik tarafdori bo'lgan Sarvar diniy ekstremizm ta'siriga tushgan yaqinlarining xatti-harakatlari Andijonda qanday insoniy fojialarni keltirib chiqarganiga guvoh bo'ladi.

Andijonda asosan jinoiy ta'sirga ega bo'lgan otasi va akasi (Javohir Zokirov)ning mavjud tuzumni ag'darishga qaratilgan fitna rejalaridan xabar topgach, ularga qarshilik ko'rsatishga harakat qiladi. Dinni niqob qilib olganlarning g'arazli niyatlarini tushunib yetgach, ularga qarshi kurash boshlaydi. Bu terrorchi to'da a'zolariga otasi va akasining yordam berayotganini bilganda qattiq iztirobga tushadi. Keyinchalik ana shu guruh changalidan xalos bo'lsada, uni o'tmishdagi xatolari ta'qib qiladi. Otasi va akasi uni “sotqin” deya jazolaydilar, ammo atrofidagi imon-e'tiqodli yaqinlari Vatan himoyachisi deya ulug'lashadi.

Filmda doimdarg'azab yuradigan otarolini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Matyoqub Matchonov tomonidan nihoyatda ishonarli, aktyor qobiliyatining salbiy qarashlari, qahramoni ichki dunyosining vazminligi, oilada so'zi o'tkir shu bilan birga bir so'zli erkak ekanini qarashlari orqali namoyon etishi aktyor yutug'i hisoblanadi. “Albatta kinoda rol ijro etish oson ish emas. Sahna va ekranning o'ziga xos kiyinchilik va yengillik tomonlari ham bor. Eng asosiysi, o'z kasbini sevgan odam har kanday sharoitda ham rol ijro eta olishi lozim. Kinolarni tasvirga olish jarayonida turli qiyin vaziyatlar ham bo'ladi. Ana o'shanda sharoitning qiyinchiliklariga ham ko'nikishga to'g'ri keladi. Chidam, sabot, mehnat va iste'dodsiz san'at yuksalmaydi”<sup>7</sup>.

Samiddin Lutfullayev ijrosidagi kuyov roli aktyorni yanada serqirraligidan dalolat beradi, chunki rejissor ishonch bildirib topshirgan ushbu rolini mas'uliyat bilan bajargan. Aktyor qahramoni bir qarashda salbiy, ichkilikka mukkasidan ketgani, doim xotinini kaltaklashi, qayin akasi (J.Zokirov)ni oxirgi fikrini aytishiga sabab bo'ladi. Chunki singlisining doim ko'zi ko'karib kelishi, azoblanishiga jim qarab turolmagan aka o'zining jirkanch ishini kuyoviga nisbatan ishlatadi. Niyati kuyovini joniga qasd qilish, imi-jimida sodir bo'ladi. U nom-nishonsiz bedarak yo'q bo'ladi. S.Lutfullayev roliga shu darajada yondashganki, tomoshabin bexosdan uning tushkin kayfiyati, o'limi oldidan yalinib-yolvorishlari, ichki bir tug'yonlarini

ko'z yoshisiz tomosha qila olmaydi. Bu aktyorning roli ustidagi izlanishidan, tinimsiz izlanib mehnat qilganidan darak beradi. Filmda har bir qahramonning o'ziga yarasha xarakteri, so'zi bor.

Filmda yana bir qahramon mavjud u diniy ekstremizm g'oyalarini yoygan va Andijonda mavjud hokimiyatga qarshi harakatlarni moliyalagan xorijlik emissar – Hafizulloh Omon (Ubaydullo Omon)dir. Aktyor shu kichik roli orqali o'ziga xos tarzda salbiy qahramonni gavdalandirgan. Undagi ayyorona tuzilgan reja, ayniqsa, film oxirida ko'zi ojiz mo'ysafid chol qiyofasida go'dak bir qizaloqni qo'lidan ushlab ketayotganida chegara posbonlari qo'lga oladi. Bu qahramon film davomida xufyona qilmishlari bilan “suvdan quruq chiqib kelishi” uning g'araz rejalarini amalga oshishiga yordam bergan. Ammo uning qabih o'y-xayollari uzoqqa bormaydi. Aktyor Hafizullohni salbiy qahramon sifatida o'ziga yarasha xarakterini ochib berishda professional yondashgani hatto hatti-xarakatlari, so'zsiz ishoralarida ham namoyon etgani bilan ajralib turadi. U rejissorning aytganini bekamu-ko'st bajarishga intilgan. Sayyora Yunusova ijrosidagi ona o'ta hokisor, kamgap, erini gapini ikki qilmaydigan, saranjom-sarishta, uyim-joyim deydigan, besh vaqt namozini kanda qilmaydigan ayol. Onaning farzandlaridan xavotiri, erining ba'zi xufyona qilmishlari doim uni ich-ichidan azoblaydi. Yillar o'tib to'ng'ich o'g'li (J.Zokirov) qilmishlariga yarasha jazo olib qamoqdan qaytib kelganida, bukchaygan ona, sochlari qordek oppoq, ko'zlarining nuri ketgan, ammo umid bilan farzandlari uchun sog'inchda yashayotgan ayol gavdalanadi.

Rejissorning eng muhim va film taqdirini hal qilishda juda katta rol o'ynaydigan vazifasi – aktyor tanlash. Bunda avvalo bosh qahramonlar tanlanadi. Aktyor tanlaganda asosan ikki prinsipga asoslanish lozim.

1. Aktyorning qahramonga o'xshashligi.
2. Aktyorning ruhiy olami, ichki fazilatlarini.

Avvalo, aktyorning yuz tuzilishi, gavdasi nimasi bilandir o'sha qahramonni eslatishi, qolaversa, uning yaratayotgan obraziga xos zehni va hissiyoti bo'lmog'i kerak<sup>8</sup>. “Film O'zbekistondagi oilalarning hayotini jahannamga aylantirayotgan diniy ekstremizm haqidagi fojeadir”<sup>9</sup>, – deydi rejissor. Uning so'zlariga ko'ra, “Sotqin” filmi o'zbek kinochilarining Suriya, Iroq va Ukraina kabi davlatlaridagi sodir bo'layotgan qator notinchliklarga munosabat, desak adashmaymiz. Filmning yutug'i shundaki, badiiy voqea va kinoning tasviriy yechimi o'zaro uyg'unlikda ifoda etib berilgan. Bu esa o'z navbatida filmning tomoshabinlar orasida ta'sirli shov-shuv bo'lishiga turtki bo'lgan. Ma'lumot uchun aytib o'tish kerakki, “Sotqin” filmi O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 24 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan “Eng ulug', eng aziz” respublika ko'rik-tanlovida 1-o'rinni qo'lga kiritgan.

Yuqoridagi tahlillarimizdan ham ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda milliy kino san'ati sezilarli darajada rivojlandi, kinomaydondagi jarayonlar “jonlandi”. Sog'lom raqobat yaratilayotgan kino mahsulotlarining sifatiga ham yaxshi ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, san'at, xususan kino san'ati xalq ma'naviyati, yoshlar ongining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ana shu jihatdan ham kinoijodkorlar zimmasiga ulkan ma'suliyat yuklanadi. O'z navbatida yuksak ma'naviyat, qadriyatlarga, boy tarixiy an'analarga, alloma ajdodlarga ega xalqimiz uchun san'at asarlari yaratish ikki hissa ma'suliyatidir. Ta'bir joiz bo'lsa, bugungi kunda milliy kino san'ati ijodkorlari yelkalaridagi ana shu ma'suliyatni his qilgan holda kino maydonida shahdam qadamlar bilan ijod etmoqdalar. Milliy kino esa doimo intilish, izlanish va raqobat bilan yuqoriga intilib, rivoj topmoqda.

<sup>5</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/ustuvor/>

<sup>6</sup> Karimov I.A. O'z yo'limizning shart-sharoitlari. – T.: “O'zbekiston”, 1998. – B.348.

<sup>7</sup> Matyoqub Matchonov bilan bo'lgan suhbatdan.

<sup>8</sup> Aliyev M. Kino asoslari. “O'qituvchi”, 1983. – B.51.

<sup>9</sup> [https://www.bbc.com/uzbek/multimedia/2015/05/150512\\_cy\\_andijan\\_film\\_disco](https://www.bbc.com/uzbek/multimedia/2015/05/150512_cy_andijan_film_disco).

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ВОПРОСЫ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА НОВОГО ВРЕМЕНИ

**Аннотация.** Стремительно меняются времена, процессы глобализации, интеграционные и трансформационные процессы, происходящие в мире, оказывают огромное влияние на развитие сферы культуры и искусства. В статье представлена аналитическая информация об этапах развития и интеграционных процессах современного узбекского театрального искусства.

**Ключевые слова:** театральное искусство, перформанс, интеграция, трансформация, современные тенденции, драматургия, режиссура, мировое сообщество.

## YANGI DAVR O'ZBEK TEATR SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA INTEGRATSIYA MASALALARI

**Annotatsiya.** Zamon shiddat bilan o'zgarimoqda, jahonda ro'y berayotgan globallashuv jarayoni, integratsion va transformatsion jarayonlar madaniyat va san'at sohasining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Maqolada zamonaviy o'zbek teatr san'atining rivojlanish bosqichlari va integratsion jarayonlar xususida fikr yuritilgan va tahliliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** meatr san'ati, spektakl, integratsiya, transformatsiya, zamonaviy tendensiyalar, dramaturgiya, rejissura, jahon hamjamiyati.

## STAGES OF DEVELOPMENT AND ISSUES OF INTEGRATION OF UZBEK THEATRICAL ART OF MODERN TIMES

**Annotation.** Times are changing rapidly, the processes of globalization, integration and transformation processes taking place in the world have a huge impact on the development of culture and art. The article presents analytical information about the stages of development and integration processes of modern Uzbek theatrical art.

**Key words:** theatrical art, performance, integration, transformation, modern trends, drama, directing, world community.



Театр один из самых массовых и влиятельных видов искусства в мире, веками призывал людей к человечности и добру, служа воспитанию в их сердцах благородных качеств, прекрасных чувств, укреплению в жизни общества принципов мира, дружбы и гармонии, высокой нравственности и справедливости.

Президент Республики Узбекистан  
Шавкат Мирзиёев

Театр – несравненное искусство, служащее возвышению духовности, сознания и мировоззрения нации, воплощающее вековые ценности и традиции народа. Созданный на сцене художественный образ своей живостью, эстетической выразительностью, национальной и общечеловеческой сущностью оказывает непосредственное влияние на психику, чувства зрителя. В духовном совершенствовании нашего народа, особенно подрастающего поколения, приобретает актуальное значение эффективное использование таких возможностей театра, пропаганда благородных идей и кон-

цепций через сценическое искусство, тем самым формируя у них идеологический иммунитет к чуждым идеям и глобальным угрозам [1.18 с.]<sup>1</sup>.

3 августа 2017 года Президент Шавкат Мирзиёев на встрече с творческой интеллигенцией, деятелями литературы и искусства нашей страны подробно проанализировал проблемы, накопившиеся непосредственно в творческих сферах, высказал предложения по их преодолению. В ходе данного диалога на тему «Развитие литературы и искусства, культуры – прочная основа духовного возрождения нашего народа» были высказаны актуальные мысли о развитии литературы, театра, кино, музыки, изобразительного искусства и других видов творчества в нашей стране, мероприятие, прошедшее в открытом и искреннем духе, произвело большое впечатление на собравшихся. На совещании Президент отдельно остановился и на существующих проблемах в театральном искусстве: «репертуары большинства наших театров идейно-художественно беспомощны, в спектаклях из них не отражается дыхание сегодняшнего дня, серьезные социальные проблемы, которые заставляют задуматься, взволновать людей. К сожалению, наши театры больше привыкли ставить беззаботные, балаганские пьесы на бытовую тематику, спектакли, которые не дают человеку ни духовной пищи, ни эстетического удовольствия»<sup>2</sup>.

Изучение, анализ театрального искусства, являющегося зеркалом нашей культуры, с точки зрения чисто

<sup>1</sup> Sh.Abdurasulov Sh. "Teatr inssenirovkasi va uning ilmiy-nazariy muammolari". "O'zDSMI xabarlari" ilmiy jurnali, 2019/1 (9).

<sup>2</sup> "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" [Prezident Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlagan ma'ruzasisi]. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.

художественного развития-актуальная задача сегодняшнего дня-дать возможность молодежи насладиться его яркими образцами творчества. Ведь сама эпоха требует, чтобы сегодняшнее молодое поколение-это человек с твердой верой в себя, любящий нацию и свой народ, уважающий родную землю, знающий мировые новости, свободомыслящий, вся его национальная гордость, не боящийся жизненных невзгод, не отклоняющийся от своего пути, стремящийся к цели. Поэтому одной из основных задач, стоящих перед театральным искусством, является воспитание у молодежи чувства патриотизма, преданности делу посредством новых творческих подходов к приобщению к искусству, воспитание в них духа мужества и стойкости, создание произведений, служащих повышению морального духа зрителя. В период независимости узбекское театральное искусство принялось за процесс возрождения национальных ценностей. В эпоху солистов запрещенные произведения ставились в театрах, началось движение за создание новых современных произведений. В различных театрах созданы сценические постановки по трагедии Фитрата “Абульфайзхан”, драме Торы Мирзы “Амир Темур”, роману Чулпана “Ночь и день”, драме “Яркиной”, романам Абдуллы Кадыри “Минувшие дни” и “Скорпион из михраба”. В целом культура узбекского театрального искусства получила дальнейшее развитие [3.266].

Направляя молодежь на правильный путь, возвышая их духовный мир, нельзя не довольствоваться наставлениями. Именно через театр, который является местом воспитания, можно добиться многих положительных результатов. В привитии в воображение молодежи национальной идеи и чувства Родины плодотворное влияние оказывает сценическое искусство, театр правдиво отображает события в глазах зрителя и мгновенно завораживает взор молодежи своей особенностью. В качестве альтернативы молодые люди не теряют времени зря, даже в процессе знакомства с декорациями сцены, актерами спектакля, героями сказок, кадрами из жизни своих сверстников. Ведь театр-это место просвещения, очаг воспитания. Ведь театр-это обитель просвещения, живого диалога между сценой и зрителем, где воспеваются высокие качества и универсальные идеи. Впечатляющее выступление по-разному влияет на публику. Кто-то вызывает смех, учит критически относиться к жизни, вызывает нежные эмоции.

Театральное искусство-одно из самых ярких, трогательных проявлений духовности. В настоящее время проводится системная работа по совершенствованию каждого театра республики, укреплению его материально-технической базы, созданию новых спектаклей, повышающих духовность и самосовершенствование нашего народа. Времена стремительно меняются. Очень важны вопросы нашего великого духовного наследия, уникальных ценностей, последовательного продолжения традиций узбекского национального театра, их обогащения и развития в соответствии с требованиями нового времени, применения передовых методов в театральном искусстве в сочетании с национальным духом. Кроме того, именно в наши дни становится важным создание художественно возвышенных, народ-

нических, образцовых, актуальных для того времени сценических произведений, гармонирующих с идеями национальной независимости. Театр – это такой божественный дар, который, оказывая неизмеримое влияние на сердца людей, призывает их к совершенной доброте и благородству. Потому что то, что исполнительское искусство может доставлять людям не только удовольствие, но и быть источником национальной гордости, национальной гордости, мощным средством воспитания, – это факт, который не требует доказательств. О огромной миссии театра в нашей культурной жизни, о том, что ничто не может заменить его, о прославлении театра в целом, о силе его влияния, можно многое сказать.

Огромное научное и литературное наследие, мудрые учения Махмудходжи Бехбуди уже более века являются одним из маяков, освещающих путь духовной жизни нашего народа. В частности, эти шедевры имеют неоценимое значение в воспитании молодежи. Возьмём к примеру, мнение великого просветителя о том, что “Театр – это храм искусства!”. Действительно, театр играет важную роль в возвышении человеческого мышления, в частности, в призыве молодежи к добру, формировании у нее чувства любви к родине, признательности к родителям, семье и дружбе, преданности своей профессии. То есть он преподает человеку жизненный урок. Следовательно, на местах уделяется серьезное внимание привлечению молодежи в театры, созданию большего количества спектаклей с изображением героя нашего времени, а также передаче плачевных последствий преступности и преступности нашим будущим владельцам через сценические постановки. Потому что не все молодые люди, читая или слыша законодательные нормы, могут досконально понять природу какого-то неправомерного поведения. Но идеи, выдвинутые в пьесах, основанных на реальных событиях, доходят до глубины души не только молодежи, но и взрослых. Бехбуди считает, что одной школы недостаточно для просвещения. Народу нужно зеркало, чтобы он мог видеть в нем и свою мерзость, и свою беду. Именно этот факт побудил этого человека основать театр, сочинять для них пьесы. Именно благодаря этому возникло произведение “Падаркуш”, считающееся одним из первых образцов узбекской драматургии.

Театральное искусство напрямую связано с историей. А научное его изучение-одна из важнейших задач. Переосмысление долгой и новейшей истории театрального искусства, восполнение его недостатков, переоценка тех или иных эпох, событий и сценических произведений-чрезвычайно важная и актуальная задача, стоящая перед нашими театроведами. А чтобы переоценить историю и не ошибиться в дальнейшем, желательно опираться на правильную программу и принципы, то есть на научную методологию, которая может воплотить реальность в реальность [4.62].

Проведена широкомасштабная работа по повышению культурного уровня населения, в частности молодежи, приобщению их к лучшим образцам национальной и универсальной культуры, воспитанию на этой основе духовно зрелых, гармоничных личностей, ре-

ализации способностей и потенциала молодых талантов.

Важное место в развитии узбекского театрального искусства занимают источники, основанные на национальном культурном наследии. Вопрос изучения национального культурного наследия в театральном искусстве выдвигает и задачи укрепления отношений творческого сотрудничества с театрами региона.

Обнародовано постановление Кабинета министров Республики Узбекистан № 9 от 2018 года «О программе мероприятий по укреплению материально-технической базы государственных театров и развитию их деятельности на 2018-2022 годы». В нем определены многие важные задачи, связанные с деятельностью государственных театров. Примечательно, что с 1 января 2018 года Министерством культуры Республики Узбекистан, Советом Министров Республики Каракалпакстан и хокимиятами областей будет выдан государственный заказ на создание в каждом государственном театре сценических произведений, предусматривающих:

- спектакли, прославляющие огромный творческий труд, осуществляемый в нашей стране, отражающие национальные ценности, традиции и традиции;

- население, семейные отношения, особенно художественные высокие сценические произведения, воспитывающие молодежь на основе таких идей, как патриотизм, самопожертвование, гуманизм;

- постановки, в которых всесторонне, глубоко отражена жизнь и творчество великих деятелей нашей страны, богатая история нашего народа, тех, кто внес огромный вклад в независимость нашей Родины;

- спектакли, рассказывающие о самоотверженных людях, живущих в гармонии с эпохой, преодолевших жизненные испытания, а также о героях того времени, которые укрепляют духовный мир молодежи, укрепляют ее веру в будущее [5].

То искусство, которое правильно отражает жизнь и мечты народа и в этом процессе прочно опирается на культурное, литературно-художественное наследие народа, является жизнеспособным, вечным. Театральное искусство можно сравнить с бесконечным океаном. Чтобы полностью понять это историческое искусство, нужно углубиться в него. Не ошибусь, если скажу, что театр-неотъемлемый дух нашего духовного и просветительного мира, одно из средств достижения совершенства.



#### Использованная литература:

1. Abdurasulov Sh. "Teatr insseniroykasi va uning ilmiy-nazariy muammolari". "O'zDSMI xabarlar" ilmiy jurnali, 2019/1 (9).
2. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" [Prezident Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlagan ma'ruzasi]. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.
3. Qoraboyev U. Milliy madaniyat masalalari. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. – B.288.
4. Istiqlo'l va milliy teatr. – T.: "Yangi asr avlodi", 2020. – B.235.
5. "2018-2022 – yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yildagi 9-son qarori. Lex.uz

## JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SHAXSNING O‘RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov va Turkiyaning birinchi rahbari Mustafa Kamol Otaturkning siyosiy faoliyati, ularning shaxsiyatidagi o‘xshash jihatlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiya Buyuk Millat Majlisi, “Kamolchilar inqilobi”, Olti O‘q (Alti Ok), o‘zbek modeli, BMT, “Yosh turklar”, “Nutq”.

## РОЛЬ ЛИЧНОСТИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** В данной статье анализируется политическая деятельность Первого Президента Республики Узбекистан Ислама Абдуганиевича Каримова и первого лидера Турции Мустафа Кемал Ататюрка, а также сходство их личностей.

**Ключевые слова:** Великое Национальное Собрание Турции, «Потребительская революция», узбекская модель, ООН, «Младотурки», «Выступление».

## THE ROLE OF THE INDIVIDUAL IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

**Annotation.** This article analyzes the political activities of the First President of the Republic of Uzbekistan Islam Abduganievich Karimov and the first leader of Turkey Mustafa Kemal Atatürk, as well as the similarity of their personalities.

**Key words:** Grand National Assembly of Turkey, “Consumer Revolution”, Uzbek model, UN, “Young Turks”, “Speech”.



XX asrning mashhur siyosatchilaridan biri bo‘lgan Mustafa Kamol Otaturk va O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovlar turli davrlarda yashab, turli davlatlarda rahbarlik qilgan shaxslar bo‘lishiga qaramay, ularning davlat boshqaruvi va ayrim siyosatlarida bir qator o‘xshashliklar mavjud. Quyida ular bilan birma-bir tanishib chiqamiz. Avvalo, ularning rahbarlikka kelish davrining o‘zida uyg‘un, o‘xshash jihatlar ko‘zga tashlanadi. Ushbu ikki davlat arbobi ham o‘zidan oldingi hukmron mafkuradan qolgan xarob davlatni qaytadan tiklay olishgan. 1920-yil 16-mart kuni Turkiyaning Istanbul shahri ingliz qo‘shinlari tomonidan ishg‘ol etilgach, o‘zi shundoq ham xalq orasida obro‘si pasayib borayotgan Usmonlilar saltanatining mavqeyiga yana bir bor putur yetgan edi. Aynan shu paytda Turkiyada hukmron mafkuraga qarshi ozodlik harakatlari avj ola boshlaydi. Bunday harakatlarning biri Mustafa Kamol Otaturk boshchilik qilayotgan

“Kamolchilar inqilobi” edi. Istanbul ishg‘ol etilgach barcha vatanparvar kuchlar uning atrofida to‘planadilar va 1920-yil 23-aprel sanasida Anqarada yangi parlament Turkiya Buyuk Millat Majlisini tashkil etadilar. Shundan so‘ng sekin-asta hukmron mafkuraga qarshi kurash avj

oladi va nihoyat 1922-yil 1-noyabr kuni Usmonli turk sultonligi hukmronligi poyoniga yetadi<sup>1</sup>.

1922-yilda tashkil etilgan SSSR davlati XX asrning boshlariga kelib tanazzul yoqasiga kelib qolgan edi. Davlatning mustamlakalariga nisbatan olib borgan mafkuraviy tazyiqlari va milliy ozodlik harakatlarining qonga botirilishi natijasida, SSSR tarkibidagi davlatlar mustaqillikka intila boshlaydilar. Bular orasida peshqadamlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston SSR rahbari Islom Karimov bo‘lib, u SSSR parchalanishidan ancha oldin, “**Biz bundan buyon eskicha yashay olmaymiz**”<sup>2</sup> deb, Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo‘lib SSSR dan ajralib chiqqandi. Biroq respublika ichki hayotining ayrim o‘rinlarida sobiq hukmron mafkuraning ildizlari hanuz saqlanardi. Bu esa vaqt-vaqti bilan ichki siyosatda turli muammo va to‘qnashuvlarga sabab bo‘lib, prezident faoliyatiga nisbatan noto‘g‘ri munosabatlar paydo bo‘la boshlagandi. Mohir siyosatchi Islom Karimov sekin-asta bunday muammolarni bartaraf etib, o‘z davri uchun yangicha siyosat yurita boshlaydi.

Adolatli va uzoqni oldindan ko‘ra biluvchi davlat rahbari o‘z mamlakatini rivojlantirish maqsadida, har tomonlama puxta o‘ylab chiqilgan dastur asosida boshqarganligi barchaga ma’lum. Shuni inobatga olgan holda Turkiyada Mustafa Kamol Otaturk, O‘zbekistonda Islom Karimov davlat rahbarligiga kelishlari bilanoq o‘z davlatlarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqdilar. Mustafa Kamol Otaturk davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, 1931-yilda “Olti o‘qli dastur” tamoyillarini ishlab chiqqan. “Olti o‘qli dastur” qanotlarining dastlabki to‘rttasi 1927-yilda

<sup>1</sup> Edward J Erickson – Mustafa Kemal Atatürk. – London: “Ospey Publishing”, 2013. – Page.57.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2011. – B.13.

<sup>3</sup> Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей. – Москва: «Молодая гвардия», 2004. – С.216.

yaratilgan bo'lib, 1931-yili yana ikkita qanot unga qo'shilib "Olti o'q" ("Altı Ok") nomi bilan shakllanadi. 1937-yilda qabul qilingan Turkiya Respublikasining yangi Konstitutsiyasiga ushbu "Olti o'q" loyihasi ham kiritiladi<sup>3</sup>. Dastur o'z tarkibiga respublikachilik, millatparvarlik, xalqparvarlik, dunyoviylik, davlatchilik, inqilobchilik kabi yo'nalishlarni qamrab olgan. Quyida ular haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

**1. Respublikachilik.** Usmoniyar mutlaq monarxiyasining muqobilidagi konstitutsion-demokratik respublika yaratish g'oyasi. Oliy hokimiyat (Turkiya prezidenti va Turkiya Buyuk Millat Majlisi)ni saylash va uning xalqqa bo'ysunishi tamoyili.

**2. Dunyoviylik.** Dunyoviy davlat tuzish va islomdan davlatni ajratish. Mustafa Kamolning ilk islohotlaridan biri shariat qonunlarining bekor qilinishi edi. Keyinchalik diniy ta'limga ta'qiq joriy etildi va barcha maktablar maxsus vazirlikka bo'ysundi. Zamonaviy Turkiyada bu tartib islomiy partiyalarni ta'qiq qilinishida ham namoyon bo'ladi.

**3. Davlatchilik.** Davlatning yetakchilik roli orqali aralash iqtisodiyotni yaratish. Amalda bu kichik xususiy sektorni saqlab qolish bilan iqtisodiyotni milliy lashtirishga olib keldi.

**4. Millatparvarlik.** Milliy xalqqa sodiqlik ruhi ostida ta'lim berib, vatanparvarlardan tashkil topgan milliy davlat yaratish g'oyasi. Etnik va fuqarolikni tasdiqlash hamda milliylikka hurmat bilan qarashga qaratilgan.

**5. Xalqparvarlik.** Sinfiy tengsizlik va imtiyozlarga qarshi kurash. Bu tamoyil millatparvarlik tamoyili bilan bog'liq bo'lib turk jamiyatining birligini va uning ichidagi birdamlikni, shuningdek, xalqning suverenitetini va Turkiya Buyuk Millat Majlisi (TBMM) xalqning irodasi ekanligini ifodalaydi.

**6. Inqilobchilik.** An'anaviy jamiyatning qoldiqlariga qarshi kurashishda taraqqiyot va ma'rifatga tayanish va g'arblashtirish. G'arblashuv siyosatining yorqin misollarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin: turk tilini lotin alifbosiga tatbiq etilishida, ayollarga ham ovoz berish huquqining berilishida va boshqa bir qator shunga o'xshash islohotlarda o'z ifodasini topgan<sup>4</sup>.

O'zbekiston esa 1991-yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng hukumat rahbari umri tugab borayotgan mustabid, ma'muriy buyruqbozlik, rejali taqsimot tizimidan voz kechib, "O'zbek modeli" deb nom olgan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi<sup>5</sup>. "O'zbek modeli" tushunchasi, avvalo O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy

nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yili "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarini omma e'tiboriga taqdim etib, unda davlatni rivojlantirishning iqtisodning siyosatdan ustunligi, davlat bosh islohotchi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish kabi tamoyillardan tashkil topgan "O'zbek modeli"ni e'lon qildi<sup>6</sup>. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning "O'zbek modeli" deb qabul qilindi. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" quyidagi besh tamoyilga asoslandi:

**1. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ya'ni iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lishi kerak. Shuningdek, ichki, tashqi va iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta'minlashi zarur.**

**2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat asosiy islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi shart.**

**3. Qonun ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat'iy rioya etish lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni barcha hech istisnosiz hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.**

**4. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish kerak.**

**5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotining obektiv qonunlarini e'tiborga olib, yaqin o'tmishdagi inqilobiy sakrashlarsiz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilgan.**

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, mazkur bosqichda erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir deb, aytgan edi. Mustafa Kamoldan farqli o'laroq Islom Karimov vafotidan so'ng, respublika rahbarligiga kelgan Shavkat Mirziyoyev o'zidan oldingi hukumat boshlig'i siyosatini davom ettiradi. Bu xususda uning o'zi: "*Bizning yana bir eng muhim ustuvor vazifamiz – Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek modeli" ning asosi bo'lmish besh tamoyilni amalga oshirish asosida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va uning raqobatbardoshligini yanada ta'minlashdan iborat*"<sup>7</sup>, deb aytgan.

Turkiya ham, O'zbekiston ham mustaqil respublika sifatida shakllangach, albatta, ularning asosiy qonuni, ya'ni Konstitutsiyasi ham bo'lishi va u o'z davrining talablariga to'laqonli javob berishi kerak edi. Bu ikki davlat arbobining bu boradagi qarashlari yana o'xshash nuqtalarda birlashadi. Turkiyada allaqachon eskirgan hisoblanuvchi, 1921-yil 20-yanvarda Turkiya Buyuk Millat Majlisi (TBMM) tomonidan qabul qilingan asosiy qonun amalda edi. Yangi Konstitutsiyani yaratish jarayoniga Mustafa Kamolning shaxsan o'zi bosh-qosh bo'lgan. 1924-yil 20-aprelda dunyo standartlariga mos keladigan, 1961-yilgacha 36 yil muddatda amalda bo'lgan yangi Konstitutsiya yaratildi. Bu

<sup>4</sup> Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей. – М.: "Молодая гвардия", 2004. – С.230.

<sup>5</sup> Usmonov Q. O'zbekiston tarixi (milliy istiqlol davri). – T.: "O'qituvchi", 2010. – B.45.

<sup>6</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza (2010-yil, 12 noyabr). – T.: "O'zbekiston", 2010. – B.3.

<sup>7</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", 2018. – B.13.

vaqt ichida u Turkiyani zamonaviy, dunyoviy va demokratik respublikaga aylantirgan ko'plab tub o'zgarishlarga asos bo'ldi. Qabul qilingan Konstitutsiya olti bo'lim va 105 moddani o'z ichiga qamrab olgan edi<sup>8</sup>. Nihoyat Turkiya Respublikasida dunyoviy jamiyat yaratildi. Tarixan qisqa davrda O'zbekiston Respublikasida ham davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ta'riflangan asosiy qonun – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqilib, qabul qilindi. Islom Karimov uni ishlashda bevosita qatnashib, O'zbekiston Respublikasi asosiy qonuni ustida ishlashda Konstitutsiyaviy tajribasidan foydalanish uchun AQSh, GFR, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya, Hindiston, Pokiston, Misr kabi mamlakatlarning Konstitutsiyalarini batafsil o'rganib chiqdi. Uch oy mobaynida Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasidan o'tib, uning doirasida 6 mingdan ziyod takliflar kiritildi va komissiya tomonidan ko'rib chiqildi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Oliy Kengashi olti bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo'lgan ushbu tarixiy hujjatni qabul qildi<sup>9</sup>. Yangi Konstitutsiya fuqarolarni va davlatni huquq ham majburiyatlar orqali o'zaro bog'lab turadi. Shu ma'noda hujjat inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha prinsiplar qoidalarini, ya'ni hayot, shaxs va inson erkinligining daxlsizligi qoidasini o'zida mujassam etgan. Alohida ta'kidlash lozimki, yangi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish jarayonida BMT fundamental hujjatlarining qoidalariga va xalqaro huquq prinsiplariga qat'iy amal qilindi. Hattoki, yevropa mamlakatlari va AQShning eng talabchan ekspertlari, shuningdek, BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashining ko'p sonli ekspertlari Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan Qonunni diqqat bilan tahlil qilib, u umumqabul qilingan demokratik normalarga muvofiqligini e'tirof etdilar. Shu boisdan ham Islom Abdug'aniyevich Karimov “Konstitutsiya – bizning buyuk yutug'imiz” deya ta'kidlagan edi.

Mustafo Kamol Otaturk ham, Islom Abdug'aniyevich Karimov ham davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay, kelajak avlod uchun ma'naviy meros qoldirishga muvaffaq bo'lgan shaxslardir. Mustafo Kamol Otaturkdan bugungi avlodga 1917-yilda “Yosh turklar” hukumatini boshqargan (1913-1918 – yillar) Anvar, Tal'at, Jamol podsholarga yuborgan “Bayonnoma”si, harbiy soha haqidagi beshta risola, 1919-1924 – yillarda yozilgan “Nutq” asari hamda ayrim qo'lyozmalari ma'naviy meros bo'lib qoldi<sup>10</sup>. Islom Abdug'aniyevich Karimov quyidagi to'plamlarda e'lon qilingan ko'plab asarlarning muallifi hisoblanadi: “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” (1992), “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay” (1993), “O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li” (1993), “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” (1994), “Istiqloq va ma'naviyat” (1994), “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” (1995), “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” (1997), “Barkamol avlod

orzusi” (1998), “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” (1998), “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” (1998), “Alloh qalbimizda, yuragimizda” (1999), “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz” (2000), “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” (2001), “O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari” (2002), “O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura”, “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”, “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, “Bunyodkorlik yo'lidan”, “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”, “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz”, “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida”, “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakat taraqqiyotining asosiy mezonidir”, “Mamlakatni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida” va boshqa asarlarning muallifi sanalib, asarlari ingliz, arab, ispan, xitoy, koreys, nemis, rus, turk, fransuz, hind va boshqa tillarga tarjima qilingan. Birinchi Prezident asarlari va tarixiy nutqlari 24 tomda mujassam bo'lgan.

Kelajak bunyodkorlari, ertangi kun egalari hisoblanmish yosh avlodning har tomonlama shakllanishida maktabning ahamiyati beqiyos. Maktab taraqqiyoti madaniyat va saodatning kalitidir. Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz ta'lim-tarbiya jarayonini, ilm-u ma'rifatni shaxs kamolotining sababchisi sifatida baholashgan, ta'lim-tarbiyaga jamiyat va millat hayotini rivojlantiruvchi, sivilizatsiyaning eng yuksak pog'onasiga olib chiquvchi xazina sifatida qarashgan va uni imkon qadar boyitishga harakat qilishgan. Negaki, ta'lim-tarbiya, avvalo, inson, uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va tafakkurini o'zida aks ettiradigan bir ko'zgu hisoblanadi va shaxsning o'zligini anglashiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradigan, yurt ravnaqi, el-u yurt koriga yaraydigan komil inson sifatida shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim-tarbiya tizimi bir-birini bevosita to'ldirib, quvvatlab turadigan, o'zaro bog'liq holda rivojlanib boradigan jarayondir.

Turkiyada Respublikaga asos solingach, Mustafo Kamol Otaturk yagona ta'lim tizimini yaratib, barcha ilmiy va o'quv muassasalarini Ta'lim vazirligiga topshirish bo'yicha qaror qabul qildi. Ushbu buyruqlar Turkiyada joylashgan xorijiy o'quv yurtlari va milliy kam sonli aholi maktablariga nisbatan qo'llanildi. 1924-yil 3-mart sanasida barcha ta'lim organlarini yagona rahbarlik ostida birlashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Turk tilshunosligi va turk tarixiy jamiyatlari tashkil topdi. 1928-yil 1-noyabrda Mustafo Kamol Otaturk yangi turk alifbosini joriy qildi va arab yozuvidan foydalanishni bekor qildi. O'sha paytda mamlakatning savodli fuqarolari aholining 10 foizini tashkil etar edi. Mamlakatning yangi alifboga moslashuvi juda tez sodir bo'ldi va Turkiyada savodxonlik ikki yil ichida 10 foizdan 70 foizgacha ko'tarildi. 1928-yil 1-yanvarda u Turk Ta'lim uyushmasini tashkil qildi. Uyushma moliyaviy ehtiyojga ega, aqlli va mehnatsevar bolalarni qo'llab-quvvatladi, bu esa ta'lim sifatini yaxshilab, uning rivojiga moddiy va ilmiy hissa qo'shdi. Mustafo Kamol Otaturk boshlang'ich ta'lim bosqichida zamonaviy o'qitish usullarini targ'ib qilgan. Uyushma “Turk ta'lim

<sup>8</sup> <http://www.anayasa.gov.tr/index.php?i=template&i=20&lang=0>

<sup>9</sup> <https://www.lex.uz/ru/docs/-20596?otherlang=1>

<sup>10</sup> Hayitov Sh.A., Raxmonov K.J., Hayitov J.Sh. Amir Temur siyмосi barhayot. – Buxoro: 2015. – B.34.



tizimiga oid hisobot va tavsiyalarida” zamonaviylikka intilayotgan jamiyatlarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan paradigmatic tavsiyalar to'plamini taqdim etgan. U mamlakatda mahorat bazasini shakllantirish maqsadida, kattalar ta'limi bilan qiziqdi. Turk ayollariga nafaqat bolalarni parvarish qilish, kiyim tikish va uy xo'jaligini boshqarish, balki uy tashqarisidagi iqtisodiyotga qo'shilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar ham o'rgatildi. Turk ta'limi davlat tomonidan boshqariladigan tizimga aylandi, bu tizim mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun mahorat bazasini yaratishga qaratilgan edi. Uning “yagona” ta'lim dasturi mas'uliyatli fuqarolar bilan bir qatorda jamiyatning foydali va qadrli a'zolarini ham o'qitishga mo'ljallangan edi<sup>11</sup>. Turk ta'limi qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan integrativ tizimga aylandi va gender tengligini o'rnatish uchun ayollarning ta'lim olishi to'laqonli ta'minlandi.

Mustafo Kamol Otaturk ushbu davrda zamonaviy ta'limni targ'ib qilishga ommaviy axborot vositalarining e'tiborini qaratdi. U ta'lim sifati, o'qitish masalalari va ba'zi asosiy ta'lim tamoyillari to'g'risidagi “Ilmiy kengashlar” va “Ta'lim sammitlari” deb nomlangan rasmiy ta'lim uchrashuvlarini o'tkaza boshladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, boshqa sohalar qatori ta'lim tizimini ham qaytadan isloh qilish va rivojlantirish zaruriyati paydo bo'ldi. Ta'lim sohasini rivojlantirish uchun qisqa bir davrda zarur huquqiy, ilmiy-uslubiy va moliyaviy sharoitlar yaratildi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan, ayniqsa, maktab ta'limiga alohida e'tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'lim haqidagi quyidagi fikrlari e'tiborga molik: *“Xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi”*<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bepul ta'lim olishi haqidagi qonunning bosh qomusimiz hisoblanmish Konstitutsiyamizning 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidir”, deb qat'iy belgilab qo'yilishi ta'lim sohasidagi o'zgarishlar uchun tashlangan dastlabki yirik qadam bo'ldi. O'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya beradigan maktab muassasalari faoliyatini davlat va jamiyat nazoratida bo'lishining o'zi

ham bu tizimda amalga oshirilgan dastlabki islohotlarning biri edi. I.Karimov ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha maxsus istiqbolli dastur tayyorlash va uni amaliyotga tatbiq etish to'g'risida ko'p bora ta'kidlagan edi. Ana shu tashabbuslarning yorqin ifodasi sifatida 1997-yil 29-avgust sanasida O'zbekiston Respublikasining *“Ta'lim to'g'risida”*gi va *“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”*gi qonunlari qabul qilindi. *“Ta'lim to'g'risida”*gi qonunning qabul qilinishi tizimdagi ulkan amaliy qadamlardan biri bo'ldi. *“Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan”*<sup>13</sup>.

Qolaversa, oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlardan eng kattasi shubhasiz bu “Umid” jamg'armasining tuzilishi va bu oraqali ertamiz egalari bo'lgan yoshlarni dunyoning nufuzli mamlakatlarida ta'lim olishini ta'minlash bo'ldi. Ushbu dastur orqali yoshlarimiz dunyoning eng rivojlangan davlatlarida tahsil olishdi. Ushbu tashabbus, albatta, besamar ketmadi. Bugungi kunda ushbu dastur orqali xorijda tahsil olganlar orasidan Sardor Umrzoqov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi rahbari, Sherzod Shermatov AKT vaziri, Aziz Abdihakimov esa Turizm va madaniy meros vaziri lavozimida samarali faoliyat olib borib yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishmoqda. Shuningdek, ushbu dastur bugungi kunda “El-yurt umidi” nomi ostida davom ettirilib salohiyatli yoshlarimiz dunyoning nufuzli oliygohlariga o'qishga jo'natilmoqda. O'ylaymizki, mustaqilligimizning ilk yillarida o'z davri uchun muhim bo'lgan yutuqlarimiz bugungi kunimizda ham va kelajakda ham davom etib Yangi O'zbekistonning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, kamchiliklari bilan bo'lsa-da, mustaqil O'zbekiston o'zining o'ziga xos ta'lim tizimiga ega bo'ldi.

Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdug'aniyevich Karimov xalq bilan bo'lgan ochiq muloqotlarda ham, rasmiy nutqlarida ham “tinchlik, osoyishtalik” so'zini ko'p qo'llashgan. Bunday so'zlar hamma vaqt ham har qanday davlat rahbarining nutqida uchraydigan so'zlar emas. Mustafo Kamol o'z nutqini “Mamlakatda tinchlik va dunyoda tinchlik!” degan shior bilan yakunlasa, Islom Karimov “Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!” deb xulosa yasardi har bir nutqida. Shubhasiz, Mustafo Kamol Otaturk va Islom Karimov o'z vatani, xalqini sevar edilar. Odamlar ularning siyomosida o'zlarining hayoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan ota timsolini ko'rishar edi. Ushbu o'zaro samimiy ehtirom bugun ham davom etmoqda. Ular butun hayotlari davomida xalqining nurlu iqboli yo'lida zahmat chekdi.

<sup>11</sup> Wolf-Gazo. John Dewey. The Middle Works of John Dewey, 1899-1924: Journal Articles, Essays, and Miscellany. – SIU Press, 2008. – P.15.

<sup>12</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:— Ma'naviyat, 2008. –B.38-39.

<sup>13</sup> Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O'zbekiston”, 2015. – B.264.

## ZULFIQOR MUSOQOV FILMLARIDA ZAMONDOSHLAR OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek kino san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan rejissor, kinodramaturg Zulfiqor Musoqov ijodi haqida to'xtalib o'tilgan. Uning zamondoshlar obrazini yaratishdagi o'ziga xosligi, individual yondashuvi, film qahramonlari misolida tahlil etilgan. Quyida uning "Abdullajon yoki Stiven Spilbergga bag'ishlanadi", "Kichkina tabib", "Osmondagi bolalar", "Osmondagi bolalar-2" va "Vatan" filmlari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** zamondoshlar obrazi, kinoijodkor, tomoshabin, ssenarist, rejissor, qahramon, xarakter, drama, komediya, tarixiy janr, personaj.

## ХАРАКТЕРНЫЕ ЧЕРТЫ ОБРАЗА СОВРЕМЕННОКА В ТВОРЧЕСТВЕ ЗУЛЬФИКАРА МУСАКОВА

**Аннотация.** В статье речь идет о творчестве режиссера и кинодраматурга Зульф리카ра Мусакова, которое внес значительный вклад в развитии национального кино. Анализируется его индивидуальный и своеобразный подход в создании образа современника на примере таких фильмов, как "Абдуллажон или посвящается Стивену Спилбергу", "Маленький лекарь", "Дети на небесах", "Дети на небесах-2" и "Родина".

**Ключевые слова:** образ современника, кинодеятель, зритель, сценарист, режиссер, герой, характер, драма, комедия, исторический жанр, персонаж.

## CHARACTERISTIC FEATURES OF THE IMAGE OF A CONTEMPORARY IN THE WORK OF ZULFIKAR MUSAKOV

**Abstract.** The article deals with the work of director and screenwriter Zulfikar Musakov, who made a significant contribution to the development of national cinema. His individual and peculiar approach to creating the image of a contemporary is analyzed on the example of such films as "Abdulladjon or dedicated to Steven Spielberg", "The little healer", "Children in Heaven", "Children in Heaven-2" and "Homeland".

**Keywords:** the image of a contemporary, filmmaker, spectator, screenwriter, director, hero, character, drama, comedy, historical genre, character.



Zamondoshlar obrazini yaratish muammasi kinoijodkorlarni hamisha o'ylantirib keladi. Sababi, tomoshabin ekranda o'zi bilan bir davrda yashayotgan insonlarning o'y-xayollari, tashvishlari, muammolari, orzu-umidlarini ko'rishni istaydi. Biroq har qanday mavzuni yoki zamondoshlar obrazini real hayotdagidek o'zgarishsiz ekranga olib chiqib bo'lmaydi. Filmning o'ziga xos yuki, badiiy saviyasi, tomoshabinga aytadigan yangi fikri, g'oyasi bo'lishi zarur. "Zamonaviy o'zbek badiiy kinematografi xalqning maishiy turmushi va etnomadaniy hayotini ko'rsatish asnosida umuminsoniy qadriyatlar va zamondoshimizning ichki olamini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratmoqda", – deydi san'atshunoslik fanlari doktori, kinoshunos Nigora Karimova [2.40].

Bu borada ancha yillardan beri sermahsul ijod qilib kelayotgan ssenarist-rejissor Zulfiqor Musoqovning o'ziga xos o'rni bor. Salkam 30 ga yaqin badiiy film yaratgan ijodkorning qahramonlari turli yoshdagi zamondoshlarimiz ekani, ular orqali ko'plab ijtimoiy muammolar ekranga olib chiqilgani alohida ahamiyatga ega. Ijodkorning o'zbek xalqiga xos xarakter, milliy urf-odatlar va an'analarga sodiq qahramonlari ekranga o'zgacha kolorit beradi. Obrazlarning sun'iylikdan xoli ekani tomoshabin diqqatini tortadi. Sababi, filmda aks etgan obrazlar ma'lum jihati bilan bugungi



kun insonlariga yaxshi tanish. Bu rejissorning ijodi sun'iylik va ortiqcha bo'rttirishlardan holi. Aksincha, uning filmlarida voqealar rivoji reallikka asoslangani seziladi. Mavzu va g'oya tanlashda yangilikka intilishi, yangi shakl va yangi uslubga murojaat qilishi filmografiyasining rang-barangligini ta'minlashga munosib hissa qo'shadi. Muhimi, qahramonlari bir-birini takrorlamaydi. Zamonaviy mavzudagi filmlarida yangi zamondoshlarimiz va ular bilan bog'liq kechinmalar, muammolarni his qilishni kuzatish mumkin.

Zulfiqor Musoqov drama, komediya va tarixiy janrda bir qancha filmlar yaratgan. Ijodkorning komediya janridagi film qahramonlari o'zbek xalqi hayoti, uning

bag'rikengligi, bolajonligi, soddaligi, to'g'riso'zligi, mehr-oqibatga limmo-lim qalbini ochishga xizmat qilsa, drama janrida yaratilgan film personajlarida insonning ichki kechinmalarini chuqurroq ochib berishga intilishi, haqiqatga tik boqishi, vatanga sadoqati seziladi. Tarixiy film qahramonlari zimmasiga o'tgan asr voqealari o'zbek xalqi hayoti, xususan, insonlar qalbiga qanday ta'sir etgani, ularning yuragida qoldirgan o'chmas iz, azob-uqubatlilar turli obrazlar orqali kinematografik talqin etilgan.

Z.Musoqovning drama janridagi filmi qahramonlarida ichki "men"ni ifodalovchi badiiy xususiyatlar ustunlik qiladi. Komediya janridagi filmi qahramonlarini o'ziga xos xarakterli inson sifatida aks ettirishga e'tibor qaratadi. Tarixiy janrdagi film qahramonlarini gavdalanitirishda ular yashagan davr bilan bog'liq faktlar, yangi materiallar va ma'lumotlarga asoslanishini kuzatish mumkin. Rejissor filmlari muvaffaqiyatining asosiy siri – badiiy asos, ya'ni ssenariylarni o'zi yozishida, desak mubolag'a bo'lmas kerak. Hayotni sinchkovlik bilan kuzatadigan ijodkor bugun kishilarni qanday muammolar tashvishga solayotgani, qanday masalalar o'ylantirayotgani, ekran uchun qanday qahramonlarni olib chiqish kerakligini ich-ichidan chuqur his qiladi. E'tiborlisi, bu kinoijodkor ekranda yangi chehralarni kashf etishdan cho'chimaydi. Masalan, "Abdullajon yoki Stiven Spilbergga bag'ishlanadi" filmida Shuhrat Qayumov (Abdullajon obrazida), "Kichkina tabib"da Dilshodbek Kattabekov (Doniyor – kichkina tabib obrazida), "Vatan"da Abdumannon Ubaydullayev (Qurbon ota obrazida) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Zulfiqor Musoqov filmlarida tomoshabin yodida qoladigan o'zbekona xarakter, milliy urf-odat va an'analarga sodiq qahramonlarni kuzatamiz. Ijodkorning "Abdullajon yoki Stiven Spilbergga bag'ishlanadi" filmida ona – Xolida (To'ti Yusupova ijrosida) turmush o'rtog'i Bozorboyni (Rajab Adashev ijrosida) begona bola bilan birga ko'rib, uni o'zbekcha "rashk" qiladi. Ana shu epizoddagi dialog originalligi bilan ajralib turadi. Ayol va o'zga sayyoralik bola suhbatida chog'ida sodda o'zbek ayolining xarakteri yorqin ifoda etilgan. Ona obrazining liboslari, xatti-harakati, gap-so'zlari, xalqimizga xos bolajonlik hissi uning o'zbek ayollariga xos jihatlarni yorqin namoyon etishga xizmat qilgan.

"Abdullajon..."da bir-biridan qiziq, tomoshabinni ekranga "mixlab" qo'yadigan voqealar oddiy o'zbek xonadonida sodir bo'ladi. Film ijodkorlari ushbu voqelikka o'ziga yarasha bo'yoq berib, uni badiiy-lashtirgani tabiiy. Masalan, ketmonlarning uchishi kinoning tomoshaviyligini yanada oshirgan. O'ylab topilgan bo'lsa-da, ushbu voqealarni tomoshabin qiziqish bilan kuzatadi. Hattoki, hayotda ham shunday hodisalar ro'y berishi, aniqrog'i, ketmonlarning uchishiga tomoshabin ishongisi keladi.

"Rejissor mushohadalarining mazmuni, uning ssenariyi ustida muallif bilan yoki bir o'zi ishlashining mohiyati – qahramonlar xarakterlari, ular xatti-harakatlarining sabablari, dialoglar aniqqligi, lo'ndaligi kabi aniq natijalarni ko'zlaydi", – deydi san'atshunoslik fanlari nomzodi, kinoshunos Xanjara Abulqosimova [1.75]. Shu o'rinda aytish joizki, Z.Musoqovning zamondoshlar

obrazini yaratishdagi ijodiy izlanishi o'ziga xos. Uning fantastik drama janridagi "Kichkina tabib" filmidagi Doniyor (Dilshodbek Kattabekov ijrosida) obrazi zamonamiz qahramoni. Bir qarashda bu film bolalar uchun mo'ljallangandek tuyuladi, aslida u kattalar va ular bilan bog'liq turmush muammolariga bag'ishlangan. Rejissor bu borada yangicha yondashadi.

Butun umrini boylik va mansab orttirishga bag'ishlagan Shuhrat Shodmonov (Murod Rajabov ijrosida) xonadonida yovuz ruh hukmronlik qiladi. Shu bois uning nabirasi Nigora kasallikka chalingan. Ko'rinishidan boy-badavlat, juda baxtli oila hisoblanmish Shodmonovlar xonadoni aslida halovati buzilgan, ich-ichidan chirib borayotgan daraxtga o'xshaydi. Kichkina tabib Nigorani tibbiyot ham hal etishi mushkul bo'lgan ahvoldan qutqarib qolish uchun uning tanidagi dard bilan emas, balki undanda xavfliroq illatlar bilan kurashadi. U qizaloqni davolash chog'ida faqat o'z manfaatlarini o'ylaydigan bu oiladagi xudbinlik muhitini o'zgartiradi... Shundan keyingina bobo o'z xatosini tushunib yetadi. Film so'nggida kichkina tabib qizni tuzatishga muvaffaq bo'ladi. O'zi kasal bo'lib qolganida esa qiz unga yordamga keladi...

Bir qarashda oddiy syujetlar asosiga qurilgan ushbu film tomoshabinni mushohada qilishga undaydi. Hamma ham anglamaydigan, to'g'rirog'i, e'tibor bermaydigan muammo yosh bola – kichkina tabib obrazi orqali ochiladi. Nima uchun bolakay o'yingaroq yoki oddiy bolalardek qahramon emas, balki tabib qiyofasida gavdalanitirilgan? Chunki tabib bemorning dardini tabiiy ravishda yengillata oladi. Shodmonovlar oilasidagi notinch jarayonga kichkina tabib yordamida "tashhis" qo'yilib, oddiy davolash usullari tavsiya etiladi.

Doniyor bolalarcha qalbi, o'ziga xos tabiati bilan filmga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlagan. Uning ijrosida soxtalik sezilmaydi. Aksincha boladagi beg'uborlik operator suratga tushirgan turli kadrlarda o'z aksini topgan. "Kichkina tabib"da tomoshabinida kulgi uyg'otuvchi xatti-harakatlar, monolog va dialoglar o'rin olgan. Rejissorning to'qima obrazlarni yaratishdagi mahorati va uni janr xususiyatlariga moslashtira olishi obrazlarning tabiiy aks etishida xizmat qilgan. Bu zamondoshlarimizning kundalik turmush tarzi, tashvish-quvonchlariga bag'ishlangan film. Unda ijtimoiy hayotdagi qator dolzarb muammolar ekranga olib chiqilgan.

Kattalarning muammosini bolalar obrazi yordamida ochib berish mazkur filmda o'zining to'la ifodasini topgan. Lekin buni oddiy tomoshabin sezmasligi mumkin. Sababi, kichkina tabib – Doniyor obrazi filmning asosiy qahramoni sifatida gavdalanadi. Bu uslub rejissorning o'ziga xos shaklni topa bilganini isbotlaydi. Aslida bu erki shakl, lekin filmda aks etgan hozirgi zamon turmush tarzi yangi mavzu ekani bilan ahamiyatlidir.

Filmga Hojiakbar Nurmatov, Munavvara Abdullayeva, Murod Rajabov, Rajab Adashev, Karim Mirxodiyev, Fotima Rejimetova kabi ajoyib aktyorlar ansambli taklif etilgan. Rejissor kino san'atida mazkur film orqali qo'shaloq muvaffaqiyatga erishgan. Biri yangi mavzuda yangi qahramon yaratilishi bo'lsa, ikkinchisi, yangi aktyor – Dilshodbek Kattabekovning kashf qilinishi, deyish mumkin.

Kinorejissor Shuhrat Abbosov: “Men hamisha filmga aktyorlarni sinov asosida tanlayman. Aktyor mahoratiga ishonish yaxshi, ammo sinov aktyorning obrazli holatini ko‘rsatib beradi”, – degan edi [3.40]. Darhaqiqat, tomoshabin rejissorning ijodiy izlanishini aktyor ijrosida ko‘radi. Aktyor mahoratli bo‘lsa, o‘ziga topshirilgan rolni maromiga yetkazib ijro etadi. Tan olish kerak, Dilshodbek Kattabekov va Murod Rajabov o‘ziga xos ijro uslubi bilan film badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Eng nozik jihatlar, qolaversa qaltis muammolar aynan shu qahramonlar ishtirokida o‘z yechimini topadi. Ushbu film minglab tomoshabinlarni kinozallarga jalb qilgani alohida diqqatga sazovor.

Zulfiqor Musoqovning **“Osmondagi bolalar”** filmi ham tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otgan. 9 oy davomida respublika kinoprokat ekranlaridan tushmagan ushbu badiiy film markazida zamondosh yoshlarimizning hayoti aks etgan. O‘smirlarning samimiy munosabati, o‘zaro sof his-tuyg‘ulari, voqealar rivojidadagi dinamikaning kuchayib borishi, nafaqat maktab yoshidagilar, balki institutda o‘qiyotgan talabalar, hattoki, katta avlod tomoshabinlarni ham befarq qoldirmagan.



“Osmondagi bolalar” filmi qahramonlari – Baxtiyor (Temur Musoqov ijrosida), Hamdam (Muzaffar Sa’dullayev ijrosida), Xurshid (Davron G‘ulomov ijrosida), Javohir (Aziz Sultonov ijrosida), Lola (Kristina Toirova) va Nargiza (Malika Alimova ijrosida) turli shart-sharoit, mutlaqo boshqa muhitda o‘tib-ulg‘ayayotgan bo‘lishlariga qaramay, bir-birlariga mehr-muhabbati cheksiz. Ayniqsa, nonvoy bola – Hamdamning taqdiri filmda ta’sirli aks ettirilgan. Otasi aroqqa asir tushgani uchun ro‘zg‘or tashvishi bu yosh yigitning gardaniga tushgan. Maktabdan keyin ter to‘kib non yopishi, darslarga bora olmasligi, xullas, bularning hech biri uni do‘stlari, sinfdoshlaridan ajralib qolishiga sabab bo‘lmaydi. Aksincha, bu holat ularni yanada jipslashtiradi.

“Osmondagi bolalar-2” filmida ham do‘stlarning samimiy munosabatlari, xususan, yoshlarning sof sevgisi ishonarli aks etgan. Filmda ularning katta hayot ostonasiga qadam qo‘yish oldidagi voqealar aks ettirilgan. Otasidan Hamdamning tarvuz pishganda kelishini eshitgan beshariqlik qiz tarvuzning tepasiga kelib: *“Qachon pishasan?” deya so‘rashi ilk muhabbat dardiga muhtalo bo‘lgan qahramonning sof kechinmalarini ajoyib tarzda ifodalagan. Mana shu o‘rinda Zulfiqor Musoqovning qahramon yaratishdagi o‘ziga xos yondashuvini kuzatish mumkin. Ota-onasiga bu haqda sir boy bermay, indamaygina ketgan iboli, sharm-hayoli qiz yuragini tarvuzga “ochadi”.*

Hayot har doim ham bir tekis emasligi, orzu-umidlar hamisha ham inson o‘ylaganchalik amalga oshmasligini film qahramonlari taqdiri misolida kuzatish mumkin. Bir qahramon taqdiriga tan bersa, boshqasi niyatiga erishish yo‘lida shahdam qadam tashlaydi. Oradan yillar o‘tib, filmdagi o‘sha o‘smir yigitlar katta hayotga qadam bosgan. Hozirda Zulfiqor Musoqov o‘zining bu qadrli qahramonlarining keyingi hayoti, ya‘ni ota-onalik baxtiga erishgan davri haqidagi **“Osmondagi bolalar-3”** filmi tomoshabinlar e‘tiboriga havola qilish niyatida ish olib bormoqda.

Har uchchala filmning asosiy qahramonlarini o‘sha aktyorlar ijro etishining o‘zi Zulfiqor Musoqov ijodida o‘ziga xos yangi tendensiyani vujudga keltirmoqda. Film mavzusining mantiqiy davom ettirilishi esa tomoshabinlarda o‘sha sevimli qahramonlarni ko‘rishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi. Ayniqsa, aktyorlarning grim yordamida emas, hayotda haqiqatdan ham ulg‘ayishi, tafakkuridagi o‘zgarishlarni kuzatish tomoshabin uchun maroqli. O‘z zamondoshlari bilan birga ulg‘aygan o‘sha aktyorlarning katta ekranga yana qaytishi, muhimi, voqealar rivoji endilikda qay tomonga evrilishi ko‘pchilik uchun qiziq bo‘lishi tabiiy. Chunki bu seriyali filmlar ta’sirida necha minglab tomoshabinlar ulg‘aydi. Uning qahramonlari hayotidan ibrat olganlar ham, muhabbatiga havas qilganlar ham, hayot yo‘lini tanlaganlar ham topiladi.

Inson taqdirining ekrandagi badiiy talqini hamisha tomoshabinlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Chunki kinoda har qanday badiiy obraz makon va zamonda rivojlanadi. Zulfiqor Musoqovning **“Vatan”** filmi bosh qahramoni Qurbon ota (yoshligi Muzaffar Sa’dullayev ijrosida, keksaligi Abdumannon Ubaydullayev ijrosida) vataniga bo‘lgan mehr hissi bilan yashaydi. Aslida u xiyonatkor do‘sti Hamiddan (yoshligi Bobur Yo‘ldoshev ijrosida, keksaligi Obid Yunusov ijrosida) qasos olish maqsadida, Nyu-Yorkdan o‘z yurti O‘zbekistonga qaytadi, ammo uning joniga qasd qilishga qo‘li bormaydi. Chunki Hamidni Yaratganning o‘zi jazolab bo‘lgan, ustiga-ustak Qurbon ota tug‘ilib o‘sgan makonining tuprog‘ini qonga burkashni istamaydi. Taqdir taqozosi bilan boshqa davlatga borib qolgan Qurbon yillar o‘tib boy oilaning sohibiga aylanadi. Lekin unga vatan sog‘inchi, tug‘ilib o‘sgan yurtining ob-havosi yetishmaydi. Shu bois, u albatta O‘zbekistonga borishni ko‘ngliga tugadi va oradan 60 yil o‘tgachgina ona yurtiga qaytadi...

Zulfiqor Musoqov filmni hayotiy aks ettirish uchun bosh qahramon roliga debyutant Mannon Ubaydullayevni taklif etgan. U bu bilan obrazni haqiqatdan Amerikadan kelgandek qilib gavdalantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa ajab emas. Qurbonning nigohida ayanchli umr, achchiq armonning aksi namoyon. Agar bu o‘rinda taniqli aktyor ijrosidan foydalanilganda, balki film bu darajada muvaffaqiyat qozonmagan bo‘larmidi?!

Qahramonlarning yoshligini ijro etgan aktyorlar – Bobur Yo‘ldoshev (Hamid rolida) va Muzaffar Sa’dullayev (Qurbon rolida) ham o‘ziga topshirilgan vazifani yaxshi anglagan. Rejissorning bir yutug‘i qahramonlarning tashqi qiyofasiga monand chehralarni topa olgani bo‘lsa, ikkinchi yutug‘i hayot haqiqatini ekranga badiiy qilib

ko'chira olganidir. Filmning bir epizodida Qurbon sevgan qizi Gunafshaga (Ra'no Shodiyeva ijrosida): "Gunafsha, sekinroq yugur, sepkillaring to'kilib ketmasin", – deydi. Mana shu jumla ko'plab tomoshabinlar xotirasida saqlanib qolgan. Oddiy gap zamirida qahramonlarning bir-biriga bo'lgan e'tibori o'z aksini topgan. Bu kabi dialoglarni tomoshabinlar ko'p eslashadi. Muhimi, Zulfiqor Musoqovning har bir filmida bir nechta mana shunday xalq tomonidan ko'p yodga olinadigan monolog va dialoglar mavjud.

Endigina sevgan insonning yurak urishini tinglash, tana haroratini his etish uchun zo'rg'a ruxsat olgan Qurbonni Gunafsha sukut bilan qarshi oladi. Gunafshaning yillar davomida Qurbonning ismini aytib urgan yuragi bugun negadir jim... Ushbu epizod filmning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Qurbonning o'g'li (Otabek Musayev ijrosida) boy-badavlat, lekin o'zligini, o'zbekligini anglamagan inson. U otasining kechinmalarini uning vafotidan keyingina tushunib yetadi va o'zbek ekanligini tan oladi...

Zulfiqor Musoqovning juda ko'p filmlari turli sovrinlarga munosib topilgan. Sababi, u har bir film qahramonlarini yaratishda atrofni, insonlarni, zamondoshlarini kuzatadi, bu borada jiddiy izlanadi. Shu bois obrazlarining kinematografik talqini alohida ahamiyatga ega.

Ba'zi hollarda ssenariy muallifining ilgari surgan g'oyasi va mavzusini rejissor noto'g'ri talqin etgan holatlar uchrab turadi. Bu borada mualliflik filmlari shu jihatlari bilan muvaffaqiyat qozonishini ta'kidlamoq

kerak. Shunday ekan, yosh rejissorlarga ssenariy yozish qoidalarini puxta o'rgatish foydadan holi bo'lmaydi. Shu maqsadda ustozlar an'analarga tayanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Har bir xalq badiiy filmlarida milliylik, o'ziga xos urf-odat va an'analarni zamondoshlar obrazi vositasida aks ettirishga intiladi. Chunki milliylik – millat ko'zgusi. O'zbek kino ijodkorlarining davomchilari bo'lmish yosh rejissorlar Zulfiqor Musoqovdan xalqchil, sodda o'zbek obrazini yaratishdagi ijodiy yondashuv usulini o'rganishlari ular uchun o'ziga xos maktab vazifasini bajarishi mumkin.

Umuman olganda, har bir rejissorning o'ziga xos maktabi haqida maxsus dastur tayyorlanib, rejissyor-talabalarga o'qitilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu borada har bir rejissorning to'liq filmografiyasi bilan tanishib chiqish ham uning o'ziga xos ijodiy uslubini aniqlashga yaqindan yordam beradi.

O'zbek kinosini malakali kadrlar bilan boyitish uchun, albatta, ustoz rejissorlarning an'ana va izlanishlarini o'rganishga to'g'ri keladi. Shu maqsadda rejissor-talabalar uchun professional kinoijodkorlar, jumladan, Zulfiqor Musoqov bilan alohida mahorat darslarini tashkillashtirish, u bilan davra suhbatlari o'tkazishni o'quv dasturlariga kiritish kelgusida ijobiy samara berishiga umid qilamiz. Ustoz-shogird maktabini shakllantirish masalasiga jiddiy yondashish kelajakda ko'zlangan maqsadga erishishda muhim omil bo'ladi. Shundagina o'zbek kinosi ham dunyo kino san'ati bilan bemalol raqobatbardosh bo'la olishiga ishonamiz.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. – B.100.
2. Karimova N. O'zbekiston badiiy kinematografining shakllanishi va taraqqiyoti: Avtoreferat ... san'atshunoslik fanlari doktori. – T.: 2019. – B.86.
3. Xolmirzayev H. Obraz va talqin (Hamza Umarovning badiiy obraz yaratish mahorati). – T.: "Chashma Print", 2010. – B.40-56.



# VII BO' LIM

## E'TIROF

Gulchira XODJAMETOVA,

O'zDSMI Nukus filiali dotsenti, tarix fanlari nomzodi

### QORAQALPOG'ISTON MUSIQA MADANIYATINING RIVOJLANISHIDA KOMPOZITOR NAJIMMADDIN MUXAMMADDINOVNING QO'SHGAN HISSASI VA IJODIY FAOLIYATINING MUHIM JIHLTLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qoraqalpoq musiqa merosini sayqal topishida katta hissa qo'shgan Qoraqalpoq'iston Davlat madhiyasi musiqa muallifi, O'zbekiston va Qoraqalpoq'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Qoraqalpoq'iston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, atoqli qoraqalpoq kompozitori Najimmaddin Muxammaddinovning fidokorona xizmatlari xususida so'z yuritilgan. Ohang va sadolar orqali insonga ruhiy ozuqa beradigan kuy va qo'shiqlarning yaratilishi bilan bog'liq vazifalar, bastakorlik faoliyatining mashaqqati hamda mas'uliyati haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, qoraqalpoq musiqa tarixi va rivojlanish jarayonlari to'g'risida ham aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek va qoraqalpoq, opera, balet, xor, bastakor, kompozitor, uslub, an'ana, madaniyat, musiqa, ijod, professional, asar.

### ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ВКЛАД КОМПОЗИТОРА НАЖИММАДИНА МУХАМЕДДИНОВА В РАЗВИТИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ КАРАКАЛПАКСТАНА

**Аннотация.** В данной статье автор Государственного гимна Каракалпакстана, внесший большой вклад в развитие музыкального наследия Каракалпакстана, заслуженный артист Узбекистана и Каракалпакстана, председатель Союза композиторов Каракалпакстана, известный композитор. Обсуждались подвижнические заслуги Наджиммадина Мухаммеддинова. О сложности и ответственности композиторской деятельности говорилось о задачах, связанных с созданием мелодий и песен, которые посредством мелодий и звуков обеспечивают духовную пищу человека. Также были упомянуты история и процессы развития каракалпакской музыки.

**Ключевые слова:** узбекский и каракалпакский, опера, балет, хор, композитор, композитор, стиль, традиция, культура, музыка, творчество, профессионал, произведение.

### IMPORTANT ASPECTS OF CREATIVE ACTIVITY AND CONTRIBUTION OF THE COMPOSER NAZHIMMADDIN MUHAMMEDDINOV TO THE DEVELOPMENT OF THE MUSICAL CULTURE OF KARAKALPAKSTAN

**Abstract.** In this article, the author of the National Anthem of Karakalpakstan who made a great contribution to the development of the musical heritage of Karakalpakstan, the honored artist of Uzbekistan and Karakalpakstan, the chairman of the Union of Composers and Composers of Karakalpakstan, the famous Karakalpak composer The selfless services of Najimmaddin Mukhammaddinov were discussed. The tasks related to the creation of tunes and songs that provide spiritual nourishment to a person through melodies and sounds, the difficulty and responsibility of the composer's work were discussed. The history and development processes of karakalpak music were also mentioned.

**Key words:** uzbek and karakalpak, opera, ballet, choir, composer, composer, style, tradition, culture, music, creativity, professional, work.

Barchamizga ma'lumki, ajdodlarimiz musiqaning insonda yuksak didni shakllantirishdagi hissasi beqiyosligini ta'kidlagan. Kishi ruhiyatini ko'tarib, nafosat olamiga olib kirishini, inson shaxsini kamol toptirib, oliyjanob insoniy

fazilatlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini yuqori baholashgan. Demak, musiqa madaniyatimizning tarixi ancha buyuk, ildizi naqadar chuqur ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, jahon musiqa madaniyatida o'zbek va qoraqalpoq musiqasining tutgan o'rni hamda ahamiyati juda yuksakidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ta'kidlanganidek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.

Uzoq tarixga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining musiqa madaniyati ham asrlar davomida xalqimizning bebaho hazinasini sifatida juda qadrlanib kelmoqda. Milliy musiqiy durdonalar, kuylar, ohanglar xalqimizni ma'naviy barkamol bo'lishga o'rgatib, ezgu ishlarni amalga oshirishga undamoqda. Muhtaram Prezidentimiz ham *“Qoraqalpoq diyori o'zining dunyoda o'xshashi yo'q, betakror san'ati bilan barchamizni hayratga solib keladi”*<sup>2</sup>, – deya ta'kidlab o'tgan. Filologiya fanlari doktori N.Dauqarayevning qayd etishicha: *“Qoraqalpoq xalqi – o'zining qayg'uli kunlarida ham, quvonchli kunlarida ham qo'shiqsiz, soz-suhbatsiz, og'zaki poeziyasiz yashay olmaydi”*<sup>3</sup>. *“Necha ming yillardan beri insoniyat musiqaga, uning go'zal ohanglariga maftun bo'lib keladi, ustoz-shogird an'analari orqali ijrochilik mahoratlarini egallash borasida izlanishlar olib boradi”*<sup>4</sup>.

Darvoqe, buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning serqirra ilmiy merosida ham musiqa san'ati ancha muhim va salmoqli o'rin tutadi. *“Ibn Sino o'zidan oldin o'tgan yunon faylasuflari Aristotel, Ptolomey, Evklid, shuningdek, Sharq olimlari Xorazmiy, Kindiy va Forobiy asarlarini ijodiy o'zlashtirib, musiqa ilmida mustaqil ta'limot yaratdi. Qo'yilgan masalalarning kengligi, yoritilishining chuqurligi nuqtai nazaridan o'z zamonida beqiyos bo'lgan Ibn Sino ta'limotining ahamiyati davr doirasi bilan cheklanmasdan, balki u Sharq va G'arb musiqasining keyingi rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi”*<sup>5</sup>.

Shu o'rinda aytish joizki, ajib ohang va go'zal sadolar orqali insonga ruhiy ozuqa beradigan kuy va qo'shiqlarning yaratilishi esa bastakorlik faoliyati bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Demak, musiqa yaratuvchilari, ya'ni bastakorlarning ijodiyoti xalq ma'naviyati, madaniyati, tarixi, an'ana, qadriyatlariga haqida mukammal ma'lumotni taqdim etadigan axborot manbai vazifasini ham o'taydi. Bastakorlik ijodiyotining mahsuli, xalqning ma'naviy dunyosini zamonasiga mutanosib holda aks ettirib, yana xalqqa taqdim etishga qaratilgan bo'ladi. Atoqli maqomshunos olim Ishaq Rajabovning bergan ta'rifiga qaraganda, *“bastakor so'zi tojikcha (“basta” bog'langan, “kor” ish, ishlovchi ma'nolarida) kuyni tashkil etadigan unsurlarni bir-biriga bog'lovchi – demakdir. Hozirda “kompozitor” (kompozitsiya etuvchi, kuy yaratuvchi) ma'nosida ishlatiladi”*<sup>6</sup>. Darhaqiqat, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Qoraqalpog'iston Respublikasida milliy bastakorlik ijodiyoti shakllanish bosqichiga kirgan. O'sha davrlarda musiqali dramalar, kichik simfonik asarlar, kamer asarlarni yaratish jarayonlari boshlangan. Xususan, 1970-

1990 – yillarga kelib opera, opatoriya, simfoniya, sonata kabi yirik janrlardagi asarlarning ilk tajribalari paydo bo'lgan.

Qoraqalpoq musiqa merosini sayqal topishida Qoraqalpog'iston Davlat madhiyasi musiqaning muallifi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, atoqli qoraqalpoq kompozitori Najimmaddin Muxammaddinovning fidokorona xizmatlarini eshitmagan, bilmagan insonni topish mushkul. N.Muxammaddinov nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo musiqa san'atining rivojlanishida o'zining betakror milliy kuylari bilan katta hissa qo'shib kelayotgan san'atkorlardan hisoblanadi. Ijodiy faoliyati davomida “Ajiniyoz” birinchi milliy qoraqalpoq operasini, “Ayjamal” birinchi milliy baletini, “Qoraqalpog'iston” kantatatasi, “Alpomish” musiqali dramasi, “Norasta haqida ballada” kabi 300 dan ziyod kuy va romanslarni xalqimizga tortiq etgan.

Uning asarlari orqali har bir yurtdoshimizning qalbida vatanga sadoqat, yor-do'stlarga bo'lgan cheksiz muhabbat shakllandi. *“Kompozitorning bizga bergan eng katta mukofoti bu qalbimizda vatan tuyg'usini mujassamlashtirgan, baxtimiz va qomusimizga aylangan ulug' asar Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat Madhiyasi bo'ldi”*<sup>7</sup>. Insonlarning ruhiga, ichki kechinmalariga turtki beruvchi hayotbaxsh musiqiy asarlarni yaratgan N.Muxammaddinov 1937-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumanida tug'ilgan. Olmaota konservatoriyasida tahsil olgan. Nukus san'at kolleji direktori, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq filarmoniyasida badiiy rahbar, Qoraqalpog'iston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat ishlari vaziri lavozimlarida mehnat qilgan.

Mana shunday turli rahbarlik vazifalarida faoliyat yuritisa ham o'zining kompozitorlik faoliyatini chetga surib qo'ymagan va musiqa olamini yangi kuylar bilan boyitib borgan. Uning ijodiga mansub asarlar ham xalqonaligi, an'anaviyligi va zamonaviyligi bilan ijro amaliyotida ommalashib, rivojlandi. Bastakorlik ijodiyoti an'anasi zamonaviy musiqa ijodiyoti bilan boyitildi. Najimmaddin Muxammaddinov asarlarining har biri yaxlit bir shakl bo'lib, bu shakllarning har biri xilma-xil ohanglardan yasalgan kuyi o'ziga xos shakllarni eslatadi. Odatda shakl his-tuyg'u, yangraydigan tovushlar yordamida o'z ifodasini topgan. U fikr va g'oyalarni ifodalashda musiqiy jumla va usullardan samarali foydalanib o'ziga xos uslub yaratgan. Kompozitor ijodidagi u yoki bu ohang musiqiy jumalarning har biri alohida tuzilish kasb etishi uning uslub yaratishdagi katta mahorat egasi ekanligidan dalolatdir. Xususan, opera va balet kabi murakkab musiqa yo'nalishida qoraqalpoq milliy dostonlari, kuylari va qo'shiqlarini, raqslarini birlashtirib katta asarlar, simfonik poema va romanslar yaratish ancha mashaqqatli va juda mas'uliyatli vazifa hisoblanadi.

*“N.Muxammaddinovning “Guloyim” operasini yaratilishida Qurbonboy jirov Tajiboyev kuylagan “Qirqqiz” dostoni asos bo'lgan. Men ushbu doston asosida libretto yaratar ekanman, operada voqealarni jirov qo'biz bilan kuylashini chin yuragimdan his qildim va qoraqalpoq xalqining jirov kuylari opera ichida yangrashini juda istadim. Shu tariqa “Guloyim” operasi paydo bo'ldi va bu “Guloyim” milliy etno operasida birinchi marta qo'biz asbobida kuylagan jirov ovozi opera san'atiga olib*

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – B.488.

<sup>3</sup> Nadirova A. Qaraqalpaq музыка тарихы. – T.: “Sano-standart”, 2018. – B.384.

<sup>4</sup> Toshmatov E. Dirijorlik: o'quv qo'llanma. / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashrivoti, 2008. – B.264.

<sup>5</sup> Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. – T.: 2016. – B.121. Rajabov I.R. Maqomlar. – T.: “San'at”, 2006. – B.25.

<sup>6</sup> Rajabov I.R. Maqomlar. – T.: “San'at”, 2006. – B.25.

<sup>7</sup> Ibrohimov O. “El ardoidagi san'atkor”. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2022-yil, 9-sentabr, 31-son.

*kirishi natijasida dunyoviy musiqa sayqali – operaning tarkibiga milliy qoraqalpoq musiqa asbobi bo'lgan qo'bizni olib kirib, etno operaning yuzaga chiqishiga zamin yaratdi*"<sup>8</sup>.

Shu o'rinda, shoir va kompozitorning o'zaro ijodiy hamkorligi adabiyot va san'atda bitmas-tuganmas milliy va ma'naviy xazina yaratilganini ham e'tirof etish joizdir. N.Muxammeddinov "Ajiniyoz" operasini yaratishda qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri O'zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov bilan juda yaqin ijodiy hamkorlikni amalga oshirgan. Bu mukammal sahna asari 2019-yilda Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri sahnasiga qo'yildi va yuksak e'tiroflarga loyiq ko'rildi.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi R.Abdullayev: "*Bugun nihoyatda xursandman. Chunki bu operadan keyin teatrdagi katta bayram bo'lib ketdi. Bu qoraqalpoq sahnasiga katta tuhfa bo'ldiki, bu operaning yaratilishi bu millatning baxti, millat uchun katta bayram bo'ldi*"<sup>9</sup>, – deya ta'kidlaydi.

O'rni kelganda aytish lozimki, "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori<sup>10</sup> imzolangan. Ushbu huquqiy hujjatda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi faollar kengashi tomonidan bildirilgan taklif asosida Uyushma O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi etib o'zgartirilgan va uning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Uyushma faoliyatida mamlakatimizning madaniy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, musiqiy ta'lim-tarbiya sohasini takomillashtirish, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijodiy uyushmalar va boshqa tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari alohida o'rin egallashi zarurligiga urg'u berilgan. Shuningdek, xalqimizning estetik talab va ehtiyojlarini har tomonlama hisobga olib, zamonaviy ruhdagi badiiy yuksak asarlar yaratish, yosh kompozitor, bastakor va musiqashunoslar, barcha ijrochilarning ijod bilan samarali shug'ullanishlari uchun imkoniyat va sharoitlarni kengaytirish, katta musiqiy asarlar, jumladan, opera, simfoniya, konsert va oratoriya

kabi mumtoz janrlar rivojiga alohida e'tibor qaratish nazarda tutilgan.

Kompozitor ijodiy faoliyati davomida O'zbekiston Qahramoni I.Yusupov, T.Qabulov, X.Dauletnazarov, G.Dauletova, A.Uteniyazova, I.Mirzo, J.Jabborov kabi ko'plab xalq ardog'idagi shoirlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga erishdi. El xizmatida kamarbasta iqtidor egalarini, komil farzandlar o'stirib, munosib shogirdlar tarbiyalagan ustoz murabbiylarni xalqimiz orasida azim daryoga o'xshatishadi. N.Muxammeddinov musiqaning yetti pardasi orasida yetti ming olam sehri borligini, pardalardagi qochirimlar nola-yu iztiroblardan, sadoqatdan, mehru muhabbatdan so'ylashini ilg'ay olgan va musiqaga mehrini bag'ishlagan. Endi, shu o'rinda, uning "Ayjamal" baleti haqida fikr yuritadigan bo'lsak, balet liberettosini T.Xujasov yozgan. Baletda qoraqalpoq milliy raqsi, qiz-yigitlarning harakatlari milliylik ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, oradan yillar o'tsa ham asarning sahnaviy talqini o'z o'rini yo'qotmagan. Balet O'zbekiston xalq artisti X.Sharipov tomonidan qayta sahnalashtirilgan.

N.Muxammeddinovning har bir asarida milliy kuylarimiz nafasi ufurib turadi. Ayniqsa, uning Vatan madhini kuylovchi asarlarini tinglar ekansiz, shu yurtga bo'lgan mehr-muhabbatimiz tobora oshib borishi shubhasiz. Masalan, uning "Baxtim Amu jag'asi", "Keng dala", "Yashayver Orolim Mo'ynog'im Mo'ynoq", "O'zbek bilan qoraqalpoq qon-qardosh" kabi asarlarini tilga olish lozimdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xalqimizning ardoqli farzandi, musiqa ilmining yirik namoyandasi N.Muxammeddinovning hayoti va faoliyatini, qolaversa, o'zining yaratgan bebaho asarlaridan noyob ma'naviy xazinasini o'rganish, undan ma'naviy oziqa olish, qo'shgan katta hissasini tadqiq etish, yuksak marralarni ko'zlagan talaba-yoshlar hamda san'atni, musiqani qadrlagan har bir odam uchun ham juda muhimdir. Uning asarlari o'ziga xos rang-barang yangiliklarga ega bo'lib, kishini hayratga soladi. Kompozitorning ijodi, milliy kuylari, operalari, musiqali dramalari, kantatasi, romanslari o'zbek va qoraqalpoq musiqashunosligida ilmiy tadqiqot ishlariga sabab bo'lsa ajab emas.

<sup>8</sup> Annaklicheva G. "Qoraqalpoq musiqa san'atining sardori".

"Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil, 17-avgust, 166-son.

<sup>9</sup> Abdullayev R. "Qoraqalpoq musiqa san'atining sardori".

"Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil, 17-avgust, 166-son.

<sup>10</sup> "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-yil, 15-avgust.



## O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATGAN MADANIYAT XODIMI NOZIM TO'LAXO'JAYEV IJODIGA CHIZGILAR

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nozim To'laxo'jayevning ijodiy faoliyati yoritiladi. Ijodkorning o'zbek kino san'ati rivojiga hissa qo'shishda o'ziga xos ijro mahoratiga, uslubiga ega bo'lgan ko'p planli, taniqli aktyor, postanovkachi rejissor, animatorlardan biri va bugungi kunda yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni beqiyos ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishilayotgan yutuqlar va kelgusida amalga oshirish zarur bo'lgan muammolar xususida to'xtab o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** kino, aktyor, rejissura, animator, film, ijod, tarixiy filmlar.

## АНАЛИЗ РАБОТЫ НОЗИМ ТУЛАХОДЖАЕВА ДЕЯТЕЛЯ КУЛЬТУРЫ СЛУЖИВШЕГО В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В данной научной статье рассказывается о творческой деятельности заслуженного деятеля культуры Узбекистана Нозима Тулаходжаева. Отмечается, что он многогранный, известный актер, режиссер, аниматоров, обладающий уникальным исполнительским мастерством и стилем в содействии развитию узбекского киноискусства, и его роль в воспитании современной молодежи несравнимо. Также будет обсужден прогресс, достигнутый в этом отношении, и проблемы, которые необходимо реализовать в будущем.

**Ключевые слова:** Кино, актер, режиссер, аниматор, фильм, творчество, исторические фильмы.

## ANALYSIS OF THE WORK OF NOZIM TULAKHODJAYEVA CULTURE WORKER WHO SERVED IN UZBEKISTAN

**Annotation.** This scientific article tells about the creative activity of the Honored Worker of Culture of Uzbekistan Nozim Tolakhodjaev. It is noted that he is a multifaceted, well-known actor, director, animators, who has a unique performing skill and style in promoting the development of Uzbek cinematography, and his role in educating modern youth is incomparable. Progress made in this regard and challenges to be addressed in the future will also be discussed.

**Keywords:** Cinema, actor, director, animator, film, creativity, historical films



Kino inson hayotining ekrandagi aksidir. Ushbu san'at turi har bir mamlakatda insonparvarlik g'oyalari bilan bir qatorda, o'sha mamlakatning urf odatlari, an'ana va qadriyatlariga asosida rivoj topib boradi. "Kino san'atining inson ongi va tafakkuri, jamiyat hayotiga ta'siri beqiyos ekanini hisobga olgan holda, istiqbol yillarida milliy kinematografiyani har tomonlama rivojlantirish, bu borada zarur moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar tufayli yangidan yangi filmlar sur'atga olinmoqda, ular orqali tariximiz va bugungi hayotimiz bilan bog'liq turli mavzular yoritilmoqda.

"O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat, deb ta'kidlamoq uchun asoslar bor. Respublikada hamma narsa: tabiiy boyliklar, unumdor yer, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi – bu diyorda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi"<sup>1</sup>. Ana shunday xalq vakillaridan biri Nozim To'laxo'jayevdir.

Nozim To'laxo'jayev o'zbek kino san'ati rivojiga hissa qo'shib kelayotgan o'ziga xos ijro mahoratiga, uslubiga ega bo'lgan ko'p planli, taniqli aktyor, postanovkachi rejissor, animatorlardan biridir. U 1951-yil 4-yanvarda



Toshkent shahrida tavallud topgan. San'at olamiga qadam qo'yishida oilaviy muhit sabab bo'lgan. Ijodkorda san'at sohasiga mehrni otasi O'zbekiston xalq yozuvchisi Turob To'la, katta tog'asi O'zSSRda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kinorejissor va ssenariynavis Albert Xachaturov, kichik tog'asi rejissor, aktyor, ssenariynavis Eduard Xachaturovlar uyg'otgan. Ushbu san'atkorlar muhitida ikki ijodkor hozirda san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat To'laxo'jayeva va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nozim To'laxo'jayevlar ulg'ayishadi.

Kino va teatr san'atiga bo'lgan mehr N.To'laxo'jayevni A.Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomlik instituti (hozirgi

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: "O'zbekiston", 1999. – B 95.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) tomon yetaklaydi. Bu yerda yosh iste'dod egasi ustozlardan dastlabki rejissura sirlarini o'rganadi. Shundan so'ng olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etadi. Ya'ni diplom spektakli sifatida Rustam Ibragimbekovning "Arslonga o'xshash" ("похожие на льва") pyesasini sahnaga olib chiqadi. Spektakl muvaffaqiyatga erishadi va ko'plab teatr nazariyotchilari tomonidan ijobiy baholanadi.

Ilmga chanqoq yosh ijodkor teatr sohasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida, Lunacharskiy nomidagi Moskva davlat teatr san'ati institutiga yo'l oladi. 1971-1975 – yillarda ushbu institutning "Teatr rejissorligi" fakultetida tahsil oladi. O'qish jarayonida Nozim To'laxo'jayev klassik teatrning buyuk darg'alari ajoyib o'qituvchi va K.S.Stanislavskiyning shogirdi M.O.Knebel, mashhur rejissor A.V.Efros, teatr rejissori va aktyori Y.Lyubimov, Goncharovlarning ma'ruzalarini tinglash baxtiga musharraf bo'lgan. Ulardan rejissura va aktyorlik san'ati asoslari, ushbu sohaning o'ziga xos sir-asrorlarini o'rganadi. N.To'laxo'jayev talabalik damlarini shunday xotirlaydi: "Men aynan ushbu davrda tahsil olganimdan xursand bo'laman. Teatr san'atining darg'alaridan tahsil olganim, dunyoqarashim yanada kengayishida muhim omil bo'ldi. Nafaqat ularning ma'ruzalarini tinglash, balki ushbu insonlarni shaxsan o'zini ko'rish bir baxt bo'lgan"<sup>2</sup>. Shuningdek, qahramonimiz o'qish davrida F.G.Ranevskaya, R.Ye.Zelenaya, R.Y.Plyatlar bilan tanishadi. "Bular mening ma'naviy olamim kengayishida juda muhim ahamiyat kasb etgan"<sup>3</sup>, – deydi suhbatda N.To'laxo'jayev.

San'atkor 1976-yildan buyon "O'zbekfilm" kino-studiyasida aktyor, rejissor va kinossenariyst sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. U ko'p qirrali aktyor bo'lib, chuqur psixologik va dramatik rollari orqali muxlislar mehrini qozongan, mutaxassislar e'tiborini tortgan. Mustaqillikgacha bo'lgan davr mobaynida "Mening katta akam" (1975), "Jazirama quyosh ostidagi uy" (1976), "Muhabbat va nafrat" (1977), "Ilondan ehtiyot bo'ling" (1978), "Har uchinchisi" (1980), "Qorli cho'qqidagi uchrashuv" (1982), "Muhabbat burji" (1983), "Oyning qorong'u tomonida" (1985), "Jar" (1988), "Chiyabo'rilar" (1989), "XX asr dinovavlari" (1990) filmlarda suratga tushib, aktyor sifatida tajriba orttiradi. Shuningdek, mustaqillik yillarida bir qator postanovkalarda rol ijro etib, yuqori darajadagi aktyorlik mahoratini namoyon etadi. Bular: "Hammasi uchun to'lash kerak" (1991), "Marg'iyona" (1996), "Kichkina tabib" (1998), "Alpomish" (1999), "Спецназ" (Rossiya-2000), "Ostona" (2000), "Baxt qadri" (2001), "Ayollar" (2002), "Yaratganga shukur" (2003), "Umar Nayyom" (2004), "Ha granitse" (Rossiya-2004), "Osmondagi bolalar"(1-2 – qismlar, 2005), "O'yin" (2006), "Suiqast" (2006), "Vatan" (2007), "O'tov" (2007), "Superkelinchak" (2008), "Sukunat" (2008), "Jiyda guli" (serial 2009), "Ilova" (2009), "Jannatdagi bo'rivachcha" (2010), "Banda" (2011), "Afg'on" (2011) kabilardir. "O'tov" va "Ilova" filmlaridagi ijro, munaqqidlar tomonidan ijodining cho'qqisi sifatida e'tirof etilgan.

<sup>2</sup> Nozim To'laxo'jayev bilan suhbat. 22.10.2012-yil.

<sup>3</sup> O'sha suhbat.

Har bir inson o'z hayoti davomida ezgulik yo'lida qilgan mehnati besamar ketmaydi, albatta, meva beradi. Shu nuqtai nazardan N.To'laxo'jayevning o'zbek kinosi rivoji yo'lida qilayotgan ezgu ishlari o'z mevasini bermoqda. Avvalo u tomoshabin mehr-muhabbatini qozonishga muvaffaq bo'ldi. Bu san'atkor uchun muhimdir.



*"Olma daraxti ertaklari" animatsion filmi (1975-yil).*

N.To'laxo'jayev rejissor va ssenarist sifatida "Sahrodagi ko'l" (1979), "Olma daraxti haqida ertak" (1980), "G'o'za nihollari" (1981), "Sanam" (1982), "Kuchukcha va yetti g'oz" (1983), "Mayin yomg'ir yog'adi" (1984), "Qiyofa" (1992), "Daladagi gullar" (1993), "Alpomish" (6 qism-1998), "Qush" (2006), "Ark" (2007), "Meshkobning baxti" (2008), "Lochin ovi" (2009), "Bukri oshiq" (2010), "Farhod va Shirin" (2011), "Shiroq haqida afsona" (2011), "Uchar tulpor" (2012) kabi falsafiy yo'nalishdagi animatsion filmlarni ekranlashtirgan. Bu orqali u o'zbek milliy multiplikatsiyasida katta yoshdagi tomoshabinlar doirasiga mo'ljallangan ijod mahsullarini yaratishni yo'lga qo'ydi. Uning multfilmlarida falsafiy fikr birinchi planga chiqadi. Jumladan, ijodiy faoliyatining ilk davrlarida postanovka qilingan "Mayin yomg'ir yog'adi" ("Будет ласковый дождь") bunga misol bo'la oladi. Filmda



*"Alpomish" animatsion filmi (1998-yil).*

butun insoniyatga taalluqli bo'lgan masalalar ko'tarilgani uchun ham u boshqa davlatlarda muvaffaqiyat bilan kutib olindi. Film 1984-yilda Germaniyaning Leypsig shahrida o'tkazilgan xalqaro kino festivalda "Oltin kaplar" mukofotini qo'lga kiritadi. Shuningdek, 1985-yilda Ispaniyaning Bilbao shahrida o'tkazilgan xalqaro kinofestivalda "Kumush Mikeldi" mukofotiga, Belarusiyaning Minsk shahrida o'tkazilgan tanlovda "Birinchi sovrin"ga sazovor bo'ladi. 1986-yilda London, Yugoslaviya va Fransiya o'tkazilgan xalqaro tanlovlarda maxsus diplomlar va sovrinlarga sazovor bo'ladi.

Bugungi kunda o'zbek kino san'ati yanada rivojlanish

bosqichidadir. Uning rivojiga juda ko'p ijodkorlar o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Nozim To'laxo'jayevning bugungi kunga qadar ijro etgan rollari, postanovka qiligan animatsion filmlari milliy va xalqaro festivallarda e'tirofga sazovor bo'lib kelmoqda. U 2009-yilda rejissor Yolqin To'ychiyevning "Ilova" badiiy filmida bosh rolni ijro etdi. Mazkur film 2011-yilda Fransiyaning Vezul shahrida o'tkazilgan "Osiyo kinosi" XVII xalqaro kinofestivalida Osiyoning 20 dan ortiq davlatlarining 90 ga yaqin filmlari orasida Gran-Pri – "Oltin velosiped" mukofotiga hamda Osiyo kinosini rivojlantirish xalqaro tarmog'i tomonidan ta'sis etilgan festival hay'atining "NETRAC" va Parij Sharq san'ati muzeyining Emil Guymet nomidagi "GUIMET" maxsus sovrinlariga sazovor bo'ldi. Filmni bunday yutuqlarga erishishida aktyorning ijodiy hissasi kattadir. Uning "Oltin kabutar" multiplikatsion filmi Germaniyaning Leypsig shahrida bo'lib o'tgan xalqaro kinoanjumanda "Gran-pri" mukofotiga sazovor bo'lgan. Undan tashqari Yugoslaviya, Angliya, Fransiya, Yaponiya davlatlarida ham maxsus mukofotlarni qo'lga kiritgan. 2010-yilda uning "Bukri oshiq" multiplikatsion filmi Moskvada o'tkazilgan "Oltin Vityaz" xalqaro kinofestivalda "Eng yaxshi multfilm" nominatsiyasi bo'yicha mukofotni qo'lga kiritdi.

Uning har bir rolni ijro etishda mas'uliyat bilan yondashishi, kasbiga bo'lgan sadoqati, mehnatlari munosib taqdirlanib kelmoqda. Jumladan, 1997-yil "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoniga sazovor bo'lgan. "O'tov" filmidagi ota roli bilan 2008-yil Anapadagi "Kinoshok" xalqaro festivalda "Eng yaxshi erkak roli uchun" nominatsiyasi bo'yicha g'olib topildi hamda shu yili M&TVA mukofoti sovrindori bo'ldi. 2010-yilda "Bukri oshiq" multiplikatsion filmi Moskvada o'tkazilgan "Золотой витьяз" xalqaro

kinofestivalda "Eng yaxshi multfilm" nominatsiyasi bo'yicha mukofotni qo'lga kiritdi. Shuningdek, rejissor 2010-yilda mumtoz adabiyot namunalaridan foydalanib, "Farhod va Shirin" dostoni asosida multiplikatsion filmni yaratdi. Film Alisher Navoiyning "Xamsa" asari asosida suratga olingan. San'atkor 2011-yil respublikamiz mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, "O'zbekkino" milliy agentligi va O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan o'tkazilgan "Istiqlol solnomasi" tanlovida birinchi mukofotni qo'lga kiritdi. Toshkentda 2011-yilda bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda "Ilova" badiiy filmidagi ijrosi "Eng yaxshi erkak" roli uchun "OLTIN GEPARD" bosh mukofotiga sazovor bo'ldi.

Nozim To'laxo'jayev rejissorlik va aktyorlik faoliyati bilan bir qatorda tashkiliy jarayonlarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, Style.uz san'at haftaligi doirasida o'tkazilib kelinayotgan "Oltin gepard" kinoforumida 2011-yilda animatsion filmlar hay'at raisi va art direktori, 2012-yilda tashkil etilgan kino festivalda art direktor sifatida faoliyat yuritgan. Ijodkor bugungi yutuqlarga erishishida san'atkorona muhitda ulg'aygani sabab albatta. Shuningdek, o'zbek va rus teatr-kino san'ati maktabini o'tagani, ijod yo'lida muhim ahamiyat kasb yetgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda yosh aktyor va rejissor kadrlarni tayyorlashda, Nozim To'laxo'jayevning tajribasini amalda tatbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Bizda ham talabalarga ta'lim berishda xorij davlatlar bilan hamkorlik o'rnatish ayni muddaodir.

Ustoz san'atkorning o'zbek kino san'ati rivojiga qo'shgan hissasi benazir. Nozim To'laxo'jayevdek zabardast ijodkorlar bor ekan, milliy teatr va kino san'atimiz yanada gullab-yashnashda davom etadi.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: "O'zbekiston", 1999. – B 95.
2. Akbarov H. Adabiyot va kino. – T: "Fan", 1981.
3. Aliyev M. Kino asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1993.
4. Muhammedov M. Rejissura asoslari. – T.: O'zDSMI, 2008.
5. Туркин В. «Драматургия и кино». – Москва: ВГИК, 2007.

## AKTYOR IJROSIDA KOMEDIK OBRAZLARINING SAHNA VA EKRANDAGI IN'IKOSI (ERKIN KOMILOV IJODI MISOLIDA)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston xalq artisti E.Komilovning komediya janridagi asarlar qahramonlari ijrosidagi o'ziga xos yondashuvlar haqida so'z boradi. Mazkur masala sobiq Hamza teatrida rejissor P.Vasilyev tomonidan sahnalashtirilgan A.N.Ostrovskiyning "Har to'kida bir ayb" komediyasidagi Glumov va muallif Sh.Boshbekov, rejissor I.Ergashevning "Yuzsiz" filmidagi Begimkul obrazlarining tahlili orqali ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** aktyor, obraz, ijro, komediya, janr, spektakl, film.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОМЕДИЙНЫХ ОБРАЗОВ НА СЦЕНЕ И ЭКРАНЕ В АКТЕРСКОМ ИСПОЛНЕНИИ (НА ПРИМЕРЕ ИСПОЛНЕНИЯ РОЛЕЙ ЭРКИНОМ КАМИЛОВЫМ)

**Аннотация.** В данной статье речь ведется об своеобразной интерпретации героев произведений комедийного жанра Народным артистом Узбекистана Э.Комиловым. Данный вопрос раскрывается с помощью анализа образов Глумова в комедии "У каждого мудреца довольно простоты" А.Н.Островского, инсценированный режиссером П.Васильевым в бывшем театре Хамзы и Бегимкула в фильме "Юзсиз" режиссера И.Эргашева и автора Ш.Башибекова.

**Ключевые слова:** актер, образ, исполнение, комедия, жанр, спектакль, фильм.

## INTERPRETATION OF COMEDIC IMAGES ON THE STAGE AND SCREEN IN THE ACTOR'S PERFORMANCE (ON THE EXAMPLE OF THE PERFORMANCE OF ROLES BY ERKIN KAMILOV)

**Annotation.** In this article, we are talking about a peculiar interpretation of the heroes of the works of the comedy genre by the People's Artist E. Kamilov. This issue is revealed by analyzing the images of Glumov in the comedy "Every wise man has quite a simplicity" by A.N. Ostrovsky, staged by director P. Vasilyev in the former theater of Khamza and Begimkul in the film "Yuzsiz" directed by I. Ergashev and author Sh. Bashbekov.

**Key words:** actor, image, performance, comedy, genre, play, film.

Erkin Komilov teatrdagi faoliyatining dastlabki yillarida komediya janridagi asarlar asosidagi spektakllarda naqadar o'zini "uyidagidek his etishi"ni ko'rsata bildi. U komik qahramonlarning ichiga shu qadar kirib ketadiki, natijada uning har bir qadami, imo-ishoralari, so'zlashuv ohangi, hatto o'zini jiddiy tutishida ham kulgi paydo bo'ladi. A.N.Ostrovskiyning "Har to'kida bir ayb" komediyasidagi Yegor Dmitrich Glumov obrazi bilan aktyor ana shunday uyg'unlik kasb etdi.

Rus klassik dramaturglari orasida komediograf sifatida tanilgan A.N.Ostrovskiyning ijodi rus milliy teatri rivojining muhim bosqichiga aylandi. Uning pyesalarida oddiy insonlar bilan bog'liq oddiy voqealar tasvirlangan. A.N.Ostrovskiy nafaqat dramaturg, balki rus teatri islohotchisi sifatida zamonaviy ko'rinishdagi teatr bilan bog'liq ko'plab fikr va g'oyalarni ilgari surgan. Uning mulohazalarining mantiqiy yakuni K.S.Stanislavskiy va M.A.Bulgakov tomonidan yuzaga chiqarilgan. A.N.Ostrovskiy asar va spektakl muvaffaqiyatida aktyorlarning muhim roli haqida ham fikr yuritarkan, shunday ta'kidlaydi: "Yaxshi pyesa ommaga yoqib, katta muvaffaqiyatga erishishi mumkin, biroq yomon ijro etilsa, repertuarda ko'p turmaydi: tomoshabin teatrga yaxshi pyesaning yaxshi ijrosini ko'rish

uchun keladi, pyesaning o'zi uchun emas... Spektaklning qiziqarliligini ta'minlash murakkab ish: unda pyesa ham, ijro ham birdek muhim. Agar unisi ham, bunisi ham a'lo bo'lsa, spektakl qiziqarli bo'ladi; ikkisidan biri yomon bo'lsa, u o'ziga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi" [2.243]. Shuning uchun ham u o'z pyesalarining postanovkalariga alohida ahamiyat qaratgan. Balki shuning uchun ham uning asarlari o'z vaqtida Aleksandrinskiy, Maliy, Mariinskiy singari rus zaminining yirik teatrlarida muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgan.

Uning "Har to'kida bir ayb" komediyasida oddiy va kambag'al, biroq ustasifarang yigitning boyib ketish hamda obro'li shaxslar jamiyatiga qo'shilish maqsadida rus hukumatining siyosiy va iqtisodiy elitasi vakillarini chuv tushirishi bilan bog'liq voqealar aks etgan. Mazkur asar ham muallif yashagan va undan keyingi davrlarda nafaqat Rossiya o'lkasi, balki Magdeburg, Kardiff, Nyu-York, Bazel, Dehli kabi yirik shaharlarning teatrlarida katta muvaffaqiyat bilan sahna yuzini ko'rgan. Bunday muvaffaqiyat asarda ko'tarilgan masalalar umuminsoniy xarakterga egaligidan dalolat beradi, uning bosh qahramoni Yegor Dmitrich Glumov esa turli zamonlarda va turli xalqlar orasida uchraydigan tipik qiyofaligini isbot etadi. Glumov

A.Ostrovskiy dramaturgiyasidagi surbetlik falsafasini ongli ravishda hayotiy e'tiqodiga aylantirgan yagona personajdir. Aslida mazkur qahramonning familiyasi obrazning mag'zi va tavsifini o'zida namoyon etadi. Rus tilidagi "glumitsya" so'zi "masxaralash, mayna qilish" ma'nolarini anglatadi.

1982-yili ushbu pyesa sobiq Hamza teatrida rejissor P.Vasilyev tomonidan sahnalashtirildi. Spektakl mahoratli aktyorlarning o'ta jonli ijrosi tufayli qiziqarli va tomoshabop postanovkaga aylandi. Bosh qahramon Glumov ham E.Komilovning ijrosida yorqin obraz bo'lib sahnada aks etdi. Aktyor ijrosidagi "Glumov yon-atrofidagi muhit qonun-qoidalariga amal qiluvchi samimiy obraz. U munofiq ham, hukmron doiralarning malayi ham emas. Glumov shaxsiyatini qaror toptirish yo'llarini axtarish bilan mashg'ul, hayot bergan shunday imkoniyatni qo'ldan chiqarmoqchi emas. Bu obraz spektaklda uddaburon, ustasifarang safsataboz, dadil, hurfikr, amalparast, diplomat sifatida taassurot qoldiradi" [3.163].

Aslida xorijiy klassik asarlar asosidagi spektaklda rol o'ynash qiziqarli va mas'uliyatli. Qiziqarli tomoni ijroda umuman o'zga zamon, o'zga jamiyat, o'zga muhit kishisining xarakteri va ruhiyatini tadqiq etish jarayonida o'z ifodasini topsa, mas'uliyatliligi ana shu jarayon natijasi sifatida sahnada gavdalanadigan obrazning naqadar to'laqonli aks etishida ko'rinadi. Klassik asar obrazi to'laqonli aks etishi uchun aktyor ana shu davr odami singari fikrlashi, xatti-harakat qilishi, so'zlashi, o'z navbatida qahramonning suvrati va siyrati, maqsadi zamonaviy aks etishiga erishishi lozim. Bu murakkab vazifa. Klassik asar komediya janrida bo'lsa, unda aktyor uchun murakkablik ikki hissa ortadi.

"Har to'kisda bir ayb" spektaklining ilk sahnasida Glumov – E.Komilov XIX asrga xos frakda paydo bo'ladi. Uning yuz-ko'zlaridan savodlilik alomatlari sezilib turadi. Aktyor o'z qahramonini dastlab asabiy, ko'ngli bezovta, nimalarnidir reja qilayotgan holatda ko'rsatadi. Oyisi bilan so'zlashuvida Glumovning ruhiyatidagi ana shu holatlar zikriga ko'chadi. Bir qarashda tartibli, sipo ko'ringan yigit naqadar ichidan pishgan manfaatparast shaxsligi asta-sekin ayon bo'la boshlaydi. Glumov – E.Komilov o'z xarakteridagi asosiy xususiyatlarini oyisi Glafira Klimovna – I.Boltayeva bilan suhbatda so'zlaganacha aniq ko'rsatib beradi. U: "Menda makkorlik, toshyuraklik, hasadgo'ylik bor", deydi. Glumov mazkur salbiy xislatlari o'z maqsadi tomon og'ishmay borishida yetarli deb hisoblaydi hamda ularni aql va g'azab bilan qurollantirgan holda, "issiq o'rin va boy kelin"ga erishish yo'lida harakatini boshlaydi.

Glumov maqsadini ro'yobga chiqarish uchun yaltoqlik, xushomadgo'ylik bilan jamiyat elitasining pinjiga kirib, ishonchini qozonishga jur'at qiladi, bunda u oddiy, ammo kuchli ta'sir qiluvchi vosita, ya'ni dag'al va betakalluf tilyog'lamalikni qo'llaydi. Ana shu elita vakillari bilan munosabatlarda Glumov o'zida munofqlik bilan bog'liq ajoyib qobiliyati borligini kashf etadi. U soxta qiyofasini bemashaqqat o'zgartiradi, chunki qalbining ortida biror qimmatli, ahamiyatli hech narsa yo'q. Glumov shu qadar aql bilan ish ko'radiki, eng oliy maqsadga erishish uchun darrov "baland dorga osilmaydi", balki zinama-zina

ko'tarilib boradi. Buning uchun o'zi va elita orasida aloqani yuzaga keltirish uchun ularning xizmatkorlari, yugurdaklari kabi "mayda-chuyda vositachilar"ni arzimagan chaqalar bilan sotib oladi va ishga soladi. Bunda uning naqadar uzoqni ko'ruvchi ishbilarmonligi namoyon bo'ladi.

U har bir oqsuyak bilan muomalada ularning tabiati, manfaati, maqsad-muddaosidan kelib chiqib, uddaburonlik bilan tuslanadi. Dastlabki qurbon sifatida Glumov uzoq qarindoshi boy zodagon Nil Fedoseich Mamayevni tanlaydi. Mamayevni o'z uyiga hiyla bilan keltirib olgach, uning barchaga nasihat o'qishni yoqtirishidan foydalanib, o'zidan hayot yo'lida nasihatgo'yga muhtojlik sezuvchi ahmoqni yasab oladi. Mamayev – T.Oripov bilan ilk suhbat sahnasida E.Komilov haddan ziyod yuvosh, hech narsani tushunmaydigan omi, ko'ngilchan shaxs qiyofasini mahorat bilan aks ettiradi: ora-orada xo'rsinishlar bilan go'yoki jamiyatda o'rnini topa olmayotgani uchun ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganini, nigohini yerga qaratib yumshoq so'zlashganacha naqadar uyatchanligini ko'rsatadi, to'g'ridan-to'g'ri "men aqlsizman" deganacha ojizligini namoyon etadi. Mamayev bu yigitda "tekis yozish" iste'dodi borligini va unga qarindoshligini anglagach, shu bilan birga undan avval shu uyga kelib- ketgan suyuqlik jiyani Kurchayev tomonidan Mamayevni mazax qilib chizilgan karikaturani ko'rgach, Glumovga beixtiyor mehr qo'yadi. Shu tariqa Glumov uning ishongan va yangi suyuqlik jiyaniga aylanadi. Bu muvaffaqiyat uchun qo'yilgan katta qadamligini Glumov – E.Komilov yarq etib yongan nigohi bilan ifodalaydi.

Mamayevning zavjasi Kleopatra Lvovna Mamayevaning oldida Glumov o'zini tamomila o'zgacha tutadi. Kleopatra Lvovna personajining tabiatida fransuz yozuvchisi Onore de Balzak o'zining "O'ttiz yoshli ayol" romanida gavdalanirgan bosh qahramon xarakteri bilan muvofiqlik ko'zga tashlanadi. Bir so'z bilan aytganda "balzak yoshidagi" bu ayolning ko'nglini qanday olish mumkin? Glumov bu savolga osonlik bilan javob topadi va uning uchun salkam romantik jazmaniga aylanadi. Ikkisining suhbat sahnasi e'tiborni jalb qiladi. Dastlab bu yosh yigit dilidagi ishqni oshkor etishini kutayotgan Kleopatra Lvovna – Y.Abdullayeva unga intiladi. Glumov – E.Komilov esa o'zini istihola qilayotgandek ko'rsatib, olib qochadi. Oldiga o'tirganida Kleopatra Lvovna uning sochini silarkan, Glumov – E.Komilov hayajonlanayotgandek titrab qo'yadi. E.Komilov o'z qahramonidagi bunday soxta kechinmalarni entikib so'zlash, ko'zlarini uning nigohlaridan yashirish, uyalib yerga qarash bilan ifodalarkan, Glumov fe'l-atvoridagi hatto his-hayajonlarni ham qalbakilashтира olish qobiliyatini namoyon etadi. U ayol qarshisidagi yigitning mehriga, bir bora bo'lsa-da bag'riga bosishiga juda zoriqqanligini anglaganidan so'nggina Glumov butun ehtirosini to'kib-sochadi va o'zini uning quchog'iga tashlaydi. Glumov o'zini muhabbat bog'iga endigina kirgan yigitcha misol tutib, qalbi sevgiga tashna bu ayolni zabt etadi.

E'tiborli to'ralardan bo'lgan Gorodulinning zamon urfiga amal qilib, liberal sifatida dong taratganidan foydalanib, Glumov uning qarshisida ilg'or frazeologiya sohibi

sifatida namoyon bo'ladi. Glumov – E.Komilov Gorodulin – Yo.Ahmedov bilan suhbatda chiroyli so'zlarni shu qadar marjon bilan teradi-ki, natijada suhbatdoshi uning so'zlariga mahliyo bo'lib qoladi. U beixtiyor Glumovning laganbardorlikni qoralashi bilan bog'liq soxta iqroriga ishonadi. Glumov – E.Komilov Mamayev – T.Oripovga qanchalik o'zini ojiz banda qilib ko'rsatsa, Gorodulin – Yo.Ahmedov qarshisida ancha tetik, tili burro-burro, aniq hayotiy pozitsiyasiga ega shaxs qiyofasiga o'ta osonlik bilan kiradi. Gorodulin qarshisidagi yigit o'zi uchun qanchalik kerakli insonligini anglaydi, uni oldinda yorqin kelajak kutajakligini ich-ichidan his etadi. Shuning uchun ham u Glumovni o'zining ishongan odami sanab, unga hukumat darajasidagi lavozimlarni va'da qiladi.

Yana bir juda ham e'tiborli to'ralardan bo'lgan, qariya itxilofchi Krutitskiy uchun esa Glumov o'zini taraqqiyot dushmani, talabchan terminologiya bilimdoni sifatida tanishtiradi. Krutitskiy hukumatdagi yangi islohotlarni qoralab yozgan qoramalarni Glumov juda chiroyli so'zlar bilan oqqa ko'chirib beradi. Glumov – E.Komilov Krutitskiy – Z.Muhammadjonov qarshisida o'zini o'ta dono qilib ko'rsatadi. Undan avvalgi qahramonlar bilan suhbat jarayonlaridan farqli Glumov – E.Komilov uning oldida o'zini jiddiy, mulohazakor, vazmin tutadi va mehrini qozonadi.

Asarning yana bir qahramoni – savdogarlar avlodidan bo'lgan badavlat beva ayol Sofya Ignatyevna Turusining uchiga chiqqan bid'atparastligi ham Glumovga qo'l keladi. Uning jiyani Mashenkaga uylandi, birdan boy oqsuyakka aylanishni maqsad bilgan Glumov folbinlik bilan bog'liq eng qora va bema'ni e'tiqodga naqadar sodiq muxlisligini ko'rsatadi. U bilan uchrashuvdan avval Glumov haqida Krutitskiy, Mamayev va Gorodulindan juda a'lo ta'rif-u tavsiflarni eshitgan hamda o'zining va uning ilohiy qarashlari o'rtasidagi "uyg'unlikni" sezgan Turusina unga nisbatan "kuyov bo'lishga arziydigan yigit" degan hukmni chiqaradi.

Mazkur sahnalarda Glumov – E.Komilov istalgan kishining tabiatiga moslasha olish va uning qalbiga yo'l topa olish qobiliyatini namoyon etib, naqadar orsiz mug'ombirligini isbot etadi. O'tkir mushohadalilik va odamlar haqida aniq xulosalar chiqarish iste'dodi unga o'zining pastkashligini harakatda muvaffaqiyatli qo'llashga yordam beradi. U odamlarni mazax qilarkan, xulq-atvoridagi oshkora surbetlik bilan qarshisidagi kishilarning zaifligini mubolag'a ostiga oladi. Glumov – E.Komilov xarakteridagi yuqorida qayd etilgan salbiy xislatlarini shu tariqa sinab ko'radi: ko'nglining tub-tubida shakllangan hasadgo'ylik uni toshyurakka aylantirgani tufayli makkorlik bilan barchani laqillatadi.

U barcha qilmishlarini, odamlar ustidan masxaralarini kundaligiga yozib boradi. Kundaligi uning uchun qanchalik keyingi avlodga qoldiradigan qimmatbaho xazina bo'lgan bo'lsa, shu qadar eng katta xatosiga aylanadi. Aynan mazkur o'zining shaxsiy "solnomasi" tufayli uning shitob bilan yuksaklikka parvoz etayotgan martabasi kutilmaganda yerga qulaydi. Uning kundaligini topib olgan Kleopatra Lvovna barchaga Glumovning kirdikorlarini

fosh etadi. Qahramonlarning har biri o'zi haqidagi masxarali ta'riflarni eshitgach, Glumovni yo'qotish payiga tushadilar. Ammo Glumov – E.Komilov ularning oldiga kelarkan, shu paytgacha mazaxlanib kelgan har bir shaxsning asl qiyofasini shafqatsizlarcha ochib tashlaydi. Aktyor ushbu sahnada qahramonning "haqiqiy meni"ni namoyon etib, qat'iy va qattiq so'zlaydi, asli ular riyokor, axloqsiz, pastkash odamlarligini isbot etadi. Shu tariqa u qahramonlarcha sahnani tark etarkan, aldanganlarning bari Glumovdek ayyor, biroq to'g'riso'z odamlar naqadar kerakli ekanligini, ular o'ta xavfli, ammo zaruriy qurolligini anglab yetadilar.

Glumov obrazida E.Komilov jamiyat qusuri shaxsiy nuqsonga aylanishini tadqiq etadi. Biror yuksak maqsad va g'oyaga ega bo'lmagan battol aql hamda behuda iste'dod uning qalbini zaharlaydi, oqibatda u uncha-muncha razil shaxsiga aylanadi. Aynan qalbidagi pastkashlik Glumov – E.Komilovni xarakterli qiyofa kasb etishiga sabab bo'ladi. Aktyor qahramonidagi buqalamunlik xususiyatini tana plastikasi, so'zlashuvdagi turlicha ohang, ifodaviy nigohlar bilan yorqin aks ettirdi, o'z maqsadi va manfaati yo'lida har ishga tayyor bo'lgan qabih kishi qiyofasini namoyon qildi, past tabaqadan aslzodalik tomon yuqorilash jarayonida o'z qahramoni ongu shuurida yuzaga keladigan ishonch va qat'iylikni haqqoniy ko'rsatib bera oldi. Glumov obrazi aktyorning yorqin va tabiiy ijrosi sababli sahnada to'laqonli gavdalandi.

E.Komilovning 1990-yillar boshi ekran san'atidagi ijodiga nazar solinsa, bir-biriga o'xshamaydigan turli xarakterga ega obrazlarni gavdalandirganiga guvoh bo'lamiz. Aktyor goh jiddiy, insofli, haqiqatgo'y kishini ijro etgan bo'lsa, goh xushchaqchaq, ayollarga "suyagi yo'q", bezbet inson bo'lib ekranda gavdalandi. Ana shunday rollaridan biri "Yuzsiz" badiiy filmidagi Begimquldir.

Yozuvchi Sh.Boshbekov ssenariysi asosida rejissor I.Ergashev tomonidan 1992-yili suratga olingan mazkur film yuzida tug'ma nuqsanlar bilan dunyoga kelgan, xunukligi tufayli jamiyatda o'z o'rnini topa olmay qiynaladigan inson taqdiri, kechmishlari, ichki olami haqida ba'zan yengil yumor, ba'zan hazin ruhiyat bilan so'zlaydi. Aslida badiiy film teng ikkiga bo'lingandek tasavvur uyg'otadi. Filmning deyarli yarmi kulgili voqealarga boy o'tsa, ikkinchi yarmida Begimqulning o'y-ziddiyatlari jiddiy ohangda yangraydi.

Aktyor E.Komilov Begimqul obrazining xarakterini yosh bolalardek shumtakalik, quvnoqlik, hazilkashlik bilan chizadi. Ammo bunday shodonlik ortida Begimqul – E.Komilovning yuzidagi katta nuqsani, qing'ir-qiyshiq tishlari, beo'xshov burni, xullas tashqi ko'rinishidagi badburushlik oqibatida shakllangan norozilik yashiringani anglanadi. U yolg'iz qolgan paytida undagi norozilik yuzaga qalqib chiqadi. Xususan, badiiy filmning ilk epizodlaridan birida u ijarada turadigan uydagi xonasiga kirib, oynadagi aksiga razm solarkan, birdan jazavaga tushib, ana shu oynani sindiradi. Film rassomi F.Akromov tomonidan Begimqul yashaydigan xonaning devorlariga turli maymunlar, yana allaqanday maxluqlarning suratları ilib tashlangan bo'lib, bu bosh qahramonning xarakter xususiyatini ravshanroq aks ettiradi. Ana shu xona faqatgina bir tomondan



tushirilgan chiroq yordamida xira yorug' holatda bo'lib, bu orqali rejissor I.Ergashev va operator Sh.Nurmuhammedov mazkur obrazning zulmat ichida qolgan qalbini ifodalaydi. Begimqul – E.Komilov ham devorlardagi g'alati suratlar orasida karavotda o'tirarkan, ich-etini yemirayotgan o'y-fikrlari og'ushida unsiz qoladi.

Qahramonning ustidagi liboslari ham e'tiborli. Begimqul – E.Komilov doimo boshida shlyapa kiyib yuradi, go'yo bu bilan yuzidagi nuqsonni boshqalardan yashirishga urinayotgandek, kiyimlari pala-partish kiyilgan, go'yo biroz bukchaygan tanasini berkitishga intilayotgandek. U ko'chada yolg'iz ketayotganida tinch yurmaydi, nima qilsaki odamlarga jabr yetkazsa. Bir qarasa, qo'shnilar devor suvash uchun tayyorlayotgan loyning suvini chiqarib yuboradi, yana bir qarasa, ko'cha o'rtasidagi quduqning qopqog'ini qiya ochib qo'yadi. Uning qilg'iliklari tufayli odamlar tinchini yo'qotganini ko'rib esa ich-ichidan rohatlanadi, qilgan ishidan zavqlanadi. Yana o'lganning ustiga tepgandek, "Sizlarga yordam berardim-u, boshlig'im ozgina kech qolgan xodimni rosa urishadi", deya gapirib, xursandlikdan yosh bolalardek sakrab-sakrab o'tib ketadi. Begimqul – E.Komilov mulozamatni ham qoyillatadi. Xususan, Bosh muharrirning oldidan chiqayotganida, "Xo'p bo'ladi" deya qo'li ko'ksida, gavdasini egib, orti bilan yurib chiqadi. Shuningdek, u tahririyatdagi doimo kiyim to'qib o'tiradigan hamkasbi Sanobar opa – R.Ahmedovaga, "Sizni tushimda ko'rdim, bir bog'da, boshingizda o'rik gullaridan gulchambar taqib yuribsiz", deya hayajon bilan xushomad qilish orqali undan qarzga pul undiradi.

Begimqul – E.Komilov atrofidagi tashqi xunuklikdan yiroq bo'lgan insonlar ustidan kulgancha, ularga ochiqchasiga hasad qiladi. O'zi ishlaydigan tahririyatdagi xodimaga, "Sizga vitamin S kerak" deb har kuni sabzi beraveradi, tepa sochi to'kilgan yana bir hamkasbi Tolib Karimovichga esa taroq sovg'a qilaveradi. Tolib Karimovich – H.Nurmatovning bunga nisbatan norozi ohangdagi so'zlariga Begimqul – E.Komilov, "Mana men avval antenna olib, keyin televizor sotib olganman. Shu singari siz ham taroqni oling, soch ham chiqib qolar", deya javob berib uning ustidan batarroq kuladi. Uning bu qadar bezbetligi tufayli ham kasbdoshlari unga ortiqcha qarshilik ko'rsatmaydilar, birinchidan, buning foydasi yo'qligini ular yaxshi tushunadilar, ikkinchidan, bunday aqli noqis kishidan xafa bo'lish o'rinsiz deb biladilar, har holda ular Begimqulni shunday esi past deb hisoblaydilar. Begimqul – E.Komilovning devonasifat xatti-harakatlari atrofda qilarning shunday xulosaga kelishiga sabab bo'ladi.

Biroq uning aqli raso, u yaxshi, qalami bor jurnalist. Buni Bosh muharrir yaxshi anglagani uchun ham uni ishdan hamon bo'shatmagan, hatto yaqindagina ishga kirgan xodima uning ustidan arz qilib kirsam ham.

Tahririyatga yangi kelgan xodima qiz Kumush – Y.Hamidova Begimqul – E.Komilovni butunlay aqldan ozdirgandek go'yo. U Kumushning suluv chehrasi va kelishgan qaddi-qomatiga mahliyo. Begimqul – E.Komilov unga shu qadar mulozamat qila boshlaydiki, oqibatda bu tegajog'likka aylanib ketadi va Kumush – Y.Hamidovaning g'ashiga tegadi. Aslida Begimqul barcha ayollarga shunday munosabatda bo'ladi. Bosh muharrirning kotibasiga ham, ko'chada qizini bog'chaga olib ketayotgan ayolga ham, poyezddagi hamroh ayolga ham. Uning bunday suyuqligi bejiz emas. Axir yoshi 40 dan o'tgan Begimqul umri bino bo'libdi-ki, hech qachon hech kimni sevmagan, va ayniqsa o'zi sevimli. Ammo bu tuyg'uni bir bora bo'lsa-da, his etgisi keladi. Bir tomondan, ayollar bilan hech sevgi bog'iga kirmagani sababli ham ularga qanday muomala qilsa to'g'ri bo'lishini bilmaydi. Ikkinchi tomondan, hech bir ayol hech qachon u bilan jiddiy ma'noda gaplashishni istamasligini Begimqul yaxshi biladi va shuning uchun ham ularga xushomadgo'ylik qilishdan ortmaydi.

Kumushning tug'ilgan kuni epizodida Begimqul ichidagi dardini barchaga oshkor qiladi. Ko'p qavatli uyning xonadonida yashaydigan Kumush – Y.Hamidova tahririyatdagi hamkasblarini o'z tavallud ayyomiga chaqirgan. Barcha stol atrofida yig'ilib, shod-xurramlik qilayapti. Faqatgina Begimqul – E.Komilov naridagi kresloda yolg'iz o'tirib, ularni zimdan kuzatayapti, ayniqsa, o'ziga oro bergani va go'zal liboslarni kiygani uchun yanada ochilib ketgan Kumush – Y.Hamidovani. Shu onda qahramonning ko'nglida kechayotgan g'alayonlarni aktyor betoqat o'tirishi, atrofga olazarak qarashlari, og'ir nafas olishi bilan ifodalaydi. U kreslo oldidagi jurnal stolida turgan gazetada plastik jarrohlik amaliyoti bo'yicha e'lonni ko'rib qolganida uning betoqatligi yanada oshadi. Hamkasblari uning uylanmayotgani haqida gapira ketganida esa Begimqul – E.Komilovning ichida yonayotgan g'alayonlar tashiga vulqon bo'lib otilladi. Uning hamkasblariga qarata: "Siz menga singlingizni berarmidingiz?", "Siz qizingizni menga berarmidingiz?", "Kumush, siz menga turmushga chiqarmidingiz?" deya ichki dardi, kechinmalarini namoyon qilarkan, ushbu alam va o'kinch aralash aytilgan so'zlarda Begimqul – E.Komilovning "Meni ham yashashga, sevishga, baxtli bo'lishga haqqim borku" degan fikri ilg'anadi.

Ushbu epizoddan so'ng, bosh qahramonning xarakterida keskin o'zgarish yuz beradi. Aktyor qahramonining ichki kechinmalarini o'ychan, xomush, ruhiy bezovta holatlari bilan ifoda etadi. Qo'lida doimo ko'tarib yuradigan eski papkasini otib yuborishi uning o'z hayotini yangilashga qaror qilganidan dalolat beradi. Ijarada turadigan uyga kelib, ana shu uying egasi bo'lgan ko'zi ojiz Kampir – R.Ibrohimovaga ijara pulini berarkan, ushbu pullar saqlanadigan qopchaga ma'noli nazar tashlaydi, shu onda Begimqul – E.Komilovning ongida plastik jarrohlik uchun bir umr ishlasa ham pul topa olmasligini hamda shu qop

uning joniga oro kirishi haqidagi o'y bir zum paydo bo'ladi. Buni aktyor chaqnoq nigohi ila aks ettira olgan. U pulni o'g'irlab ketarkan, ortidan Kampir – R.Ibrohimova la'nat-u qarq'ishlagancha qoladi. Birovning mol-mulki orqali rohat-farog'at topib bo'lmasligini Begimqul xayoliga ham keltirmaydi.

U bu paytda o'zga shaharda sarmast holda yurardi. Plastik jarrohlikdan so'ng tiniqlashgan va ko'rkamlashgan yuziga qararkan, undagi ana shu sarxush holati yanada oshadi, nigohida ham mamnunlik aks etadi. Biroz bukchayib yurishga o'rgangan Begimqul – E.Komilov endi qaddini tik tutib, labida biroz tabassum bilan yura boshlaydi. Hatto uning kiyinish uslubigacha o'zgaradi: endi almisoqdan qolgan shlyapa yo'q, sochlari taralgan, egnida ham ohori to'kilmagan jinsi kurtka va shim. Begimqul – E.Komilov ancha navqiron ko'rinishga ega bo'ldi, ancha zamonaviylashdi, ancha ko'rkamlashdi. Mana endi qizlarning dodini beradi, baxti ham ochiladi, jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'ladi, degan o'y-fikr va maqsad bilan yashay boshlaydi.

Begimqulning ushbu maqsadi shu darajada tez amalga oshadi-ki, bunday kutilmagan baxtdan u o'zini yo'qotib qo'yay deydi: Toshkentga qaytayotganida u poyezd kupesida bir ayol – G.Zulqarnayevani uchratadi, unga uylanadi, uning amaldor otasi – N.Rahimov esa Begimqul – E.Komilovni o'zi ishlab yurgan tahririyatga bosh muharrir etib tayinlanishiga sababchi bo'ladi. Ammo tez yongan olov tez so'ngani kabi Begimqul – E.Komilov ayoliga bo'lgan tuyg'usi so'nadi, qaynotasi esa uning yolg'onchiligini bilib, uydan haydaydi, shu tariqa yashin tezligida kelgan baxt shunday tezlikda yo'q bo'ladi. Shu ondan boshlab, Begimqul – E.Komilov baxt ko'rkam tashqi ko'rinishda emasligini anglay boshlaydi, u yanada o'ychan, xomush, dilshikast qiyofaga kiradi.

Bosh muharrir bo'lib kelgan tahririyatdagi hamkasblari ichida birgina Kumush – Y.Hamidova uni taniydi, uning ko'zlari ayon etadi. Begimqul Kumushning uyiga kelib, u bilan suhbatlashishi obrazning yechimiga ham, filmning g'oyasi ochilishiga ham sabab bo'lgan. Begimqul – E.Komilov baxt haqida so'zlarkan, uning ko'zlaridan duv-duv yosh oqadi, titroqli ovozlari bilan qalbidagi kechinmalarni, o'y-xayollarini so'zlaydi, iqbolga erishmoqchi bo'lib, aslida baxtsizlik jari yoqasiga kelib

qolganini anglaydi. Kumush – Y.Hamidovning birgina gapi uni batamom sindiradi: “Sizning gunohingiz – qalbingizning xunukligida”. Ha, insonning agar qalbi xunuk bo'lsa, u har qancha tashqi ko'rinishini go'zallashtirmasin, buning foydasi yo'q.

Begimqul – E.Komilov shuni anglagancha ko'chada bedor yurarkan, bir paytlar tashlab yuborgan eski papkasiga duch keladi, bu bilan film ijodkorlari bosh qahramonning hayoti baribir o'zgarmaganiga ishora qiladi. Quduqning temir qopqog'ini qiya ochgan holda birovlariga tayyorlab yurishga o'rgangan chohga o'zi tushishi, shu tufayli yana yuzini xunuk holga keltiruvchi katta chandiqlik paydo bo'lishi Begimqul – E.Komilovni batamom ruhan yakson etadi.

Hayotda faqat hasad bilan shukr qilmay yashash, birovlarining rizq-nasibasiga ega chiqqan holda maqsadiga erishishga intilish, baxtni faqat jismi xushro'ylik va moddiyat bilan o'lchash kabi illatlarni o'z xarakterida mujassamlashtirgan, odamlar bilan nosamimiyat va g'ayirlik ila munosabatda bo'lib, uning jamiyatda o'z o'rmini topa olmasligiga butun odamzot aybdordek fikr yuritadigan inson qiyofasini aktyor E.Komilov yashirin ichki ziddiyatlar, gohida mutoyibaga moyil muomala, gohida esa hazin o'y-sukutlar, birovga suqlanib qarashlar, har bir xatti-harakati va imo-ishoralaridagi norozilik bilan ifoda etdi. Uning Begimquli, balki shunday salbiy xarakterga egadir. Biroq aktyor obrazning haqiqatini izlarkan, bosh qahramon bunday illatlarga o'z-o'zidan ega bo'lmaganini anglaydi. Darhaqiqat, Begimqul tug'ilishi bilanoq taqdiri ayanchli boshlangan. Uning xunuk ko'rinishi tufayli bolaligida uni hech kim suymagan, erkalamagan, unga mehr bermagan. Shuning uchun ham u shunday bag'ritosh bo'lib ulg'aygan. Ammo uning ham qalbi bor! Ne uchun ana shu qalb bilan hech kimning ishi yo'q?! Aktyor E.Komilov o'zi gavdalanirgan obrazda yuzaga kelgan mazkur savolni har bir xatti-harakatida, ba'zan yumorga boy, ba'zan ichki kechinmalari ifodalangan so'zlarida aks ettira olgan. Hech kimning ishi yo'q bo'lgan, mehr ko'rmagan qalb albatta sovib, toshga aylanganidek, Begimqul ham ko'ngli majruh kishi bo'lib qolgan. Shuning uchun ham tomoshabin uning bunday qismati uchun achinadi. Avvaliga undan jirkansada, uning dardini anglagach, uni deb qayg'uradi.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мухтаров И. Театр и его актеры. – Ташкент: “Фан”, 1989.
2. Островский А. Н. Полное собрание сочинений: в 12 т. / Под общей редакцией Г. Н. Владыкина и др. – Москва: «Искусство», 1973-1978. – Том 10.
3. Rahmonov M., To'lxo'jayeva M., Muxtorov E. O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: 2003.
4. Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi. – T.: “ART-PRESS” Co.Ltd, 2010.





# VIII BO' LIM

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Sahobiddin XUDAYBERDIYEV,  
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri v.b.

### MAHALLA KUTUBXONALARINI AVTOMATLASHTIRISHDA MS EXCEL DASTURIDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada MS Excel dasturi yordamida uncha katta bo'lmagan kutubxonalarda kutubxonachilik faoliyatini avtomatlashtirish masalalari qalamga olingan..

**Kalit so'zlar:** kutubxona, kitob fondlar, kitobxonlar, avtomatlashtirilgan ish o'rinlari, MS Excel, elektron jadval.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММЫ MS EXCEL ДЛЯ АВТОМАТИЗАЦИИ НЕБОЛЬШИХ БИБЛИОТЕК

**Аннотация.** В данной статье речь идет об автоматизации библиотечно-информационной деятельности в небольших библиотеках с помощью MS Excel.

**Ключевые слова:** библиотека, книжные фонды, читатели, автоматизированные рабочие места, MS Excel, электронная таблица.

### USING MS EXCEL TO AUTOMATE SMALL LIBRARIES

**Abstract.** This article deals with the automation of library and information activities in small libraries using MS Excel.

**Key words:** library, book collections, readers, workstations, MS Excel, electronic spreadsheet.



Ma'lumki, hozirgi kunda O'zbekiston Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida” 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida, yurtimizning juda ko'plab shaharlarida, viloyat va tumanlarida “Mahalla kutubxonalarini” barpo etilmoqda. Ushbu qarorda aholiga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, kutubxona-axborot muassalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida, bir qancha vazifalar belgilangan. Shu vazifalarning 1-bandida birinchi bo'lib “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishi va zamonaviy umumjaxon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish” vazifasi qo'yilgan [1].

Hozirgi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi, kutubxona-axborot faoliyati sohasida ham zamonaviy kompyuter texnika va texnologiyalarining yutuqlari kirib bormoqda. Kutubxonalarning ish samaradorligini, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirishning asosiy omili kutubxonadagi ish o'rinlarini avtomatlashtirish hisoblanadi. Ma'lumki, katta kutubxonalar o'zlarining avtomatlashtirilgan ish o'rinlarini shakllantiruvchi kutubxona-axborot tizimlariga ega va ular kutubxona ishini samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Yuqoridagi qarorga binoan joylarda tashkil etilayotgan mahalla kutubxonalarida bunday tizimlar mavjud emas. Chunki bunday kutubxona-axborot tizimlari yetarli darajada murakkab strukturaga ega bo'lishi bilan birga qimmatbaho hamdir. Shuning uchun ularni sotib olish va ishga tushirish mahalla kutubxonalaridan katta mablag' talab etadi, ularda esa katta mablag' mavjud emas. Bu muammoning yechimi

sifatida bunday kutubxonalarda qo'llasa bo'ladigan kichik kutubxona-axborot tizimlari yaratish masalalarini ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida ushbu masalani MS Excel dasturidan foydalanib yechishga harakat qilingan.

MS Excel dasturi muhitida kutubxona-axborot faoliyatini avtomatlashtirish – bu mahalla kutubxonalarida kitob fondlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar bazasi tashkil etish va ulardan foydalangan holda avtomatlashtirilgan ish o'rinlari yaratishdir. Bu avtomatlashtirilgan ish o'rinlari kitobxonlarga kitob berish va qaytarib olish xizmatlarini yaxshilash, kerakli kitoblarni fond ro'yxatidan tez topish kabi jarayonlarni elektron jadvallar asosida qog'ozsiz tashkil etish imkonini beradi. Bu tizim hozirgi kunda ishlatilayotgan qog'ozli texnologiyaga qaraganda bir qancha ustunlikka ega. Tizim asosida kutubxonadagi kitoblar va kitobxonlar bo'yicha statistik ma'lumotlar olish, kitoblarni ro'yxatga kiritish, kitobxonlarga kitob berish va qaytib olish jarayonlarini osongina amalga oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida kutubxona xodimlarini ishlarini yengillashtirish orqali kitobxonlarga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Kutubxona-axborot faoliyati ishini ma'lum bir obyekt sifatida funksional tahlil qilish orqali kutubxona-axborot tizimi modeliga kutubxonaning quyidagi funksiyalarini kiritish maqsadga muvofiq:

- kutubxonaga kelgan yangi kitoblarni kutubxona fondi bazasiga qo'shish;
- kitobxonlarga kitob berish va uni qaytarib olishni qayd etish;
- umumiy fondan kitoblarni chiqarib tashlash va boshqasi bilan almashtirish;

- kitobxonlarga berilgan kitoblar ro'yxatini olish va kitobxonlar qo'lidagi kitoblarni aniqlash;
- kutubxona xodimiga kitobxon olgan kitoblarning narxlarini chiqarib berish;
- kitobxonlarni qarzdorligini aniqlash va kitobni qaytarish muddatidan o'tib ketganligi bo'yicha kitob narxi asosida jarimalar solish;

Mahalla kutubxonalarini avtomatlashtirishga qaratilgan kutubxona-axborot tizimi modelini yaratishda yuqorida qayd etilgan funksiyalarni bajarilishi e'tiborga olinadi.

MS Excel dasturida mahalla kutubxonalariga tegishli ma'lumotlarni saqlaydigan "Kutubxona" nomli ish kitobi yaratiladi va unda beshta ish varog'i hosil qilinib, ularni mos ravishda yuqorida keltirilgan bo'limlar nomi bilan ataladi. Bu ish kitobini keyingi o'rinlarda "Kutubxona" ma'lumotlar bazasi deb ataladi. "Kutubxona" ma'lumotlar bazasi modelini relyatsion model ko'rinishida ifodalab unda o'zaro bog'langan jadvallar yaratiladi. Ular haqida to'liqroq ma'lumotlar quyida jadvallarni modellashtirish jarayonida rasmlar va formulalar orqali keltiriladi.

Birinchi navbatda har bir kutubxona o'zining kitob fondiga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda kitob fondi deganda nashr qilingan va ma'lumot tashuvchilardagi axborot resurslari majmui tushuniladi. Excel dasturida "Kutubxona" ma'lumotlar bazasida "Kitob fondi" deb nomlanuvchi elektron jadval modelini quyidagi ko'rinishida tasvirlaymiz.

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K
Inventar raqam	Kitob nomi	Muallifi	Nashriyot nomi	Nashr yili	Boshlang'ich narxi	Qimmatlik koeffitsient	Kitobning umumiy narxi	Almashtirilganligi	Kitob soati	Kitobni olgan kitobxon qatori
3	Shum bola	G'ofur G'ulom	Toshkent	2018	10000		10000		3	15
4	Sariq devni minibi	Xudayberdi To'ktayev	Sharq	2011	29000		29000		2	10
5	Ufq	Said Aamad	O'qituvchi	2009	10000		10000		4	16
6	Nur borki soya boi	O'zbek Koshimov	Toshkent	1995	12000		12000		6	4
7	Ikki eshik orasi	O'zbek Koshimov	Sharq	1997	13000		13000	11	1	16
1	O'tgan kunlar	Abdulla Qodiriy	Fan va ta'lim	1998	23000	0,2	4600		6	
2	Muxabbatnoma	Erkin Xo'jayev	O'qituvchi	1999	18000		18000		7	
8	Sariq devni minibi	Xudayberdi To'ktayev	Fan va ta'lim	2001	11000		11000		8	14
9	Daryoning ishlari	O'zbek Koshimov	O'qituvchi	2006	9000		9000		2	7
10	Sar'at ta'limida axborot texnologiyalari	S.A.Xudayberdiyev	Fan va ta'lim	2021	15000		15000		50	6
11	Ikki eshik orasi	O'zbek Koshimov	O'qituvchi	2021	25000		25000		5	
12	Zindonband qiz notasi	Azamat Qorjonov	Ijod Press	2016	15000		15000		10	

**1-rasm. "Kitob fondi" elektron jadval modeli.**

Bu yerda A – ustunda kitobning inventar raqamini keltiramiz. Sodda uchun inventar raqamni sonlar orqali beramiz. Umumiy holda bu maydonga kitobning inventar nomeri belgi va raqamlardan iborat unikal ko'rinishda kiritiladi. Ya'ni ikkita bir xil inventar raqam bo'lmasligi kerak.

B, C, D, E – ustunlarga mos ravishda kitob nomi, kitob muallifi, kitobni chop etgan nashriyot nomi, nashr yili kabi qo'shimcha izohli ma'lumotlar talab etmaydigan parametrlar kiritiladi.

F – ustunga esa kitobning boshlang'ich narxi kiritiladi. Bu ma'lumot kitobxon tomonidan yoki boshqa bir sababga ko'ra, kitobga ziyon etganda uni tiklash uchun undiriladigan mablag'ni aniqlashda ishlatiladi.

G – ustunga kiritiladigan kitobning qiymatlik koeffitsienti – bu kitobning holati, uning nusxasi soni (masalan, yagona nusxadagi noyob kitob) va noyobligiga qarab belgilanadigan parametr bo'lib, uning qiymati kitobning holati yaxshi yoki yomonligiga qarab birdan katta yoki kichik bo'lishi mumkin.

H – ustundagi kitobning umumiy narxi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$=ECJIH(C(G2)>0; F2*G2; F2)$$

Formulaga ko'ra kitobning umumiy narxi G ustunning kataklarida son mavjud yoki mavjud emasligiga qarab o'zgaradi. Agar G ustunning kataklarida son mavjud bo'lsa, kitobning umumiy narxi kitobning boshlang'ich narxiga shu sonni ko'paytirish bilan hosil qilinadi [3.201b].

I – ustunda kitobning boshqa kitob bilan almashtirilganligi beriladi. Masalan, kitobxon bir kitobni yoqotib qoydi va uni o'rniga kutubxona xodimi aytgan boshqa bir kitobni olib keldi. Bunday holda bu ustunga almashgan kitobni inventar raqami yozib qoyiladi. 1-rasmga e'tibor bersak, kitobxon inventar raqami 7 ga teng bo'lgan kitobni yo'qotib, uni o'rniga inventar raqami 11ga teng bo'lgan kitob olib kelganini bilamiz. Bundan tashqari kitob fondidagi biron bir kitob fond hisobidan chiqarilgan bo'lsa unda bu ustunga 0 raqami yoziladi.

J – ustunga kitobni olgan kitobxon qatori raqami yoziladi. Bu parametr orqali oxirgi marta kitobni kim olganini aniqlash mumkin. Bu juda zarur parametrlardan biri hisoblanadi, chunki kitob biror kitobxonga juda zarur bo'lib qolsa, uni kimda ekanligi aniqlab, undan kitobni imkon qadar tezroq topshirishi so'raladi. Bu ustun quyidagi formula yordamida avtomatlashtirilgan.

$$=MAKC(((Kitob_berish [1-kitob])=[@ [Inventar raqam]])+(Kitob_berish [2-kitob])=[@ [Inventar raqam]])+(Kitob_berish [3-kitob])=[@ [Inventar raqam]]))*((Kitob_berish [Qaytarish qatori]=0))*(CTPOKA(Kitob_berish [ID raqami])))) – bu formulani kiritish Ctrl+Shift+Enter tugmalarini birgalikda bosish orqali yakunlanadi [2].$$

Bundan tashqari kitob fondida umuman kitobxonlar tomonidan o'qilmagan kitoblarni inventar raqami rangi o'qilgan kitoblarni inventar raqami rangidan to'qroq qora rangda beriladi.

K – ustunga kutubxonaga shu nomli kitobdan nechta olib kelinganligi, ya'ni kitob soni kiritiladi. Bu parametr kitob fondidagi kitoblar sonini aniqlashda muhim sanaladi.

Har qanday kutubxonaning asosiy samaradorlik ko'rsatkichi undagi kitoblar soni va kutubxonaga a'zo bo'lgan kitobxonlar soni bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan kutubxonaga kitobxonlarni a'zo qilish jarayonini avtomatlashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy kutubxonalarda har bir kitobxon uchun maxsus qurilmalar yordamida ID bilet bosmaga chiqarib beriladi. Biz bu yerda har bir kitobxonni kompyuterda qayd etish nuqtai nazaridan ish olib boramiz. Excel dasturida kitobxonlarni qayd yozuvlarini tashkil etish uchun ushbu elektron jadvaldan foydalanamiz.

A	B	C	D	E	F	G
ID raqami	Sana	Ismi-sharifi	Pasport berilganligi	Tug'ilgan sanasi	Yashash manzili	Telefon raqami
7	03.03.2021	Aliyev Vali Soliyevich	AA 2345678	11.12.1996	Mirobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 12-uy.	(99) 345-56-67
10	28.02.2021	Valiyev Ali Mardon o'g'li	AA 8765432	12.09.1997	Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyorat ko'chasi, 27-uy.	(94) 456-09-87
11	20.01.2021	Pardayeva Lola Adham qizi	AB 8765341	13.09.1997	Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyorat ko'chasi, 24-uy.	(93) 123-76-45
20	21.02.2021	Ibranova Soliha Mansur qizi	AA 5678432	12.08.1996	Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyorat ko'chasi, 2-uy.	(93) 123-67-45
13	23.01.2022	Bo'riyeva Anora talom qizi	AB 4537467	23.08.1997	Mirobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 1-uy.	(99) 537-74-61
27	24.01.2022	Layliyeva Lola Bekzod qizi	AB 2435467	20.02.1995	Mirobod tumani, Sug'diyona ko'chasi, 10-uy, 11-xonadon	(93) 123-43-45
34	08.09.2021	Ithomova Sanam Alisher qizi	AA 1324356	24.06.1994	Mirobod tumani, Yangi zamon ko'chasi, 14-uy, 47-xonadon	(93) 123-32-45
35	08.11.2021	Karimova Shoisanam Aliber qizi	AA4568909	11.12.2001	Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyorat ko'chasi, 29-uy.	(94) 456-09-88
36	09.11.2021	Rustamova Malohat Diyov qizi	AV 6534231	29.10.2000	Mirobod tumani, Yangi zamon ko'chasi, 15-uy, 4-xonadon	(93) 123-33-44

**2-rasm. "Kitobxonlar" elektron jadval modeli.**

Bu yerda:

\* A ustunga kutubxona xodimi tomonidan kitobxonaga beriladigan unikal (ikkita bir xil raqam bo'lmaydi) ID

raqam yoziladi, bu kitobxonlarni tizimda identifikatsiya qilishda ishtirok etadi;

\* B ustunga kitobxonning kutubxonaga a'zo bo'lgan kunining sanasi yoziladi;

\* C ustunga kitobxonning ismi-sharifi to'liq yoziladi;

\* D ustunga kitobxonning pasporti berilganlari: seriyasi, raqami va boshqa berilganlarni yozish mumkin;

\* E ustunga kitobxonning tug'ilgan sanasi yoziladi. Bu ustunni modelga kiritilishining asosiy sababi kutubxonadan qaysi yoshdagi kitobxonlar ko'proq foydalanayotganini aniqlash hamda kutubxonada xodimlari tomonidan kitob tavsiya etishda yoshiga e'tibor berishdir;

\* F ustunga kitobxonning doimiy yashash manzili yoziladi. Bu kitobxon bilan telefon orqali aloqa qilishni imkoni yo'q bo'lib qolganda uning doimiy yashash manziliga tegishli xat chiqarish uchun kerak bo'ladi.

\* G ustunga kitobxonning qo'l telefon raqami yoziladi. Bu kitobxon kitobni o'z vaqtida topshirmaganda yoki boshqa shu sabablarda bog'lanish imkonini beradi.

Kitob berish jarayonini avtomatlashtirish kitobxonaga ko'rsatiladigan xizmatni samaradorligini oshirish bilan birga, kutubxonada berilgan kitoblar haqidagi ma'lumotlarni saqlash va undan foydalanish imkonini beradi. Kitob berish jarayonini avtomatlashtirish uchun quyidagi elektron jadval modeli tavsiya etiladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H	I
1	ID raqami	Ismi-sharifi	Berilgan sana	Qaytarish sanasi	1 kitob	2 kitob	3 kitob	Qaytarish qatori	Qarzdorligi
2	11	Pardayeva Lola Adham qizi	20.01.2021	30.01.2021	8	9	10	2	
3	20	Ikramova Soliha Mansur qizi	21.02.2021	03.03.2021	1	2		3	
4	11	Pardayeva Lola Adham qizi	19.02.2021	01.03.2021	6			0	Q
5	13	Bo'riyeva Anora Islom qizi	23.01.2022	02.02.2022	10		5	0	Q
6	20	Ikramova Soliha Mansur qizi	26.02.2021	08.03.2021	2	3		5	
7	10	Valiyev Ali Mardon o'g'li	28.02.2021	10.03.2021	9			0	Q
8	7	Aliyev Vali Soliyevich	03.03.2021	13.03.2021	4			4	
9	34	Iltomova Sanam Alisher qizi	08.09.2022	18.09.2022	1	8	7	6	
10	11	Pardayeva Lola Adham qizi	05.04.2021	15.04.2021	4	3		0	Q

### 3-rasm. "Kitob berish" elektron jadval modeli.

Bu yerda:

A – ustunda kitobxonni a'zolik biletidagi ID raqami keltirilgan bo'lib, u kutubxonada xodimi tomonidan kitob berish chog'ida yoziladi.

B – ustunda kitobxonning ismi-sharifi quyidagi formula yordamida ID raqamiga mos holda "Kitobxonlar" jadvalidan avtomatik tarzda olinadi:

=BIP([@[ID raqami]];Kitobxonlar;3;0).

C – ustunga kitob berilgan sana kutubxonaning xodimi tomonidan kitobxonaga kitob berish vaqtida yoziladi. Bunda sanani tez yozish uchun "CTRL" tugmasini bosib turgan holda ";" (nuqta-vergul) tugmasi bosiladi.

D – ustundagi kitobni qaytarish sanasi kutubxonada olingan kitoblar uchun qoyilgan muddatga qarab quyidagi formula asosida avtomatik tarzda yoziladi.

=ECLII([@[Berilgan sana]]<>"";DATAMEC([@[Berilgan sana]];0)+10;"") – bu formulada ko'ra kitobni qaytarish muddati 10 kun deb belgilangan.

E, F, G – ustunlardagi "1-kitob", "2-kitob", "3-kitob" maydonlarga mos ravishda kitobxon olgan kitoblarning inventar raqamlari yoziladi. Odatda har bir kutubxonada kitobxonlarga kitob berish tartibi joriy etiladi. Unga ko'ra bir kitobxonaga bir kunda nechta kitob olish imkonligi aniqlanadi. Bu modelda bir kitobxon bir kunda ko'pi bilan 3ta kitob olishi mumkin bo'lgan holat tasvirlangan.

H – ustundagi "Qaytarish qatori" maydoniga "Kitobni qaytarish" jadvalidagi kitobxon tomonidan qaytarilgan ma'lumot yozilgan satr nomeri quyidagi formula orqali avtomatik tarzda yoziladi:

{=МИН(ЕСЛИ((Kitob\_qaytarish[ID raqami]=[@[ID raqami]])\*(Kitob\_qaytarish [Qaytarilgan sana]>@[Berilgan sana]))>0;CTPOKA(Kitob\_qaytarish[ID raqami]))} – bu formulani kiritish "Ctrl+Shift+Enter" tugmalarini birgalikda bosish orqali yakunlanadi.

"Qaytarish qatori" maydoniga ma'lumotlar yordamida kitobxon kitobni o'z vaqtida yoki muddatidan o'tib topshirganligini aniqlash bilan birga qarzdor kitobxonlar haqida ham ma'lumot olish va ularga kitobni qaytarish kerakligi haqida SMS xabarlar jo'natish ishlarini ham amalga oshirish mumkin.

I – ustunga kitobxon kitobni o'z vaqtida topshirmaganini anglatuvchi "Q" – qarzdor belgisi avtomatik tarzda ushbu formula yordamida yoziladi:

=ЕСЛИ(И([@[Qaytarish sanasi]]<СЕГОДНЯ());[@[Qaytarish qatori]]=0);"Q";"")

Umuman ushbu model bo'yicha kitob berish jarayoni avtomatlashtirish orqali kitobxonaga ko'rsatiladigan xizmat sifati oshishi bilan birga kitob fondidagi kitoblarni harakatini boshqarish imkoniyati ham paydo bo'ladi.

Kutubxonada kitobxonlar tomonidan olingan kitoblarni o'z vaqtida qaytarilishini nazorat qilish, muddatidan o'tib qaytarilgan kitoblar uchun kitobxonlarga nisbatan jarimalar solish yoki ogohlantirishlar berish kabi tadbirlar kutubxonada kitoblarni boshqarish samaradorligini oshishiga olib keladi. Bu jarayonlarni boshqarishni yengillashtirishning asosiy yo'li berilgan kitoblarni qaytib olish jarayonini avtomatlashtirishdir.

Kutubxonada kitobxonlardan kitoblarni qayta qabul qiluvchi xodimning ish o'rnini avtomatlashtirish maqsadida, quyidagi Excel dasturi elektron jadvali modeli taklif etiladi:

	A	B	C	D	E	F	G
1	ID raqami	Ismi-sharifi	Inventar raqam	Qaytarilgan sana	Kitob berish qatori	Muddatidan o'tganligi	Jarima
2	11	Pardayeva Lola Adham qizi	8	19.02.2021	2	0	
3	20	Ikramova Soliha Mansur qizi	1	26.02.2021	3	5	
4	7	Aliyev Vali Soliyevich	4	03.04.2021	8	0	
5	20	Ikramova Soliha Mansur qizi	2	25.03.2021	6	0	
6	34	Iltomova Sanam Alisher qizi	1	06.04.2021	9	1	
7							

### 4-rasm. "Kitobni qaytarish" elektron jadval modeli.

Kutubxonada xodimi kitobni qabul qilish jarayonida kitobxonni a'zolik biletini raqami, ya'ni ID raqamni, topshirilgan kitobning inventar raqami va qaytarilgan sana kiritiladi. Qolgan maydonlar qiymatlari quyidagi formulalar orqali avtomatik tarzda jadvalga yoziladi:

B – ustunga kitobxonning ID raqami orqali "Kitobxonlar" jadvalidan quyidagi formula bilan olingan ism-sharif yoziladi:

=BIP([@[ID raqami]];Kitobxonlar;3;0)

E – ustunga kitobxonni kitobni qachon olganligi va yana qanday kitoblar olganligini aniqlash imkonini beruvchi "Kitob berish qatori" nomli parametr quyidagi formula yordamida olinadi:

{=МАКС((@[ID raqami]]=Kitob\_berish[[ID raqami]])\*CTPOKA(Kitob\_berish[[ID raqami]])\*([@[Qaytarilgan sana]]>Kitob\_berish[Berilgan sana]))}

F – ustunga kitobxon olgan kitobini o'z vaqtida

topshirdimi yoki muddatini o'tkazib topshirdimi, shuni ko'rsatuvchi ushbu formula yordamida hisoblanuvchi qiymat yoziladi:

=ЕСЛИ([@[Qaytarilgan sana]]>ИНДЕКС(Kitob\_berish[Qaytarish sanasi];@[Kitob berish qatori]]-1);Целое([@[Qaytarish sanasi]]-ИНДЕКС(Kitob\_berish[Qaytarish sanasi];@[Kitob berish qatori]]-1));0)

G – ustunga kitobxon olgan kitobni o'z vaqida topshirmagan holatda kutubxonaning kitob berish va qaytarib olish qoidalari asosida jarima yoki ogohlantirish beriladi. Bu ma'lumot kutubxonachi tomonidan

yoziladi. Masalan, kutubxonada kitob olish va topshirish qoidasida kitobni topshirish muddatidan 10 kun o'tganda ogohlantirish, 10 kundan ko'p bo'lsa ma'lum miqdorda jarima tortish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida bayon etilganlar asosida uncha katta bo'lmagan maktab, mahalla, tashkilot kutubxonalarining axborot faoliyatini avtomatlashtirish va bu orqali kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kitob fondini boshqarish, kutubxona-axborot faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar olish kabilarni tez va samarali tarzda amalga oshirish mumkin bo'ladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:


1. "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019-yildagi PQ-4354-son qarori.
2. Pangin A. Model "Elektronnaya biblioteka" v Excel. Kompyuterniye instrumenti v obrazovanii, (2014). (6).
3. Xudayberdiyev S.A. San'at ta'limida axborot texnologiyalari (o'quv qo'llanma). – Toshkent.: 2021.



- vizual va audio effektlarning o'zaro muloqotli dasturiy ta'minot boshqaruvida birgalikda nomoyon bo'lishi;

Odatda bu matn, tovush va grafikaning, so'nggi vaqtlarda esa animatsiya va videoning ham birlashishini bildiradi. Multimedia WEB bog'lamalari va ixcham disklarning tavsifi, agar eng muhimi bo'lmasa, xususiyatli – giper murojaatlardir.

Videotasvir va tovush bilan ishlash uchun apparatli va dasturiy vositalar majmui – multimediaga ega kompyuterlar odatda kuchli videotizimga, videomagnitafon va videokamerani qo'shish imkoniyatiga, tasvirni ushlab va uni raqamli shaklda qattiq magnit diskka yozishning apparatli vositalari, tasvirni ustiga qo'shish vositalariga ega. Shuning bilan bir qatorda, ular tovushni aks ettirish va uning sintezi uchun tovush platasiga, axborotni ixcham diskdan o'qish uchun uzatmaga, akustik tizimni qo'shish imkoniyatlariga egadir. Multimedia birgalikda tasvirlarga ishlov berish, nutqni qayta ishlash va hujjatlarga ishlov berishni ta'minlaydi. Bu ekranda tasvirni matn va tovush bilan birgalikda chiqarish imkonini beradi. Multimedianing muhim yo'nalishlaridan biri o'rgatuvchi tizimlarni yaratishdir.



### Elektron o'quv qo'llanma

Bu foydalanuvchining multimediada faol ishlashda ishlatilayotgan axborotning 75 foizini eslashi bilan bog'liq. Faqat eshutilgan axborotdan esa foydalanuvchi 25 foizini eslab qolishi mumkin [3].

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- b) ta'lim olishning yangi sohalar bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- v) ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi;
- g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotga qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimediali o'qitish, o'qitishning an'anaviy usullariga qaraganda quyidagi afzalliklarga egadir:

- o'quv materialni chuqur va mukammal o'rgatadi;
- foydalanuvchiga ta'limni istalgan paytda (masalan, bo'sh vaqtlarida) olish imkonini beradi;
- mul'timediali materiallar o'quvchining xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi;
- foydalanuvchiga o'zi xohlagan o'quv yurtining ta'lim tizimi bilan tanishish imkonini beradi;
- Hozirgi paytda multimediali o'qitishning distant usuli keng qo'llanilmoqda [4].

Bu usul o'z navbatida quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Iteraktiv texnologiyalar va iteraktiv bo'lmagan texnologiyalar. Iteraktiv texnologiyalar o'qitish ikki tomonlama muloqot tarzda olib boriladi va quyidagi usul va vositalardan tashkil topadi:

- audiokonferensiyalar;
- videokonferensiyalar;
- ish stolidagi videokonferensiyalar;
- elektron konferensiyalar;
- ovoz kommunikatsiyalari;
- ikki tomonlama sun'iy yo'ldosh aloqasi;
- virtual borliq.

Iteraktiv bo'lmagan texnologiyalarga quyidagi usullar va vositalar kiradi:

- bosma materiallar;
- audiokassetalar;
- videokassetalar;
- bir tomonlama sun'iy yo'ldosh aloqasi;
- televideniye va radio ko'rsatuvlar;



- disketalar, CD-ROM va DVD disklari.

### Multimediada foydalanadigan iteraktiv texnologiya turlari

Ta'lim berishdagi distant usulining quyidagi afzalliklari, bu usulning jahon bo'ylab keng tarqalishiga sabab bo'ldi:

- o'qitishning ijodiy muhiti. Bunday muhitda o'quvchilar istalgan ma'lumotlar bazasidan o'zlariga kerakli barcha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga egadir. Masofadan turib mutaxassislar bilan muloqot qilishi, ulardan maslahatlar olish hamda boshqa o'quvchilar bilan tajriba almashish mumkin;
- mustaqil ta'lim olish imkoniyatining borligi. Distant usulida ta'lim berish boshlang'ich, o'rta, universitet, sirtqi, kechki va malaka olish bosqichlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar shaxsiy dars jadvallari asosida ta'lim olishi mumkin;
- ish joydagi katta o'zgarishlar. Ish joyi zamonaviy elektron qurilmalar bilan jihozlangan bo'ladi. Bilim olish jarayonida asosiy ishdan uzilib qolmaydi, ish vaqti tejaladi, jug'rofiy va moliyaviy qiyinchiliklar bo'lmaydi [5]. Olgan bilimlarini to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi;
- o'qitish va ta'lim olishning yangi, samarali usullari hamda vositalari bilan tanishish. Bu sohada jahon tajribalari va texnologiyalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

## Ta'lim



Multimedia foydalanuvchiga interaktiv tizimida, ya'ni odam shaxsan o'zi tovush va videobraz yordamida dasturlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Interaktiv texnologiyalar o'qitish ikki tomonlama muloqot tarzda olib borilishini virtual ko'rinishda misol qiladigan bo'lsak:

- immersivlik deganda odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim;
- interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib, ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni deb qabul qilamiz. Interfaollikni ta'minlash uchun virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak [6]. Bu amallar ko'p modallikka, ya'ni ko'z bilan ko'radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo'lishi kerak.

Virtual borliq turlari:

- passiv virtual borliq (passive virtual reality) – inson tomonidan boshqarilmaydigan avtonom grafik tasvirni tovush bilan kuzatilishi;
- tekshiriluvchi virtual borliq chegaralangan miqdorda foydalanuvchiga taqdim qilinadigan ssenariy, tasvir, tovushni tanlash imkoniyatiga ega;
- interfaol virtual borliq treking vazifasini bajara oladigan maxsus qurilma yordamida yaratilgan dunyo qonunlari asosida virtual muhitni foydalanuvchi o'zi boshqara olishidir;
- treking virtual muhitdagi real obyektning joylashishi koordinatalarini (x, y, z) va uni fazoda joylashishi burchaklarini (a, b, g) berishga mo'ljallangan.

Virtual borliq tushunchasini Jaron Lanier (Lanye) taklif etgan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq.

Muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statistik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video – xotira, katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barobar oshirilishi talab etiladi. "Inson – kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudayberdiyev S.A. San'at ta'limida axborot texnologiyalari (o'quv qo'llanma). – Toshkent: 2021.
2. Alimov R.X., Yulchiyeva G.T., Rixsimboyev O.G., Alishov Sh.A. Axborot texnologiyasi va tizimlari (talaba uchun darslik). – T.: 2011.
3. Kurbanova A.T., Mamarajabov M. Informatika (o'quv qo'llanma). – T.: "Tamaddun", 2013.
4. Панюкова С.В. Использование информационных и коммуникационных технологий в образовании. – Москва: "Академия", 2010.
5. Информационные технологии // Под редакцией В.В.Трофимова // – М.: Высшее образование, Юрайт-Издат, 2009.
6. Тихомиров В.П. Массовое онлайн-обучение бросает вызов российской системе образования [Электронный ресурс].
7. Борзых А.А., Горбунов А.С. Виртуальные миры, информационные среды и амбиции e-Learning // Образовательные технологии и общество (Educational Technology & Society). – Т.: 2009. 12.№ 2. – С. 423-437.

# O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi*

**Nashrga tayyorlovchilar:**

G‘ani Xudoyev,  
Faxriddin Abduvohidov,  
Ozoda Shobilolova.

**Sahifalovchi-dizayner:**

Abdug‘ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 22.12.2022-yil Ofset bosma usulda bosildi.  
“Times New Roman” garniturasida. Bichimi 60×841/8.  
Shartli bosma tabog‘i 12,25.  
Buyurtma raqami № 2. Adadi: 165 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
Yalang‘och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal “NISO POLIGRAF” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, “Mashal” mahallasi, Markaz – 1.